

Ilm kelajagimiz  
ravnaqidir

№-1. 2024



# СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР SURKONDARYO: ILM VA TAFAKKUR СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ SURKHANDARYA: SCIENCE AND CONTEMPLATION



СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ҲУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР  
ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ЦЕНТРА РЕГИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ТРАНСФЕРА  
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЦЕНТРА РАЗВИТИЯ НАУКИ И  
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИ

SURKHANDARYA REGIONAL TERRITORIAL INNOVATION ACTIVITY AND TECHNOLOGY  
TRANSFER AND SURKHANDARYO SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE AND  
TECHNOLOGY DEVELOPMENT CENTER

*Илм келажасгимиз равнақидир*

СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР  
SURKHANDARYO: ILM VA TAFAKKUR  
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ  
SURKHANDARYA: SCIENCE AND  
CONTEMPLATION

*Илмий мақолалар журнали*

N-1 2024



ТАЪСИСЧИЛАР;  
СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ХУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР ТРАНСФЕРИ  
МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ  
ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**Ҳар чоракда 1 марта чиқади.**

**Jurnal 25-05-2020 yil. №11-079  
raqami bilan ro'yxatga olingan.**

O'zbekiston Respublikasi OAK ning 2021 yil  
12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati  
asosida ro'yxatga olingan.

Ommaviy axborot vositasi davlat  
ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVONNOMA N-11-079.**

My.gov.uz. Yagona interaktiv. davlat  
xizmatlari portali.  
N 8102-325e-cd96-f50a-53b3-3119-7970

**Hujjat yaratilgan sana: 2020-05-25.**

**Ariza raqami: 19051279.**

**НАШР ИНДЕКСИ 190-111.**

ЖУРНАЛ «ADAD PLYUS» МЧЖ  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани,  
Бунёдкор кўчаси 28-уй.  
Босишга рухсат этилди: 29.04.2024.  
Қоғоз бичими 60x84 1/8.  
Босма табоғи 12,0. Офсет босма.  
Офсет қоғози. Адади 100.  
Баҳоси келишилган нархда.  
Буюртма № 19.

Техник ходимлар:  
**Қаршиев Ислон**  
**Эргашева Сайёра**  
**Раҳмонов Маҳаммади**  
Саҳифаловчи:  
**Қўшоқова Моҳигул**

Таҳририят манзили: Сурхондарё вилояти  
Термиз шаҳри "Баркамол авлод" кўчаси 43 уй.  
tursunovsafullo12@mail.ru  
Тел: 876 223 07 66.  
+99 891 577 90 50,  
+99 894 200 49 55,  
+99 894 466 67 55,  
+99897 695 67 55.

Бош муҳаррир:

Главный редактор:

Chief Editor:

**Турсунов Сайпулла Нарзуллаевич**  
**Тарих фанлари доктори, профессор**  
**Термиз давлат университети**

Бош муҳаррир ўринбосари:

Заместитель главного редактора:

Deputy Chief Editor:

**Пардаев Тошкенбой Раджабович**  
**Тарих фанлари доктори, доцент**  
**Термиз давлат университети**

Журналнинг илмий котиби:

**Файзуллаева Мавлуда Ҳамзаевна тарих фанлари**  
**доктори, доцент Термиз давлат университети**

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

Тошқулов Абдуқодир  
Аскарлов Аҳмадали  
Каримов Соҳибназар  
Муртазоева Раҳбархон  
Сағдуллаев Анатолий  
Воҳидов Шодмон  
Вистор Агаджаниан  
Юнусова Хуршида  
Абдуллаев Улуғбек  
Дониёров Алишер  
Шамсиддинов Рустам  
Обломуродов Наим  
Эшов Баходир  
Саидов Илхом  
Хайитов Шодмон  
Ғаффоров Шокир  
Мусаев Нуриддин  
Бобожонова Дилором  
Абдуллаева Яхшибека  
Эргашева Юлдуз  
Қобулов Эшболта  
Шайдуллаев Шопўлат  
Давлатова Саодат  
Маткаримова Садоқат  
Раҳмонов Фахриддин  
Турсунов Нурулло  
Холмўминов Хусан  
Тилеукулов Гаухар  
Бўриев Очил  
Қурбонова Манзила  
Турсунов Жавли  
Хўшбоқов Панжи  
Раҳимов Баходир  
Акчаев Фаррух  
Усмонов Муртоз

Ирискулов Олимжон

Турсунов Анвар  
Якубова Диларам  
Ботирова Халима  
Аҳмедова Гулчеҳра  
Умаров Иқром  
Исаев Ойбек  
Менглибоев Акмал  
Назирев Бахтиёр  
Мамаражабов Ғайрат  
Дуланов Отабек  
Қаршиев Ислон  
Саидов Бахтиёр

**ЖАМОАТЧИЛИК  
КЕНГАШИ:**

Турдиев Тоштемир  
Алланов Қилич  
Муртазоев Бобоназар  
Ёкубов Шариф  
Туропова Моҳидил  
Қудратов Ғайрат  
Умиркулов Бекпўлат  
Бозорова Муслима



## УСТОЗЛАРДАН ЎРНАК ОЛИБ-УСТОЗГА АЙЛАНГАН КОМИЛ ИНСОН ХОТИРАСИГА



**Турсунов Сайпулла Нарзуллаевич,**  
Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси мудир  
Турон Фанлар академияси академиги, тарих фанлари доктори, профессор  
UDK: 94(575.1)  
e-mail: [tursunovsafullo12@mail.ru](mailto:tursunovsafullo12@mail.ru)  
<https://orcid.org/0009-0005-2553-6164>

Улуғ аждодимиз - ирфон фалсафасининг мумтоз вакиллари билан бири Азизиддин Муҳаммад Насафий айтадиларки, “Дарахтнинг барча камолот босқичлари уруғидадир. Фақат миришкор боғбоннинг тарбияти ва парвариши лозимдир, токи уруғ дарахт бўлиб, рўёбга чиқсин. Шу каби поклик ва гўзал ахлоқ, илм ва маърифат, сир-асрор кашф бўлиши, нурларнинг зуҳури барчаси - инсон зотида мавжуддир. Фақат донишманд суҳбати, тарбият ва парвариш лозимдир, токи булар тўлиқ юзага чиқсин”<sup>1</sup>.

Бу иқтибосни бежиз келтирмадим. Бинобарин, мен ушбу мақоламни садоқатли шогирдим, шогирдларни сардори- тарих фанлари номзоди, доцент Тўхтаев Абдуғани Қиличев хотирасига бағишладим. Айнан у донишмандлар, комил устозлар суҳбатидан баҳра ва баракот, илм ва тарбия олиб, яхши инсон ҳамда забардаст олим сифатида камол топган зиёлиларимиздан бири эди.

<sup>1</sup>Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. Форс тилидан Олим Давлат таржимаси // Тафаккур, 2015, 3-сон. – 74-бет.

Улуғ Термизий аллома Абу Исо Имом ат-Термизий илмни Аллоҳ ва ўз қалбига бағишлаганларга алоҳида эътибор бериб; “Илмга берилган кишилар қанчалик кўп ўқишса, шунчалик кам билишини ҳис этадилар, илмсиз кишилар эса ўзларини доно санашади” деб изоҳ берганда бутун ҳаётини ва ижодини ҳамиша илмга бағишлаган устозга нисбатан айтган ҳақ гап. Инсон илм туфайли буюклик сари илдам қадам ташлаб мақсадга эришади. Менинг кадрдон шогирдим А.Тўхтаев билан илк бор 1982 йилда Термиз давлат педагогика институтида танишганман. Ўшандаги суҳбат жараёнимизда шогирд А.Тўхтаев тарихга шундай баҳо берган эди, барча махлуқотлар ичида фақат инсонга тарих насиб этган, тарих эса инсонларни бошқа махлуқотлардан ўзлигини англаш, ақл фаросатини чархлаб туриш учун ҳаёт чироғи сифатида яратилган деб айтган эдилар.

Республикамизда таниқли тарихчи олим, вилоят ва республика тарих фани ривожига муносиб ҳисса қўшган

Абдуғани Тўхтаев тарих фанини учун муносиб илмий тадқиқотлари билан ўз ҳиссасини қўшди. Тарих фанига шариф (азиз ва мукаррам) лик мақомини бериб, Сурхондарё тарих мактабининг асосчиларидан бирига айланди. Энг муҳими Совет мустабид тузумини миллий камситувчи сиёсати, моддий ва маънавий маданиятини поймол қилган ўзликни англашга қарши олиб борган сиёсатини, ўзбек халқини устига тўкилган тухматдан иборат “Пахта иши”, “Ўзбеклар иши” миллатни камситувчи сиёсатини туб илдизларига қарши чиқа олган, тарихни сохта ёзиш таълимотига ўзини адолатли фикрини айта олган тарихчи, миллатпарвар устоз номини ҳимоя қила оладиган мураббийга айланди.

Шариф бўлиш фақат инсонгагина берилганлиги учун ҳам А.Тўхтаев иймон-этиқодли бўлишни, қалбни поклаш, ирфон соҳиби бўлиш, вақтни ғанимат билиш, беҳуда кетган ҳар бир дақиқа учун афсусланиш, нафс, таъма домига тушмаслик, шайтоний ҳою-ҳавас ва гуноҳ ишлардан узоқда бўлиш каби мажбуриятлар ҳам унинг зиммасига юклаб қўйилди. Тарих фанлари номзоди, доцент Тўхтаев Абдуғани Қиличович жўшқин, ўз сўзидан қайтмайдиган, ҳар қандай шароитда ўзининг ҳақлигини исбот қила оладиган олим, илмда булоқ, устозга кўнгли, шогирдларга талабчан олим бўлиб танилди. А.Тўхтаев раҳбарлик зиналарини бошланғич пойдеворидан бошлаб, ҳар қандай ўнқир-чўнқирларга эътибор берадиган, қадамини билиб босадиган, фан саҳифаларига жиддий қарайдиган, ўйлаган фикрларини обдон текширадиган, етти ўлчаб бир кесадиган, исботни талаб қиладиган кескин тадқиқотчига айланди. Термиз давлат университети ва Термиз давлат педагогика институтининг салоҳиётига муносиб ҳисса қўшган забардаст олим, фан соҳасида катта босимга эга, университетнинг ташкилий-тарбиявий, раҳбарлик салоҳиётига мунтазам ҳисса қўшиб Абдуғани Тўхтаев деган улуғ номга эга бўлди.

Дўстларга меҳрибон, шогирдларига раҳнома бўлиб қандай вазият бўлмасин уларнинг ёнида маслаҳатчи, таянч ва суянчиқ бўлганлиги учун ҳамма дўстлар Абдуғани Тўхтаевни жуда ҳурмат қилади. Тарих фанлари номзоди, доцент Тўхтаев Абдуғани Қиличовичнинг ҳаёт фаолияти чизгиларида шундай ҳикмат бор; “Ўн саккиз минг оламда сон-санови йўқ мавжудотлар орасидан фақат инсонга шундай юксак мақом берилиб, теварак-атрофимиздаги барча жонли-жонсиз нарсалар унга буйсундириб қўйилган экан, бутун вужудимиз билан ва ҳар бир олган нафасимизда Оллоҳга шукроналар қилишимиз керак”. Унинг юрагида эса “Коинотни яратган раҳмли эгам Аллоҳим қайд этган бутун борлиқдан баҳра топиш, файзу-футуҳ олиш ва камолотга эришиш учун инсонга, унинг жисму-жонига ва руҳиятига бетакрор неъматлар ато этилган”.

Абдуғани Тўхтаев қалбида онг, ақл, сўзлаш, кўриш, эшитиш, сезиш, ҳис қилиш, англаш, муаммо, мулоҳаза, тасаввур, тафаккур, фикрлаш ва бошқалар жамланган ибратли ростгуй олим сифатида кенг жамоатчилик ўртасида ҳурматга сазовар бўлди. Абдуғани Тўхтаевнинг дастурхони ва қалби очик, ҳаётда бир маротоба бериладиган имкониятлардан ақл-заковат билан фойдаланиши, ўз умрини нест-нобуд қилмаслиги, инъом этилган имтиёзларни ҳавога совурмаслиги лозим деган инсонийлик тамойлига алоҳида эътибор берар эди.

Буюк аллома Хожа Самандар Термизий изоҳ берганидек; “Азизим қобилиятли кишиларга эътибор бер! Истеъдодсиз кишиларни эса ота-боболарининг хизмати эвази учун. зинҳор ардоқлама”! деган ҳикматга Абдуғани Тўхтаев ҳамиша эътибор берадиган кундалик шиоридир. Тарих фанлари номзоди, доцент Тўхтаев Абдуғани Қиличовичнинг дўстлари ва таниқли олимлар Эшболта Қобулов, Шодмон Воҳидов, Шодмон Ҳайитов, Қаҳрамон Ражабов, Бахтиёр Сафаров, Панжи

Хўшбоқов, Тошкентбой Пардаев, Жовли Турсунов, Соатмўмин Бўриев, Мавлуда Файзуллаева, Хусан Холмўминов, Фахриддин Ёрматов, Баҳодир Раҳимов, Ойбек Исаев каби йирик фан дарғалари олимнинг илмий ютуқларига юқори баҳо берганини таъкидлаш лозим.

Тарих фанлари номзоди, доцент Тўхтаев Абдуғани Қиличович ҳамиша Республика ва воҳа олимлари издоши, ҳамкасблари фикрдоши, ўз шогирдларнинг илҳомчиси, ҳамиша дўст ва баҳсли мунозарали олимлардан бўлиб, Россия, Қозоғистон, Тожикистон олимлари билан мунтазам ҳамкорликда илмий тадқиқотларни амалга оширар эди. Унинг қалбида Хожа Самандар Термизийнинг бир ҳикмати бор;

*”Қадрли дўст! Чин инсон бўлишига интил! Яхши кишилар суҳбатида бўлиб, тажрибанг хазинасини донишмандлик билан бойит”.* Тарих фанлари номзоди, доцент Тўхтаев Абдуғани Қиличович Сурхон тарихининг чинакам шайдоси, юртсевар, илмпарвар ва вилоят тарихи тадқиқотининг жонкуяр фидойиларидан бўлиб, воҳа тарихини ўрганишга муҳим ҳисса қўшган устозга айланган эди. Сурхондарё тарихига бўлган меҳр, унинг ўзига хос сеҳри бу инсонни доимо янги илмий парвозларга ундади, янги илмий изланишларга чорлаб, инсон қалби буюк ва бепоёндр. Олий бахт туйғуларда эмас, балки ақл-идрокда яширин деган ҳикматга амал қилган тарихчи бўлиб етишиб, шоирларга ўрнак бўладиган хотира қолдирди.

Шунинг учун ҳам инсондаги энг олий сифат ақл-идрок ҳисобланади. “Қадр-қимматини билган одам бошқаларнинг ўзидан кўра ақллироқ, илмлироқ ва гўзалроқ бўлишидан чўчимайди. У аслида бошқалардан устунроқ бўлса ҳам, ҳеч қачон ўзини юқори тутмайди”, - деган эди буюк риёзиётчи, тиббиётшунос олим Рене Декарт. Шундай олижаноб инсонлар табиат мўъжизалари ҳисобланади. Билимдон донишмандлар ўз ватанларининг довуғини дунёга ёйган, илм билан юртини бошқа юртларига

танитган. “Кимнинг ким эканлигини билмоқчи бўлсанг, бирга яшаб кўр”, ёки “Сен менга дўстининг ким эканлигини айт, мен сенинг ким эканлигингни айтиб бераман” каби иборалар тилимизда учраб туради. Бу ҳақиқат. Биз ҳар бир инсонда бўлиши мумкин бўлган меҳнатсеварлик, инсонпарварлик, ватанпарварлик, самимий қалб ва камтарлик каби олижаноб фазилатларнинг ҳамда олимларга хос соддадиллик тарих фанлари номзоди, доцент Тўхтаев Абдуғани Қиличовичда мужассам эканлиги менда жуда ҳам чуқур таассурот қолдирган. Ўзининг узок йиллик илмий-педагогик фаолияти давомида Ўзбекистон тарихининг турли долзарб муаммоларига бағишланган 10 та монография, 6 та рисола ва 200 дан ортиқ илмий, илмий-оммабоп мақолалар ҳамда кўплаб дарсликлар, ўқув, ўқув-услубий қўлланмалар яратди. Олимнинг “Жарқўрғон тарихи” биринчи ва иккинчи нашри, “Қумқўрғон тарихи”, “Термиз тумани тарихи”, “Қизирик тарихи”, “Бандихон тарихи”, “Сариосиё-Узун тарихи”, “Ангор тарихи” каби монографиялари жаҳон ва республика тарихчи олимлари томонидан юксак баҳоланди. Абдуғани Тўхтаевга мазкур соҳадаги 40 йиллик педагогик фаолиятида самарали устоз-шогирд мезонига амал қилиб, ўқув-услубий йўналишга ҳақиқий педагогик маҳоратини ишга солиш, илмий ва маънавий ҳаётида ибрат олиш, ташаббускор, изланувчан, янги педагог технологияларни жорий этиш, янгиликни ҳаётда амалий жиҳатдан қўллашга оид илмий лойиҳалари билан танилди.

Умр чексиз деб уйлайдиган одамларга қарата айтадиган гапларга эътибор берган Абдуғани Тўхтаев умр вақт, вақт инсонни кутмайди. Берилган ҳар бир умр ўтаётган вақтга боғлиқ уни қандай ўтказиш фақат инсонни ўзига берилган ақл билан ўлчанади деган нақлга шогирдим амал қилар эди. Мана белгиланган вақт шогирдимни умрига чек қўйди, бироқ олдинда ҳали жуда катта орзу-ниятлар, оилавий туйлари, неварар-

чеварларни тарбиялаш, бошини силаш, уларга оқ йул тилаб дуолар қилиш каби ушалмаган орзулар йўлда тўхтаб қолди.

Мукамал тарих фанига муносиб ҳисса қўшиб келаётган ҳақиқий фан фидойиси, тарихни холисона таҳлил қилаоладиган, манбашунос, танқидий фикрлайдиган, кўплаб дарсликлар, монографиялар, рисоалар ва илмий мақолаларни режалаштирган олимни ўзига бўйсунмаган юраги ўлим олдида таслим бўлди. Тарих-фикр-мия ва таҳлил тарихни давом эттиришга журъат билан киришган Абдуғани Қиличович 2024 йил 27 март куни кутилмаган тарзда оила ва илм аҳлини доғда қолдириб вафот этди. Шогирдим устозларга жуда катта ҳурмат билан қарар, уларга тик бокмас, кек сақламас, кибрга берилмас, бугунги

имкониятларни, мансабларни ўткинчи деб фикирлаган олим эди.

Қалби кенг, элпарвар, меҳнатсевар, маҳалла аҳлини хизматини қилиб келган Абдуғани Қилиевич ўз турмуш ўртоғи билан муносиб турмуш кечириб, ибратли ота, невараларни бобоси сифатида уларни билим ва илм олишга жонкуярлик қилган фидойий бошқарувчи сифатида алоҳида ҳурматга сазовар бўлди.

Хуллас, тарих фанлари номзоди, доцент Тўхтаев Абдуғани Қилиевич босиб ўтган эзгу умр мазмуни деб билган ҳаёти ва ижоди хотирага айланиб, унинг яратган тарихий асарлари асрлароша яшайди ҳамда келажак авлодлар учун муносиб манба бўлиб хизмат қилади. Хотирага айланган олим илми уни жаннатга етаклайди.

## TURKISTON TUB JOY AHOLI VAKILLARINING UMUMROSSIYA VA XALQARO YARMARKALARDAGI ISHTIROKI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

**Hayitov Shodmon Ahmadovich,**  
Buxoro davlat universiteti professori,  
**Jamshid Arziqulov,**  
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
0009-0008-9584-392x  
UDK:94(575.1)(043):332.1

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya xalqaro miqyosda o'tkazilgan yarmarkalarda ruslar bilan birga Turkiston tub joy aholi vakillarining ishtiroki, ular tomonidan tayyorlangan buyumlar haqida turli adabiyotlar va arxiv manbalari asosda tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** yarmarka, Moskva va Toshkent savdo shirkati, Vena (Avstriya-Vengriya) yarmarkasi, Nijniy-Novgorod yarmarkasi, Irbit yarmarkasi, Moskva yarmarkasi, Maxov yarmarkasi, Astraxan yarmarkasi.

**Аннотация:** В данной статье анализируются различные литературные и архивные источники на основе участия представителей коренного населения

Туркестана вместе с русскими в ярмарках, проводившихся на международном уровне в России в конце XIX - начале XX вв. века.

**Ключевые слова:** ярмарка, Московско-Ташкентское торговое общество, Венская (Австро-Венгрия) ярмарка, Нижегородская ярмарка, Ирбитская ярмарка, Московская ярмарка, Маховская ярмарка, Астраханская ярмарка.

**Annotation:** In this article, various literature and archival sources are analyzed on the basis of the participation of representatives of the indigenous population of Turkestan together with Russians in the fairs held at the international level in Russia at the end of the 19th and the beginning of the 20th centuries.

**Key words:** fair, Moscow and Tashkent

trade company, Vienna (Austria-Hungary) fair, Nizhny-Novgorod fair, Irbit fair, Moscow fair, Makhov fair, Astrakhan fair.

Turkiston Rossiya imperiyasi hukmronligi yillarida 7 ta umumrossiya (1867-1913); 10 ta Umumjahon (1873-1914) ko'rgazmalarida ishtirok etdi[1;41-42].

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgandan so'ng, o'lkani tayyor mahsulot o'lkasiga aylantirishga kirishdi. Buning uchun Turkistonda savdo markazlarini tashkil etish uchun, turli tadbirlarni amalga oshirdi.

1869-yilda Moskva va Toshkent savdo shirkati, 185 kishidan iborat rus va o'zbek savdogarlari yarmarkani oshish haqida murojaatnoma qabul qildilar. Buni qo'llab-quvvatlagan Toshkent shahar xo'jalik bo'limi Turkiston general-gubernatorining idorasiga ruxsat so'rab xat yozdi[2;291].

Turkiston general-gubernatori Fan Kaufman 1870-yilda yarmarkani ochishligiga ruxsat berib, mablag' ajratdi. Darhol Polkovnik Gluxovskiy boshchiligida komissiya tuzilib, yarmarkani bir yilda ikki marotaba, ya'ni aprel-may, oktyabr-noyabr oylarida o'tkazishga qaror qilindi.

Tarixiy tadqiqot va manbalarda 1870-1878 yilga qadar o'tkazilgan yarmarkalarda mahalliy aholi vakillarining ishtiroki va ism-shariflari diyarli qayd etilmagan. Mahalliy tadbirkorlar va usta-hunarmandlar taqdim etgan buyumlar haqida fikr yuritish bilan cheklaniladi, xolos.

1872-yil Moskva politexnika ko'rgazmasida Turkiston bo'limi birinchi Kreml bog'ida joylashib, ushbu bog' va binolar sharq uslubida Samarqand shahrida Yalangto'sh Bahodir tomonidan 1610-yilda qurilgan sherdor madrasa joylashgan bozor maydoniga o'xshash bo'lgan.

Moskva politexnika ko'rgazmasi Etnografiya bo'limida turkistonliklarning kiyim-kechaklari, uy-joy nusxalari, o'tov, yurta, maishiy kundalik buyumlari, sopol ko'za, idish-tovoqlari, o'zbek, hind, afg'onlarning ustki xalat va kostyumlari, harbiy qurol-yarog'lar, mehnat qurollaridan o'roq, ketmon, omoch, saldatlar kiyim-kechaklari, oziq-ovqat namunalarining

fotalovhalari qo'yilgan. Ko'rgazmaning qishloq xo'jaligi bo'limini agronom M.Brodovskiy boshqarib, ipak va jun, albatta, birinchi navbatda paxta tolasi, paxta va ipakdan to'qilgan matolar, jundan tikilgan, to'qilgan kiyimlar, gilam va poloslar, dorivor o'simlik keldir (santanino), un, spirt, xmel, aroq, vino, narkotiklar, tamaki, qurilish ashyolari namoyish etilgan. Gul va yovvoyi usuvchi o'simliklar, gilamlar, kanop (asosan Ettisuv viloyatidan) hamda Buxoro va Qo'qon oq hamda turli rangli qog'ozlar ko'rgazma zalini egallagan[3;244-245].

Ko'rgazmaning qishloq xo'jalik va qurilish bo'limida mahalliy Misr va Amerika paxta navlari, paxtani va pillani qayta ishlaydigan stanoklar, g'isht pishiradigan pechlar, o'tov, qop, marmar, ohak, alebastr, yog'och va tokar buyumlar, sopol idishlar, metal buyumlar qo'yilgan. O'simlik yog'i va yog' oladigan stonok, un, ezilgan don (krupa), vino haydash uskunalari, o'simlik va suniy vositalardan oladigan bo'yoqlar, charm, neft, kerosin, paxta yog'i, xalq tabobati dorilari, qorako'l teri va qorako'lcha kabilari ham 1872 yilgi ko'rgazmada namoyish etilgan[10].

1873-yilda Turkiston o'lkasi mollari ilk bor Vena (Avstriya-Vengriya) yarmarkasida namoyish etilib ko'rgazmada ipak, paxta, qand, teri, qorako'l teri, jun, jun mahsulotlari va ilk bor O'rta Osiyo nefti va neft mahsulotlari ko'rgazmaga qo'yildi. 1878-yil Parij (Fransiya) yarmarkasida asosan etnografik buyumlar Turkiston bo'limidan joy oldi.

Tarixiy tadqiqot va manbalarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan yarmarkalarda mahalliy aholi vakillarining ismi shariflari deyarli qayd etilmagan. Mahalliy tadbirkorlar va usta-hunarmandlar taqdim etgan buyumlar haqida fikr yuritish bilan cheklaniladi.

1882-yilda Rossiya yarmarkasi Moskva shahrining qadim maydonida tashkil etilib, undagi Turkiston bo'limidan 25 ta eksponat o'rin olgan. Ushbu bo'limning badiiy sa'nat ko'rgazmasi rastalarida o'lkaning Sirdaryo va Farg'ona viloyatlari hamda Zarafshon o'grugidan buyumlar taqdim etildi. Moskva ko'rgazmasida Turkistonning rus tadbirkorlaridan D.L.Filatov paxta va vino, N.



Ivanov spirt va aroq, pivo, Govrilov tamaki navlarini namoyish etgan. Ko'rgazmada tup joy aholi savdogorlaridan samarqandlik Mirza Buxoriy ipakdan to'qilgan buyumlar, mis lagan, ko'za va idishlar, uzunligi 13 arshin (1 arshin-71 sm) og'irligi 9 pud bo'lgan yirik gilamlar, qandil buyumlar namoyish etgan. Farg'onalik Otaulla mevalarining quritilgan navlari, paxta va ipak buyumlari, milliy hunarmandchilik namunalarini ko'rgazmaga taqdim etdi[1;46-51].

Turkiston turli hududlarida istiqomat qiluvchi o'zbeklar 1885-1886 yillarda mintaqada tashkil etilgan yarmarka-ko'rgazmalarda ham oz sonli bo'lishsada, faol ishtirok etishgan. Jumladan o'zbek tadbirkorlaridan Akrom Asqarov 1886-yil sentyabrda Toshkentda tashkil etilgan ko'rgazmadagi 9 ta bo'limdan uchinchi bo'limini ya'ni "Kustar sanoati"ni I.I.Krauze va Pechenin kabilar bilan ko'rgazmani birga boshqargan.

A.Asqarov va Mira'zim Miryusupovlar (o'zbeklar) o'z buyumlarini namoyish etishlari uchun har birlari bittadan ikkitagacha rastalar qurishgan. Bu rastalar usti yopiq holda va ochiq maydonda joylashgan bo'lib, ulardan nafaqat Toshkent va Samarqandning oddiy hunarmandlari, ipakchi yirik fabrikant Mirzo Buxoriy, Samarqandlik ipak mollari fabrikasi egasi Niyoz Muhammedovlar o'zlari ishlab chiqargan ipak, yarim ipak mollari, baxmal va turli kiyimliklarni ko'rgazmaga qo'yishgan. Buyumlar orasida Samarqand ipak mollari yuqori baholanib, ulardan ko'p miqdorda xarid etilgan.

A.Asqarov va Mira'zim Miryusupovlar 1878, 1885-yillardagi ko'rgazmalarda ham Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Skobelev (Farg'ona), Marg'ilon, Xo'jand, Kattaqo'rg'ondan kelgan vatandoshlarining turli mollari, buyum va tovarlarini namoyish etishda vositachilik qilishgan va jonbozlik ko'rsatishgan. Ayniqsa, ipakchilikka xizmat qiladigan pilla urug'i, ipak qurti, ipak qurtini boqish uchun tut daraxtining bidon, dudona, ilon, erkak, qo'noq, marvarid, balxi, shox, qora, qizil kabi navlarining gerbariyolari, uzumning o'nlab navlari A.Asqarov rastalaridan joy olgan[3;21].

A.Asqarov rastasida behi, qora olxo'ri va qora qaroli, bug'doy navlarining donlari, beda bog'lari, teri, oyoq kiyimlari, etik, sovun kabilar o'rin olgan. A.Asqarov rus tilini yaxshi bilishi va erkin muloqotga kirisha olishi tufayli har bir buyum va mahsulot haqida ko'rgazma qatnashchilariga shaxsan o'zi to'la ma'lumot bera olgan. Hatto, uzum va mevalar tarixiga bag'ishlab arab imlosida yozilgan mahalliy maqolalarni eski o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilgan.

Bundan tashqari A.Asqarovning bog'ida yetishtirilgan 10 ta yevropa uzum navidan tashqari, mahalliy uzum navlari ham parvarishlangan. U Toshkent ko'rgazmalarida namoyish etgan uzum navlari, bir qator tokzorlarga asos solgan.

Uzum tuplarini parvarishlash va urug'dan uzum qalamchalari olishda yuksak tajribaga ega bo'lgan bog'bon, toshkentlik Muhiddinxo'ja Muhammadhalimxo'ja Eshonov plantatsiyalarida yetishtirilgan navlar ham namoyish etilgan. M.M.Eshonov uzum tuplarini parvarishlash, har bir tup uzumni qurishdan ko'rmishga qadar bo'lgan bosqichlari, hosildorlikni oshirish haqida o'zining 23 banddan iborat tavsiyanomasini ishlab chiqqan. Uzum novdalarini qirqish, xom tok qilish, uzum kasalliklariga qarshi kurash bilan bog'liq uning ko'rsatmalari asosida yetishtirilgan uzum mevalari va metodik tavsiya shaklidagi qo'llanmalari ko'rgazma va yarmarkalarda yuqori baholangan. M.M.Eshonov 15 20 yil davomida 1 tupidan 7 pud (110 kgdan ortiq) 1 tanobdan 432 pud, 1 desyatnadan 2700 pudgacha uzum hosili beradigan serhosil navlarni ko'rgazmalarda namoyish etilishini ta'minlagan. Keyinchalik 20 ga yaqin xo'raki va vinobop, oq, qora, qizg'ish mevali uzumlar ko'rgazmalarda M.Eshonov singarilar tufayli yuqori baholangan[4].

1886-yil kuzida Toshkent shahrida o'tkazilgan ko'rgazma Turkistonda qishloq xo'jaligi va sanoatning mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini targ'ib qilishda, Rossiya imperiyasi sanoat va xomashyo bozorini rivojlantirish hamda kengaytirish maqsadiga yo'naltirilgandi. Shuningdek, yevropa va xorij savdogarlari

fikri va e'tiborini Turkistonga qaratish orqali foyda manbaini boyitish, polizchilik, sabzovotchilik bilan keng shug'ullanishni tashkil etish ham ko'zlangandi. Biroq ko'rgazmani tashkil etish va o'tkazishda bir qator nuqsonlar ham ayon bo'lib qoldi. Birinchidan, TQXJning barcha tashabbuslari, istak-intilishlari, maqsadlari uchun to'la imkoniyat yaratilmadi, ikkinchida, ushbu jamiyat ixtiyoriga mukofotlash va qo'shimcha rag'batlantirishga ruxsat berilishi kerakligi inobatga olinmadi, uchinchidan, ko'rgazma g'oliblari uchun ajratilgan mukofotlar salmog'i oz edi, to'rtinchidan, ishtirok istagini bildirganlar, ayniqsa, bir qator tub joy bo'lgan vakillar arznomasi ijobiy qondirilmay qolib ketdi. Bu fikrlarni arxiv hujjatlari tasdiqlaydi. Ko'rgazmada pul mablag'lari yetishmovchiligi barcha rasta va do'konlar dizayinini ta'minlashga to'sqinlik qilgan[11]. Biroq ko'rgazma orqali TQXJ tashkil topganiga bir yil to'lgan 1886-yildayoq, Turkiston mintaqasida qishloq xo'jaligin rivojlantirish va rag'batlantirishda muhim uyushma bo'la olishini ko'rsata olgandi.

1891-yilda Moskvada Maxsus O'rta Osiyo ko'rgazmasi ochilgandi. Ko'rgazmada rus tadbirkorlari qatorida mahalliy kapitalistlar ham ishtirok etdi. Ko'rgazmada Turkistondan keltirilgan yuzlab eksponatlar namoyish etildi. Unda oshxona jihozlari, pichoq, qilich, nayza, qalqon kabi jang qurollari, milliy kiyim-kechaklar, dorivor o'simliklar, dori-darmonlar, qorako'l teri, charm mo'ynalar namoyish etildi. Ayniqsa mahalliy tadbirkor va ishbilarmonlardan A.Gezykov va Muqimbobo Yusupovlarning ishlov berilgan teri va charm mahsulotlari Mirza Barotning dori-darmonlari ko'rgazmaga tashrif buyurganlarda katta qiziqish uyg'otdi. Rus tadbirkorlari Ivanov, Pervushin, Filatovlarning vino, aka-uka Kaminskiylarning o'simlik yog'i, Savinkov antanino (dorivor) o'simlik namoyishi bilan bir qatorda Muqimbobo Yusupov va Mirzo Barot tovarlari yuqori baholandi[5;126-127].

XX asr boshlarida Turkiston tub joy millat vakillarining Rossiy va jahon ko'rgazmalarida ishtirok davom etib, 1902-yilda Rossiya imperiyasi poytaxti Sankt-

Peteburg shahri Tavriya saroyida 1-Umumrossiya "Kustar sanoat buyumlari ko'rgazmasi" bo'lib o'tgandi. "Turkiston bo'limi" namoyishini uyushtirish rahbari ko'rgazmada A.P Semyonov Tyanshanskiy bo'lgandi. Mahalliy savdogarlardan toshkentlik Isomuhamedov ko'rgazmaga o'z do'konidagi o'nlab buyumlarni taqdim etgan. Ushbu buyumlar orasida mahalliy hunarmandchilik namunalari (temir, olmos, kumush oltindan yasalgan), qandil mollari, mehnat qurollari, bezakli tovarlar kabilar bo'lgan[1;54-55].

1904 yil San Lui (AQSH), 1906-yil Milan va Bordo (Italiya) kabi xalqaro yarmarkalarga Toshkent, Andijon, Qo'qon, Buxorodan yuborilgan kumush buyumlar va bezakli buyumlar kolleksiyalari katta partiyada yuborilgan. 1907-yil Sankt-Peterburg Rossiya yarmarkasida Buxoroda tikilgan zar chopon, ipak, ipak kiyimliklar, yog'ochsozlik sa'nati namunalari, polos, gilam, qorako'l teri tovarlari namoyish etilgani qayd etilgan. Biroq ushbu mollarni namoyish etgan savdogar va tadbirkorlar nomlari keltirilmaydi. 1914-yilda Berlin (Germaniya) va London (Angliya) yarmarkalarida Turkiston general-gubernatorligi viloyatlari Buxoro va Xiva xonliklaridan tadbirkor va savdogorlar qatnashgan. Ayniqsa, Kaspiyorti viloyatidan keltirilgan gilamlar ko'rgazmada yuqori baholanib, 5 ta Turkman gilami 6250 rubl, bitta buxoro zar choponi 400 rubl baholangan. Gilam bilan bir qatorda shol, polos, xurjun, bezakli choponlar keng namoyish etilgan. Berlin va London ko'rgazmasiga mahalliy savdogarlardan O.Yunusov yuborgan 4 ta gilam 1300 rubl baholanib, eng arzoni 325 rubl sotilgan[6].

Turkiston o'lkasi, Buxoro va Xiva xonliklarining savdogarlari Rossiyada o'tkazilgan mavsumiy xarakterdagi Nijniy-Novgorod, Irbit, Moskva, Maxov, Astraxan yarmarkalarida ham ishtirok etishgan.

Ayniqsa, Qorako'l teri savdosi Rossiyasi yarmarkalarida qizgin borib, 1880-1881 yillarda Buxorodan Rossiyaga 4 ming pud qorako'l teri olib ketilgan. Qorako'l ter kip qilinib (1 kipda 10 ta teri jamlangan) Rossiya

va xorijga etkazilar edi. Buxorolik savdogorlardan Arabovlar oilasi, Ubaydullaxo'ja va Labiyorxo'jalar oilasidan 300 minggacha qorako'l terini bozorlarga chiqarishgan[7].

Masalan Nijegorod yarmarkasi har yili o'rtacha 80 ming dona qorako'l teri chiqarilib, ular yuqori baholangan G'arb davlatlari, Angliya va AQSH har yili yarmarkadan 1000 kip qorako'l teri xarid qilganlar. Bu qorako'llarning bir kipi odatda 92 rubl baholansada, aslida 98-104 rubldan 115-120 rublgacha sotilgan. Qorako'l terining narxi uzoq vaqt barqaror bo'lib turgan[8].

Tub joy aholi vakillarining ko'rgazma va yarmarkalardagi ishtiroki 1911-1912 yillarda ham davom etib, 1912-yilda Toshkentda "Mevachilik, sabzavotchilik, asalarichilik, parrandachilik Turkiston ko'rgazmasi" da o'zbek va tojik millatiga mansub Abdu Nabi, Said Umar, Mir Islom Mir Komilboyev, Bahodir Mirzo Muinov, Mir Fozil, Mulla Ali

Muhammad Xudoybergenov kabilar ishtirok etishdi[9;15]. Muhimi shundaki, 1912-yil ko'rgazma ishtirokchilarining Mulla Ali Muhammad Xudoybergenovdan tashqari barchasi Samarqand viloyati Xo'jand uyezdi va shahridan edilar. A.M.Xudoybergenov Sirdaryo viloyati Toshkent uyezdi Usmonota volistidan bo'lib, asli To'ytepa sudyasi lavozimida faoliyat yuritgan[9;16].

Xullas, Turkiston tovarlarining mintaqadan tashqari Rossiya va umumjahon yarmarkalarida namoyish etilishi ushbu hududning iqtisodiy imkoniyatlari oshishini targ'ib etishda Umumrossiya va yevropa bozoriga qo'shilishida muhim rol o'ynaydi.

Turkiston tub joy aholisi Turkistonda yillar davomida uyushtirilgan ko'rgazma va yarmarkalarda oz sonli bo'lsada ishtirok qilib kelganlar. Ular tadbirkor va ishbilarmonlar, havaskor dehqonlar, bog'bonlar hamda turli kasb egalari edi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Чабров Г.Н. Туркестан на всероссийских и всемирных выставках (1867-1914 гг) // Труды Среднеазиатского государственного университета им. В.И.Ленина. Изд. САГУ, Ташкент-1958. -С. 41-42, 46-51, 54-55.
2. Зиёев Х. Ўзбекистоннинг Россия билан элчилик ва иқтисодий алоқаларининг ўрнатилиши ва ривожланиш тарихи. Тошкент: 2012.- 291 б
3. Московская политехническая выставка//Туркестанский сборник. Том 43.-С.244-245.
3. Маев Н.А. Туркестанская веставка 1886 года Ташкент: Издание Туркестанскога Отдела Императорс-кого российского общества. – Ташкент:1886. – С. 21.
4. Где же Туркестанское виноградарство. // Туркестанский сборник. Том.508. –С.87-88. Пулло О.К. вапро-су о виноградарства//ТС. Том. 467.- С.58-60; Вербов. Несколько слов о наших виноградниках//Туркестанский сборник. Том 467. –С.3-5; Виноделне в Туркестане//Туркестанский сборник. Том 522. – С.158-163
5. Московский выставка 1891 г. // Туркестанский сборник, Том. 58.-С. 126-127.
6. Чабров Г.Н. Туркестан на всероссийских и всемирных выставках (1867-1914 гг) // Труды Среднеазиатского государственного университета им. В.И.Ленина. Изд. САГУ, Ташкент-1958. -С. 55-56, Ochildiyev F. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Tarix fanlari doktori dissertasiyasi (Dsc). Toshkent-2022. - В. 251-255.
7. Ремез И.А Внешняя торговия Бухары до мировой во Олытисторико-статического обзора внешней торговли ханства вен сферы томоженного обгединения его С Российской Ташкент: I 39 ЦСУТУРК-Республики. 1922.- С41, Остонов О.А Зарафшон вохасида хунармандчилик, тадбиркорлик ва савдо-сотик (XIX асп охири XX асп бошлари. Т. Шарк, 2013. – Б.71.
8. Нижегородская ярмарка // Туркестанский сборник, Том 434. -С.93.
9. Туркестанская выставка: Плодоводства, огородничества, пчеловодство и птицеводства 1912 года в г. Ташкента (Сборник ст).. –1913.- С.15, 16.

10. O'zMA, I-27-yig'ma jild, 1-ro'yxat, 11-varoq; I-59-fond, 1-ro'yxat, 16-y'ig'ma jild, 1,2,3-varoqlar.

11. O'zMA, I-103-fond, 1-ro'yxat, 27-yig'ma jild, 39,40- varaqlar.

**АБДУНАЗАР БАХШИ ПОЁНОВ (1954-2022)  
(АБДУНАЗАР БАХШИНИНГ 70 ЙИЛЛИГИ ОЛДИДАН)**

**Мустафоқулов Рўзиқул Бойназарович,**

Термиз давлат университети ижтимоий фанлар факультети  
бошланғич таълим кафедраси доценти, филология фанлари номзоди

**Сайфиддинова Нафосат,**

Термиз давлат педагогика институти талабаси.

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0005-2553-8845>

**Аннотация:** Ушбу мақолада халқ оғзаки ижодининг муҳим ва кенг ижро этилувчи жанрларидан бири терма ва дostonлар таҳлили ва талқини Абдуназар бахши Поёнов ижоди мисолида ўрин олган. Бахши бутун умрини ижодга бахшида этганлиги ҳамда дostonларининг ўзига хос хусусиятлари келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** Терма, дoston, бахши, қофия, турок, ритм, дўмбира, оҳанг.

**Аннотация:** В данной статье одним из важнейших и широко распространенных жанров фольклора является анализ и интерпретация терминов и былин на примере творчества Абдуназара Бахши Поёнова. Упомянется тот факт, что Бахши всю свою жизнь посвятил творчеству, и уникальные особенности его эпоса.

**Ключевые слова:** Терма, дoston, бахши, рифма, турок, ритм, барабан, мелодия.

**Annotation:** In this article, one of the most important and widely performed genres of folklore is the analysis and interpretation of terms and epics, as an example of the work of Abdunazar Bakhshi Poyonov. The fact that Bakhshi devoted his whole life to creativity and the unique features of his epics are mentioned.

**Key words:** Terma, doston, bakhshi, rhyme, turoq, rhythm, drum, melody.

Республикамизда эмас, чет элларда ҳам Абдуназар бахши деб ном олган Абдуназар бахши Поёнов токи умрининг охирига қадар Алпомишдан, элнинг

афсонавий ботирларидан дoston, термалар айтиб яшади. Терма ва дostonлар айтганда, унинг қахрамонлари қиёфасига кирди.

Абдуназар бахши дарё бахши эди. Бу дарёдан қанча-қанча бахшилар бемалол бахраманд бўлар эдилар. Бир сафар борганимизда гурунг орасида бахши менга ёзилажак ва нашр эттириши лозим бўлган янги терма ва дostonлари ҳақида сўзлаб берди.

Бир суҳбатимизда (Бу суҳбатда Ўзбекистон журналистлар уюшмаси аъзоси Маҳмуд Абулфайзов бор эди) Чорша бахши ҳақида журналист ва шоир Тожиддин Раззоқ шундай таклиф қилганди. Шу фикрнинг ҳақ эканлигига яна бир қарра ишонч ҳосил қилдим.

- Таксир, Чорша бахши ҳақида олтмиш-етмиш бетлик рисола ёзиб ташланг. Бахши бобо қарибди. Фурсатни қўлдан бой берманг. Эсингиздан чиқмасин, таксир, Чорша бахшини сиз билан бизга боғлаб бергани йўқ. Тожиддин Раззоқ ҳақ экан-Чорша бахшининг ҳам боғлаб қўйгани йўқ экан. “Ҳайё-ҳуйт” деб дунёдан ўтди-кетди. Қилинажак суҳбатлар ҳам, ёзилажак рисола ҳам қолди-кетди.

Абдуназар Поёновнинг ҳам оламдан ўтгани ҳақидаги фикримдан ўтди.

Қисқа фурсат ичида мен деган Ўзбекистонда ном таратган Ўзбекистон халқ бахшиларидан Бобораҳим Маматмуродов, Қора бахши Умиров, Хушвақт бахши Мардонақулов каби бахшиларимиздан нима қолди бу азиз умриданди? Бир ховуч болалик хотиралари



ва Сурхон даштларидек кенг, поёнсиз хаёл мулки қолди. Улар умр бўйи ана шу хаёл ва хотира мулки билан яшади. Шуларнинг ёди, кўмаги билан ўнлаб дostonлар, юзлаб термалари қолди. Аммо уларнинг қалб мулкларидан баракали фойдалана олмадик, яна ўнлаб, юзлаб дostonлар ёзиб олиш мумкин эди. Бу бахшилар ўта ёдкаш бахши эди. Ўтган-кетган кўп гаплардан хабари бор, кўп чечан, овози ширали ва фавқулodда хотираси ўткир, ёдкаш инсонлар эди. Уларга хос баҳосиз зийнат ҳам эди. Ана шу зийнатлар билан оламдан ўтди-кетдилар. Улар эл-халқ бахшиси қандай бўлиши лозим эканлигини ёш бахшиларга насиҳат сифатида айтиб кетдилар. Тўғри бахшилар етмиш-саксонга кирганида, кичкина бир йиғин қилиб, баҳоли қудрат бахшининг кўнглига қарай олмадик, бундан хулоса чиқармадик.

“Бахши етмиш ёшингиз кутлуғ бўлсин!” дея олмадик ҳам. Мана эл севган ва суйган бахшилар шундай одамлар эди: жимгина яшади ва жимгина оламдан ўтиб кетди.

Бахшилар дostonдан, термадан, сўздан бой-бадавлат одамлар эди. Одамлар бахшилар дўмбирасини чертиб, сўзларни келиштириб, қофиядаги сўзларни келиштириб кетаверади деб ўйлайди, Йўқ ундай эмас. Хақиқий бахши ўзбек шеърятининг барча қонун-қоидаларига амал қилган ҳолда қуйлайдилар.

Шерабод дostonчилик мактабининг меросхўр авлодлари бахшичиликнинг анъанавийлигини сақланган ҳолда терма ва дostonлар айтдилар.

Бахшилар шоир эмаски, қоғозга айтмоқчи бўлган фикрини қоғозга ёзиб ўқиб, ё айтиб берса, қўшиқчи хонанда бўлса эди, у куй басталаб ёдлаган шеърини қўшиқ қилиб қуйлаб берса. Бундай имконият, бундай фурсат бахшичиликда йўқ. У бир дам, бир нафасда юқорида санаб ўтилган талаблар ижро жараёнида фавқулodда қуйилиб келадиган ҳодисалардир. Бу фавқулodда юз берадиган ҳодиса ичига айтмоқчи бўлган терма ёки дoston мазмун моҳиятини, қофия, туроқ, бўғин каби талаблар юзага

келади.

Ижро жараёнида тингловчилар диққат-эътиборини тортадиган бу қофиялар тизмасидир. Бахшининг қофия санъати мағзи қанчалар тўқ, ўйноқи бўлса, терма дostonнинг оҳангдорлиги мусиқийлиги, жарангдорлиги таминланади.

Юқоридаги фикрларни Абдуназар бахши Поёнов(марҳум 2022) шахсига ва ижодига менгзайдиган бўлсак, фикримиз узукка кўз қўйгандек ярашиб тушади.

Шерабод бахшилик мактабининг забардаст вакиллари билан бири бахши-шоир, устозлардан бири Абдуназар бахши Поёнов эди. Абдуназар бахши билан 1990-йиллардан бошлаб таниш эдик. Абдуназар бахши жимгина кўлида дўмбира ушлаб дostonлардан парчалар айта бошлаган даврлар эди. Бахши билан кўп бора ижодий суҳбатлар қурганмиз. У одам суҳбатимиз давомида Хўшбоқ бахши, Чорша бахши бахши каби устозларидан миннатдорлиги, улардан кўп терма, дostonлар айтиш сирларини ўрганаётганини айтиб уларга ўз ҳурматини изҳор этишдан бошларди. Бу устозлар сафига Қодир бахши Рахимовни ҳам алоҳида тилга олиб ўтарди.

Ўша даврлар Абдуназар бахшида бадиҳагўйликда анъаналари анчагина етишмовчиликларга эга эди. Мен гоҳ Маҳмуд Абулфайз, гоҳ Болта Ёриев билан айрим ҳолларда телеведение ходимлари билан бирга борардим. Вақт ўтиши билан машқ, изланиш, ўрганиш, такрорлаш натижасида жамоа орасида ҳаёжонланмаслик манзилига ҳам етиб олади. “1984 йилдан бахшилик фаолиятимни бошлаганман”, - дейди Абдуназар бахши Поёнов, – “отамнинг отаси Эшқурбон гапга чечан, ҳозиржавоб, ҳар бир гапини шеър, мақол билан мустаҳкамлаб ва безаб айтган. Отам раҳматлининг ҳам овози кўп ширали, ёқимли эди. У кишининг ёдкашлиги одамни лол қолдирарди. Бир марта эшитса бўлди, тошга битилгандек, ёдида қоларди. Овози таъсирчан ва жозибали бўлган боис ёшлигида қишлоқма-қишлоқ юриб, “Ё рамазон” айтarkan. Яна бир сифати шу

эдики, отамнинг гурунгига одамлар шошилишар эди. Чунки у киши мохир суҳбатдош ҳам эди.

Бир нарсаки, Абдуназар бахши ёшлигида, ҳали ўсмирлик палласидаёқ қўлига дўмбира тутган, терма, дoston айтган эмас. 1984 йилда унинг ёши ўттиздан ошиб қолган эди. Одатда бу ёшга келиб бахши – шоир шаклланиб улгуради. (Албатта, истеъдоди борлари). Агар унга ҳаёт йўлларида машҳур бахшилар сулоласидан бўлган Хушвақт бахши Мардонакулов дуч келмаганида эди, балки то ҳануз томирларидаги оҳанглар ухлаб ётган бўлармиди!

Абдуназар бахши асли Шерободнинг узоқ Хомкон қишлоғидан 1954 йилнинг 8 ноябрида таваллуд топган. Олий маълумотли муҳандис – механик. Бир вақтлари хар бир туманда “Сельхозтехника” деган ташкилот бўларди. Абдуназар ўқишни битириб келгач, Қизириқ туманидаги ана шундай ташкилотда 1976 йилда иш бошлаган эди. 1982 – 1983 йилларда у Хушвақт бахши Мардонакулов билан бир ташкилотда ишлади. У пайтлари Хушвақт ҳали ёш эди, қўлтиғидан дўмбира тушмасди. Биров қаёққа деса, ўша ёққа кетаверарди. Хушвақт бахшига қўшилиб Абдуназар ҳам борарди. Хушвақт бахши терма, дoston айтар, кўп қатори Абдуназар ҳам чин мухлис бўлиб тинглар эди. Устоз унинг овозини магнитофон тасмаларига ёзиб ҳам олди. Ёзиб олганларини уйга келгач, тинмай эшитадиган ҳам бўлди. Хуллас, ўзининг ҳам айтгиси келаверди. Томир – томирларида мудраб ётган оҳанглар бир – бир уйғонаверди. Киши билмас жойларда қўлига дўмбира олиб, ўзича, билганича хиргойи қилаверди. Аввалига дарёнинг бир четида ўз билганича айтаверди. Кейин – кейин эса ижод номли дарё уни ўз домига тортиб кетди. Шу – шу бўлди, Абдуназар бахши халқ оғзаки ижодиёти деган теран дарёнинг халқ тилига тушган ғаввосларидан бирига айланди.

“Абдуназар, сенга айтар бошқа гапим ҳам, ўргатадиган терма – дostonим ҳам йўқ. Мендан – да, ўздинг, катта бахши

бўлдинг”, - деди унга бир куни Хушвақт бахши Мардонакулов. Бу гаплар мўйсафид бахшининг Абдуназарга оқ фотиҳа бергани эди.

Бир гал йўли тушиб, шериклари билан Дехқонобод томонларга борди. Бир тўйнинг устидан чиқдилар. Тўйнинг эгаларидан ҳам олдин уларни марҳум Қодир бахши Раҳимовнинг булбулмонанд, дилтортар овози қарши олди. Тўй тугаганга қадар Абдуназар улкан бахшини сармаст бўлиб тинглади. Тўйдан сўнг бир жойда меҳмон бўлдилар. Қодир бахши ҳам бор эди. Устоз бахши илтимос қилди. Сўнгра Абдуназар ийманиб, тортиниб қулига дўмбирасини олди. Айтди, айтаверди. Қодир бахши тинглади, чиройи ёриши ва деди: -Яхши бахши экансан-ку!

Бу ҳам – эл таниган, билган улкан бахшининг Абдуназарга оқ фотиҳаси эди.

Орадан кўп ўтмади. Абдуназар Ангор туманида яшайдиган машҳур Чорша бахши Раҳматуллаевнинг олдига борди. Яна бир имтиҳондан ўтмоқчи эди. Кекса бахши уни “Э, қўйма-е, бор экансан-ку, Абдуназар!” дея ҳайқириб тинглади. Бу ҳам кўп шогирд ва не бир устозларни кўрган. Чорша бахшининг Абдуназарга берган оқ фотиҳаси эди.

Шундай қилиб, Абдуназар Поёнов элимизнинг уч йирик, ҳайбатли бахши-шоирнинг дуосини олишга эришди. Шундан сўнг овози қалтирамайдиган, катта давраларда ҳам кўпнинг сусти босмайдиган бўлди. Давра қанча катта бўлса, эл, тингловчи қанча кўп бўлса, Абдуназар шу қадар дарёдил бўлиб айтадиган бўлди.

Абдуназар Поёнов нафақат ёдқаш, балки билимдон, зукко ва ижодкор бахши, авжи келиб айтса, тилига оҳанглар, оҳанрабо сатрлар қуйилиб келаверади. Тимсоллар, ташбехлар, чиройли қофиялар унинг ижодида беҳад кўплиги одамни лол қолдиради. Яна бир гапки, соз чалишда ҳам Абдуназар бахши унча-мунча одамни ортда қолдиради.

“Агар менга Сайқон Қулмонов соз чалишдан сабоқ бермаганида эди, кўп

нарсдан бебахра қоларканман”, дейди бахшининг ўзи. Демак, бундан кўринадики, у бир эмас тўрт танти устознинг қуршовида ижоднинг катта йўлига чиққан бахши эди.

Дўмбира чалиб, тўртта термани ёки ёд олган дostonни билан киши тўлақонли бахши бўлолмайди, - хусусан одам эл ичида таниқли бўлгандан кейин зиммадаги маъсулят ҳам ошаркан. Агар бирор тўй ёки йиғинда “Бахши, дostonдан айтиб беринг”, деб илтимос қилиб қолишса, сиз эса “Айтгардиму, билмайман-да “ десангиз, кўп уят иш бўлади. Раҳматли Қодир бахши айтарди: “Мени асли Сурхондарё, янаям аниқроғини айтсам, Жарқўрғоннинг халқи бахши қилди. Ҳар сафар борганимда одамлар янги дoston айтишимни илимос қилишарди. Уларнинг илтимосини бажариш учун тинмай ўқиб-ўргандим”. Мен ҳам худди устоз айтгани каби доимо ўрганаман, ўқийман. Ўзбекистонда тилга тушган бахши, шоир борки, ҳаммасининг уйига бир-бир кириб чиқдим. Уларнинг суҳбатини олдим, нималарнидир ўргандим. Мен ўзимгача ўтган ғойиб бахшиларни ҳам устоз деб биламан. Эргаш Жуманбулбул ўғли, Фозил Йўлдош ўғли, Пўлкан шоир, Мардонақул бахши, Шотўра бахши, Эшонқул бахши, Маматрайим бахши, Абдулла шоир Нурали ўғли, Ислом шоирлар гарчанд менга замондош бўлмасалар-да, бироқ чин устозларимдир. Мени яна Аҳмад Яссавий ва Маҳтумқули ижоди ҳам кўп мафтун қилади, ўқийман, ҳузурланаман. Айтганча, менинг яна бир катта ва талабчан ҳамда зукко устозим бор. Бу – халқдир. Одамлардан, халқдан кўп нарсаларни ўрганаётганимни ҳеч қачон яширмайман. Чунки халқ орасида, эл оғзида кутилмаганда ноёб термалар кезиб юради. Уларни битталаб тергилаб оладиган одатим бор. Бахши дарё бўлмоғи учун томчи – томчилардан бунёд бўлади, бирданига дарё бўлиш деган гап йўқ” деган эди бахши.

Гапимизнинг исботи мисолида бахшининг “Наврўзи оламга бағишланган термасига эътибор қаратамиз. Ҳа, фасллар дилбар келинчаги, тўрт фаслнинг дурдона,

дилбарининг таърифи-ю тасвири Ўзбекистон халқ бахшиси Абдуназар Поёновнинг терма оҳанграбо куйлари ҳозирда ҳам кезиб юрибди:

Абдуназар сайратавер созингни,

Гуркуратиб сен юртда зўр базмингни,

Завқ билан ўтказгин баҳор-ёзингни,

Қутлайвергин бир олам Наврўзингни,

Янги кунда ўйнанг йигит-қиз бугун.

Дала-даштда манграшади қўзичоқ,

Ўлан айтиб, йигит-қизлар хушчақчақ.

Дарахтларда қушлар сайрайди, чак-чак,

Буни кўриб қалблар дарёдек уйғоқ.

Сумалакка бағишланган бахши кўшиқларида қувонч, завқ-шавқ, ҳаётга муҳаббат туйғулари тараннум этилади. Момолар эртак-жумбоқ сўйлаб, базми-жамшидни куйлайди. Наврўз келди кир-адирларда минг бир рангда товланади. “Шариллаб эрийди тоғларнинг қори”, дехконлари эса дала томон йўл олади. Баҳор гуллари гўзал қизларнинг ўлан, ёр-ёрга чорлаб кўнгилларни хушнуд этади. Қизлар тол баргларида гулчамбар тақиб мажнунтоллар тагида ҳалинчаклар учишади.

Унда кўшиқларим қанча гўзаллик шайдоси, қизлар сочларига чучмомолардан гулбарглари тақишга даъват этади. Севги-вафо, меҳр-муҳаббат, куртаклари ҳам юз кўрсатиб, Наврўз тантаналарига улашиб кетади. Қай бир томондан камалак ёй тортади. “кўк сомсалар ёпишиб ялпиздан, омонлик эй, омонлик”, дея момолар ўланлари борлиқ узра сингиб кетади. Дарахтлар шоҳида қушлар сайроқсози бутун оламни куйга бурқаб, интиқ дилларга завқ-шавқ бахшида этади. Наврўз кўкламида дала-даштларда қўй-ю қўзилар марашиб, дикир-дикир ўйинлари бахшилар илҳомига янада илҳом кўшади.

Дарҳақиқат, одам бирданига дарё бўлолмайди. Шошса, қумга сингган томчидек ғойиб бўлади. Абдуназар бахшининг репертуарида “Тўрўғлининг туғилиши” деган ажойиб дoston бор. Шу дostonдаги бир эпизод, тасвир, тафсилотлари билан одамни ўзига жалб қилади. Бу эпизодни Абдуназар бахшига жарқурғонлик Тилло бобо деган киши

Нормурод бахшидан (Шерна бахшининг ўғли Нормурод бахши эмас, бошқа бахши) эшитганини айтиб беради. Абдуназар бахшининг айтишича, бу талқин бошқа ҳеч бир бахшида йўқ. Воқеа, талқини бундай эди:

Чамбилбелда иккита беклик бор эди. Бир томонига Нор оға, иккинчи томонига эса Аҳмад Сардор бек эдилар. Нор оғанинг икки хотини бор эди. Бирини Оқ пари, иккинчисини бўлса Тонус гўзал дер эдилар. Оқ паридан бир қиз туғилади. Отини Холжувон қўядилар, вақти вояга етиб, шундай гўзал бўлдики, ҳуснда унга ҳеч ким тенг келолмади. Ойдин кечаларда чиқиб жамолини ёйса, ой ҳам унинг ҳуснини кўриб уялар эди. Қоронғу кечаларда ташқарида жамолини ёйса, ёруғлиги, шуъласига хирмончилар шоха ташлаб олар эдилар. Жамолининг шуъласи кечалари Аҳмад сардорнинг беклиги ҳудудига ҳам тушиб турарди. Шунда Аҳмад сардор беклигидаги бор бойлигини сарфлаб, уни ўз никоҳига олади.

Абдуназар бахши шу эпизод-талқини “Тўрўғлининг туғилиши” дostonига чиройлик йўсинда ва муносабат тарзда киритишга муваффақ бўлди. Бу эса дostonнинг жозибасини янада оширади. Бир сўз билан айтганда, Абдуназар бахши билмаганларини сўрашдан уялмайдиган, ҳамиша излаб, изланиб юрадиган бахшиларнинг хилидан эди. Билмайдиган нарсасини биламан деб айтмагани каби, билган, биладиган нарсасини билмайман деб ҳам айтмайди.

Қиш кунлари эди. Гуппуллаб қор ёғарди. Абдуназар энди-энди бахши сифатида тилга тушаётган чоғлар эди. Қоронғу тушиш арафасида уйнинг олдида бир машина келиб тўхтади. Ичидан эса бегона одамлар тушди. Бахши уларни уйига таклиф қилди.

Биз Самарқанднинг Жомбой туманидан бўламыз,- дея гап бошлади. Улардан ёши улуғи,- бир қариндошимиз тўй қиялди. Сизни телевизорда кўрган эдик. Шунга тўйимизга бир хизмат қилсангиз деб келдик, нима дейсиз?

Шунча йўлдан сўраб-суриштириб

келган бу одамларга Абдуназар нима дейди, “хўп” дейди-да. Шу-шу бўлди, Абдуназар бахши тўйлардан, йиғинлардан, фестивалъ, кўрик-танловлардан бўшамай қолди. “Тапнинг тўғриси айтганда, мени шу бир қулоч келадиган дўмбира элга танитди”, - дейди у.

Дарҳақиқат, шундай бўлди. 1985 йил илк марта Хоразм вилоятининг Шовот туманида бўлиб ўтган бахши-шоирларнинг Республика кўрик-танловида иштирок этган эди. Шундан бери Республика ҳамда Халқаро кўрик-танловларда мунтазам қатнашиб ва аксарият холларда ғолиб бўлди. Изма-из уч йил вилоят бахши-шоирлар беллашувида биринчи ўринни эгаллади. 1999-2003 йилларда Марказий Осиё республикалари бахши-шоирларнинг ва оқинларнинг кўрик-танловларида иккинчи, 2001 йилда эса биринчи ўринни олди. 1994 йилда Қирғизистоннинг Бишкек шаҳрида “Манас” эпосининг 1000 йиллигига бағишлаб оқинларнинг халқаро кўрик танлови ўтказилди. Бунда Абдуназар бахши иккинчи ўринни эгаллашга муваффақ бўлди.

2000 йилнинг июн ойида Туркиянинг Анкара шаҳрида бўлиб ўтган “Турк дунёси ошиқлари”нинг халқаро анжуманида иштирок этиб, ғолиблик дипломи ва медалини қўлга киритди. (Дарвоқе, турклар бахши-шоирларни ошиқлар деб аташаркан. Тўғри-да, одам ошиқ бўлмаса, терма, дoston айтадим!).

Аслини олганда, 2000 йил Абдуназар бахши учун энг эса қоладиган йиллардан бири бўлди. Туркияга боришдан бир ой аввал у тасодифан Федерико Леотор деган йигит билан ҳамсуҳбат бўлиб қолди. У турк халқлари бўйича этномусикашунос экан. Шу одамнинг таклифига биноан олти нафар бахши, Оқиннинг сафида Европа мамлакатлари томон юзланади. Олтовлоннинг ичида Абдуназардан ташқари, Қозоғистондан, Туркменистондан ва Ҳакасиядан бахши-оқинлар бор эди. Ҳакасиялик бахшини Улуғбошов Евгений дер эканлар. Олтовлон аввал Франциянинг уч жойида концерт беришди.



Биринчи концерт машхур Париждаги “Телавилли” театрида уюштирилади.

Ўз навбатида эса бу мамлакатнинг одамлари бахшиларнинг чечанлигига, санъатига тан бердилар, мафтун бўлдилар. У на миллат танларкан. Асл нарса қаерда бўлмасин, ўзининг чин баҳосини оларкан. Абдуназар бахши дунё кезиб, дунё одамларига ўзбекнинг оҳангларидадан айтиб, уларни лол қолдириб, дарёдай тошиб ўтди.

Айтарга Шерободнинг узоқ ва чекка Ҳамкон қишлоғида туғилган, айни пайтда эса Қизирик туманининг бир томони поёнсиз кум барханларига туташиб кетган “Хомкон” маҳалласида яшайдиган Абдуназар бахши Поёновни эндиликда туркийзабон ўнта мамлакатда, шунингдек, айтиб ўтганимиз Франция, Белгия, Швейцарияда ҳам танилиб улгурди. Ўзи айтгани каби, “Бир қулоч дўмбиранинг орқасидан дунёни кезди”.

Шеробод, Қизирик, Шўрчи, Жарқўрғон, Қумқўрғон, Ангор туманларидаги тўйларнинг деярли барчаси Абдуназар бахшининг иштирокисиз ўтмасди. Бундан ташқари, уни Самарқарқанд, Сирдарё, Жиззах, Қашқадарё, Тошкент вилоятларидан ҳам кўп йўқлаб туришарди.

Унинг ижодига фольклоршунос олимларнинг ҳам назари тушган. Марҳум профессор, олим, фольклоршунос, филология фанлари доктори Малик Муродовнинг “Алпомишнома” китобига Абдуназар бахши ижодидан парчалар келтирилган. Шунингдек, Малик Муродов ва Абдуолим Эргашевлар Абдуназар бахшидан “Алпомиш” достонининг Сурхондарё вариантыни ёзиб олишган ва у нашрдан чиқди.

Абдуназар бахши бу достонни маҳорат билан айтиб яшади. Унинг “Олтин қабоқ”, “Алланазар олчинбек”, “Ҳонойим пари”, “Авазхоннинг туғилиши”, “Санам Гавҳар”, “Туркистон”, “Равшан ва Зулҳумор”, “Тўрўғлининг туғилиши ва ўспиринлиги”, “Ҳонойим пари”, “Авазнинг туғилиши”, “Турсун мерган ва Рамозон чобогон” каби анъанавий достонлар ҳам ёзиб олинган ва чоп этилди. Бунданда, кўп достон ва

термалари ўзи билан кетди. Фақат афсус дейиш қолди холос.

Қатор бахши-шоирлардан фарқли ўларок, Абдуназар бахши қалами қайралган ижодкор-бахши эди. Унинг “Турсун мерган ва Рамозон чобогон” ҳамда “Давркул полвон” номли достонлари кўп минг нусхада чоп қилинган ва завқ билан ўқилмоқда.

Бахши репертуарида йигирмадан зиёд достон, икки юзга яқин термалар қолди. Бахшининг “Олтин қабоқ” ва “Санам-гавҳар” достонлари республика радиоси томонидан ёзиб олинган ва доимий равишда тингловчиларга тақдим қилиб турилади.

“Биз ҳам бир ёруғ манзилга етсак деб Абдуназар бахшининг этагидан тутиб, шогирдлик мақомида юрибмиз”-дейишади Гулбой Мирзаев, Шерали Жумаев, Мухаммади Эшбоев, “Нихол” мукофоти совриндори Илҳом Норов ва бошқа қатор ёш бахши-шоирлар. Устоз бахши эса уларга неки билган, англаганидан сабоқ бериб кетди.

2003 йилнинг кузида эса Абдуназар бахши Поёнов ҳаётида ҳеч қачон унитилмас воқеа юз берганди. Унга Ўзбекистон республикаси фармонига кўра, “Ўзбекистон республикаси халқ бахшиси” унвони берилган эди.

Бахши қарийб қирқ йил ичида катта довлардан ошиб ўтишга, баланд манзилларни забт этишга улгурди. Унинг оҳанглари йўл-йўлакай қумликларга сингиб кетмади, балки минглаб қалбларга кўчди. Агар ўзбек халқ ижодиётини улкан бир дарёга менгзасак, Абдуназар бахши Поёнов ижоди ана шу дарёга қўшилаётган бардавом бир ирмоқдир. Оҳирати обод бўлсин.

### Сурхоним

Дилларим нур берсин Аллоҳ Қуръони,  
Кўрганларнинг сира қолмас армони,  
Дунёга жар солган кўҳна Турони,  
Термизийдан айтай ҳадис суруни,  
Йилдан-йилга файзи бор Сурхоним,

Қутлуғ жойдир сизга айтсам Шеробод,  
Бир ёғи Қизирик, бири Музрабод,

Меҳнатидан чўллари бўлган обод,  
Ёронлар ўтганда қилинглари зиёрат,  
Исо имом Термизий бор Сурхоним.

Алпомишлар отин сурган бул макон,  
Бобошоир ўйнаб-ўсган Бешқўтон,  
Бўлиб ўтган экан сўзига Султон,  
Сўзларига бош эгган амалдору хон,  
Бахшиликдан устози бор Сурхоним,

Тоғлар орасида турар тонг юлдуз,  
Шуъла бериб турар кеча-ю,кундуз,  
Айта берсам сўзим келар изма-из,  
Оқтош-Хўжаикондан чиққан туз,  
Эл-халқига совғаси бор Сурхоним,

Тоғларига чиқсанг каклик нависи,  
Эртак жумбоқ айтар бобо, момоси,

Бойсун тоғда бордур , “Омонхона”си,  
Дардинга шифодир Жайронхонаси,  
Шифобахш сувлари бор Сурхоним,

Ғоз қишлоқдан чиққан девман валломат,  
Чуқурқўл ойинидан жасур Абсаот,

Абдулла полвон жаҳонга солди хайбат,  
Буларнинг бариси Алпомиш авлод,  
Марди-майдон шерлари бор Сурхоним,

Истиклол шамоли кўкракка эсиб,  
Темир йўл қурулди тоғларни кесиб,  
Ватанни куйламоқ қилибди насиб,  
Мероси созини бағримга босиб,  
Дўмбирада нағмаси бор Сурхоним.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. –Toshkent: “O‘zbekiston”. – B. 387.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1- jild. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. 570 – b.
3. Mustafouqlov R.B., Surxondaryo fol’klorining hozirgi yashash holati va badiiyati. Monografiya. “Xonjiza maskani”nashriyoti. 2023-yil.
4. Mustafouqlov R.B., Uslubiy qo‘llanma. Xalq pedagogikasi sarchashmasi. TerDU NMM nashriyoti 2023-yil.
5. Qahhorov A. Yangi dostonlar, T., “Fan”, 1998.
6. Mustafouqlov R.B., “Alpomish Talqinlari” (Ilmiy –metodik qo‘llanma) Termiz davlat universiteti 47-bet. Termiz-2000.
7. Mustafouqlov R.B., Xalq og‘zaki ijodi-tarbiya maktabi Xalq pedagogikasi Xalqaro simpozimu materiallari. 95-96-betlar. Termiz-1995 y.
8. Mustafouqlov R.B., Termalarning folkloridagi o‘rni. O‘zbekiston filologiyasi va uni o‘qitish metodikasi masalalari. 13-19-betlar Termiz-2008 y.
9. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O .,O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi, T., “O‘qituvchi” 1990. 23-42-b.
10. Mustafouqlov R.B., Cho‘pon qo‘shlari “Nasab” nashriyoti 3 bt. Qarshi 2009
11. Абдуназар бахши Поёнов. “Турсун мерган ва Рамазон чобоғон”. Тошкент-“Меҳнат”-2000
- 12..Murodov M,Ergashev A. Alpomishnoma,Toshkent-“Mehnat”-1999
13. “Alpomish” - o‘zbek xalq kaxramonlik eposi. Toshkent O‘zbekistan Respublikasi fanlar akademiyasi fan nashri 1999
14. Davruqul polbon doston aytibuvchi Abdunazar baxshi poyon o‘g‘li Toshkent-«Adolat»-2003
15. Usarava.M. Surxon bahshilari kecha bugun. Termiz-«Jayxun»-2016.

## ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАРНИНГ ИЛМИЙ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ

**Якубов Ўткир Шермаатович,**

Термиз давлат педагогика институти доценти,  
география фанлари номзоди

**Мустафокулов Шерали Зулфиқорович,**

Термиз давлат педагогика институти магистранти  
УДК: 314.148; 314.143.

<https://orcid.org/0009-0005-5516-4321>

**Аннотация.** Мазкур мақолада демографик жараёнларнинг илмий назарий асослари, демографик жараёнларга илк ёндошувлар ва демографик жараёнларни бошқаришга уринишнинг амалий натижалари ва аҳамияти ҳақида фикр юритилган.

**Калит сўзлар.** Демографик жараёнлар, аҳолини ўрганиш, “Малтус назарияси”, “Ўтиш назарияси”, “Демографик мувозанат назарияси”, туғилиш, ўлим, турмуш даражаси.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы демографических процессов, первые подходы к демографическим процессам, а также практические результаты и важность попыток управления демографическими процессами.

**Ключевые слова.** Демографические процессы, демографические исследования, «Теория Мальтуса», «Теория перехода», «Теория демографического баланса», рождение, смерть, уровень жизни.

**Annotation.** This article discusses the scientific and theoretical foundations of demographic processes, the first approaches to demographic processes, as well as the practical results and importance of attempts to manage demographic processes.

**Keywords.** Demographic processes, demographic research, “Malthus’s Theory”, “Theory of Transition”, “Theory of Demographic Balance”, birth, death, standard of living.

**Кириш.** Маълумки демографик жараёнлар тарихи инсоният тарихи қадар қадимий бўлиб XIX-XX асрлар давомида анча фаол тус олди. XIX асрда 50 млн. Европаликлар бошқа қитъаларга кўчишди. Кўчишларининг асосий сабаби, яшаётган жойларида ерларнинг етишмовчилиги ва кўчиб борган жойларида эса, ерларнинг арзон баҳоларга сотилишидир. Кўчиб борган мухожирларнинг кўпчилиги қишлоқ жойларида ўрнашдилар. XIX асрнинг охири XX асрнинг бошларида эса миграция оқими йирик саноатлашган шаҳарларга қаратилди.”[2]

Миграция жараёнларини ўрганиш эса, узоқ ўттиз йиллик танаффусдан сўнг 50 йилларда бошланган бўлиб, бу даврда Европадаги Польша, Германия, Чехия, Словакия мамлакатлари ва Россиянинг асосан шарқий қисми аҳолиси миграцияси чуқурироқ тадқиқ этилган.

**Методлар:** Мақола умум қабул қилинган тарихий методлар-тарихийлик, қиёсий-мантикий таҳлил, кетма-кетлик, холислик тамойиллари асосида ёритилган.

**Тадқиқот натижалари ва муҳокама:** Бугунги глобаллашув жараёни фаол кечаётган шароитда демографик жараёнлар хусусиятлари ўтган асрга нисбатан тубдан фарқ қилади. Яъни ишлаб чиқариш тезлиги ва аҳоли даромадлари юқори, комуникациялар ривожланган, қулай шарт-шароитларга эга бўлган минтақаларга меҳнат ресурсларининг интилиши билан характерланади. Айниқса, бозор иқтисодиёти шароитида режалаштирилган иқтисодиётдан фарқли

ўларок, демографик жараёнларга янгича ёндошишни тақозо этмоқда[2].

Демографик жараёнлар, аҳолини ўрганиш, демография ижтимоий фанининг муҳим соҳасидир. Ушбу жараёнларни тушуниш ва тушунтиришга ёрдам берган бир нечта дастлабки назариялар мавжуд. Масалан, “Малтус назарияси” XVIII аср охирида Томас Малтус томонидан ишлаб чиқилган бу назария аҳолининг ўсиши озик-овқат ва бошқа ресурсларнинг мавжудлиги билан чекланиши, озик-овқат ишлаб чиқариш эса арифметик прогрессия бўйича ортиб боришини таъкидлайди. Малтус башорат қилганидек, агар аҳоли ўсиши назорат қилинмаса, туғилишнинг юқори даражаси аҳолининг ҳаддан ташқари кўпайиши ва очарчиликка олиб келишини эътироф этади.

Кейингиси, “Ўтиш назарияси” 1929 йилда Уоррен Томпсон томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу назария ривожланаётган мамлакатларда туғилиш ва ўлимнинг юқори даражадан паст даражага ўтишини тушунтиришни таклиф қилади. Ушбу ўтиш иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш, масалан, таълим, соғлиқни сақлаш ва қашшоқликни камайтириш каби имкониятларни яхшилаш билан боғлиқ.

Шулар қаторида, “Демографик мувозанат назарияси” бу назария туғилиш ва ўлимнинг мувозанатда эканлигини таъкидлайди. Бу назария Жон Грем томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, жамият ривожланишининг маълум даражасига эришгандан сўнг, туғилиш ва ўлим даражаси барқарор қадриятларга яқинлашишини аниқлатади.

Шунингдек, “Миграция назарияси” ҳам мавжуд бўлиб, бу назария доирасида миграциянинг аҳоли ўзгаришига таъсири ўрганилади. Унда таъкидлашча, миграцияга иқтисодий имкониятлар, сиёсий ва ижтимоий шароитлар каби турли омиллар сабаб бўлиши мумкин, бу маълум минтақаларда аҳоли сонига таъсир қилади. “Миграция назарияси” — одамларнинг бир географик ҳудуддан иккинчисига кўчишининг сабаблари, хусусиятлари ва

оқибатларини ўрганувчи фан соҳаси. Бу назария миграция механизмларини, уларнинг умумий қонуниятларини ва жамиятга таъсирини тушунишга ёрдам беради.

Миграция назариясидаги муҳим тушунчалардан бири “бирлаштирувчи омиллар” ва “суриш омиллари”дир. “Бирлаштирувчи омиллар” - бу одамларни ўз мамлакати ёки минтақасини тарк этишга мажбур қиладиган омиллар, масалан, низолар, паст турмуш даражаси, иш этишмаслиги. “Суриш омиллари” - бу одамларни бошқа мамлакатларга жалб қилувчи омиллар, масалан, иш имкониятлари, яхши яшаш шароитлари, таълим.

Миграция назарияси, шунингдек, ички миграция (бир мамлакат ичида), халқаро миграция (бир мамлакатдан бошқасига) ва вақтинчалик миграция (маълум бир давр учун) каби миграциянинг турларини ҳам ўрганади.

Бугунги кунда миграция жаҳон сиёсати, иқтисодиёти ва ижтимоий-маданий соҳаларида муҳим ўрин тутади. Миграция назариясини тушуниш янада самарали иммиграция ва муҳожирлар интеграцияси сиёсатини ишлаб чиқишга ёрдам беради ва янада инсонпарвар ва барқарор жамиятларга ҳисса қўшади.

Бу демографик жараёнлар ва аҳоли сони билан боғлиқ дастлабки назарияларнинг бир қисмидир. Вақт ўтиши ва ижтимоий фанларнинг ривожланиши билан ушбу дастлабки ғояларни тўлдирадиган янги ёндашувлар ва назариялар пайдо бўлди.

Демографик жараёнлар ва аҳолини ўрганган кўплаб маҳаллий олимлар мавжуд. Жумладан, П.П. Семенов-Тянь-Шанский - Ўрта Осиё аҳолисини ўрганган рус географи ва демографи; В.В. Починский - рус демографи, Россияда демографик ривожланиш муаммолари устида ишлаган; А.М. Денисенко - демограф, демографик хавфсизлик ва аҳоли барқарорлиги доктринасининг асосчиси; Н.Н. Харьков собиқ СССРдаги демографик жараёнларни ўрганган машхур



географ; Л.А. Нварцев - совет ва рус демографи, Россия қишлоқларидаги демографик вазиятни ўрганган. Бу олимлар демография ва аҳолини ўрганишга катта ҳисса қўшган ва уларнинг ишлари ҳозирги замон фанлари учун долзарб ва қимматли бўлиб қолмоқда.

Демографик жараёнлар ва аҳолини бошқариш жамият тараққиётининг асосий жиҳати ҳисобланади. Бу жараёнларни самарали бошқариш мамлакатларга аҳоли сонидagi ўзгаришларни башорат қилиш ва тегишли стратегия ва дастурларни ишлаб чиқиш имконини беради. Самарали демографик бошқарув учун муҳим бўлган бир неча асосий йўналишлари мавжуд. Улардан:

Биринчиси: демографик маълумотларни мониторинг қилиш ва таҳлил қилиш - Демографик жараёнларни самарали бошқариш учун туғилиш, ўлим, миграция ва бошқа кўрсаткичлар каби аҳоли маълумотларини доимий равишда кузатиб бориш ва таҳлил қилиш имконини беради. Бу тенденциялар ва муаммоларни аниқлашга ҳамда онгли қарорлар қабул қилишга ёрдам беради.

Иккинчиси, демографик сиёсатни ишлаб чиқиш орқали мамлакатлар демографик сиёсатни ишлаб чиқмоқда, улар туғилиш даражасини тартибга солиш, оилаларни қўллаб-қувватлаш, миграцияни назорат қилиш ва бошқа жиҳатларни ўз ичига олади. Муваффақиятли аҳоли сиёсати аҳоли сони ва жамият ресурслари ўртасидаги мувозанатни таъминлайди.

Учинчиси, таълим ва соғлиқни сақлаш демографик жараёнларни самарали бошқаришнинг муҳим элементи аҳолининг таълим ва соғлиқни сақлаш хизматларидан фойдаланишини таъминлашдир. Билимли ва соғлом фуқаролар жамиятнинг барқарор ривожланиши ва иқтисодий ўсишга ҳисса қўшади.

Тўртинчиси, миграция ҳисоби орқали миграция жараёнлари мамлакат демографиясига ҳам сезиларли таъсир кўрсатади. Миграция сабаблари, унинг оқибатлари ва мигрантларнинг жамиятга интеграциялашуви имкониятларини

тушуниш бу жараёнларни бошқаришга ёрдам беради.

Бешинчиси, жамоатчилик иштироки ёрдамида демографик жараёнларни муваффақиятли бошқариш фуқаролар, маҳаллий ҳамжамият, ННТ ва бошқа манфаатдор томонларнинг фаол иштирокини талаб қилади. Қарорлар қабул қилиш жараёнига жамоатчиликни жалб қилиш янада самаралироқ сиёсат яратишга ёрдам беради.

Самарали демографик ва аҳолини бошқариш маълумотларни таҳлил қилиш, сиёсатни ишлаб чиқиш ва таълимга киришни ўз ичига олган комплекс ёндашувни талаб қилади.

Дунёнинг кўпгина мамлакатлари демографик жараёнлар ва аҳоли сонини бошқаришда фаол иштирок этиб, ижобий натижаларга эришишга интиломоқда. Ушбу мамлакатларнинг баъзилари бу соҳада намуна бўлиб, муваффақиятли амалиётлари билан халқаро эътиборни тортмоқда. Бу ерда демографик жараёнларни бошқаришда ижобий натижаларни кўрсатадиган баъзи мамлакатлар масалан, Швеция туғилишни рағбатлантириш, гендер тенглигини тарғиб қилиш ва оилаларни қўллаб-қувватлашни ўз ичига олган муваффақиятли аҳоли сиёсати билан машхур. Бундай чоратадбирлар туфайли Швецияда барқарор туғилиш ва ўлим даражаси паст бўлиб, бу аҳоли ўсишига ёрдам беради. Сингапур эса, кичик давлат бўлишига қарамай ўзининг муваффақиятли аҳоли стратегиялари билан ҳам машхур. Бугунги кунда Сингапур юқори малакали муҳожирларни фаол жалб қилмоқда, бу эса унинг ишчи кучини ошириш ва иқтисодиётини яхшилашга ёрдам бермоқда.

Шунингдек, Жанубий Корея оилани қўллаб-қувватлашнинг кенг қўламли дастурлари, узайтирилган ота-она таътиллари сиёсати ва оила фаровонлигини таъминловчи бошқа чоратадбирларни жорий этиш орқали туғилиш даражасининг пасайиши ва аҳолининг қариши билан боғлиқ муаммоларни енгиб чиқмоқда.

Норвегия демографик жараёнлар муваффақиятли бошқариладиган давлатга ҳам мисол бўла олади. Бу ерда гендер, оила ва болалар ўртасидаги тенгликни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирларидан кенг фойдаланилаётгани жамиятнинг барқарор ривожланишига хизмат қилмоқда. Бу каби мамлакатлар демографик ва аҳолини бошқариш қанчалик самарали иқтисодий, ижтимоий ва жамият ривожланишининг ижобий натижаларига олиб келиши мумкинлигини кўрсатмоқда.

Марказий Осиёда, жумладан, Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва аҳолини бошқариш минтақанинг барқарор ривожланишини таъминлашда муҳим рол ўйнайди. Марказий Осиё кўп миллатли ва кўп динли минтақа бўлиб, бу эрда демографик жараёнлар алоҳида аҳамиятга эга. Демографик бошқарувнинг муҳим жиҳатлари туғилишни назорат қилиш, ўлимни назорат қилиш, миграция назорати, таълим ва соғлиқни сақлашдир.

Марказий Осиёда демографик жараёнларни бошқариш куйидагиларни ўз ичига олади:

Биринчи, “оила сиёсати ва туғилиш даражаси” оилани режалаштириш, ёш оилаларни қўллаб-қувватлаш бўйича хабардорликни ошириш.

Иккинчи, “соғлиқни сақлаш” сифатли тиббий хизматлардан фойдаланиш имкониятларини яхшилаш, болалар ва оналар ўлимини камайтириш.

Учинчи, “Таълим тизими”ни ривожлантириш, жумладан, саводсизлик даражасини пасайтириш, аҳолининг билим даражасини ошириш.

Тўртинчи, “Миграция оқимлари”ни, шу жумладан ички ва халқаро ҳаракатларни бошқариш, мигрантларнинг интеграцияси.

Ўзбекистон Марказий Осиё давлатларидан бири сифатида демографик жараёнларни бошқаришда ҳам қийинчиликларга дуч келмоқда. Ўзбекистоннинг ижтимоий-демографик сиёсати аҳоли сонининг барқарор ўсишига эришиш, фуқароларнинг ҳаёт сифатини ошириш ва мамлакатни барқарор

ривожлантиришга қаратилган. Ўзбекистон ва Марказий Осиёнинг бошқа мамлакатларида демографик жараёнлар ва аҳолини бошқариш комплекс ёндашувни талаб қилади.

Ўзбекистон, бошқа айрим давлатлар сингари, туғилишнинг юқорилиги, ўртача умр кўриш давомийлиги, миграция жараёнлари, ёшларнинг ишлаш учун хорижга чиқиб кетиши натижасида пайдо бўлаётган социал муаммолар яъни ажрашишлар сонининг ортиб бориши, болалар тарбияси билан боғлиқ муаммоларга дуч келмоқда. Демографик жараёнлар ва аҳолини самарали бошқариш учун Ўзбекистонга куйидаги чора-тадбирларни ўзида мужассам этган комплекс ёндашувни қўллаш тавсия этилади:

✓ Туғилиш даражасини ижтимоий рағбатлантириш: туғилиш даражасини оширишни рағбатлантириш учун турли имтиёзлар ва болали оилаларни қўллаб-қувватлаш дастурларини жорий этиш.

✓ Тиббий ёрдамнинг қулайлиги ва сифатини ошириш: аҳоли саломатлиги ва умр кўриш давомийлигини яхшилашга ёрдам берадиган барча фуқаролар учун сифатли тиббий ёрдам мавжудлигини таъминлаш.

✓ Таълим ва касбий тайёргарлик: таълим тизимини ривожлантириш ва аҳолининг билим даражасини ошириш, бу меҳнат ресурсларининг малака даражасини оширишга ва мамлакатнинг иқтисодий ривожланишига ёрдам беради.

✓ Меҳнат бозорини ривожлантириш ва ишсизликни қисқартириш: иқтисодий барқарорлик ва аҳолининг ижтимоий хавфсизлигини таъминлаш мақсадида янги иш ўринларини яратишга кўмаклашиш ва бандликни қўллаб-қувватлаш дастурларини ишлаб чиқиш.

✓ Миграция жараёнларини бошқариш: чет эллик мутахассисларни жалб қилиш дастурларини ишлаб чиқиш, шунингдек, меҳнат муҳожирларини уларнинг тажриба ва билимларидан фойдаланиш учун мамлакатга қайтариш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш.

✓ Кекса фуқароларни қўллаб-қувватлаш бўйича дастурларни яратиш: пенсия тизимини ривожлантириш, кексаларга муносиб турмуш шароитларини таъминлаш учун тиббий-ижтимоий ёрдам кўрсатиш.

✓ Демографик маълумотларни мониторинг қилиш ва таҳлил қилиш, Самарали сиёсат ва дастурларни ишлаб чиқиш учун мамлакатдаги демографик вазият тўғрисидаги маълумотларни

тизимли равишда йиғиш ва таҳлил қилиш муҳим аҳамиятга эга.

**Хулоса.** Ўзбекистонда демографик жараёнларни комплекс бошқариш мамлакатнинг барқарор ривожланишини таъминлаш учун турли соҳалар – соғлиқни сақлаш ва таълимдан тортиб, ижтимоий ҳимоя ва иқтисодиётгача бўлган мувофиқлаштирилган ўзаро ҳамкорликни тақозо этади.

### Адабиётлар

1. Райимжонов З.Х. Халқаро миграция кеча ва бугун // “Жанубий ўзбекистонда география мактабининг шаклланиши” Респ. илмий-амалий конф. материаллари. Термиз, 2006, 95-96 б.

2. Қаюмов А.А., Якубов Ў.Ш., Абдуллаев А.Г. Аҳоли географияси ва демография асослари (Ўқув қўлланма). Тошкент “Фан ва технология” нашрети. 2011 йил 154 бет.

## ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ, ИНВЕСТИЦИЯ ДАСТУРЛАРИ ВА УЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ДАВЛАТНИНГ РОЛИ

**Хўшбоқов Панжи Шойманович,**

Термиз давлат педагогика институти доценти,

тарих фанлари номзоди

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0003-0005-2453-4678>

**Аннотация.** Мазкур мақолада Ўзбекистоннинг тўқимачилик саноатидаги давлат сиёсати, инвестиция дастурлари ва уларни амалга оширишда ҳамда ривожлантиришда давлатнинг роли, тўқимачилик саноати тарихини таҳлил қилиш методологияси ҳақидаги фикр ва мулоҳазалар юритилган.

**Калит сўзлар:** тўқимачилик саноати, сиёсат, инвестиция, методология, инновацион тўқимачилик, модернизация, диверсификация, экспорт, импорт.

**Аннотация:** В данной статье собраны мнения и комментарии о государственной политике в текстильной отрасли Узбекистана, инвестиционных программах и роли государства в их реализации и развитии, а также методика анализа истории текстильной отрасли.

**Ключевые слова:** текстильная промышленность, политика, инвестиции, методология, инновационный текстиль, модернизация, диверсификация, экспорт, импорт.

**Annotation:** This article contains opinions and comments on state policy in the textile industry of Uzbekistan, investment programs and the role of the state in their implementation and development, as well as methods for analyzing the history of the textile industry.

**Keywords:** textile industry, policy, investment, methodology, innovative textiles, modernization, diversification, export, import.

**Кириш.** Ўзбекистоннинг тўқимачилик саноатидаги давлат сиёсати саноатни ривожлантириш ва

модернизация қилиш, унинг рақобатбардошлигини ошириш ва халқаро бозордаги мавқеини мустақкамлашга қаратилган. Бу ерда мен ушбу сиёсатнинг баъзи асосий жиҳатларидан бири ишлаб чиқаришни диверсификация қилиш яъни давлат саноатни рақобатбардош қилиш ва бозорнинг ўзгарувчан эҳтиёжларига мослашиш учун тўқимачилик маҳсулотларини диверсификациялашни давлат фаол қўллаб-қувватлайди. Бунга шунингдек, техник ва инновацион тўқимачилик материаллари каби янги тўқимачилик турларини ҳам ишлаб чиқиш киради.

**Тадқиқот методологияси.** *Тадқиқот жараёнида мавзуга оид статистик маълумотлар ва назарияларни ўрганишда мантиқий фикрлаш, илмий мушоҳада, тизимли ёндашув, статистик ҳамда қиёсий таҳлил усулларидан фойдаланилган.*

**Таҳлил ва натижалар.** Тўқимачилик корхоналарининг ташкилий-иқтисодий муаммолари В.Н.Привалов [2] ва Ю.В.Забайкинларнинг [3] томонидан илмий ишларида тадқиқ этилган. Лекин хориж тажрибасини шунчаки тўғридан-тўғри кўчириб қўллаб бўлмайди, уни атрофлича таҳлил қилиб мамлакатимизнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олиб янги стратегиялар ишлаб чиқилиши лозим. Ўзбекистонда саноат корхоналари ишлаб чиқаришни бошқаришнинг назарий жиҳатлари, уларни муносабатлари ва ташкил этиш хусусиятлари маҳаллий иқтисодчи олимлардан: И.И.Искандаров [4] ва С.С.Ғуломовлар [5] М.Болтабаев [6] ва Н.М.Махмудовларнинг [7] илмий ишларида ҳам тадқиқ этилган.

Пахта хомашёни енгил саноатнинг асосий бирламчи хомашёси ҳисобланганлиги учун биринчи галдаги вазифа мамлакатимиз тўқимачилик корхоналари томонидан уни қай даражада қайта ишланаётганлини таҳлил этиш лозим. Пахта толаси дунёнинг 90 га яқин мамлакатларида етиштирилади ва 100 дан ортиқ мамлакатларда истеъмол қилинади.

Жаҳонда истеъмол қилинадиган тўқимачилик толалари орасида пахта толасининг улуши 49 % ни ташкил этади [1]. Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг тўқимачилик саноатининг янги тарихини ўрганиш учун қуйидаги жиҳатларга аҳамият қаратиш лозим бўлиб қолди:

**Биринчидан,** тарихий маълумотларни ўрганиш: Ўзбекистон мустақилликка эришгандан кейинги тўқимачилик саноатига оид тарихий ҳужжатлар, статистик ҳисоботлар ва илмий тадқиқотлар таҳлилинини ўтказиш. Бу бизга соҳанинг муҳим босқичларини тушунишга ва асосий тенденцияларни аниқлашга ёрдам беради;

**Иккинчидан,** қонунчиликни ўрганиш: Ўзбекистон тўқимачилик саноатини тартибга солувчи қонун ва меъёрий ҳужжатларни ўрганиш. Бу бизга соҳанинг ҳуқуқий асосларини тушуниш ва ривожланиш учун мумкин бўлган чекловлар ва рағбатларни аниқлаш имконини беради;

**Учинчидан,** бозор муҳитини таҳлил қилиш: Ўзбекистон тўқимачилик бозорининг ҳозирги ҳолатини баҳолаш, асосий иштирокчилар, истеъмолчилар ва рақобатчиларни аниқлаш. Тўқимачилик маҳсулотларига талаб ва таклиф тенденцияларини ўрганиш;

**Тўртинчидан,** SWOT таҳлилинини ўтказиш: Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг кучли ва заиф томонларини, шунингдек, саноат дуч келиши мумкин бўлган имкониятлар ва таҳдидларни аниқлаш. Бу тўқимачилик саноатининг ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқишга ёрдам беради;

**Бешинчидан,** Жаҳон тажрибасини ўрганиш: Тўқимачилик саноатини ривожлантириш бўйича бошқа мамлакатлар тажрибасини ўрганиш. Ўзбекистон шароитида қўлланилиши мумкин бўлган илғор технологиялар, бошқарув усуллари ва маркетинг стратегияларини аниқлаш.

**Олтинчидан,** Мутахассислар билан маслаҳатлашиш: Ўзбекистон тўқимачилик



саноатининг янги тарихини таҳлил қилиш ва яратиш бўйича қўшимча маълумот ва маслаҳатлар учун олимлар, экспертлар, тадқиқотчилар ва соҳа вакиллари билан боғланиш ҳамда улар қарашларининг илмий асосларини таҳлил қилиш кабилардан иборат. Юқоридаги барча босқичларни босқичма босқич амалга ошириш орқали Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг мустақилликка эришгандан кейинги янги тарихини чуқур ва ҳар томонлама таҳлил қилиш ва ушбу муҳим тармоқни ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш имкониятига эга бўламиз.

Ўзбекистон 1991 йилда мустақилликка эришгач, тўқимачилик саноати мамлакатимиз иқтисодиётининг асосий тармоқларидан бирига айланди. Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг мустақилликдан кейинги янги тарихи бир қатор ўзгаришлар ва ривожланишлар билан тавсифланади, жумладан, пахта газламалар ишлаб чиқаришни ривожлантиришда Ўзбекистон ўзининг пахта етиштириши билан машҳур бўлиб, мустақилликка эришгандан сўнг пахта матолари ишлаб чиқаришни ривожлантиришни ўз олдига мақсад қилиб қўйди. Бу тўқимачилик саноати учун замин яратиш, ўзбек товарларини жаҳон бозорида рақобатбардош қилиш имконини берди.

Бу соҳада хорижий сармояни жалб қилишда ишлаб чиқаришни модернизация қилиш ва кенгайтириш мақсадида Ўзбекистон ҳукумати тўқимачилик саноатига хорижий сармояларни фаол жалб қилмоқда. Бу замонавий ишлаб чиқариш технологияларини жорий этиш, маҳсулот сифатини оширишга ҳам хизмат қилади.

Ўз навбатида, маҳсулот ассортиментини диверсификация қилиш орқали Ўзбекистонда тўқимачилик корхоналарида пахта газламаларидан ташқари бошқа турдаги матолар, ипак, жун, синтетик материаллар ҳам ишлаб чиқарила бошланди. Бу тўқимачилик маҳсулотларини сотиш бозорини кенгайтириш ва экспорт ҳажмини

ошириш имконини беради. Худудларда тўқимачилик саноатини ривожлантириш, республиканинг анъанавий тўқимачилик саноати жамланган марказий худудлари билан бир қаторда, республиканинг чекка худудларда ҳам саноатни ривожлантиришга қаратилган савий-ҳаракатлар амалга оширилмоқда. Бу мамлакатнинг турли худудлари ўртасидаги иқтисодий ривожланишдаги фарқни камайтиришга ёрдам беради.

Шу билан бирга, ихтисослаштирилган тўқимачилик зоналарини яратиш доирасида тўқимачилик саноатини ривожлантиришни рағбатлантириш ва инвестицияларни жалб қилиш мақсадида ихтисослаштирилган янги тўқимачилик зоналари ташкил этилмоқда. Бу ишлаб чиқаришни жамлаш ва корхоналарни ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш имконини беради. Бугунги кунда, халқаро брендлар билан ҳамкорлик қилиш тўғрисида тўхталсак, Ўзбекистон тўқимачилик корхоналари халқаро брендлар билан фаол ҳамкорлик қилаётганлигига гувоҳ бўламиз, бу эса савдо бозорини кенгайтириш ва ўзбек тўқимачилик маҳсулотларининг жаҳон миқёсида тан олиншини оширишга хизмат қилади, албатта.

Ўзбекистон 1991 йилда мустақилликка эришгандан сўнг мамлакатимиз тўқимачилик саноатида сезиларли ўзгаришлар ва ривожланиш юз берди. Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг мустақилликдан кейинги асосий кўрсаткичлари:

✓ **Ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиши:** Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг мустақилликка эришгандан сўнг ривожланишининг муҳим кўрсаткичи тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмларининг ошиши ҳисобланади. Мамлакатда тўқимачилик маҳсулотлари, жумладан, пахта матолари, кийим-кечак тўқимачилик, мебель тўқимачилиги ва бошқа маҳсулотлар ишлаб чиқарила бошланди.

✓ **Тўқимачилик маҳсулотлари экспорти:** Ўзбекистон тўқимачилик

маҳсулотларини жаҳон бозорларига фаол экспорт қила бошлади. Тўқимачилик маҳсулотлари экспорти мамлакатимизда валюта тушумларининг асосий манбаларидан бирига айланиб бормоқда.

✓ **Янги иш ўринларини яратиш:** Тўқимачилик саноатининг ривожланиши мамлакатда янги иш ўринлари яратилишига хизмат қилди. Бу ишсизлик даражасини пасайтириш, аҳолининг ижтимоий-иқтисодий аҳволини яхшилашга хизмат салмоқли ҳисса қўшади.

✓ **Замонавий технологияларга инвестициялар киритиш:** Ўзбекистон замонавий технологияларга фаол сармоя киритмоқда ва тўқимачилик саноатининг ишлаб чиқариш кувватларини янгиламоқда. Бу ишлаб чиқариш самарадорлиги ва маҳсулот рақобатбардошлигини ошириш имконини беради.

✓ **Тўқимачилик дизайнининг**

**ривожланиши:** Мустақилликдан сўнг Ўзбекистонда тўқимачилик дизайни фаол ривожланмоқда. Маҳаллий дизайнерлар нафақат ички, балки халқаро бозорларда ҳам харидоргир бўлган тўқимачилик маҳсулотларининг ноёб коллекцияларини яратмоқда.

✓ **Хорижий ҳамкорлар билан ишлаш:** Ўзбекистон тўқимачилик соҳасида хорижий компаниялар билан ҳамкорликни фаол ривожлантирмоқда. Бу тажриба, технологиялар алмашинувида кўмаклашиши, ўзбек тўқимачилик маҳсулотлари бозорларини кенгайтириш учун хизмат қилади.

**Хулоса.** Шундай қилиб, Ўзбекистон тўқимачилик саноати мустақилликка эришгандан сўнг сезиларли ўсиш ва ривожланишни кўрсатди, бу эса мамлакат иқтисодиётига ижобий таъсир кўрсатиб, маҳаллий аҳоли турмуш шароитини яхшиламоқда.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони. // Халқ сўзи, 2017 йил 8 февралдаги 28 (6722) - сони.
2. Привалов В.Н. 2005 г. Кострома. «Организационно-экономическое обеспечение повышения эффективности использования потенциала производства текстильной технологической оснастки» кандидатская диссертация.
3. Забайкин Ю.В. «Совершенствование организации производства на текстильных предприятиях» кандидатская диссертация. 2006 г. Москва.
4. Искандаров И. Экономические проблемы развития текстильной промышленности в Узбекистане. -Т. 1969 й.
5. Ғуломов С.С. Ишлаб чиқариш менежменти. - Т.: 2013 й.
6. Болтабоев М.Р. Тўқимачилик саноатида маркетинг стратегияси. Монография. - Т.: ФАН, 2004.
7. Махмудов Н.М..Пахтани қайта ишлаш саноатида ишлаб чиқариш ва иқтисодий жараенларни прогнозлаштириш усуллари. - Т.: 1992 й.

## TOXARISTON HUDUDIDAGI ILK O'RTA ASRLAR DAVRI YODGORLIKARIDAGI ARXEOLGIK TADQIQOTLAR TARIXIDAN

**Abulakimova Diljaxon Boltayevna,**

Termiz davlat universiteti Akademik litseyi o'qituvchisi,

**Abduqayumov Asror Raimovich,**

Termiz davlat univursiteti Arxeologiya kafedrasini mudiri,

tarix fanlari nomzodi, dotsent

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0003-0015-2453-1134>

**Annotatsiya:** Maqolada Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim o'rin tutgan Toxariston tarixiy-madaniy viloyatida ilk o'rta asrlar davriga oid arxeologik yodgorliklarda olib borilgan arxeologik qazishmalar tarixshunoslik jihatidan tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Toxariston, ilk o'rta asrlar, arxeologik yodgorliklar, san'at, madaniy va savdo aloqalar.

**Аннотация:** В статье анализируются некоторые историографические вопросы раскопок, проведенные на археологических памятниках раннего средневековья в историко-культурном регионе Тохаристана.

**Ключевые слова:** Тохаристан, раннее средневековье, археологические памятники, искусство, культурные и торговые связи.

**Resume:** The article analyzes some historiographical issues of excavations carried out at archaeological sites of the early Middle Ages in the historical and cultural region of Tokharistan.

**Key words:** Tokharistan, early Middle Ages, archaeological sites, art, cultural and trade relations.

Markaziy (O'rta) Osiyo mintaqasidagi qadimgi tarixiy-madaniy viloyatlaridan biri Toxaristonda ilk o'rta asrlar davrida sodir bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy-siyosiy voqealar mazkur davrdagi nafaqat ichki, balki, xalqaro munosabatlarning rivojlanishiga ham jiddiy ta'sir o'tkazgan. Sodir bo'lgan voqeliklarni manbalar asosida chuqur tahlil etish tarixshunoslik oldida turgan dolzarb

masalalardan biri hisoblanadi. Ilk o'rta asrlarda mintaqada yuz bergan keskin siyosiy-harbiy vaziyat tufayli mazkur davrga tegishli yozma manbalar afsuski bizning davrimizgacha to'liq yetib kelmagan, manbalarning saqlanib qolgan qismidagi ma'lumotlar esa Toxariston tarixiga doir fragmentar (uzuq-yuliy) xususiyatga ega, shu sababli ulardan tarixiy jarayonlarni yoritishda to'laqonli ma'lumot ololmaymiz. Bugungi kunga qadar tarixiy o'lka hududida saqlanib qolgan arxeologik yodgorliklarda amalga oshirilgan qazishmalar hamda ular asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar bo'yo'nalishdagi "kemtik"ni o'ziga xoz tarzda to'ldiradi.

Ma'lumki, Toxariston hududi ilk o'rta asrlar arafasida o'z davrining yirik saltanatlaridan biri Kushon podsholigining tarkibiy qismi hisoblangan. Toxaristonning shimoliy qismini ishg'ol etgan Surxondaryo viloyati hududida aniqlangan, ilk o'rta asrlar davriga tegishli arxeologik yodgorliklarining aksar qismi Kushon podsholigi tarixining uzviy merosi sifatida baholanadi. XX asrning 40-yillarida boshlangan tizimli arxeologik tadqiqotlar davomida bu yo'nalishda katta natijalarga erishilgan. Jumladan, XX asrning 30-yillarida S.P.Pavlov tomonidan "Arxeologiyada aerofotosuratlardan foydalanish" mavzusidagi maqola nashr etiladi. Xuddi shu yillarda M.V.Voyevodskiy Amudaryoning o'rta asr kanallarini tadqiq etishda aerofotosuratga olish usulidan foydalanadi. U bilan bir vaqtda V.A.Shishkin samolyot vositasida qadimgi Termiz topografiyasini o'rgangan. Ushbu ilk izlanishlar viloyat hududida arxeologik

tadqiqotlarning yanada rivojlanishiga zamin yaratgan. Aynan ushbu arxeologik kuzatuv va izlanishlar natijasida hozirgi Surxondaryo viloyati hududida ilk oʻrta asrlar davri arafasida mavjud boʻlgan 26 ta Kushon davriga oid aholi manzilgohlari – koʻhna shahar, qalʼa, mudofaa inshootlariga ega qishloq-qoʻrgʻonlar, qishloq manzilgohlari aniqlangan (1, b.25).

Kushon podshohligining zaiflashuvi uning tarkibidagi viloyatlarda boʻlgani kabi Toxaristonda ham mahalliy zodagonlarning mavqei kuchayib borishi bilan bir qatorda oʻzaro urushlar, podshohlik hududiga Sosoniylar Eroni qoʻshinlari, shuningdek, koʻplab chorvador qabilalarning bostirib kirishiga sabab boʻladi. Bu holat oʻz navbatida baʼzi aholi manzilgohlarining qisman yoki butunlay vayron boʻlishiga olib kelgan. Qazishmalar Amudaryoning oʻng qirgʻogʻida joylashgan kushon davri aholi manzilgohlaridan 4 tasi - Xotinrobod, Xoʻjakulsuar, Ayritom (1, b. 27) va Kampirtepa qalʼalari oʻz faoliyatini toʻxtatganligini koʻrsatadi. Shu bilan birga Kushonlar davri yodgorliklarida ilk oʻrta asrlarga kelib hayotning yoʻq boʻlib ketishi birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich jarayon sifatida sodir boʻlganligini qayd etish lozim. Bu holat butun Kushon davlati hududi milodiy IV-V asrlarga kelib keskin siyosiy vaziyat tus olgan mintaqaga aylanganligidan dalolat beradi. Qazishmalar Kushonlar davridagi aholi punktlari barchasi ham V asrgacha mavjud boʻlmagan, ularning hammasi ham arablar istilosi arafasida faoliyat koʻrsatmagan, degan xulosa chiqarishga asos boʻladi. Jumladan, milodiy V asrga tegishli, arxeologik jihatdan oʻrganilgan 13 ta yodgorlikdan Sherobod vohasida mavjud boʻlgan Kushonlar davri manzilgohlari 8 ta – Oqqoʻrgʻon (2, b.46), Choʻponata, umumiy maydoni ikki qismidan iborat Talashkantepa II 5 gektar, Xalinchaktepa, Anjirtepa I, Xushvaktepa, Ikkizaktepa va Shoʻrtepa butunlay tanazzulga yuz tutgan, qolgan aholi manzilgohlarida esa (13 ta) hayot davom etgan. Kartografiya maʼlumotlariga qaraganda, vohalar chekkasida joylashgan yodgorliklar sonining qisqarishi munosabati bilan markaziy

(masalan, Budrach va Hosiyattepa) kichik aholi manzilgohlarining atrofi kichik manzilgohlar hisobiga jadallik bilan oʻzlashtiriladi. Hozirgi Angor vohasidagi qadimgi Zang sugʻorish tizimi havzasida atrof hududi jadallik bilan oʻzlashtirilgan bu kabi markaziy aholi manzilgohi sifatida taraqqiy etgan Zartepa qalʼasini misol keltirish mumkin. Qazishmalar Zartepa qalʼasi negizida aholi manzilgohlari sonining ortib borishi bilan voha markazi Zartepadan turli jihatlariga koʻra yanada qulay oʻrinni egallagan Qulagʻlitepaga koʻchgan, vohada aholi manzilgohlarining soni esa 3 barobarga oshgan. Yangidan oʻzlashtirilgan aholi manzilgohlari egallagan maydoni jihatidan 0,5 ga dan 3 ga gacha boʻlgan, maydoni asosan 1-3 gektar boʻlgan kushon davri aholi manzilgohlari (Xayrobodtepa va boshqalar) atroflari ham intensiv ravishda oʻzlashtirishda davom etgan. Shu sababli V-VIII asrlardagi aholi manzilgohlari orasida maydoni 0,5 ga boʻlganlari ustunlik qiladi, bu kabi yodgorliklarning soni 13 tani tashkil etadi. Termiz atrofidagi irrigatsiya tizimi havzasida aholi manzilgohlari sonining kamayishi tufayli Koʻhna Termizning Qoratepa, Fayoztepa (3, b.61) kabi madaniy markazlari oʻz faoliyatini toʻxtatadi. Umuman olganda, ilk oʻrta asrlarda Kushonlar davriga oid maʼlum 12 ta manzilgohdan 8 tasi oʻz faoliyatini toʻxtatgan, ulardan 4 ta manzilgohi: shartli B-46, B-47 raqamli manzilgohlar, Xoʻjakamol (B-48) va B-48 va Tollitogʻora oraligʻidagi nomsiz aholi manzilgohi (B-112) vayron boʻlgan. shartli ravishda 16-17-18-son bilan roʻyxatga olingan 3 ta aholi manzilgohlari V-VIII asrlarda vujudga kelgan. Koʻhna Termizga janubi-sharqiy tomondan tutash 10-15 km masofadagi bu manzilgohlar ham V-VIII asrlarda vujudga kelgan. Surxondaryo quyi oqimining chap qirgʻogʻida aniqlangan aholi manzilgohlaridan 4 tasi ham aynan V-VIII asrlarda vujudga kelgan, kushon davriga tegishli 7 ta manzilgoh esa aholi sonining koʻpayishi munosabati bilan yiriklashgan. Qazishmalar tahlillariga koʻra Surxondaryoning quyi oqimining oʻng qirgʻogʻi va uning yuqori oqimidagi aholi manzilgohlarida ham xuddi shunday manzara



kuzatilgan.

V-VIII asrlarda 10-20 ga maydonni egallagan bir qancha kichik markazlar yoki shahar tipidagi aholi manzilgohlari ham paydo bo'ladi. Bularga Qulag'litepa, Namozgohtepa, Do'rmontepa va Kofirqal'a kabi yodgorliklarni kiritish mumkin. Ularning bir qismi, masalan, Qulag'litepa, Hosiyattepa kushon manzilgohlari negizida rivojlangan. Ular, eng avvalo, to'rtburchak yoki kvadrat shaklda bo'lganligi va manzilgohning bir tomonida (Xosiyattepa) joylashgan mustahkam qo'rg'on yoki shaharcha asosiy hududining qaysidir burchagini egallab turgan burchak minoralari, chiqib turuvchi to'rtburchak shaklidagi qo'rg'on bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, yangi aholi manzilgohi (maydoni 10-20 gektar) markazda (Navonaktepa, Kofirqal'a) qo'rg'on joylashgan kvadrat yoki to'rtburchak shaklda yoki ko'pburchakligi bilan ajralib turadi (4, b.49). Qazishmalar tahliliga ko'ra V asrning ikkinchi yarmi-VI asr boshlarida Toxariston hududida kushon shahar markazlarining butunlay tanazzulga uchrashi yoki sezilarli darajada zaiflashishi tufayli kichikroq shaharlar soni ortgan, degan xulosaga kelish mumkin. O'z navbatida, kichik aholi manzilgohlarining ichki rejalashtirish tuzilmasida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan (5.; 6).

Shimoliy Toxaristonning ilk o'rta asr monumental san'ati dunyoviy va diniy xarakterdagi monumental haykaltaroshlik va rangtasvir namunalari, shuningdek, o'yilgan yog'och parchalari bilan ifodalanadi. Alohida qiziqish uyg'otadigan va alohida o'rganishga arziydigan Kuyovqo'rg'on haykali Shimoliy Toxaristondagi monumental san'atining ilk namunalariga kiradi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, Kuyovqo'rg'on qal'asida 10-12 ta haykal bo'lgan. Vayronalar ichidan loydan yasalgan haykaltaroshlik parchalari bilan bir qatorda, rasmlari bo'lgan alohida gips bo'laklari ham topilgan, bu figuralar qo'yilgan devor bo'shliqlarining dekorativ dizaynini tashkil etgan. Rasmning bo'laklarida faqat o'simlik kurtaklarini eslatuvchi tekis va egri chiziqlar ko'rinadi. Hozirga qadar Kuyovqo'rg'on haykaliga

sosoniylarning ta'siri borasida tadqiqotchilar orasida turli yondashuvlar mavjud. Ma'lumki, ayrim tadqiqotchilar numizmatik ma'lumotlar asosida Baqtriya-Toxariston tarixida sosoniylar Eron qo'shinlarining yurishlari bilan bog'liq bo'lgan kushon-sosoniylar bosqichini ajratib ko'rsatadilar. Toxariston san'atida so'nggi Kushon va Kushondan keyingi davrda sosoniylar tasviriy majmuasining elementlari paydo bo'ladi. Bu ta'sir hamma ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganmi yoki faqatgina Toxariston zodagonlarining turmushida o'z aksini topganmi, bu masalalar qo'shimcha izlanishlar amalga oshirishni taqozo etadi. Har qanday holatda qazishmalar davomida qo'lga kiritilgan turfa artefaktlar ilk o'rta asrlarda Toxariston nafaqat Sosoniylar Eroni, balki uzoq-yaqin mamlakatlar va xalqlar bilan izchil savdo-iqtisodiy va madaniy munosabatlarni olib borgan.

V-VIII asrlarda Toxariston rangtasviridagi yangi rivojlanish jihatlari bilan bir qatorda oldingi tasviriy an'analar seziladi. Jumladan, Dilbarjin yodgorligining so'nggi Kushon davri rasmlarida bu holat yaqqol seziladi. Tadqiqotchi G.A.Pugachenkova Dilbarjin rasmlari va Bolaliktepa rasmlarining stilistik yaqinligi haqida xulosalar chiqargan, bu topilmalar V asr oxiri-VI asr boshlari bilan davrlashtiriladi (7, 6.89). Dilbarjinning so'nggi kushon rassomchiligi an'alarini Bolaliktepa devoriy suratlarida kuzatish mumkin. Ammo, umuman olganda, ikkinchisi Dilbarjin kartinalaridan ham syujet, ham badiiy xususiyatlar bilan ajralib turadi. Bolaliktepa devoriy suratlarida marvarid medalyonlarida portret tasvirlangan matolar tasvirlangan: cho'chqa boshi va VII asrga xos "Sosoniy nishoni" (ikki qo'chqor boshli naqsh) va boshqalar (8, B.61).

Tadqiqotlar ilk o'rta asrlarda Shimoliy Toxariston buddizm dini va an'alarining sharqiy yo'nalishda tarqalishida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajarganligini ko'rsatadi. Buddaviylik suratlarini bilan bog'liq ko'plab elementlar mahalliy ta'sirlar ostida yanada sayqal topgan va Toxariston orqali So'g'dning ilk o'rta asrlar san'atida namoyon

bo'lgan. Ilk o'rta asr Shimoliy Toxariston san'ati va hunarmandchiligi Jumalaktepa va Bolaliktepa qal'alaridan o'ymakor yog'och buyumlar bilan ham ifodalangan. Jumalaktepada bu mahsulotlar chuqur relyef texnikasida tayyorlangan. Bu yerda barglar yoki katta disklar bilan tasvirlangan yog'och panellar devorlarni bezab turgani, inshoot

shiftlari ham katta, turfa jimjimador tasvirli doiralar bilan bezatilgan. Bu tadqiqotlarning izchil tahlillari asosida Toxaristonning ilk o'rta asrlar davri madaniy va savdo-iqtisodiy aloqalariga doir izlanishlarni amalga oshirish Vatan tarixining eng muhim davri to'g'risidagi ma'lumotlarni yanada boyitishda muhim o'rin tutadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пугаченкова Г.А. К изучению памятников северной Бактрии //ОНУ. 1968. № 8.
2. Пидаев Ш.Р. Поселения Кушанского времени северной Бактрии. Ташкент: Фан, 1978.
3. Альбаум Л.И. К вопросу об исторической топографии городища Старого Термеза//Творческое наследие народов Средней Азии в памятниках искусства, архитектуры и археологии. Тезисы докладов. Ташкент: Изд-во ФБ АН УзССР, 1985.
4. Ртвеладзе Э.В. К характеристике раннесредневековых памятников Чаганаиы//ИМКУ. Вып. 17. Ташкент: Фан, 1982.
5. Пугаченкова Г.А. Бактрийский жилой дом/К вопросу об архитектурной типологии//История и культура народов Средней Азии. М.: Наука, 1976.
6. Воронина В.Л. Древняя строительная техника Средней Азии//АН. Вып. 3. М.: Стройиздат, 1953.
7. Альбаум Л.И. Балалык-тепе//К истории материальной культуры и искусства правобережного Тохаристана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1966.
8. Аннаев Т.Дж. Раннесредневековые поселения северного Тохаристана. – Ташкент, 1988.

## ИБТИДОЙ ДАВР ТАРИХИ ҲАҚИДАГИ БИЛИМЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ДОИР

**Абдуқайюмов Асрор Раимович,**

Термиз давлат университети Археология кафедраси мудири,  
тарих фанлари номзоди, доцент

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0003-0015-2453-1134>

**Аннотация:** мақолада хорижда нашр этилган тарихий илмий адабиётларнинг чуқур таҳлили асосида илм-фанда инсониятнинг ибтидоий даври тарихи тўғрисидаги билимларнинг шаклланиши ва ривожланиши масалалари тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** Буюк географик кашфиётлар, тарихий таҳлил усуллари, ёввойилик, варварлик, фуқаролик жамияти, цивилизация.

**Аннотация:** в статье на основе

углубленного анализа историко-научной литературы, изданной за рубежом, исследуются вопросы формирования и развития знаний об истории первобытной эпохи человечества.

**Ключевые слова:** Великие географические открытия, методы исторического анализа, дикость, варварство, гражданское общество, цивилизация.

**Resume:** Based on an in-depth analysis of historical and scientific literature published

abroad, the article examines the formation and development of knowledge about the prehistory of mankind.

**Key words:** Great geographical discoveries, methods of historical analysis, savagery, barbarism, civil society, civilization.

Ибтидоий тарих одамзот ҳаётидаги энг узоқ давом этган тарихий давр ҳисобланади. Бу даврда одамзод дастлабки меҳнат куролларини яшани ўзи учун кашф этди, илк хўжалик соҳалари – термачилик ва овчилик асосида кичик гуруҳларга бирлашиб кун кечирди. Ўз даври учун беқиёс кашфиётлар – оловнинг ўзлаштирилиши, найза ва ўқ-ёйнинг ясалиши, мавсумий (вақтинчалик) турар-жойлар барпо этишнинг йўлга қўйилиши одамзоднинг кейинги тараққиёти учун замин яратди. Ибтидоий одамларни ўраб турган атроф-муҳитнинг ўзига хослиги, биргаликда яшаш жараёнида дуч келинаётган офатлар, йўқотишлар ва яқин одамлардан жудо бўлиш каби табиий ҳодисалар ўша давр одамларининг маънавий-руҳий оламига жиддий таъсир кўрсатди. Бу эса ғайритабиий кучлар мавжудлигига ишониш, ҳатто шундай кучларга сиғиниш инъикоси сифатида илк эътиқод шакллари – анимизм, фетишизм, тотемизм ва сеҳргарликнинг пайдо бўлиши, диний маросим-ритуаллар тизимининг шаклланиши ҳамда диний тасаввурларнинг ривожланиб боришига туртки бўлди. Одамнинг ижодкорлик салоҳиятини акс эттирувчи қоятош суратлари ва най, табл (доира) каби ибтидоий чолғу асбобларининг ясалиши санъат ва маданият тараққиётига асос бўлди. Ишлаб чиқарувчи хўжалик соҳалари – деҳқончилик (зироатчилик) ва чорвачиликка ўтилиши тараққиётнинг кейинги босқичи – шаҳар маданияти ва давлатчилик жараёнига йўл очди. Айнан мана шу жиҳатларнинг ўзиёқ одамзодни табиатда бошқа жонзот ва ҳайвонлардан фарқли, ўзига хос хусусиятга эга эканлигини кўрсатади. Қолаверса, одамзод томонидан амалга оширилган кашфиёт ва ихтиролар меросийлик ҳамда ворисийлик

анъаналари асосида авлоддан-авлодга ўтиб, янада такомиллашиб бориши ҳам ушбу хусусиятнинг узвий ва ажралмас қисми ҳисобланади.

Инсониятга хос яна бир муҳим жиҳат - ўзликни англашга бўлган интилиш ибтидоий тарихни, айниқса, одамзоднинг келиб чиқиши, кундалик ва умумий турмуш-тарзининг ривожланиб бориши масалаларини изчил ўрганишни тақозо этади. Шу сабабли қадимги даврларданок одамзоднинг ибтидоий тарихига доир билимлар юзага келган ва мустаҳкамланиб борган. Шубҳасиз, бу борада бизгача сақланиб қолган айрим ёзма манба маълумотлари муҳим аҳамиятга эга. Шунини қайд этиш керакки, одамзоднинг ибтидоий тарихига доир ёзма маълумотлар антик давр муаррихларининг асарларида учрайди. “Тарих отаси” Геродот ўзининг машҳур “Тарих” асарида мил.авв. I минг йилликда ҳозирги Туркия Республикасининг Анталия ва Мугла вилоятлари ҳудудида ҳали қариндош-уруғчилик муносабатлари шароитида яшаган, хусусий мулкчилик, маълум бир қонунлар асосидаги давлатчилик тизими мавжуд бўлмаган қадимги аҳоли – ликияликлар ҳаёти тўғрисида қизиқарли маълумотлар қолдирган. Жумладан, ликияликлар ўзаро ижтимоий муносабатларида она уруғи юқори мавқе эгаллаган, шунингдек, ликиялик хотин-қизлар умр йўлдошларини ўзлари танлаш имконига эга бўлган (1, 66-б), сарматларда эса аёллар жанговар тарбия топган ҳамда фақатгина ўз душманларидан бирини қатл этганидан сўнг турмушга чиқиши мумкин бўлган (2, 216-б). Ликияликлар каби қариндош-уруғчилик муносабатлари шароитида яшаган жамоалар турмуш тарзи, урф-одат ва анъаналари ҳақидаги тарихий маълумотларни Ксенофонт, Страбон, Юлий Цезар, Тацит асарларида ҳам учратиш мумкин. Бу маълумотлар муаллифларнинг ўзлари гувоҳ бўлган, ҳеч бўлмаганда турли сабаб билан шу юртларда бўлиб қайтган савдогар, сайёҳ ёки элчилардан эшитганлари асосида қайд этилган воқеликлар ҳисобланади. Антик

давр муаллифларининг ўзлари бу маълумотлар асосида грек ёки римликлар аждодларининг ибтидоий тарихини ёритиш учун асос сифатида фойдаланмаганлар. Юқорида тилга олинган асарларда эллин маданиятига мансуб бўлмаган ва грек ёки қадимги италян тилида сўзлашмаган кўплаб қabila ва жамоалар умумий “варварлар” номи билан тилга олинади. Ўрта асрларда Марказий Осиёнинг кенг даштларида тарқалган кўплаб туркий қавмларнинг жойлашуви, урф-одатлари, анъаналари, сўзлашув тили тўғрисидаги қимматли маълумотлар Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғатит-турк” асарида тилга олинган. Бу ва бошқа асарларда ҳам антик давр муаррихлари асарларида бўлгани каби туркий қабилаларнинг ибтидоий давр тарихига доир таҳлиллар кузатилмайди.

Ибтидоий давр тарихи ҳақидаги замонавий илмий билимларнинг ривожланиши Ғарбий Европада XIV-XV асрларда вужудга келган маърифатпарварлик (гуманизм) ҳаракатининг кенг ёйилиши билан чамбарчас боғлиқдир. Ушбу ҳаракатнинг кенг ёйилиши қитъа халқларининг хусусий мулкчилик ва давлатчилик шаклланишига бўлган даври тарихига доир муҳим изланишлар амалга оширилишига замин яратган эди. Бу борада илк ҳаваскор археологик қазилмалар давомида топилган тош қуроллар тўғрисидаги таҳлиллар муҳим аҳамиятга эга бўлди. Жумладан, XVI аср охирида Рим папаси ҳузуридаги антиквар буюмлар нозирлиги раҳбари лавозимда фаолият юритган Микеле Меркати биринчилардан бўлиб узоқ давр мобайнида тўпланган, шунингдек, қазилмалар давомида кўлга киритилган турли тош буюмлар (тош болталар, ўқ-ёй учлари ва ҳ.к.) аслида металл нималигидан беҳабар бўлган, энг қадимги даврда яшаб ўтган одамларнинг кундалик турмушида фойдаланган меҳнат қуроллари эканлигини қайд этди. Голландиялик Й.де Лайерт 1646 йилда, Англиялик Ж.Обри 1659 йилда эълон қилган асарларида ҳам

тошдан ясалган бу каби буюмлар кундалик турмушда фойдаланилган меҳнат қуроллари эканлигини таъкидлашган. 1685-1696 йилларда Нормандия(Франция)даги Кошерел худудида қазилмалар олиб борган Бернар де Монфокон қадимги қабрлардан топилган тош буюмларни таҳлил этиш асосида, қадимги одамлар улардан “тош болталар” сифатида фойдаланган, деган хулосага келди. Ушбу ёндашувлар асосида Ғарбий Европада антик давргача бўлган (ибтидоий) тарихий воқеликлар тўғрисидаги илк тасаввурлар ва билимлар шаклланди (3, 12-21-б).

Ибтидоий давр тарихи тўғрисидаги билимлар XV-XVIII асрлардаги Буюк географик кашфиётлар ҳамда XVIII асрда Европа давлатларининг Америка, Африка, Осиё, Австралия қитъалари ва Океания ҳавзасидаги мустамлакачилик фаолиятлари билан боғлиқ равишда ривожланиб борди. Айнан шу ҳудудларда тараққиётнинг нисбатан куйи босқичларида яшаётган жамоалар ва қабилалар вакиллариининг турмуш тарзи, анъаналари ва кадриятлари европаликларнинг ибтидоий тарих тўғрисидаги билимларини тубдан ўзгартириб юборди. Буюк географик кашфиётлар натижасида европаликлар томонидан “ўзлаштирилган” ҳудудларда тарихан яшаб келаётган маҳаллий аҳоли ҳақидаги этнографик кузатув ва тадқиқотлар бу йўналишдаги энг муҳим қадам бўлди. Ушбу этнографик кузатув ва тадқиқотлар ибтидоий давр тарихи юзасидан вужудга келган илмий ёндашув, концепция ва таълимотларга асос бўлди.

Шуни алоҳида қайд этиш керакки, аввало табиий шарт-шароит ҳамда ижтимоий тараққиёт даражасига кўра, европаликлар томонидан кашф этилган ҳудудлар аҳолиси қисман кийим-кечак кийган, аксарият кўпчилиги эса деярли кийимсиз ҳолатда яшар эдилар. Шунингдек, улар сўзлашаётган турли тиллар ҳам европаликларга нотаниш бўлиб, диний маросимларда ҳам ўзига хослик сақланиб қолган эди. Энг муҳими,



маҳаллий жамоаларнинг кўпчилигида мулккий тенгсизлик, иқтисодий ҳаётида хусусий мулкчилик, давлатчилик ва давлат бошқаруви тузилмалари ҳам мавжуд эмас эди. Оқибатда Ғарбий Европага хос замонавий бошқарув, архитектура ва технологик ютуқлардан беҳабар бўлган бу каби жамоалар вакилларига “ёввойилар” тамғаси урилди. Аслида, маҳаллий жамоалар ижтимоий тараққиётнинг турли даражаларида яшаётган, аксарияти ҳаётида аста-секинлик билан хусусий мулкчилик ва бошқарувнинг янги қоидалари шаклланаётган, яъни, ибтидоий даврнинг сўнгги босқичида кун кечираётган эди. Шу билан бирга кашф этилган ҳудудлардаги айрим жамоалар ҳаётида одамхўрлик (каннибализм), жамоанинг баъзи хотин-қизларига нисбатан шафқатсизлик ва хўрликлар ҳамда Ғарбий Европада қонунчилик билан мустаҳкамлаб қўйилган ахлоқ қоидаларига зид (асосан никоҳ ва жинсий) муносабатларнинг мавжудлиги маҳаллий жамоаларнинг баъзиларини “ёввойилар”, бошқаларини эса “варварлар” деб аталашига сабаб бўлди. Ушбу атамалар кейинчалик илм-фанда ибтидоий давр ҳақидаги билимларни тизимлаштиришда муҳим ўрин эгаллади.

Европаликлар томонидан кашф этилган ҳудудлардаги маҳаллий аҳолининг турмуш-тарзи, анъаналари ва маросимларини ўрганиш борасидаги илк этнографик кузатувлар ҳамда тадқиқотлар француз миссионерлари Жозеф-Франсуа Лафито томонидан амалга оширилди. Ж.Ф. Лафито Франция маъмурияти томонидан Шимолий Американинг Канавага (Со-Сен-Луи, ҳозирги Канада) ҳудудидаги йирик ирокез қабилаларини ўрганишга юборилган миссияда иштирок этган. Миссиянинг 1712-1717 йиллардаги фаолияти давомида Ж.Ф.Лафито ирокезларнинг тилини ўрганади, оила-никоҳ муносабатлари, уруғчилик тизими, сиёсий тузилмаси ҳамда кундалик турмуш-тарзида катта ўрин тутган катта (узун) уй ҳақидаги тўлақонли маълумотлар тўплашга муваффақ бўлади. Ж.Ф. Лафито 1724 йилда ушбу маълумотлари асосида

махсус асар нашр эттирди. Ушбу асарида Ж.Ф.Лафито ўз этнографик кузатувлари натижаларини илк бор Европа халқларининг қадимий ўтмиши билан тарихий-қиёсий солиштириш усули ёрдамида таҳлил қилишга ҳаракат қилди. Ўз таҳлиллари натижасида этнограф Янги дунё аҳолиси(илм-фанда Америка қитъасининг барча маҳаллий жамоа ва қабилалари ҳинду номи билан тилга олинади)нинг ижтимоий муносабатлари, урф-одатлари, анъаналари ва маросимлари Европа халқларининг ибтидоий давр тарихи билан умумий хусусиятга эга эканлигини таъкидлади (4, -р.76). Шу билан бирга Ж.Лафито хиндуларнинг турмуш тарзи ва Европа халқлари, жумладан, грекларнинг ибтидоий давр тарихидаги бу умумийлик ва ўхшашликни уларнинг бир ажоддан келиб чиққанлиги билан боғлиқ, деган хулосага келади. 1772-1775 йилларда Ж.Кук бошчилигидаги дунё бўйлаб саёҳат давомида Австралия ва Океания ҳавзасидаги географик кашфиётларда бевосита иштирок этган Георг Форстер аборигенлар турмуши ҳақида тўхталар экан, Таити ороли қабилаларидаги бошқарув жараёнлари Грециянинг Гомер даври (мил.авв. IX аср) қаҳрамонлари (масалан, Геракл) даври бошқаруви билан айнан ўхшашлигини таъкидлайди. Г.Форстер турли халқлар тарихининг маълум бир давридаги бу ўхшашлик хусусиятларини таҳлил қилар экан, Ж.Ф.Лафитодан фарқли ўларок, одамзод вакиллари дунёнинг қайси бурчагида ва бир-биридан алоҳида яшашидан қатъий назар, уларнинг ижтимоий муносабатлари ва турмуш тарзи умумий қонуниятлар асосида ривожланиб борган, деган хулосага келади (5, -р.567). Шу тариқа тарихий-қиёсий таҳлил усулининг ривожланиб бориши билан XVIII асрнинг охирига келиб илм-фанда одамзод тарихининг ёзма манбалар мавжуд бўлмаган илк даври, яъни ибтидоий тарих тўғрисидаги билимлар қарор топди.

Буюк географик кашфиётлар туфайли тарихий жараёнларни ўрганишда бир

қатор янги усулларнинг қўлланилиши Ғарбий Европада ибтидоий тарих тўғрисидаги билимларнинг янада ривожланишига асос бўлди. Тарихий изланишлар олиб боришдаги туб ўзгаришлар инсониятнинг ижтимоий ҳаёти одамзод насли географик жиҳатдан қайси ҳудудда турмуш кечиришидан қатъий назар тарихнинг умумий қонуниятлари асосида ривожланиши, яъни, “универсал тарих” тўғрисидаги ёндашувларнинг вужудга келишига тurtки берди. Жумладан, 1767 йилда Шотландиялик жамиятшунос Адам Фергюссон ўзининг “Фуқаролик жамияти тарихидан очерк” номли китобида биринчилардан бўлиб инсоният тарихининг умумий қонуниятлар асосида юз берадиган жараён, воқеа ва ҳодисалардан иборат эканлигини таъкидлаб, одамзод ўз тараққиётида умумий қонуниятлар асосида кетма-кет келувчи ёввойилик, варварлик ва фуқаролик жамияти босқичларини босиб ўтган, деган хулосага келди. Шунингдек, А.Фергюссон одамзоднинг ўзлаштирувчи хўжалик(овчилик ва термачилик)дан чорвачилик ва деҳқончиликка ўтиши ҳамда хусусий мулкчилик шаклланишини ёввойиликдан варварликка, ўз навбатида хусусий мулкчиликнинг узил-кесил қарор топиши ва шу асосда вужудга келган давлат идоралари томонидан қонуний жиҳатдан қатъий муҳофаза қилиниши варварликнинг фуқаролик жамиятига

айланганлигини белгиловчи омил бўлганлигини қайд этди (6, -р.69). А.Фергюссон томонидан одамзод тарихининг илк бор умумий қонуниятлар асосида даврлаштирилиши илм-фанда универсал тарих, шу билан бирга ибтидоий давр тарихи тўғрисидаги билимларнинг янада ривожланишига тurtки берди. Жумладан, 1777 йилда Г.Форстер денгизчи Ж.Кук бошчилигидаги 2-экспедиция юзасидан тайёрлаган расмий ҳисоботида ўзининг дунё айлана саёҳат давомида Океания ҳавзаси оролларидаги жамоалар турмушида мавжуд бўлган турфа ижтимоий муносабатлар, сиёсий тузилмаларни таҳлил қилар экан, одамзод тарихи ёввойилик (болалик), варварлик (ўсмирлик) ва маданийлик (навқирон, балоғатга етган) каби босқичлардан иборат, деган хулосага келади.

Шуни алоҳида қайд этиш керакки, илк бор инглиз тилида қўлланган “фуқаролик жамияти” тушунчаси латин тилидаги “civis (фуқаро)”, “civilis (фуқаролик)”, “civitas (шаҳар)” каби сўзлардан олинганлиги сабабли А.Фергюссон томонидан таснифланган, инсониятнинг ёввойилик ва варварликдан кейин шаклланган фуқаролик жамияти босқичи аста-секинлик билан дастлаб Ғарбий Европа, кейинчалик дунё илм-фанида цивилизация номи билан кенг ўрин олди.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Геродот. История в девяти книгах. Пер. и прим. Г.А. Стратанского. – Ленинград: Наука, 1972. Книга первая: Клио.
2. Геродот. История в девяти книгах... Книга четвёртая: Мельпомена.
3. Abduqayumov A.R. Arxeologiya: tosh davri. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va ta'lim, 2023.
4. Joseph François Lafitau. Moeurs Sauvages Américains comparées aux mœurs des premiers temps. 2 v., Paris, 1724.
5. Georg Forster, A Voyage Round the World in His Britannic Majesty's Sloop, Resolution, Commanded by Capt. James Cook, During the Years 1772, 3, 4, and 5. White, London, 1777.
6. Adam Ferguson, An Essay on the History of Civil Society. 5th ed. London: T. Cadell, 1782.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATIDA MADANIYAT MUASSASALARINING FAOLIYATI

**Kadirova Yakitjan Buvabayevna,**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0008-0015-6676-4511>

**Annotatsiya:** Mamlakat fuqarolarining ma'naviy - ma'rifiy jihatdan shakllanishida joylardagi ma'naviy - ma'rifiy muassasalar muhim o'rin tutmoqda. Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, Termiz shahri aholisi ibratli tadbirlarni olib borgan. maqolada mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida madaniyat muassasalarining faoliyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy - ma'rifiy muassasalar, Surxondaryo viloyati, Mannon Uyg'ur nomidagi viloyat musiqa drama teatri, Sobir Termiziy nomidagi axborot-kutubxona markazi, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari.

**Аннотация:** В духовно-просветительской жизни работников страны имеются важные духовно-просветительские вопросы. За годы независимости были проведены замечательные работы в культурно-просветительской деятельности Сурхандарьинской области. С другой стороны, жители Термеза оказали образцовую поддержку. В статье анализируется деятельность культуры Сурхандарьинской области в годы независимости.

**Ключевые слова:** духовно-просветительская сфера, Сурхандарьинская область, Уйгурский областной музыкально-драматический театр имени Маннона, информационно-библиотечный центр «Сабир Термизи», средние и специальные профессиональные учебные заведения.

**Annotation:** There are important spiritual and educational matters in the spiritual and educational life activities of the country's employees. In the years of

independence, remarkable works were carried out in the cultural and educational activities of Surkhondaryo region. On the other hand, the residents of Termiz provided exemplary support. The article analyzes the activity of culture in the Surkhondaryo region during the years of independence.

**Key words:** spiritual and educational spheres, Surkhondaryo region, Mannon Uyghur Regional Music and Drama Theater, Sabir Termiziy information-library center, secondary and special vocational education institutions.

**Kirish.** Mamlakatimizdagi madaniy - ma'rifiy muassasalarning faoliyati haqida fikr yuritganda, Surxondaryo viloyatida ibratli ishlarni e'tirof etish lozim.

Termiz va uning atrofi ko'hna madaniyat, nodir san'at, go'zal me'morchilik, she'riyat va adabiyot azal-azaldan taraqqiy etgan makon. Termiz shahrining buyuk namoyondalari - allomalar, ma'rifatparvarlar, mutafakkirlar, san'at arboblarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga oltin harflar bilan bitilgan.

**Adabiyotar tahlili va metodologiyasi.** Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni chuqur, har tomonlama tadqiq etishga, yutuqlar va mavjud muammolarni aniqlashga yordam bergan adabiyotlar yaratildi. Ayniqsa, bu boada B.S.Rahimov[3], M.S.Sohibovalarning[5] tadqiqotlari ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega.

Shuningdek, tadqiqot davomida atoqli olimlar, yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlardan ham foydalanildi. Jumladan, S.Tursunov, E.Qobilov, B.Murtazoyev, T.Pardayev[6]larning "Surxondaryo tarixi" asarida mustaqillik davri tarixi ham keng yoritilgan[7].

Hozirgi Surxondaryoning iste'dodli ustalari, musiqachilari, shoirlari, qo'shiqchilari, raqqos va raqqosalarining mahorati ajdodlarning tarixiy-madaniy merosi asosida sayqal topmoqda. Termiz turli tadbirlar o'tkaziladigan ma'rifiy-madaniy markazga aylanib bormoqda. Bu yerda ikki yilda bir bor Markaziy Osiyo baxshi shoirlari hamda oqinlarining Xalqaro festivali bo'lib o'tadi.

Termizda madaniy-ma'rifiy va teatrtomosh muassasalari ko'p. Mannon Uyg'ur nomidagi viloyat musiqa drama teatri ular orasida yetakchi hisoblanadi. 1935 yilda tashkil topgan bu san'at dargohi ijodiy jamoasi o'tgan davr ichida tarixiy va zamonaviy mavzuda qator spektakllarni sahnalashtirib, viloyat madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shdi. Teatr jamoasi repertuari yangi dramatik asarlar bilan boyib bormoqda. Teatr xalqaro va respublika miqyosidagi tanlovlarning sovrinli o'rinlariga sazovor bo'lgan.

Shaharda bolalar qo'g'irchoq teatri hamda havaskorlar teatri, qator klublar, san'at saroylari, kinoteatrlar, ko'plab ashula va raqs guruhlari, folklor-etnografik dastalari faoliyati uchun shart-sharoit mavjud. Viloyatda milliy qo'shiq va raqs san'ati rivojiga katta e'tibor qaratildi. 1997 yilda Termizda «O'zbekraqs»ning viloyat bo'limi ochildi. Bu jamoalar shahar hamda viloyat miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etishadi. Masalan, O'zbekistonning boshqa hududlarida kam uchraydigan "Sog'im qo'shiqlari" ("Xo'sh-xo'sh", "Turey-turey", "Churst-churs") sog'ilayotgan jonivorlarni tinchlantirish, erkalash va ularni iyydirish maqsadlarida keng qo'llanilgan raqs ko'rinishlari barcha tumanlarda bayram tadbirlarida olqishlarga sazovor bo'lgan, hatto respublika miqyosida uyushtirilgan "Navro'z" bayram tantanalarida ham muxlislar tomonidan yaxshi kutib olingan.

Xalqaro muzeylar kengashi a'zosi bo'lgan Termiz o'lkashunoslik muzeyida 72000 taga yaqin nodir eksponatlar saqlanmoqda. Muzeyning ilmiy kutubxonasida 13 mingta qo'lyozma va kitob

mavjud. Shuningdek, viloyat kutubxonasi, Termiz davlat universiteti, temiryo'lichilar madaniyat uyining kutubxonalari ham kitobxonlar xizmatida.

Termiz hayvonot bog'ida nodir hayvonlarning 140 ga yaqin turi mavjud. U O'zbekiston Respublikasidagi 2-hayvonot bog'i. Termiz hayvonot bog'i tajriba - botanika uchastkasida 120 turdan ortiq har xil mevali va manzarali daraxtlar va butalar o'stiriladi. Har yili "Qushlar bayrami", sayllar o'tkaziladi. 2001 yili Termiz hayvonot bog'i xalqaro andazalar talabiga javob beradigan tartibda qayta qurildi. Hayvonot bog'i MDHdagi barcha hayvonot bog'lari bilan aloqalarga ega[9].

Hozir Termiz shahrida «Jayhun» nashriyoti va bir nechta gazeta tahririyati ishlab turibdi. Shaharda joylashgan bosmaxonalarda «Surxon tongi», «Zarya Surxona», «Xalq yo'li», «Erkin so'z», «Surxon savdogari», «Adolat tarozisi», «Ma'naviyat gulshani», «Ayol va zamon», «Jayhun» - Teriz davlat universiteti xabarnomasi va boshqa gazetalar chop etiladi. Viloyat radiosi o'zbek, tojik va rus tillarida eshittirish olib boradi. Viloyat televideniesi ko'rsatuvlari dasturi yildan-yilga kengayib, mazmundor bo'lib bormoqda. Bunda «Ko'zgu-TV», «Ishonch», va «Adolat-TV» jamoat telekanallarining roli kattadir.

Hozir shaharda 3 ta suzish havzasi, 2 ta tennis korti, 14 ta ochiq tennis korti, 20 ta voleybol, 16 ta basketbol maydonchasi hamda qo'l to'pi bo'yicha 10 ta maydoncha va boshqa sport maydonchalari mavjud. Termizda sportning 17 turi bo'yicha ixtisoslashgan 8 ta sport maktabi ish olib bormoqda, ularning to'garaklariga 6000 dan ortiq o'quvchi muntazam qatnashib kelmoqda. Shahar sport qo'mitasining ikkita sport maktabida futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi, tennis, kurash, erkin kurash, karate va sportning boshqa turlari bo'yicha to'garaklar tashkil qilingan.

Shaharda 27 mingdan ziyod aholi, jumladan, 12 ming nafar ayol jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadi. 5 mingdan ziyod shahar aholisi sport to'garaklariga qatnashadi. Ularga 200

nafardan ortiq professional sport mutaxassislari rahbarlik qiladi.

«Sogʻlom avlod uchun» xalqaro xayriya jamgʻarmasi sovrini uchun 2001-yil 17-20 mayda oʻtkazilgan kurash boʻyicha respublika chempionatida surxondaryolik yigit-qizlar birinchi oʻrinni egallashdi. Oʻzbek kurashining butun jahonda tobora ommalashib borishida surxondaryolik mutaxassislar hamda sportchilarining xizmati juda katta. Milliy kurash boʻyicha Hakim at-Termiziy xotirasiga bagʻishlangan musobaqa hamda Oʻzbekiston Prezidentining sovrini uchun sportning shu turi boʻyicha xalqaro musobaqalar ilk bor Termizda oʻtkazilgani quvonarli holdir. 1999 yili Termizda oʻtkazilgan xalqaro turnirga “Osiyo” nomi berildi.

2002-yil Termizda “Jasorat bogʻi” tashkil etildi. Bu yerda “Insonlar va urushlar” xalqaro foto koʻrgazmasida minglab yurtdoshlarimiz ishtirok etdi. Bir paytlar qurila boshlanib, keyinchalik tashlab qoʻyilgan ikki qavatli bino qad rostladi. Endilikda bu yerda kinozal, 6000 dan ziyod kitobi boʻlgan kutubxona aholiga xizmat qilmoqda. 9 nomdagi gazeta va jurnallar muntazam kutubxonaga keltiriladi. Tikish-bichish, hisobchilik va kompyuter operatorlari oʻquv kurslari ham shu yerda faoliyat koʻrsatmoqda. Shuningdek, tarixiy muzey ham barpo etilgan. Surxondaryo viloyatining faxriy olimlari, urush qatnashchilarining arxiv hujjatlari, surʼat – lavhalar jamlangan[11].

Har bir yurt, elning sinalgan qahramonlari, maʼnaviy - madaniy yodgorliklari boʻladi. Surxon vohasining ana shunday qadriyat va oriyat ramzi hisoblangan qahramonlari, koshonalari, moʻtabar qadamjolari bisyordir. Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi sharofati bilan Alpomish bogʻining tashkil etilishi va uning markazida afsonaviy pahlavonga yodgorlik oʻrnatilishi asriy orzularni roʻyobga chiqardi. Bu tuproq azaldan ilmu-hunar, hikmat va sanʼat ruhi bilan yoʻgʻrilgan. Imom at-Termiziy, avliyo Hakim ota kabi ulugʻ zotlarning oʻlmas ruhi, hayotbaxsh oʻgitlari, barkamol avlodlarni voyaga yetkazdi[4].

Bugungi kunda bu memorial obida birgina surxondaryoliklarni emas, butun Oʻzbekiston xalqining faxri va gʻururi sharafiga bunyod boʻlgan ulkan yodgorlik sifatida savlat toʻkib turibdi. “Guyo, u ey aziz farzandlarim, oʻtmishingni, oʻzligingni, jahonni hayratga solgan bobokolonlaringni unutma!” deb daʼvat qilayotgandek. Surxondaryo viloyatida madaniy rivojlanish jarayonida madaniy-maʼrifiy faoliyatida bir qator yutuqlar qoʻlga kiritilgan.

Surxondaryo viloyatida 60 ta oʻrta-maxsus kasb-hunar taʼlimi muassasalari mavjud boʻlib, taʼlim muassasalarida 613 ta sport toʻgaragi faoliyat yuritmoqda. Viloyat boʻyicha oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlim muassasalarida 49 ta sport zali, 2 ta basseyn, 35 ta sport maydoni, 24 ta qoʻl toʻpi maydoni, 32 ta tennis korti, 58 ta basketbol maydoni yoshlar xizmatida[12].

2005-yilning birinchi yarim yilligida Surxondaryo viloyatida 413 ta kutubxona aholiga xizmat koʻrsatdi. Sobir Termiziy nomidagi axborot-kutubxona markazi, axborot madaniy va maʼrifiy muassasasi, bosh kitob xazinasi uslubiy markaz sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi «Respublikada aholisini axborot-kutubxona bilan taʼminlashni tashkil etish toʻgʻrisida»gi PQ-381-sonli qarorining zamonaviy talablarini hisobga olgan holda quyidagi asosiy yoʻnalishlar boʻyicha faoliyat olib borgan[13]:

- kutubxona markazlari jamgʻarmasidan foydalanishda viloyatning barcha aholisiga teng sharoitlar yaratish choralari koʻrgan;
- aholining turli qatlamlarini Axborot-kutubxona markazidan (AKM) muntazam foydalanishga jalb etgan;
- kitob jamgʻarmasining tilshunoslik, badiiy adabiyot boʻlimlari qayta tizimlashtirilgan;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilayotgan maqolalar keng omma orasida targʻib qilib borilgan;
- giyohvandlik va SPIDga qarshi kurashish butun jahon harakatiga qoʻshilgan holda yoshlar bilan ishlashga alohida eʼtibor



berib, ular uchun tashkil etiladigan tadbirlar soni ko'paytirilgan;

- lotin yozuvidagi o'zbek alifbosida chiqayotgan adabiyotlarni kutubxona markazlari jamg'armalarida ko'paytirgan;

- axborot va raqamli ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish ishi rivojlantirilgan;

- respublikadagi boshqa kutubxona markazlari ish tajribalari bilan tanishish, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ilg'or ish tajribalarini viloyatdagi ARM larda qo'llash yo'lga qo'yilgan;

- turli xalqaro jamg'armalar tomonidan tashkil etilgan seminarlarda faol ishtirok etishgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, madaniy rivojlanish jarayonida madaniy-ma'rifiy muassasalarning faoliyati respublikamizning barcha viloyatlarida bo'lganidek Surxondaryo viloyatida ham namunali tashkil etilgan. Bu tadbirlarning barchasi kelajak avlodni mamlakat nufuzini ko'tarishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi «Respublikada aholini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida»gi Prezidentning 381-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qishloq kutubxonalarining 389 tasi viloyat o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi ixtiyoriga o'tkazildi. Kutubxonalar yiriklashtirildi, natijada tizim bo'yicha 67 ta axborot-resurs markazi tashkil etildi. Xalq ta'limi bo'limlaridagi kutubxonalar 15 ta axborot-resurs markazlariga birlashtirildi.

Kutubxona markazlarida o'rnatilgan kompyuterlar internet tarmog'iga ulangan. Natijada so'nggi yillarda kitobxonlarni turli xil axborot bilan ta'minlashga erishilmoqda.

Viloyatdagi kutubxonalar uchun 2006 yilga qadar 3 mln. 568 ming 452 so'mlik 2047 nusxa, 499 nomdagi yangi kitoblar olindi.

Surxondaryo viloyatidagi madaniy va ma'rifiy maskanlarning 2002-2005 yillardagi faoliyatini tadqiq etganimizda shunday faktlarga duch keldik. 2003-yilda "AKSELS" xalqaro tashkilotining "O'qishga a'lochilik dasturi" tanlovida g'olib chiqqan viloyat o'quvchilari o'qishini xorijda davom ettirmoqdalar. 2004-yilda "AYREKS" Xalqaro tashkilotining "Butun olam sizning sinfingizda" tanlovida Termiz tumani o'quvchilari respublika g'olibi bo'lishdi[10].

Surxondaryo viloyatidagi klub va madaniyat uylarida o'rinlar soni oshib bormoqda. Shuningdek, viloyatda 4 ta teatr faoliyat ko'rsatgan holda ulardagi o'rinlar soni 2002-yil 700 taga mo'ljallangan bo'lsa, 2005-yilga kelib, 1 ming 329 o'ringa yetdi. Ommaviy kutubxonalar soni oshgan bo'lsada, ulardagi kitoblarning soni 2002-yilga nisbatan kamayib borgan. Buning asosiy sababi eski chop etilgan adabiyotlarni kutubxona fondidan olib, yangisi bilan ta'minlashga ulgurilmaganligidir.

**Xulosa.** Shunday qilib, janubiy viloyatlarda madaniy rivojlanish jarayonida madaniy-ma'rifiy muassasalar yuqori darajada faoliyat yuritgan. Bu sohada turli tashkilot va muassasalar o'z ishlarini olib bormoqda. Mazkur yo'nalishdagi chora-tadbirlar negizida xalq ongida Ona Vatanga muhabbat va sadoqat, mustaqilligimizni mustahkamlash, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni asrash kabi his-tuyg'ularni uyg'otishdek ezgu maqsadlar turadi. Bu maqsadga erishish uchun jamiyatimizning barcha qatlamlari, ayniqsa, ziyolilar mas'uldirlar.

#### Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimov M. Termiz tarixi. – Toshkent, 2001. – 192 b;
2. Botirov X., Annayev T. Surxondaryo viloyati arxeologiya muzeyi. – Toshkent: Sharq, 2006. – 24 b;
3. Rahimov B. S. O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida 1991-2005 yillar). Tarix fan.nom. ... diss. – Toshkent: O'zMU, 2008. – 189 b.
4. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B.79.

5. Sohibova M.S. O‘zbekistonda madaniy hayot: tajriba va muammolar (Janubiy viloyatlar misolida. 1946-1985 yillar). Tarix fan. nom. ... diss. – Toshkent: O‘zMU, 2008. – 141 b.
6. Tursunov S., Qobilov I., Pardaev T., Murtazoev B. Surxondaryo tarix ko‘zglasida. – Toshkent: Sharq, – 382.
7. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoev B., Pardaev T. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 480-574.
8. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – 506 b.
9. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.3. – Toshkent: 2001. – B. 391-392.
10. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.8. – Toshkent: O‘zME, 2006. – B.158-159.
11. O‘zR MA fondi. M-7. 1-ro‘yxat. 1163-yig‘ma jild. 15-16-varoqlar.
12. Surxondaryo viloyati Madaniyat va sport bo‘limining joriy arxivi. 2003 yil hisoboti. – B. 7.
13. Adib Sobir Termiziy nomli Axborot – kutubxona markazining joriy arxivi. Adib Sobir Termiziy nomli Axborot-kutubxona markazining 2006 yildagi ish faoliyati bo‘yicha yillik yozma hisoboti. – B. 2-13.

## CHIM USTIDA XOKKEY SPORT BO‘YICHA “ANDIJANKA” JAMOASI FAOLIYATI

**Sarvinoz Omonova,**

Qarshi davlat universiteti dotsenti,  
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

[Omonovasarvinoz598@gmail.com](mailto:Omonovasarvinoz598@gmail.com)

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0008-0303-6676-4511>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sovet davrida sportning bir necha turlari O‘zbekistonni jahon maydonlarida obro‘-hurmat topishiga, mashhur bo‘lishiga xizmat qilgan. Xususan, birinchilardan bo‘lgan chim ustida xokkeyi ayollar jamoasi “Andijanka”, haqida yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Andijanka”, chim ustida xokkey, ayollar jamoasi, musobaqa, chempionat, sportchilar, Butunittifoq turnirlari.

**Аннотация:** В этой статье несколько видов спорта в советское время. Он способствовал прославлению и уважению Узбекистана на мировой арене. В частности, была отмечена женская хоккейная команда «Андижанка», которая была одной из первых.

**Ключевые слова:** «Андижанка», хоккей на траве, женская команда, соревнования, чемпионат, спортсмены,

Всесоюзные турниры.

**Annotatsion:** In this article, during the Soviet period, several types of sports served to gain prestige and popularity of Uzbekistan in the world arena. In particular, the women's field hockey team "Andijanka", which was one of the first, was highlighted.

**Key words:** "Andijanka", field hockey, women's team, competitions, championship, athletes, All-Union tournaments.

O‘tmishda, sportning bir necha turlari O‘zbekistonni jahon maydonlarida obro‘-hurmat topishiga, mashhur bo‘lishiga xizmat qilgan. Bularning ichida ro‘yxatning birinchilari qatorida chim ustida xokkeyni misol qilish mumkin. Birgina “Andijanka”, aytish mumkinki, chim ustida xokkey vatani maqomini olishga bosh da’vogar bo‘lgan.

O‘zbekiston SSSRda chim ustidagi xokkey eng ommaviy sport turlaridan biri bo‘lgan.

1975 yilda Andijonda O'zbekiston SSR Kompartiyasi viloyat qo'mitasi ikkinchi kotibi Boris Krasnikov tashabbusi bilan "Andijanka" ayollar jamoasi tashkil etilgan. U taklifni chet el jurnalini mutolaa qilib, taklifini izohlab bergan: "ayollar uchun bu sport boshqa o'yinlar orasida eng foydali" degan. Murabbiy Miron Kim buni o'zi murabbiylik qilgan gandbolchilardan tayyorladi. 1975 yil oktabr oyining oxiri – noyabr oyining boshlarida O'zbekistonda chim ustida xokkey bo'yicha beshta mahalliy ayollar jamoasining turniri bo'lib o'tdi. 1977 yil mart oyida "Andijanka" birinchi bo'lib Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan xokkey bo'yicha Butunittifoq turnirida g'olib chiqdi[1].

1976-yilda Moskvada o'tkazilgan yozgi Olimpiada o'yinlari dasturiga ayollar chim ustidagi xokkeyini kiritish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng, ular rivojlantirishni boshladilar. Dastavval Krasnikovning tashabbusiga shubha bilan qaragan O'zbekiston SSR hukumati keyinchalik gandbol jamoasini xokkey jamoasiga aylantirdi. Miriman ularga murabbiy etib tayinlandi.

Andijon mamlakatimizda birinchilar qatori ayollar o'rtasida chim ustida xokkeyni joriy qila boshladi. 1977 yilgi musobaqalar esa chim ustida xokkeyni faqat erkaklar o'rtasida emas, balki xotin-qizlar o'rtasida ham keng targ'ib qilindi.

1977 yil mart oyida Andijanka birinchi bo'lib Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan xokkey bo'yicha Butunittifoq turnirida g'olib chiqdi. Turnirdagi birinchi golni "Andijanka" xokkeychisi Svetlana Rassolova kiritdi. Yil oxirida Sovet Ittifoqining mavsumdagi eng yaxshi 22 nafar xokkeychi ro'yxatiga olti nafar "Andijanka" jamoasi o'yinchilari ham kirdi: himoyachilar Nelli Gorbatkova va Valentina Zazdravnix, yarim himoyachilar Svetlana Rassolova va Elvira Arifjanova, hujumchilar Leyla Axmerova va Alina Xamlar edi.

Chim ustida xokkey musobaqalarining Moskva Olimpiadasi dasturiga kiritilishi bu sport turiga bo'lgan qiziqishni keskin oshirib yubordi. Olimpiada musobaqalarida

qatnashuvchi SSSR terma komandasiga nomzodlar ro'yxatidan o'rin olgan andijonlik qizlar mazkur sport turining jonkuyar targ'ibotchilari bo'lib maydonga chiqdilar. Chim ustida xokkey muxlislarini Toshkentda, Farg'onada, Namanganda ham ko'plab bo'ldi[2].

Ayollar xokkeyi qizlarni sportga yanada ommaviyroq tarzda jalb qilish uchun yangi imkoniyatlar ochib berdi. Bu ayniqsa mahalliy millat qizlariga tegishli. Sir emaski, voleybol, vasketbol, gandbol yoki yengil atletika o'zbek qizlarini ko'pam uchrayvermagan. Chim xokkeyni esa ular darrov qiziqtirib kolishgan.

O'zbekistonning yaqinda start olgan ochiq chempionatda respublikaning olti jamoasi qatnashdi. Ularda rus, tatar, koreys, qizlari o'ynashmoqda. Ular orasida uzbek qizlari ham bor. Samarqandlik Gulandom Tursunova shulardan biri. "So'g'diyona" birinchilikda peshqadamlik qilganida bu jamoada mutaxassislar tomonidan eng yaxshi deb topilgan G.Tursunovaning ham xizmatlari bor[3].

O'zbekiston LKSM Markaziy Komiteti xotira sovrinlari ta'sis etdi. Mahalliy fizkultura va jamoat tashkilotlari ham sovg'alar borasida ziqnplik qilmadi. Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Samarqand, Toshkent, Farg'ona oblastlari va respublika poytaxtidan sportchilar butunittifoq turniri finaliga yo'lanma uchun kurashdilar. Mezbonlar respublika turniri finalida poytaxt oblasti (7:2), Buxoro (3:0), va Samarqand (4:0) viloyati xokkeychilarini mag'lubiyatga uchratdilar. Toshkent oblasti vakillari – ikkinchi, Buxoro sportchilari uchinchi bo'lishdi. Sovrindorlar finalda uchtadan ochko olishdi. Qizlar o'rtasida musobakada 9 jamoa qatnashdi. Bunda ham andijonliklar muvaffaqiyat qozondilar.

Ular hal kiluvchi matchda poytaxt viloyati xokkeychilarini dog'da qoldirishdi. Andijonlik M.Askarova va N. Shirokovskixlar kiritgan to'pga raqib to'p (A.Ilinix) bilan javob qaytardi. Namanganlik qizlar uchinchi bo'lishdi. 12 to'p kiritgan Muxayyo Asqarovaga eng yaxshi hujumchiga sovrini berildi[4].

Andijonda chim xokkey buyicha qizlar jamoasi tuzilgani haqida ovozarlar tarqaldi. «Andijanka» ning mahorati haqidagi maqtovlar yaxshi kuy, she'r kabi og'izdan og'izga ko'chib yurdi. Tan olish kerakki, bu madhu sanolarga arzigulik jasorat ko'rsatishdi, andijonlik qizlar!... Miron Dmitriyevich Kim jismoniy tarbiyadan dars bergan maktabda qo'l tupi o'yini yetakchisi hisoblanardi. Maktabdagi qobiliyatli qizlardan komanda tashkil topdi.

Hatto mamlakat uchun ham uncha tanish bo'lmagan sportning sermashaqqat turi bo'yicha qiynichilik va ba'zi to'siqlardan holi bo'lmagan jiddiy mashqlar boshlandi. Tinimsiz mashqlar, albatta, o'z samarasini bera boshladi. Tez orada komanda qator muvaffaqiyatlarga erishib, respublika musobaqalarida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. Endilikda boshqa shaharlarda ham «Andijanka» jamoasiga ergashuvchilar ko'paydi. 1977 yildan boshlab Butunittifoq turnirlari o'tkazish an'ana tusini oldi. Uchrashuvlar qiziqarli bo'la bordi. Ammo har safar ochkolar andijonlik qizlar jamg'armalariga kelib qo'shilaverdi[5].

Asosiy o'yin uchun belgilangan vaqtda ora ochiq bo'lmadi. Hisob 1:1. Har ikkisi o'n minutdan bo'lgan qo'shimcha bo'limlar belgilandi. Ana shunda Svetlana Rassolova jasorat ko'rsatdi. Uning yagona to'pi komandaga g'alaba keltirdi. «Andijanka» – chempion! Bunday hayajonli daqiqalar bir umr esda qoladi. Darvozabon Gulnora Mamutova, himoyachilar Nelli Gorbatkova, Valentina Zazdravnix, Favziya Qodirova, Rushena Mustafoyeva, yarim himoyachilar Svetlana Rassolova, Elvira Orifjonova, Flyura Isimboeva, hujumchilar Muxabbat Haydarova, Lyalya Axmerova (jamoasardori) o'yinni yaxshi o'tkazdilar. Mana endi ular mamlakat chempioni! Ayollar chim xokkey bo'yicha 1-chempionlik medali andijonlik qizlarga nasib etdi. Sovrindor jamoaning har bir sportchisiga sport masteri unvoni berildi.

Sportning bu turini ommaviylashtirishdagi bebaho xizmatlari uchun jamoa treneri M. D. Kinga «O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan trener» degan faxrli unvon berildi. Qizlar esdalik medallari bilan taqdirlanishdi.

Ular bu ehtimolga mashaqqatli mehnat, intizom, sportdagi jasoratlari tufayli erishdilar. 1980 yilda Moskvada o'tazilgan «Olimpiada-80» musobaqasi SSSR terma jamoasida andijonlik chempionlar ham ishtirok etdi[5].

Chim usti xokkeyi olimpia o'yinlari programmasidagi eng uzoq davom etadigan sport turlaridan biridir. O'yinlar «Dinamo» kichik stadionida, Markaziy armiya sport klubi stadionida va yosh pionnerlar 20 iyuldan 1 avgustgacha davom etadi. Bu yilgi olimpiada o'yinlari ayollar komandalari uchun birinchi olimpiadadir. G'oliblik uchun 12 nafar erkak va 6 nafar ayol kurash olib bordi. «Kolos» moskvalik spartak jamoasi ustidan 1:0 g'alaba qilib, oxirgi turda chempionlik uchun atigi 2 ta ochko to'pladi.

«Andijanka» oxirgi uyinda Olmataning «Svyazist» jamoasini 2:0 hisobida yyengib, turnirda 7 ballni qo'lga kiritdi. Xuddi shunaqa natijaga mahalliy «Burivestnik» jamoasi ham erishdi, u oxirgi turda «Krilyami Sovetov» jamoasi bilan 0:0 hisobini qayt etdi. Oxirgi qiyin o'yinlarda durrang natijani qo'lga kiritgan moskvaliklar 5 ballni qo'lga kiritishdi. Oxirgi o'yinni TTU Moskva Spartak jamoasi ustidan 2:1 xisobda g'alaba qildi[6].

Respublikada chim ustida xokkey sporti ommaviylasha boshladi Ushbu sport turida «Andijanka» ayollar jamoasi sobiq Ittifoq chempionatlarida birinchi marta g'olib va sovrindor bo'ldi[7].

Andijonda «Spartak» bolalar sport klubi markaziy kengashining xotin-qizlar jamoalari o'rtasida chim ustidagi xokkey bo'yicha chempionat o'yinlari yakunlandi. Chempionlik uchun Olmaota, Andijon, Boku, Gorkiy, Krasnoyarsk, Moskva, Samarqand va Ulyanovsk jamoalari kurash olib borishdi. Birinchi o'rinni birorta ham o'yinda mag'lubiyatga uchramagan «Andijanka» sportchilari egalladi. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarda mos ravishda xokkeychilar Gorkovskiy TTU va «Signalman» sportchilari egalladi[8].

1980-yilda «Andijanka» sovet jamoalari orasida birinchi bo'lib Yevropa chempionlar kubogida ishtirok etdi. Jamoaning ilk chiqishi muvaffaqiyatsiz yakunlandi: u saralash turnirida 3-o'rinni egalladi va asosiy

bosqichga chiqa olmadi.

1981-yilda “Andijanka” jamoasi 5-o‘rinni egalladi. Kim shogirdlari guruh bosqichida Angliyaning “Norton” jamoasini mag‘lub etishdi (2:1), Irlandiyaning “Portadaun” jamoasi bilan durang o‘ynadi (1:1) va kubokning amaldagi sohibi Gollandiyaning AHBC jamoasiga imkoniyatni boy berishdi (0:1). “Andijanka” to‘plar farqi tufayli “Portadaun”ni oldinga olib chiqib, guruhda uchinchi bo‘ldi. 5-6-o‘rinlar uchun kechgan bahsda o‘zbekistonlik xokkeychilar Uyelsning “Penart” jamoasini mag‘lub etishdi (4:0). “Andijanka” tarkibi: darvozabonlar Lyudmila Kondratyuk, Lyubov Chernyayeva; maydon o‘yinchilari: Larisa Gabidulina, Nelli Gorbatkova, Flyura Isimbayeva, Salomat Maxmudova, Marina Platonova, Lyudmila Pavlova, Farida Belialova, Marina Muradyan, Alina Xam, Leyla Axmerova (jamoasardori), Valentina Zazdravnix, Elvira Arifjanova, Ingulsum Ibraimova, Feruza Kamalova, Amina Yarmatova, Svetlana Rassolova, Muxabbat Xaydarova, Yelena Shuljenkolardan tashkil topgan.

1987 yilda “Andijanka” jamoasi Yevropa

championlar kubogining bronza medali sohibiga aylandi. Guruh bosqichida o‘zbekistonliklar Portadaun (3:1) va “San-Sebastyan” (2:0) ustidan g‘alaba qozonib, G‘arbiy germaniyalik Blau-Vaysga (0:2) imkoniyatni boy berdi. Guruhda 2-o‘rinni egallagan “Andijanka” 3-4-o‘rinlar uchun kechgan bahsda Angliyaning “Slau” jamoasi ustidan g‘alaba qozondi (2:1). “Andijanka” tarkibi: darvozabon Lyubov Kondratenko; maydon o‘yinchilari Yelena Shuljenko, Gulchehra Vorisova, Muhabbat Haydarova-Boyqo‘ziyeva, Farida Belyalova, Naylya Axmerova, Irina Sepedilova, Marina Sharonova, Sofiya Useinova, Larisa Dryopina, Svetlana Oloxova, Irina Morduxayeva, Svetlana Yakovleva, Flyura Jalilovalar bor edi.

Xullas, sovet davrida xotin-qizlar o‘rtasida sportning ommaviylashuvi ro‘y berdi. Sportning turli yo‘nalishlarida xotin-qizlar jamoalari tashkil topdi. Shulardan biri chim ustida xokkey sport turi bo‘yicha “Andijanka” jamoasi bir necha bor mamlakat chempionligini qo‘lga kiritdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Игорь Сосновский, “ Вне игры” (журнал ФИС, N9, 1984), “Центр нападения”( журнал ФИС, N11, 1987).
2. Спорт спорт спорт. – Т.: “Ёш гвардия” нашриёти, 1978. – Б.15
3. Ўзбекистон физкультурачиси газетаси, 3 апрель 1988 йил.
4. Шералиева Г., Салдина Н. “Балли Мухайё” // Физкультурник Ўзбекистана, 22 июнь 1988 йил.
5. Рихсиев З. “Андижанка” ғалабаси // Саодат журнали, 1979 йил 12-сон. – Б.27.
6. Физкультурник Ўзбекистана, 13 октябрь 1985 йил.
7. Спорт фахрийлари – Ўзбекистон ифтихори. – Т.: “Шарк”, 2006. – Б.177.
8. “Победа Андижанки” // Физкультурник Ўзбекистана, 11 апрель 1982 йил.



## РОЛЬ АССОЦИАЦИИ «ЖЕНЩИНЫ-ПРЕДПРИНИМАТЕЛИ» В ПОДДЕРЖКЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Каноатова Феруза Бобокуловна,  
Доцент кафедры истории Шахрисабзского  
государственного педагогического института  
email: [fkanoatova@yandex.ru](mailto:fkanoatova@yandex.ru)  
UDK: 94(575.1)  
<https://orcid.org/0001-0015-0003-0201>

**Аннотация:** В статье мы показываем, как женщины привлекаются к предпринимательству в стране, действующие предприниматели не осведомлены об увеличении информационного потока женского предпринимательства в Узбекистане, эволюции становления и развития женского предпринимательства, а также его уникальном вкладе в развитие экономической и социальной потенциала страны.

**Ключевые слова:** малый бизнес, предпринимательство, ассоциация, специальности, семейный бизнес, кредит, финансирование, неправительственные организации, классификация.

**Annotation:** In the article we show how women are attracted to entrepreneurship in the country; existing entrepreneurs are not aware of the increase in the information flow of women's entrepreneurship in Uzbekistan, the evolution of the formation and development of women's entrepreneurship, as well as its unique contribution to the development of the economic and social potential of the country.

**Keywords:** small business, entrepreneurship, association, specialties, family business, credit, financing, non-governmental organizations, classification

**Введение.** Созданные условия для эффективного функционирования деловых женщин имеют большое значение для поддержки и укрепления их бизнес-инициатив и внесения достойного вклада в развитие нашего общества и семьи. Но, к сожалению, в нашей стране можно встретить множество женщин и девушек, которые не знают основ бизнеса и

правильного использования капитала, путаются, оставляют бизнес в беде, попадают в сложную психологическую ситуацию.

Различные ассоциации, центры, неправительственные и некоммерческие организации сыграли значительную роль в дальнейшем расширении рядов предпринимателей и деловых женщин в нашей республике. В Узбекистане действуют такие женские центры и ассоциации, как «Деловая женщина», «Хунарманд», «Бунёдкор аёл», «Женщина и время», «Бизнес-фонд», «Калб Нури», «Меҳрджан» и другие.

**Актуальность.** Исторические тенденции развития малого бизнеса и предпринимательства в Узбекистане и вопросы дальнейшего продвижения его приоритетов изучались рядом философов, юристов, психологов и экономистов, однако анализ работ авторов показал, что тенденции развития малого бизнеса и предпринимательства в Узбекистане и вопросы дальнейшего продвижения его приоритетов изучались рядом философов, юристов, психологов и экономистов. выбранная нами тема как целостная научная проблема в контексте историографии еще недостаточно и всесторонне изучена. То есть, несмотря на увеличение потока информации о женском предпринимательстве в Узбекистане, эволюция становления и развития женского предпринимательства и его уникальный вклад в экономическое и социальное развитие страны до сих пор неизвестны также показало, что оно не изучено в историческом аспекте.

Развитие женского

предпринимательства в Республике Узбекистан имеет свои особенности, связанные с положением женщин в обществе и занятостью их общественно полезным трудом. Женское предпринимательство обеспечивает значительную часть доходов семьи. Ввиду отсутствия пропорционального подхода к нашему национальному менталитету, за эту задачу взялась одна из первых ассоциаций деловых женщин в Узбекистане – «Ассоциация женщин».

**Материалы и методы.** Ассоциация «Деловая женщина» создана 4 января 1991 года, ее филиалы открыты в 14 областях, 68 городах и районах. В них работало около 200 специалистов. Ассоциация «Деловая женщина» создана 4 января 1991 года, ее филиалы открыты в 14 областях, 68 городах и районах. В них работало около 200 специалистов[1]. Сегодня эти 68 региональных отделений ассоциации объединяют около 17 тысяч членов[2], а руководителями региональных отделений являются опытные, сильные потенциальные бизнес-лидеры.

Основной функцией ассоциации является «расширение и защита экономическо-социальных прав, возможностей женщин, поддержка их предпринимательских и общественных инициатив, а также содействие обеспечению использования финансовых и образовательных информационных ресурсов.

Также создание благоприятных условий для участия женщин в процессе формирования рыночных отношений, укрепление климата взаимного доверия, делового сотрудничества, внедрение инновационных образовательных программ, создание институционально - правовых механизмов улучшения экономических и социальных возможностей женщин, юридическая поддержка женщин-предпринимателей заключается в поддержке[3].

Основные направления деятельности ассоциации: образование

- маркетинг, менеджмент, бизнес-

планирование, профессиональное образование по 30 направлениям;

- обучение юриспруденции, лидерству и управлению бизнесом; консультирование по вопросам бизнеса, психологии, деловой этики, организационного развития;

- гендерные исследования негосударственных некоммерческих организаций в сфере предпринимательства;

- помощь в получении кредитных средств;

- лоббирование и пропаганда – привлечение заинтересованных сторон и создание коалиций;

- поощрять членов ассоциации на уровне принятия решений.

В исследовании изучена работа республиканской ассоциации «Женщин-Предприниматель» и ее региональных отделений в сфере обеспечения занятости женщин. В связи с этим, например, в 2000 году в Андижанском регионе 1000 женщин прошли переподготовку по профессии, 3000 женщин были трудоустроены, 50 женщин начали собственную предпринимательскую деятельность. В департаменте Бухарской области создано 222 рабочих места, трудоустроено 120 женщин, оказана поддержка в самостоятельной работе 90 женщинам. В департаменте Кашкадарьинской области 1500 женщинам была оказана помощь в открытии собственного дела, а также 500 женщин прошли профессиональную переподготовку и повысили свою квалификацию. В Хорезмском областном управлении создано 240 рабочих мест и трудоустроено 150 женщин, 300 женщин прошли переподготовку по профессии[4:94].

В целом в 1991-2009 годах женщины-предприниматели управляли более 120 тысячами малых предприятий и субъектов предпринимательства в республике[5:174]. Это, несомненно, показало, что сделано много позитивного для наполнения внутреннего рынка республики продукцией, а также для создания новых рабочих мест для женщин.

AJU упоминается в отчетах ПРООН «О человеческом развитии», в отчете Правительства Республики Узбекистан Всемирного банка – в отчете временного правительства «Стратегия повышения благосостояния населения на 2005-2010 гг». Как организация, помогавшая решать социальные вопросы в Узбекистане, бизнес-ассоциации были созданы в Казахстане, Кыргызстане, Таджикистане и объединены в единую сеть посредством совместных программ и проектов, создав тем самым женское движение в Центральной Азии[6:17].

Профессионалы ассоциации оказывают практическую помощь женщинам, работающим в сфере бизнеса, для дальнейшего укрепления их достойного положения на рынке труда, предоставляя им экономический потенциал и квалификацию для участия в международных выставках на основе установленных программ. При этом с целью оказания теоретической и практической поддержки тем, кто только начинает трудовую деятельность, а также в целях повышения их деловых навыков при ассоциации действуют группы в различных сферах предпринимательства. Например; управление бизнесом, финансовая и юридическая грамотность, гостиничный менеджмент, кондитерское и ковроткачество - широко развитые направления женского малого бизнеса в нашей стране.

Центральный банк Республики Узбекистан работает в постоянном сотрудничестве с ассоциацией «Гадбиркор аёл». В 2015 году на развитие предпринимательства среди девушек, окончивших профессиональные колледжи, коммерческими банками направлено более 1,2 трлн сумов, а на развитие предпринимательства среди девушек, окончивших профессиональные колледжи, направлено более 1,2 трлн сумов, что является признаком того, что этому уделяется особое внимание. Так, руководитель частного предприятия «Томарис истиклол Текстиль» Узунского

района Сурхандарьинской области Дилафруз Тохтасинова, получившая от банка кредит в размере 75 миллионов сумов, еще больше расширила деятельность компании. На предприятии, на котором работают 14 работников, из хлопкового волокна производится около 40 видов детской одежды и носков для разных сезонов[7].

Также увеличен объем инвестиций, выделяемых женщинам, занимающимся бизнесом в отдаленных районах, таких как Мойнак, Караозак, Байсун, Дехканабад. В 2015 году более 300 000 женщин были трудоустроены в обмен на такие кредиты.

В 2016 году завершилось 25-летие создания Ассоциации деловых женщин Узбекистана «Гадбиркор аёл». За эти годы создано более 130 тысяч новых рабочих мест на основе продвигаемых организацией проектов, объединивших более 14 тысяч женщин-предпринимателей. Более 14 000 женщин прошли обучение основам бизнеса. Более 9 тысяч временно безработных женщин были направлены на профессии, востребованные на рынке труда. Благодаря налаженному сотрудничеству с посольствами многие женщины приняли участие в бизнес-форумах Узбекистана и зарубежных стран и внесли значительный вклад в повышение экспортного потенциала страны[8].

Большое значение в повышении активности женщин приобретает также проект «Факторы и проблемы развития предпринимательства». В рамках проекта проведены семинары и тренинги в Республике Каракалпакстан и всех регионах, положительно решено более 50 обращений женщин на получение кредитов, земельных участков для строительства зданий и сооружений. В 2016 году в Сырдарьинской области стабильно действовало более 7290 субъектов малого бизнеса и частных предпринимателей. За этот год коммерческие банки выделили им около 50 миллиардов сумов кредитов, благодаря усилиям многих бизнесменов создано около 7 тысяч рабочих мест[9].

В 2017 году в нашей стране более 120 тысяч субъектов малого предпринимательства, в том числе более 4550 фермерских хозяйств, управляются женщинами[9].

К 2017 году число женщин-предпринимателей в Узбекистане выросло до 14 тысяч. Законодательная палата Олий Мажлиса Республики Узбекистан, Комитет по демократическим институтам, неправительственным организациям и органам самоуправления граждан, в сотрудничестве с Ассоциацией деловых женщин «Тадбиркор аёл» «Защита прав и интересов субъектов бизнеса при Олий Мажлисе Республики Узбекистан Институт Бизнес-омбудсмена (бизнес-омбудсмен) провел видеосеминар на тему «Развитие деловых женщин». По состоянию на 1 апреля 2017 года коммерческие банки потратили на поддержку женщин-предпринимателей на 25,5% больше по сравнению с аналогичным периодом прошлого года, то есть 514,1 млрд сумов [11]. Было отмечено, что были направлены сумовые кредитные средства. А это, в свою очередь, несомненно, поможет тысячам женщин в нашей стране иметь собственную самостоятельную работу, источник дохода, лучшее формирование семейного бюджета и благополучие своей жизни.

Ассоциация деловых женщин Узбекистана обратилась в правительство с инициативой включить страну в индекс деловых женщин. Этот индекс является индикатором, который оценивает потенциал женского предпринимательства во всем мире и включает в себя многие аспекты проблем женского предпринимательства. Глобальный отчет «Индекс женского предпринимательства» охватывает 77 стран и определяет рейтинг на основе регионального анализа. Узбекистан не вошел в этот рейтинг. Участие Узбекистана в данном глобальном рейтинге служит проведению сравнительного анализа состояния женского предпринимательства среди развитых стран, выявлению

существующих проблем через глобальные рейтинговые показатели, определению мер по дальнейшему улучшению среды женского предпринимательства, а также достижению положительного результата. подход международного сообщества.

Начиная с 2017 года 19 ноября широко отмечается во всем мире как День женского предпринимательства, и этот день станет крупнейшим общественным движением в поддержку прав и возможностей женщин. Этот день станет днем вдохновения и поощрения предпринимательских мечтаний 4 миллиардов женщин по всему миру. Празднование этого дня является крупной инициативой, направленной на реализацию прав и возможностей женщин-предпринимателей. Эту инициативу широко отмечают в 144 странах мира под эгидой ООН. Цель инициативы – дать возможность женщинам участвовать в экономических процессах, создать сообщество лидеров, изобретателей, новаторов и предпринимателей, реализовать экономический рост и новые идеи.

В связи с праздником 18 ноября 2017 года в конференц-зале гостиницы «Wyndham» прошла международная конференция на тему «Роль и значение женского предпринимательства в экономическом развитии Узбекистана». На конференции были заслушаны лекции зарубежных и отечественных специалистов о состоянии женского предпринимательства, его развитии и месте в нашей экономике, а также актуальных задачах повышения социальной активности женщин.

Участники конференции акцентировали внимание на повышении активности женщин-предпринимателей в экспорте продукции и услуг, поиске путей их заинтересованности в производстве экспортной продукции, роли и значении Ассоциации в повышении экспортного потенциала женской продукции. предпринимательство. Важным аспектом данной конференции является то, что

впервые была предпринята попытка найти решение существующих проблем в этом направлении. Благодаря этому сегодня наши женщины реализуют важные социальные и бизнес-проекты, активно участвуют в сфере услуг, пищевой, легкой промышленности, сельском хозяйстве и других быстро развивающихся отраслях.

Из-за отсутствия пропорционального подхода к образу жизни наших женщин, их роли в общественной жизни, нашему национальному менталитету предлагаемое бизнес-образование не дает ожидаемых результатов. В связи с этим Ассоциацией разработана программа «Совершенствование системы бизнес-образования женщин на 2018-2021 годы». На основе программы образовательная система обучения женщин и девушек основам предпринимательства обеспечивает эффективность труда, является фактором создания новых стабильных рабочих мест, позволяет женщинам повысить интерес к жизни и проявить свои способности.

В программу вошли следующие обучающие модули:

1. «Бизнес-планирование и финансовая грамотность».
2. Эффективное управление бизнесом».
3. Конкурентоспособность и правильная презентация продукта на рынке».
4. Ведение бизнеса: женщина, семья, бизнес, традиции и современность.

В рамках проекта 78 тысячам женщин будут предоставлены навыки и практическая помощь по основам бизнеса, будет создано 50 тысяч новых рабочих мест[12].

В 2019 году – “Годе активных инвестиций и социального развития” в целях обеспечения реализации соответствующих пунктов Государственной программы «Предприниматель 2019», Ассоциацией деловых женщин Узбекистана организовано республиканское национальное исследование «АНОР – 2019» в рамках лозунг

«Предпринимательство – основа благополучной жизни». Проведен Самаркандский областной этап конкурса. В нем приняли участие 16 деловых женщин из 16 районов (городов) области. Кенджаева Маргуба, бизнесвумен, проживающая в поселке «Гулзор» микрорайоне Булунгурского района, приняла участие в областном этапе конкурса, приняла активное участие и была награждена грамотой и сувенирами от областной ассоциации «Предпринимательница». Для заметки, Кенджаева Маргуба открыла семейный бизнес и занимается производством детских кроваток. М.Кенджаева сообщила, что покупателям предлагается более 20 видов люлек по цене от 300 000 до 450 000 сумов, в зависимости от качества и разнообразия используемой продукции[13].

Наш народ занимался сельским хозяйством с древних времен. Но сельское хозяйство, как и другие сферы, требует дополнительных навыков и знаний. Принимая это во внимание, Ассоциация деловых женщин Узбекистана «Тадбиркор айл» имеет при Самаркандском областном филиале фермерское хозяйство, в целях предоставления дополнительных навыков женщинам, которые работают, но не получают большого дохода, «Местная женщина» - организует семинары и тренинги по теме «обучение и подготовка девушек к получению навыков и опыта организации и ведения бизнеса в сфере плодовоовощеводства».

При поддержке Агентства Всемирного банка по реализации проектов агропромышленного комплекса и продовольственного снабжения в нашей стране регулярно проводятся тренинги. В 2019 году около 100 наших женщин приняли участие в тренингах и получили навыки и опыт, совершенствуя свои знания. В 2020 году мы продолжим обучение в соответствии с правилами карантина и обеспечим женщин и девушек новостями в сфере сельского хозяйства, существующими проблемами в сфере и путями их устранения, достижения



экономической эффективности с использованием современных передовых технологий в производстве, зарубежных. Были даны необходимые знания, рекомендации и советы по популяризации опыта.

Как мы все знаем, пандемия коронавируса заставила принять срочные меры по поддержке рынка труда, трудовых отношений и занятости, а также по обеспечению занятости безработных, особенно женщин, в связи с закрытием внешних границ. По итогам 2020 года численность работающего населения в Узбекистане составила 19 121 000, численность занятого населения – 13 205 000 человек. Занято в официальном секторе - 5 673 тыс. человек, занято в неформальном секторе экономики - 7 531 тыс., в том числе работающих за рубежом - 1 912,6 тыс. человек. В третьем квартале текущего года уровень безработицы составил 11,1%, среди молодежи до 30 лет - 17,1%, среди женщин - 14,7%. За прошедший период текущего года органами труда были трудоустроены и трудоустроены 513 тысяч женщин, трудоустроены на постоянную работу - 125,4 тысячи. 260,3 тысячи женщин из безработных и малообеспеченных семей, включенных в «железный реестр», были привлечены к оплачиваемым общественным работам, а 270,5 миллиарда получили заработную плату из средств Фонда общественных работ при министерстве. За период безработицы 30,8 тысячам безработных женщин было выплачено пособие по безработице на сумму 15,3 миллиарда сумов[14].

На сегодняшний день «Предпринимательница» в сотрудничестве с Ассоциацией деловых женщин Узбекистана предоставила 116 млн. сум. Навыки предпринимательства обучались на краткосрочных курсах повышения квалификации «От идеи до бизнес-плана» в обмен на субсидию в размере 10 000 000 сумов[14].

В 2020-2021 годах совместно с Ассоциацией деловых женщин

Узбекистана «Гадбиркор ал» решено обучить более 10 тысяч женщин предпринимательским навыкам и обеспечить их трудоустройство, помогая им открыть собственное дело[15].

В 2021 году Ассоциации деловых женщин Узбекистана «Предпринимательница» исполнилось 30 лет. По случаю юбилея ассоциация «Деловая женщина» запустила масштабную просветительскую акцию, посвященную 19 ноября – Всемирному дню женщин-предпринимателей. «Неделя женского предпринимательства», прошедшая в нашей стране с 16 по 21 ноября 2021 года, создала новые возможности для женщин, желающих реализовать свои предпринимательские идеи.

Развитие женского предпринимательства в Республике Узбекистан имеет свои особенности, связанные с положением женщин в обществе и занятостью их общественно полезным трудом. Женское предпринимательство обеспечивает значительную часть доходов семьи. Поэтому продукция промышленных отраслей, текстильных фабрик, ковроткацких, швейных цехов, созданных женщинами-предпринимателями, предназначена не только для снабжения местного рынка, но и на экспорт. Пищевая промышленность развивается на местном уровне за счет создания мелких перерабатывающих предприятий (переработка и консервирование мяса и молока, а также овощей и фруктов), что способствует увеличению доходов мелких семейных ферм. Женщины-предприниматели также активно участвуют в этой сфере. Сегодня в нашей республике работают более 190 тысяч деловых женщин. В этом плане Узбекистан входит в число стран, поддерживающих женщин в сфере бизнеса и предоставляющих им множество возможностей.

К 2021 году ассоциация будет насчитывать около 17 тысяч членов, 73

региональных отделения и более 200 тренеров. За прошедшие 9 месяцев более 10 тысяч женщин в самых отдаленных регионах нашей страны приняли участие в тренингах по основам предпринимательства. Рабочими местами обеспечены более 9 тысяч женщин, при поддержке ассоциации 1 тысяча 547 женщин получили кредиты на сумму 22 миллиарда 700 миллионов сумов. В рамках проектов грантообладателям было выделено 154 000 долларов США на реализацию их творческих бизнес-планов[16]. Например, в целях поддержки предпринимателей через зарубежные фонды на основе программы ООН «Женщины и развитие» женщины-предприниматели колхоза «Беш Чашма» Чиракчинского района провели семинар в областной женской образовательных центров за счет 160 тыс. долл. США и выделено на организацию мероприятий. Большой вклад в это внес Абег Вилмар, технический консультант ООН по развитию Узбекистана. Она приехала в Узбекистан в 1997 году и начала проект «Повышение положения женщин в Узбекистане» в Кашкадарьинской области, открыв 2 женских учебных центра в

первом Чиракчинском районе. Учебный центр создан в Кашкадарьинской и Навоийской областях. А.Вилмар реализовал второй проект по повышению экономической активности женщин Кашкадарьи. Проект ЯА «Развитие неправительственных и некоммерческих организаций в рамках экономического и социального развития Кашкадарьинской области». В результате на основе данной программы был разработан микрозайм на сумму 300 000 долларов США для женщин-предпринимателей, желающих развивать предпринимательство[17].

**Заключение.** Ассоциация «Деловая женщина», направленная на повышение правовой культуры предпринимателей, начинающих свое дело, предоставляет женщинам курсы обучения, начиная от бухгалтерского учета и заканчивая разработкой бизнес-плана, регистрацией предприятия, экспортно-импортными операциями, работой с таможенной и налоговой системами. в процессах оказывается практическая помощь. Ведь поддержка женщин-предпринимателей во всех региональных отделениях ассоциации служит улучшению благосостояния семей.

### Литература:

1. “Официальный сайт ассоциации «Предпринимательница» - <https://www.adju.uz/uz/>.
2. Женщины и бизнес: лидерство и предпринимательство. <https://uza.uz/oz/posts>
3. Обязанности и функции. - <https://www.adju.uz/uz/>.
4. Абулқосимов Х, Қулматов А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тадбиркорликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. – Т., 2014. – Б 94 (Абулкасимов Х, Кулматов А. Роль семейного предпринимательства в сфере малого бизнеса в Узбекистане и пути его развития. - Т., 2014. - Б 94.)
5. Годовой обзор стоимости экономики и основных направлений внешней экономической деятельности Республики Узбекистан за 2016 год.// Торговое представительство Российской Федерации в Республике Узбекистан. – Ташкент, 2017. – С 174-175.
6. Шамсиева М. Х. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилишда давлат ва нодавлат нотажорат ташкилотларнинг ўрни (1991-2010 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) дисс. автореферати. – Т., 2019. – Б 17(Шамсиева М. ИКС. Роль государственных и негосударственных некоммерческих организаций в социальной защите женщин Узбекистана (1991-2010 гг.). Доктор философии по истории (Phd) дисс. автореферат. – Т., 2019. – Б 17.).
7. Отчет Сурхандарьинского областного отделения Ассоциации деловых женщин

Узбекистана «Тадбиркор аёл». Из папки отчета за 2017 год.

8. Tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi 25 yilligini nishonladi.- <https://nbu.uz/news>
9. Из папки отчета Ассоциации «Предпринимательница» за 2016 г.
10. Из папки отчета Ассоциации «Предпринимательница» за -2017г.
11. Аёл ва тадбиркорлик | NORMA.UZ- <https://www.norma.uz>
12. Тадбиркор – юртга мадакор. (Ютуқлар бардавом бўлсин!) Предприниматель – помощник страны. (Пусть достижения продолжают!)- <https://everyday.uz/business>. 13.09.2019-
13. Tadbirkor ayol daromad topish usullarini orgatmoqda.( Деловая женщина учит способам получения дохода.) - <https://zarnews.uz/post/>
14. “Деловая женщина” 2020 папка с материалами отчета Ассоциации деловых женщин Узбекистана
15. Деловая женщина» Материалы папки отчета Ассоциации деловых женщин Узбекистана за 2021 год.
16. Неделя женского предпринимательства - 2023" - <https://uza.uz/oz/posts/537391>
17. ГОА, фонд 829, опись 15, дело 62, лист 74.

## IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SURXONDARYODA MAORIF TIZIMI

**Umarov Jamshid Saidmuratovich,**

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası tadqiqotchisi,

Pegagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*Umarovjamshid510@gmail.com*

UDK: 950(575)

<https://orcid.org/0009-0004-2134-0503>

**Annotatsiya:** Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda, jumladan Surxondaryo oblastida ham barcha sohalar singari Xalq maorif tizimi ham frontga yo'naltirildi. Maktablar faoliyatini rivojlantirishda bir qator muammolar vujudga keldi. Bu muammolar maktablarda sifatsiz ta'lim-tarbiya, o'quv jihozlarining yetishmasligi, o'quv dasturlarining yo'qligi hamda kadrlar tanqisligini yuzaga keltirdi. Maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida Surxondaryoda maorif tizimi va undagi ayrim muammoli holatlar xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** xalq ta'limi tizimi, frontga safarbarlik, Pedagog kadrlar yetishmasligi, Surxondaryo, Denov, ta'lim sifati.

**Аннотация:** В годы Второй мировой войны в Узбекистане, в том числе в Сурхандарьинской области, система народного образования, как и все другие области, была направлена на фронт. В

развитии школы возник ряд проблем. Эти проблемы стали причиной низкого качества образования в школах, нехватки учебного оборудования, учебных программ и нехватки кадров. В статье говорится о системе образования и некоторых проблемных ситуациях в Сурхандарьинской области в годы Второй мировой войны.

**Ключевые слова:** система народного образования, мобилизация на фронт, нехватка педагогических кадров, Сурхандарьинская область, Денов, качество образования.

**Abstract:** During the Second World War in Uzbekistan, including in the Surkhandarya region, the public education system was directed to the front, like all other fields. A number of problems have arisen in the development of schools. These problems have caused poor quality of education in schools,

lack of educational equipment, lack of curriculum and shortage of personnel. The article talks about the educational system and some problematic situations in Surkhondaryo during the Second World War.

**Key words:** public education system, mobilization to the front, shortage of teaching staff, Surkhondaryo, Denov, quality of education.

**Kirish.** Ikkinchi jahon urushi xalq ta'limi tizimida erkak o'qituvchilarning frontga ketishi, o'quv qurollarining yetishmasligi, maktab binolarining harbiy maqsadlarda foydalanilishi, 6-11 sinf o'quvchilari uchun majburiy mehnat kunlari joriy etilishi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bularning barchasi darslarning to'laqonli o'tilishida jiddiy muammolarni yuzaga keltirdi.

**Materiallar va metodlar.** G.Yu.Kuznesov[1], V.V.Drinochkin[2] va A.V.Ovchinnikov[3] tadqiqotlarida sovet davlatida urush yillarida ta'lim tizimi nazariyasi va amaliyoti ochib berilsa, S.Tursunov, B.Murtazoyev, T.Pardayev, A.To'xtayev[4,5,6]larning bir qator monografiyalarida Surxondaryo oblastining urush yillaridagi ta'lim tizimi tumanlar misolida tahlil etilgan.

**Muhokama.** Boshlanib ketgan urush maorif tizimida ilgari belgilangan barcha tadbirlarni vaqtincha to'xtatib qolishiga sabab bo'ldi. Chunonchi, urush O'z SSR XKS va O'z KP (b) MK ning 1941-yil 30-may – 3-iyunda “Bolalar ijodiyoti Respublika va oblast olimpiadasini o'tkazish va unga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida” qabul qilgan 580-sonli qarorini bajarishga imkon bermadi. Shu bois olimpiada o'tkazish to'g'risidagi qaror 1941-yil 26-iyun kuni bekor qilindi[9].

Og'ir sharoitda ko'pchilik maktab o'quvchilari yosh bo'lishiga qaramay, o'z ixtiyorlari bilan sanoat korxonalarini va kolxoz dalalarida chiqib ishlashga qaror qildilar. Jumladan, 1941-yil iyul oyida termizlik 17 nafar o'quvchi “Progress” artelida, uch nafar o'quvchi “Ittifoq” kolxozi dalalarida ishlashga qaror qildi[23]. Lekin urush cho'zilib ketgach, 1-6 sinf bolalari, hatto undan ham kichikroq bolalar majburiy

ravishda dalaga olib chiqildi. Ular dalada kattalar bilan birga mehnat qilishar va o'zlariga tegishli bo'lgan payokni olishar edilar. Dalalarda bug'doy o'rini tugaganidan so'ng yerga tushgan boshqoqni terib olish uchun maktablarning yosh bolalari o'zlariga yuklangan kunlik normani bajarishar, belgilangan miqdordagi boshqoqni terгани uchun 200 gramm zog'ora non bilan “taqdirlanar” edilar. Keksalarning guvohligiga ko'ra, kunlik normani bajara olmagan go'daklarga hech narsa berilmagan. Buning oqibatida vohada juda ko'plab bolalar ochlikdan nobud bo'lgan. Ana shunday sharoitda maktab ta'limini yo'lga qo'yishning o'zi bo'lmas edi.

Sovet davlati maorif tizimining mamlakat hayotidagi mavqeini to'g'ri baholagan holda imkon darajada maktablarni qo'llab-quvvatlashda davom etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq, boshqa maqsadlar uchun berilgan maktab binolarini yana maorif tizimiga qaytarishga qaror qilindi. O'z SSR XKS va O'z KP (b) MK komissiyasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijasida respublikada 70 ta maktab binosi turli shaxslar va tashkilotlar tomonidan egallab olinganligi ma'lum bo'ldi. 1941-yil 15-iyul holatiga ko'ra, 50 ta maktab binosi va 3 ta ichki binolar ozod qilindi. 9 ta turli binolar almashtirib olindi. O'z SSR XKS 1941-yil 16-iyulda chiqargan 814 son qaroriga ko'ra, qolgan 11 ta maktab binosi va maktab qoshidagi 6 ta binoni tezlik bilan bo'shatish choralari belgilandi[10]. Hukumatning ushbu qaroriga asosan Sariosiyo rayonidagi maktab binosida joylashtirilgan rayvoyenkomatni 1942-yil 1-iyulga qadar boshqa binoga ko'chirish topshirildi[11].

Ikkinchi jahon urushi yillarida harakatdagi armiyaga jo'natilgan askar va zobitlarning bolalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda SSSR XKS tomonidan 1941-yil 2-iyulda “Qizil Armiya va Harbiy dengiz flotining oddiy va quyi boshqaruvchi tarkibi askarlarining bolalarini o'qitish uchun haq olishdan ozod etish to'g'risida” gi 803-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida O'z SSR XKS ning 1941-yil 18-iyuldagi 1628-

sonli qarori ham chiqarildi. Ushbu qarorlarga muvofiq, 1941-yil 1-iyuldan boshlab armiya safiga chaqirilgan oddiy askarlar va quyi tarkibdagi komandirlarning o'рта maktablardagi 8-10 sinflarida, shuningdek, texnikumlar va oliy o'quv yurtlarida o'qiydigan bolalarining o'qishi uchun haq to'lashdan ozod qilindilar[11].

Ta'kidlash joizki, SSSR XKS 1940-yil 26-oktyabrda "SSSR o'рта maktablarining yuqori sinflari va oliy o'quv yurtlarida pullik o'qishni joriy qilish va stipendiya tayinlash tartibining o'zgarishi to'g'risida" gi 637-sonli qarorni qabul qilgan edi. Unga ko'ra, Moskva, Leningrad va ittifoqdosh respublikalarning poytaxt maktablarida o'qish puli 200 so'm, boshqa shahar va qishloqlarda 150 so'm, texnikum va boshqa o'рта maxsus bilim yurtlarida ham 150 so'm, Moskva, Leningrad va ittifoqdosh respublikalarning poytaxt maktablaridagi oliy o'quv yurtlarida 400 so'm, boshqa shaharlarda joylashgan oliy o'quv yurtlarida 300 so'm, teatr, musiqa va badiiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida 500 so'mdan, sirtqi o'qiyotgan o'quvchilar uchun ushbu summaning yarmi to'lanishi belgilangan edi[8;910-911].

Tinchlik davrida o'qish puli uncha yuqori bo'lmagan. Yillik to'lov sovet grajdanlarining bir oylik ish haqiga (350 so'm) taxminan teng edi[24]. Lekin urush sharoitida harbiy xizmatchilarning oila a'zolari moddiy ahvoli ancha og'irlashgan edi. Qolaversa, frontda jang qilayotgan askarlarni rag'batlantirish ham kerak edi. Shuni hisobga olib, hukumat tomonidan harbiy xizmatchilarning bolalariga ana shunday imtiyozlar belgilandi. SSSR da pullik o'qish faqat 1956-yil 6-iyundagina bekor qilindi.

1941-yil 9-avgustda O'z SSR XKS tomonidan qabul qilingan "Ishchi Dehqon Qizil Armiyasiga safarbar qilingan grajdanlarning bolalarini bolalar bog'chalariga qabul qilish to'g'risida" gi 986-sonli qaroriga muvofiq, frontga ketgan askarlarning bolalari bog'chalarda bo'sh o'rinlari bo'lgan taqdirda navbatsiz qabul qilinishi belgilandi. Bolalar bog'chalariga joylashtirilgan harbiy xizmatchilarning bolalari uchun haq to'lashda imtiyozlar

berildi[20].

Urush sharoitida bolalarning tinimsiz dala ishlariga jalb qilinishi, o'qituvchilarning frontga va ishlab chiqarishga safarbar etilganligi, o'quv qurollarining surunkali yetishmovchiligi, bularning hammasi maktab ta'limi uchun jiddiy sinov bo'ldi. Chunonchi, 1942-yil 2-noyabrda Sho'rchi rayon Maorif bo'limi mudiri Samijonov armiyaga ketgani uchun o'rniga maktablar inspektori Yaqubov tayinlandi. Rayon maorif bo'limi metod kabineti mudiri etib, 27 yillik ish stajiga ega bo'lgan, oliy ma'lumotli, RSFSR da xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Xarameskiy tayinlandi[13].

Maorif va madaniyat xodimlari og'ir sharoitga qaramay, jonbozlik ko'rsatdilar. 1942-yilning dekabr oyida Denov rayispolkomida bo'lib o'tgan majlisda rayONO mudiri Hakimovning ma'ruzasidan keyin rayonda o'qituvchilar tayyorlaydigan 2 va 4 oylik kurslar ochildi. Unga jami 105 kishi jalb etildi. Tinglovchilarga kundalik oziq-ovqat ehtiyojlari uchun, kolxozlarning daromadidan 400 gramm non, 100 gramm un, 0,25 gramm guruch, 0,25 gramm moy berildi[21].

Och qolgan bolalar maktabga borib o'qiy olmas edilar. Ocharchilik, yuqumli kasalliklar va og'ir turmush natijasida ko'pchilik bolalar halok bo'lishdi. Shahar va qishloqlarda ota-onasidan ajralib qolgan bolalar soni ham ko'paydi. Buni inobatga olgan Sherobod rayispolkomi, urush tufayli yetim va qarovsiz qolgan bolalar uchun 1943-yilning 5-fevralida Sherobod rayon markazida 120 o'rinli bolalar uyini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. Barcha kolxoz va sovxozlarga bolalar uyiga g'amxo'rlik qilish vazifasi yuklandi. Oblispolkomdan bolalar uyi uchun zarur bo'lgan xarajatlarga mablag' ajratish so'raldi[22]. Ushbu bolalar uyi tarbiyalanuvchilariga rayon aholisi xuddi o'z bolalaridek g'amxo'rlik qildi. Boshqa rayonlarda ham xuddi shunday bolalar uylari tashkil etildi.

**Natijalar.** Maktab ta'limining izdan chiqishi, qarovsiz bolalarning ko'payishi voyaga yetganlar o'rtasida jinoyatchilikning keskin ko'payishiga olib keldi. 1943-yilda



Surxondaryo ichki ishlar xodimlari tomonidan 106 nafar bola jinoyat ustida qo'lg'a olindi. Ulardan 15 nafari qarovsiz, 40 nafari o'qiydigan, 48 nafari maktabga qatnamaydigan bolalar edi. Shuni inobatga olib 1944-yil 18-fevralda Surxondaryo oblispolkomi va obkomi voyaga yetmagan hamda qarovsiz bolalar o'rtasida jinoyatchilikning avj olishining oldini olish maqsadida maxsus qaror qabul qildi. Unga ko'ra, 1944-yilning 25-fevraliga qadar barcha maktablarda ota-onalar majlislarini o'tkazish, 15 martga qadar maktablarda sinfdan tashqari to'garaklar tashkil etish va ularga yuqori malakali o'qituvchilarni birlashtirish, ota-onalarni bu ishga jalb etish, barcha rayonlarda pionerlar uyini ochish, har yakshanba kunlari bolalar va o'smirlar uchun kinoseanslar tashkil etish belgilandi[12].

Frontdagi g'alabalar va mamlakat harbiy-iqtisodiy quvvatining o'sishi ta'lim tizimidagi vaziyatni yaxshilashga imkon berdi. SSSR XKS 1944-yil 5-martdagi 242-sonli qarori bilan 1944-yil 1-iyulga qadar barcha oblispolkomlar, avtonom va ittifoqdosh respublikalarning hukumatlariga boshqa maqsadlarda ishlatilayotgan maktab binolarini hukumatning tegishli ruxsati bo'lmagan taqdirda bo'shatib qo'yish buyurildi. Bundan faqat gospital maqsadida foydalanilayotgan maktab binolarigina mustasno qilib qo'yildi[15]. O'zXKS ning 1944-yil 22-aprelda qabul qilgan 464-sonli qaroriga ko'ra, harbiy qismlar, gospitallar, korxonalar, muassasalar va boshqa tashkilotlar tomonidan bo'shatilayotgan maktab binolari to'lig'icha maktablarga qaytarilishi belgilanib, ularga ushbu maktablarga tegishli bo'lgan uskuna va jihozlarni olib ketish qat'iyon ta'qiqlab qo'yildi[16].

Yoshlarni maktablarda a'lo baholar bilan o'qishga qiziqtirish uchun SSSR XKS 1944-yil 11-martdagi 5432-sonli Farmoyish chiqardi. Unga asosan, SSSR XKS qoshidagi Oliy maktab ishlari bo'yicha Komitetga oliy o'quv yurtlari va texnikumlarga urushgacha bo'lgan davrdagi qabul qoidalarini tiklashga ruxsat etildi. Ya'ni, 7 yillik maktablarni imtiyozli attestat bilan tugatgan shaxslar texnikumlarga, o'rta maktabni imtiyozli

attestat bilan tugatgan shaxslar oliy o'quv yurtlariga maktabni bitirganiga ikki-yil bo'lgan, yoki shu-yil tugatgan bo'lsalar kirish imtihonisiz qabul qilish tartibi belgilandi[17].

Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida Surxondaryo oblispolkomi barcha rayonlarda maxsus tekshiruv o'tkazdi. Ma'lum bo'lishicha, 1943-1944-o'quv yilida Surxondaryoda 3000 nafar bola maktab ta'limiga tortilmagan edi. 4000 nafar o'quvchi esa o'zlashtira olmaganligi uchun maktabdan chiqarib yuborilgan. Hukumat va oblispolkomning qator ko'rsatmalariga qaramay, Sho'rchi, Uzun, Sariosiyo rayispolkomlari va raykomlari kolxozlardagi maktab ta'limini barbod qilib, o'zboshimchalik bilan o'quvchilarni muntazam ravishda dala ishlariga jalb etishgan. 1944-yil 6-aprelda o'tkazilgan tekshiruv jarayonida Sho'rchi rayonidagi 6-sonli maktabda 305 nafar o'quvchidan 22 nafari, Uzun rayonidagi 9-sonli maktabda 89 nafar o'quvchidan atigi 10 nafari bo'lganligi aniqlangan. "Mehnat" kolxosi raisi Meliboy Jo'rayev va "Frunze" nomli kolxoz raisi Mullatar Nurmatov doimiy ravishda o'qishni barbod qilib, o'quvchilarni maktabga qo'yishmagan edi. «Yangi kuch» kolxozining raisi O'rinboy Yo'ldoshev va "Qizil g'uncha" kolxosi raisi O'rmon Nurmatov maktab binolarini pilla qurtini boqish uchun olib qo'yishgan edi[18].

Bunday noxush holatlar boshqa rayonlarda ham ko'plab uchrar edi. Ta'lim tizimini inqirozli holatdan chiqarish uchun Surxondaryo oblispolkomi va obkomi 1944-yil 12-mayda yig'ilish o'tkazib, ushbu masalani muhokama qildi. Yig'ilish so'ngida qabul qilingan qarorga ko'ra, rayispolkomlar va raykomlarga, rayon xalq maorifi bo'limlariga maktab o'quvchi va o'qituvchilarini dars vaqtida dala ishlariga olib chiqish qat'iyon man qilindi. Maktab direktorlari va RayONO mudirlarini o'z vazifasiga tegishli bo'lmagan boshqa ishlarga jalb qilish ham ta'qiqlab qo'yildi. Maktab o'quvchilarini to'liq tarkibda saqlab qolish maqsadida ularni maktabdan chiqarib yuborish amaliyoti bekor qilindi. 1943-1944

o'quv yili 2 oy kechikib boshlanganligi munosabati bilan darslar 1944-yil 15-iyulga qadar uzaytirildi. 1944-yil 25-avgustiga qadar barcha maktablar to'liq tamirdan chiqarilishi belgilandi. Denov va Termiz tumanlaridagi maktab binolarini egallab olgan partiya kabinetlariga inshootlarni 1944-yil 1-iyungacha qadar tamir qilib, yana maktablarga qaytarib berish vazifasi qo'yildi[19].

Pedagog kadrlar yetishmasligini inobatga olib, Surxondaryo oblispolkomi va obkomi 1944-yil 12-may kuni maxsus qaror chiqardi. Qarorga binoan pedagogika bilim yurtlariga 90 kishi, o'qituvchilarni tayyorlash kurslariga 510 kishi, jami 600 kishini qabul qilish belgilandi. Maktablarda rus tilini o'rgatish maqsadida 1944-yil 1-sentyabrdan boshlab Termiz pedagogika bilim yurtida 30 kishilik kurs ochildi. Bundan tashqari, qo'shimcha ravishda rus tili o'qituvchilarini tayyorlovchi 6 oylik kurs tashkil qilinib, unga 35 kishi jalb qilindi[19].

Surxon vohasidagi maktablarni o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash maqsadida 7-sinfni bitirgan iqtidorli o'quvchilar Sherobod va Termiz tumanlaridagi yarim yillik o'qituvchilar tayyorlash kurslariga jo'natildilar. Shunday hol bo'lganki, hukumatning yuqoridagi qarorini bajarish

maqsadida rayispolkomning ko'rsatmasi bilan Sherobod tumanidagi 6 sinf o'quvchisi 4 sinfga dars berishga qo'yilgan. O'qituvchilarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1943-45 yillar davomida ularga har oy 25 kgdan bug'doy berishgan. O'quvchilarni ta'limga jalb etish uchun maktabda atala pishirish an'anasi davom ettirilgan[7;72].

Xulosa. Xulosa qilganda, Sovet davlatida ikkinchi jahon urushi yillarida har qancha choralar ko'rilishiga qaramay, ta'limdagi inqirozli jarayon davom etaverdi. Bunga ko'p jihatdan sovet davlatining o'zi ham sababchi bo'ldi. Ko'pgina sovet, partiya va xo'jalik arboblarning tazyiqi bilan yosh bolalar-yil davomida dala ishlariga safarbar etilganlar. Bu holat ta'lim sifatining pasayishiga sabab bo'lgan edi. Urush sharoitida bolalarning tinimsiz dala ishlariga jalb qilinishi, o'qituvchilarning frontga va ishlab chiqarishga safarbar etilganligi, o'quv qurollarining surunkali yetishmovchiligi, bularning hammasi maktab ta'limi uchun jiddiy sinov bo'ldi. Shunga qaramasdan, voha maorif xodimlari har qancha qiyinchiliklarga qaramay, ta'lim-tarbiya yo'lida matonat bilan mehnat qildilar.

### Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Кузнецов Г.Ю. Исторический опыт культурного строительства в СССР в годы Великой Отечественной войны: 1941-1945 гг. Автореф...дисс. канд. ист. наук. – Москва, 2005.
2. Дрыночкин В.В. Великая Отечественная война и функционирование Советской системы народного образования. Автореферат канд. ист. наук. – Москва, 1992.
3. Овчинников А.В. Общественно-политическая деятельность учительства в годы Великой Отечественной войны 1941-1945гг. Автореферат дисс.канд.ист. наук. – Москва, 1994.
4. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. –Toshkent: Sharq, 2004.
5. Tursunov S.N. Xotira barhayot – qadr mangu. –Toshkent: Fan, 2010;
6. Tursunov S., To'xtayev A., Annayeva Z. Jarqo'rg'on tarixidan lavhalar. - Toshkent: Yangi nashr. 2019.
7. Soatov O., Tursunov S., Umarov I., Toshev K. Frontdan kelgan xatlar... - B.71-72.
8. Собрание постановлений и распоряжений правительства Союза Советских Социалистических Республик. 1940, № 27. - С. 910-911.
9. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 261-varaq.
10. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 150-varaq.
11. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 149-varaq.

12. Surxondaryo viloyat davlat arxivi., 45-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 143-varaq.
13. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 30-ish, 309-varaq.
14. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 161-ish, 205-206-varaqlar.
15. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 159-ish, 114-varaq.
16. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 160-ish, 236-varaq.
17. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 159-ish, 127-varaq.
18. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 161-ish, 279-varaq.
19. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 161-ish, 280-varaq.
20. Sherobod tuman davlat arxivi. 42-fond, 1-ro'yxat, 361-ish, 22-varaq.
21. Denov tuman davlat arxivi, 6-fond. 1-ro'yxat, 89-ish, 113-varaq.
22. Sherobod tuman davlat arxivi. 42-fond, 1-ro'yxat, 371-ish, 279-varaq.
23. Ilg'or Surxon uchun. 1941-yil, 5-avgust.
24. <https://newsland.com/community/3744/content/platnoe-obrazovanie-v-sssr-s-1940-po-1956-god-pochemu-ego-vveli/7202665>

## ЎЗБЕКИСТОНДА НОГИРОНЛАР АРТЕЛЛАРИ ТАРИХИ

**Дадамирзаева Гулчехра Абдунабиевна**

Наманган давлат университети

Тарих кафедраси доценти, PhD

[gulichehrad@mail.com](mailto:gulichehrad@mail.com)

UDK: 94(575.1)

ORCID id-0009-0004-7563-243X

**Аннотация:** Мақолада Ногиронлар кооперациясининг тузилиши, фаолияти ва унинг тизимидаги артелларнинг асосий йўналишлари кўрсатиб берилган. Бундан ташқари ногиронларни иш билан таъминлаш, ижтимоий муҳофаза қилиш тадбирлари таҳлил қилинган.

**Abstract:** The article shows the structure, activity of the Disabled people's cooperation and the main directions of the artels in its system. In addition, the measures of employment and social protection of the disabled were analyzed.

**Аннотация:** В статье показаны структура, деятельность кооперация Инвалидов и основные направления артелей в его системе. Кроме того, были проанализированы меры занятости и социальной защиты инвалидов.

**Калит сўзлар:** кооператив, кооперативлаштириш, кооператив альянс, ногиронлар кооперацияси, артель, ногиронлар кооператив уюшмаси, ижтимоий муҳофаза, ижтимоий таъминот,

ўзаро ёрдам ва суғурта кассаси

**Key words:** cooperative, cooperatization, cooperative alliance, cooperative of disabled people, artel, cooperative association of disabled people, social protection, social security, mutual aid and insurance fund

**Ключевые слова:** кооператив, кооперация, кооперативный союз, кооперация инвалидов, артель, кооперативное объединение инвалидов, социальная защита, социальное обеспечение, касса взаимопомощи и страхования

Кооператив ўзи нима? Совет даврида уни қандай жорий этилди? Бу саволларга осонликча жавоб бериб бўлмайдди. Чунки бу жараён совет тузумининг турли даврларида бу соҳадаги давлат сиёсатида боғлиқ ҳолда ўзгариб борди. 1995 йилда Халқаро кооператив альянснинг кооператив тўғрисида қабул қилган декларациясида таъриф берилишича, кооператив - ҳамкорликда эгаллик қилиш ва

демократик йўл билан бошқариладиган корхона воситасида ўзининг иқтисодий, ижтимоий ва маданий эҳтиёжларини қондириш мақсадида ихтиёрий равишда уюшган шахсларнинг алоҳида ассоциацияси ҳисобланади. Кооперативлар уюшмаси бозор иқтисодиётининг ижтимоий-иқтисодий ташкилоти бўлиб, ҳамкорликда ривожланиш ва аъзоларининг эҳтиёжларини қондириш учун ташкил этилади[1:7].

Жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётида кооперативларнинг тарихий тажрибасини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, кооперативлар фаолиятига хўжалик юритиш шакли сифатида ва ўз-ўзини бошқариш ҳамда демократия тамойилларига эга бўлган жамоат ташкилоти сифатида қараш лозим. Чунки кооператив ўз табиатида кўра, аъзоларини моддий эҳтиёжларини қондириш билан бирга уларнинг маънавий ва маиший турмуш тарзларига ҳам ўз таъсирини кўрсатади. Совет тарихшунослигида кооператив фаолиятини тадқиқ қилишнинг асосий йўналишлари мавжуд сиёсий тузумнинг ғоявий таъсирида эди. Биз мулоҳаза юритмоқчи бўлган масаланинг муҳим жиҳати шундаки, Ногиронлар артелларига бевосита раҳбарликни амалга оширган Ўзбекистон Ногиронлар кооперацияси ва унинг фаолияти тарихимизнинг, шу жумладан, кооператив ҳаракатнинг ўрганилмаган соҳаларидан бири саналади.

Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг жамиятни тубдан ислоҳ қилиш ва инсонлар учун муносиб турмуш шароитларини яратиш юзасидан бир қатор амалий чора-тадбирлар амалга оширилди. Бугунги кунда Ўзбекистонда ногиронларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг ҳаёт сифатини ва турмуш даражасини яхшилаш, энг асосийси, ижтимоий ҳаётга мослаштириш, иш билан таъминлаш масалаларига жиддий эътибор қаратилмоқда. Бутунжаҳон Соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотиغا кўра, дунё аҳолисининг 15 фоизи ногиронликнинг турли даражадаги

белгиларига эга. Уларнинг 2-4 фоизида жисмоний ҳаракатлари чегараланган[2]. Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг 2 фоизи ногиронлиги бор шахслар сифатида рўйхатга олинган. Жамиятнинг ижтимоий жиҳатдан тараққий этганлигининг муҳим омилларидан бири имконияти чекланган шахслар учун яратилган шарт-шароитлар ва уларнинг ўзларини мазкур жамиятнинг тўлақонли аъзоси сифатида ҳис этишлари даражасига боғлиқ. Ҳозирда бу соҳада амалга оширилаётган ислоҳотлар негизида ногиронлиги бўлган шахсларга нафақат тиббий ва моддий ёрдам кўрсатиш, балки уларнинг таълим олишлари ва меҳнат фаолияти билан шуғулланишлари учун иш билан таъминлаш масалаларига ҳам жиддий эътибор қаратилмоқда. Бу ўринда ногиронларни меҳнатга жалб этишнинг муҳим шаклларида бири ҳисобланган артеллар фаолиятининг тарихий тажрибасини тадқиқ этилиши муҳим аҳамиятга эга.

Ногиронлар кооперациясининг артеллари дастлабки даврда Ижтимоий таъминот вазирлиги бошқаруви таркибига кирган. Айнан меҳнатга жалб қилишнинг кооператив шакли ногиронлар учун қулайлиги ва жамият учун фойдали бўлиш, даромад топишнинг энг мақбул йўли бўлишини назарда тутган совет ҳукумати ногиронларни кооперативлаштириш сиёсатига алоҳида эътибор қаратди. Бу жараёнда мулкчиликнинг кооператив шаклининг ижтимоий аҳамияти муҳим омил эканлиги ҳисобланади.

Ногиронлар кооперацияси-меҳнатга лаёқатлилиқни йўқотган шахсларнинг кооператив бирлашмасидир. Совет Россиясида ногиронларни ижтимоий ва иқтисодий ҳаётга жалб қилиш Ижтимоий таъминот Халқ комиссарлиги томонидан амалга оширилди. РСФСР Халқ Комиссарлари Советининг 1921 йил 8 декабрдаги "Ногиронларнинг ижтимоий таъминоти тўғрисида" декретига кўра, ногиронлар меҳнат фаолияти билан шуғулланиши мумкин бўлиб, давлат ва маҳаллий солиқ йиғимларидан озод қилинган ишлаб чиқариш ва истеъмол

кооперативларини ташкил эта олиши белгилаб кўйилди[3:214]. Натижада ногиронлар давлат таъминотидан чиқарилиб, давлат томонидан кўллаб-қувватланмади.

Туркистонда эса ХКС Советларнинг Марказий ижроия кўмитасининг 1923 йил февралдаги қарорига асосан Ногиронлар кооперациясининг марказий органи ташкил этилди. Дастлаб асосан собиқ қизил армиячилардан иборат 472 нафар ногиронни бирлаштирган 65 та артель фаолият юрита бошлаган эди[4:133]. Кооперациянинг фаолият соҳасига ишлаб чиқаришнинг хилма-хил тармоқлари ва чакана савдо киради. 1936 йилга келиб Ногиронлар кооперацияси ўз артелларида 200 мингдан ортиқ ногиронларни бирлаштирди ва йиллик 2,5 млрд сўм маблағ айланмасига эга бўлди. Артель-Ногиронлар кооперацияси тизимининг бошланғич бўғини ҳисобланади. Артеллар Ногиронлар кооперациясининг вилоят, ўлка ва республика уюшмаларига бирлаштирилди. Вилоят, ўлка ва республика уюшмаларига раҳбарликни ва марказий органларга вакилликни Иттифокдош республикаларнинг Ногиронлар кооперацияси совети амалга оширди. Барча кооператив бирлашмалари ўз ишини Ижтимоий таъминот Халқ комиссарлиги раҳбарлигида олиб борди. Артель аъзолари ва уларнинг оиласига кўшимча тиббий ёрдам кўрсатиш, курорт ва санаторийларда даволаниши, вақтинчалик меҳнатга лаёқатсиз бўлган даврда моддий ёрдам кўрсатишни таъминлаш учун Ногиронлар кооперациясининг ҳар бир вилоят, ўлка, республика уюшмаларида ўзаро суғурта ва ёрдам кассалари ташкил этилди. Ўзаро суғурта кассаларига ўз вазифаларини амалга ошириши учун артеллар аъзолари ойлик маошининг 15 фоизини касса бюджетига тўлаб борди. Ўзаро суғурта ва ёрдам кассаси мустақил юридик шахс бўлиб, бевосита Ижтимоий таъминот Халқ комиссарлиги раҳбарлигида фаолият олиб борди[5:215]. Бу ўринда эътиборли жиҳатлардан бири айнан мана шу ўзаро

суғурта кассаларининг маблағлари артель аъзоларини меҳнатга вақтинчалик лаёқатсизлик ҳамда қарилик нафақаси тўловлари учун сарфланди.

Бутуниттифок ногиронлар кооперацияси совети тикувчилик, тўқимачилик, галантерия ва бошқа соҳалардаги артелларни ўзида бирлаштирди ҳамда уларга раҳбарлик қилди. Мазкур тизимда 1935 йил 1 январь ҳолатига 5722 та ишлаб чиқариш ва 1847 та умумий овқатланиш корхонасини ўзида жамлаган 2340 та артель фаолият кўрсатган. ЎзССР ХКСнинг 1938 йил 17 майдаги “Ногиронлар кооперацияси тўғрисида”ги қарорига асосан, ногиронлар кооперациясининг олий органи ЎзССР инвалидлар кооперацияси совети ташкил этилди[6:1]. Ўзбекистон ногиронлар артелларида кетмон, мих, мебель, ип-газлама матолар, ипак матолар, хўжалик арқони, тикувчилик буюмлари, пайпоқлар, трикотаж, пойабзал, канцелярия моллари, жомадон, идиш-товоқ, металл кроват, болалар велосипеди, макарон маҳсулотлари каби кундалик эҳтиёж моллари ишлаб чиқарилган. Масалан, Фарғона вилояти ногиронлар кооператив уюшмаси тизимидаги “Навойи” артелида қандолатчилик, уксус ва алкоголь ичимликлар тайёрлаш, курук мевалар тайёрлаш ва қайта ишлаш, ичимлик ва кир ювиш содаси тайёрлаш ва қадоқлаш, қалампир тайёрлаш, нос,табак ва махорка тайёрлаш цехлари мавжуд бўлиб, маҳсулотларни ташиш ва етказиб бериш савдоси, дўконларда савдо-сотикни амалга ошириш каби фаолият турлари билан шуғулланилган[7:1].

1938 йилда Ўзбекистон Ногиронлар кооперацияси тизимида жами 46 та артель бўлиб, унинг аъзолари сони 3027 нафар, ёлланма ишчилар сони 689 нафарни ташкил этди[8:83]. ЎзССР ХКС томонидан 1939 йил 23 июнда тасдиқланган ЎзССР Ногиронлар кооперациясининг низомига кўра, ЎзССР Ногиронлар кооперацияси совети ЎзССР Ногиронлар кооперациясининг олий органи бўлиб, 1938 йил 17 майда ЎзССР ХКС ва МИК



томонидан тасдиқланган Ногиронлар кооперацияси тўғрисидаги низом асосида фаолият олиб борди[9:1].

Иккинчи жаҳон уруши Ногиронлар кооперацияси учун ҳам синовли давр бўлди. Уруш бошланган дастлабки ойлардан оқ ногиронларни қабул қилиш, соғломлаштириш, ишга жойлаштириш асосий масалалардан бири бўлди. Жумладан 1941 йил 17 ноябрда Ўзбекистон КП МҚ котиби хузуридаги фронтдан келаётган ногиронларни кутиб олиш ва уларга ёрдам кўрсатишни ташкил этиш бўйича йиғилиш қарорига асосан Тошкент, Самарқанд, Андижон, Қўқон, Фарғона, Наманган ва Бухоро шаҳар советларига беш кун муддатда Иккинчи жаҳон уруши ногиронлари учун вақтинчалик ётоқхона топиш ва жиҳозлаш, (Тошкент шаҳрида 300 кишилик, бошқа шаҳарларда 100-150 киши) топшириғи берилди. Ижтимоий таъминот Халқ комиссарлигига 1 сутка давомида ногиронлик гуруҳини аниқлаш ва давлат корхоналарида ишлай олмайдиган ногиронларни Ижтимоий таъминот Халқ комиссарлиги ўзининг тизимида иш билан таъминлаш мажбурияти юклатилди. Ижтимоий таъминот Халқ комиссари Исломовга 1 ой муддатда Ногиронлар кооперациясидаги ёлланма ишчиларни имкон даражада бўшатиб уларни уюшган ҳолда ишлаб чиқариш корхоналарига ўтказиш ва қўшимча ногиронлар артеллари ташкил қилиш ва уларни ишга жойлаштириш тадбирини тайёрлаш топшириғи берилди[10:306].

1941 йилда бошланган уруш тизимдаги режаларни тубдан ўзгартирди. Унинг олдида мудофаа учун буюртмаларни бажариш ва армия учун ишлашга ўтган давлат корхоналарини ўрнини тўлдириш вазифаси қўйилди. Карточка тизимидаги ўтилиши билан озиқ-овқат соҳаси кескин қисқариб, чакана савдо айланмаси тўхтаб қолди[11:2]. Давлатга қарашли завод ва фабрикаларни кенг истеъмол моллари ишлаб чиқаришга ўтиши билан артеллар бир қанча маҳсулот турларини ишлаб чиқаришни тўхтатишга

мажбур бўлди. Реевакуация натижасида тизимдаги ишловчиларнинг сони кескин қисқарди. Давлат буюртмалари ҳажми камайди, натижада тизим асосий хом ашё манбаси қисқарди. Ўз олдида асосий вазифа сифатида кенг истеъмол молларини ишлаб чиқаришни мақсад қилган Ногиронлар кооперацияси 1948 йилга келиб ишлаб чиқаришнинг 17 та соҳасини қамраб олди ва 9 ой якунларига кўра бирорта ногиронлар кооператив уюшмаси режани бажармади[12:4]. 1945 йилда Наманган вилояти ногиронлар кооператив уюшмаси артелларида ногиронлар сони 708 нафар бўлиб, Иккинчи жаҳон уруши ногиронлари-187, меҳнат ногиронлари-458, бахтсиз ҳодиса ногиронлари-12, сил касаллари-18, вафот этган ҳарбийлар оилалари-51 нафарни ташкил этди[13:23].

Мавжуд камчилик ва муаммоларга қарамай, Иккинчи жаҳон урушидан сўнг ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзолари, уруш ва меҳнат ногиронларини иш билан таъминлашда ногиронлар кооперацияси муҳим роль ўйнади. Иккинчи жаҳон уруши жанггоҳларидан ногирон бўлиб қайтган 60452 инсоннинг тақдири ва кейинги ҳаёти кўп жиҳатдан уларнинг моддий ва маданий турмушини яхшилаш масалаларига боғлиқ эди. Урушда олган жароҳати сабабли ногирон бўлиб қолган кўп сонли эркаклар айнан соғлиги туфайли давлат корхоналарида ишлай олмас эди.

Низомга кўра, ногиронлар артелларида 20 фоизгача соғлом ишчи кучини фаолият юритишига ҳам рухсат берилган. Берилган аниқ кўрсатма ва топшириқларга қарамай, ногиронлар артеллари фаолиятини ташкил этишда бир қатор муаммо ва камчиликларга йўл қўйилганлигини кузатишимиз мумкин. Шу ўринда хом ашё масаласининг марказлаштирилиши ва танқислиги, ишлаб чиқариш режаларининг бажарилмаслиги ва баъзан цехларнинг бутунлай тўхтаб қолиши каби муаммоларни келтиришимиз мумкин. Шунингдек, 1948 йил май ойидаги Фарғона вилояти ногиронлар кооператив уюшмаси ишлаб чиқариш режасининг

базарилиши тўғрисидаги маълумотни кўрадиган бўлсак, режа атиги 37,6 фоизга базарилганлиги аён бўлади[14:241].

		Режа	Базарилди минг сум	Фоиз
1	Қурилиш материаллари	13	-	-
2	Металлни қайта ишлаш	55	6,1	11,1
3	Селикат-керамика	49	-	-
4	Кимёвий ишлаб чиқариш	21	0,7	3,3
5	Чарм-пойабзал	65	11,2	17,2
6	Тўқимачилик	266	221,6	83,3
7	Тикувчилик	282	26,6	9,4
	Жами	847,0	318,9	37,6

Қолаверса, ногиронларни ишга жойлаштириш 1947 йил 2 март ҳолатига Андижон ногиронлар кооператив уюшмаси бўйича режадаги 500 нафар уруш ногиронларини иш билан таъминлаш амалда 181 киши ёки 36,2 фоизга базарилди. Шу билан бир вақтда Андижон ногиронлар кооператив уюшмаси тизимидаги уруш ногиронларига ёрдам фондидан 320,3 минг сўм ажратилган бўлиб, 140,5 минг сўм ёки маблағнинг 44 фоизи сарфланган ҳолос. 1947 йил 1 январ ҳолатига 1397 нафар умумий ишчилар бўлиб, шулардан 1087 таси ёки 77,9 фоизи артель аъзолари саналади[15:2].

Олинган маълумотлар таҳлилига кўра шуни айтиш мумкинки, имконияти чекланган шахсларни меҳнатга жалб қилишнинг кооператив шакли уларни иш билан таъминлашда ҳамда давлат ва жамият аъзолари томонидан керакли эътибор ва кўмак берилган тақдирда жамиятга умумий фойда келтириш билан бирга, ижтимоий мослашув жараёнига ҳам ижобий таъсир кўрсатишини тарих тажрибасидан кўриш мумкин.

1953 йил 7 мартда Сталин вафотидан сўнг “Правда” газетасида бир қатор министрликларни қўшилиши ҳақида хабарлар босилди. Масалан, Ташқи савдо министрлиги ва СССР савдо министрлиги СССР ички ва ташқи савдо министрлигига, СССР Давлат хавфсизлиги ва ички ишлар министрлиги СССР Ички ишлар

министрлигига бирлаштирилди[16:1]. СССР Хунармандчилик кооперацияси Марказий советига шу нарса ойдin бўлдики, бошланган министрликларни йириклаштириш кампанияси хунармандчилик кооперациясини тугатилишига ва бирор бир министрликка қўшилишига олиб келади. Хунармандчилик кооперацияси Марказий Совети ходими Кукоевдан 17 март ва 5 май кунлари Г.М.Маленьков ва Н.С. Хрущев номига учта кооперацияни қўшиш зарурати тўғрисида таклиф келади. 1953 йил 8 майда СССР Министрлар Советининг хунармандчилик, ўрмончилик ва ногиронлар кооперацияларини бирлаштириш тўғрисидаги қарори чиқди. Қарор ўрмончилар ва ногиронлар розилигисиз, уларни фавқулодда съездларини чақирмай қабул қилинди. Бирлаштириш жараёни тугаши билан ногиронларни иш билан таъминлаш кескин тус олди. Чунки, бирлаштирилган артелларда ногиронлар камчиликни ташкил этиши билан артел ногиронлик мақомини йўқотиб, ногиронлар соғлом ишчи кучлари томонидан сиқиб чиқарилди[17:20].

Умуман олганда, бу даврда фаолият юритган ишлаб чиқариш кооперативлари мавжуд камчилик ва муаммоларга қарамай ногиронларни меҳнатга жалб қилинишида, ижтимоийлашувида шунингдек, уларнинг моддий ва маданий турмуш шароитларини

яхшилаш ишларида муҳим аҳамиятга эга бўлди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Теплова Е. И. Экономическая теория. – М., 2005. – С. 7.
2. <https://www.whu.int/disabilities/> Всемирный доклад об инвалидности
3. Вязова, О. Г. Из истории кооперации инвалидов. 1921–1941 годы / О. Г. Вязова // Промышленность: экономика, упр., технологии. – 2009. – № 3. – С. 214–217
4. Мирзаев Ж. Развитие кооперативной формы хозяйствования в условиях рыночных отношении в Туркестане: опыт и проблемы. дисс. канд. ист. наук – Т. 1994. С. 133.
5. Большая советская энциклопедия. Т. 34. – Москва, 1937. – С. 215
6. ЎзРМА, Р-2326-фонд, 1-рўйхат, 4-иш, 1-варак.
7. ФВДА 625-фонд, 1-рўйхат, 12-йиғма жилд, 1-варак.
8. ЎзРМА, Р-2326-фонд, 1-рўйхат, 1а-йиғма жилд, 83-варак
9. ЎзРМА, Р-2326-фонд, 1-рўйхат, 4-йиғма жилд, 1-варак.
10. Вставай страна огромная: (Компартия Узбекистана в годы Великой отечественной войны): Сб. документов и материалов/Сост.: Зотова Л.П., Ким П.Г и др. – Т.: Узбекистан, 1990-С. 306
11. ЎзРМА, Р-2326-фонд, 1-рўйхат, 245-йиғма жилд, 2-варак
12. ЎзРМДА, Р-2326-фонд, 1-рўйхат, 245-йиғма жилд, 4-варак
13. НВДА, 99-фонд, 1-рўйхат, 17-йиғма жилд, 23-варак
14. ФВДА 623-фонд, 1-рўйхат, 40-йиғма жилд, 241-варак.
15. ЎзРМДА, Р-2326-фонд, 1-рўйхат, 145-йиғма жилд, 2-варак.
16. Постановления совместного заседания Пленума Центрального Комитета Коммунистической партии Советского Союза, Совет Министров СССР, Президиум Верховного Совета СССР// Правда 1953 г. 7 март. №66
17. Назаров П. Н. Промысловая кооперация РСФСР и экономическая политика советского государства (1950–1960 гг.). Автореферат. дисс. канд. ист. наук. – Москва, 1991. – С. 20

## ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРДА ТРАНСПОРТ ЛОГИСТИКА ВА КОМУНИКАЦИЯ ТИЗИМИДА ТРАНСПОРТ ҲАМДА ЙЎЛ ҚУРИЛИШИНING АҲАМИЯТИ

**Хидиров Холмамат Джўраевич,**

Термиз педогогика инистути Ўзбекистон тарихи

ва уни ўқитиш методикаси кафедраси

ўқитувчиси (PhD) дотцент

UDK: 94(575.1)

ORCID id-0009-0004-7563-322X

**Аннотация:** Жанубий вилоятларда транспорт логистика ва коммункатция тизими ва йўл қурилиши тарихи ниҳоятда қадим даврга бориб тақалади. Ушбу ҳудуддан ўтувчи Буюк ипак йўли қадимдан серкатнов бўлган, савдо–сотик ривожланган бўлиб, йўллар мунтазам тарзда кўп тармоқларга бўлиниб турган.

**Калит сўзлар:** автомобиль йўллари, почта йўли, транспорт тизими, Катта Ўзбек тракти, Сурхон тракти.

**Аннотация:** История дорожного строительства в Сурхандарье уходит корнями в очень древние времена. Великий шелковый путь, проходящий через эту местность, издавна был оживленным, была развита торговля, и

дороги регулярно делились на множество ответвлений.

**Ключевые слова:** автомобильные дороги, почтовый тракт, транспортная система, Большой Узбекский тракт, Сурханский тракт.

**Abstract:** The history of road construction in Surkhandarya goes back to very ancient times. The Great Silk Road passing through this area has been busy since ancient times, trade was developed, and the roads were regularly divided into many branches.

**Key words:** highways, postal route, transport system, Greater Uzbek tract, Surkhan tract.

XIX аср охири – XX аср бошларида савдо-сотикнинг ривожланиши янги йўллари куришни талаб қилди. Негаки, шаҳарлар ва қишлоқлар орасида фақатгина карвон йўллари мавжуд бўлиб, тоғли жойларда йўллар хавфли эди[1.183]. Буни ҳисобга олган чор ҳукумати Шарқий Бухородаги рус гарнизонлари билан алоқани яхшилаш ва савдо-сотикни алоқаларини йўлга қўйиш мақсадида Самарқанд-Термиз почта йўлини куришга қарор қилди.

Самарқанд – Термиз почта йўли лойиҳасини Россия ҳарбий вазири Куропаткин топшириғи асосида французларнинг Жазоирдаги курилиши асосида амалга оширилган. Рус ҳарбий зобити, подполковник Мельников Самарқанд – Термиз почта йўлидаги энг оғир участкаларнинг оралиқ масофаси ва улардан ўтадиган вақтни ҳам ҳисоблаб чиқиб ахборот берган. Унинг ахборотида қуйидаги маълумотлар келтирилади.

Лайлагон – Чилонзор, 11, 5 верст, 43 минут.

Сайроб – Дарбанд, 16 верст, 2 соат 50 минут.

Дарбанд – Оқрабат, 21 верст, 2 соат 55 минут[2.218].

1900 йили Бухоро амири Абдулахад ва чор ҳукумати амирлик аҳолиси кучи билан рус ҳарбий инженерлари ва Туркистон сапёр батальони бошлиқлари

рахбарлигида 376 верстли Самарқанд-Термиз алоқа йўли ва 14 та мустақамланган станциялар куриш ҳақида махсус шартномага имзо чекдилар. Алоқа йўли 1902 йили ишга туширилди. Рус мутахассислари раҳбарлигида Бухоро амирлиги маблағи ҳисобидан Шерободни Термиз билан боғлайдиган почта-телеграф идораси курилди. Почта-телеграф йўлининг барпо этилиши рус-бухоро савдосини яхшилаш билан бирга маданий жиҳатдан ҳам катта аҳамиятга эга бўлди[5.281].

Самарқанд ва Термиз ўртасида Ғузор–Шеробод орқали ўтадиган почта йўли арава сиғадиган қилиб курилган бўлиб, савдо ва ҳарбий аҳамиятга эга эди. Почта йўли ёзда чанг, қишда юриб бўлмайдиган даражада лой бўлар эди. Бунақа қийинчиликларни фақатгина шағал-қум йўли куриш билангина бартараф қилиш мумкин эди, лекин бунга аҳолининг ҳам, ҳукуматнинг ҳам қурби етмас эди. Баъзи йилларда йўлнинг ёмонлиги сабабли, пахтани тайёрлов манзилларига кузда ташиб бериша олмас ва бу иш баҳорга қолдирилар эди. Маблағ ва йўл курилиш материаллари етишмаслигидан айрим сувоқар ариқлар устида кўприкларни жуда энсиз ва калта қилиб куришар эди. Шу сабабли сувли ариқлардан ўтиш жуда мушкул иш эди. Кўприклар ва қайиқларнинг йўқлиги боис тез оқар дарёлардан оқимга қараб саёз жойлардан ўтилар эди. Асосий йўллар карвон йўллар ва йўлакчалар эди. Транспорт эса отга қўшиладиган ёғоч аравалар эди.

Ўзбекистон транспорт тизимини ривожланиш босқичлари ва тараққиётга эътибор берилганда, XX асрда ушбу соҳада янги йўл курилишлари амалга оширила борилганлигига гувоҳ бўлиш мумкин. 1913 йилда Ўзбекистон ҳудудида жами 1,1 минг км йўллар мавжуд бўлиб, бунинг 0,03 км. тош ётқизилган йўллардан иборат эди.

Сурхондарёда автомобиль йўллари курилиши 1920 йилларга бориб тақалади. 1920 йилда давлат иншоотларининг

Туркистон Бош кўмитаси ташкил этилди. Ушбу ташкилот 1922 йилгача фаолият кўрсатган бўлса-да, амалда йўл хўжалиги бўйича ҳеч қандай иш бажармади. 1922 йил ноябрда Туркистон маҳаллий транспорт ташкилоти ташкил этилди, бироқ, давлат томонидан маблағ ажратилмаганлиги туфайли воҳада ҳеч қандай амалий ишлар қилинмади. XX аср бошида Ўзбекистонда 27 минг км йўл бўлиб, асосан от арава, карвон ва йўловчиларга мўлжалланган, шундан фақат 2 минг км га шағал ётқизилган эди[12]. 1920 йилга қадар йўл ишлари билан мунтазам шуғулланадиган давлат ташкилоти бўлмаган. 1922 йил ноябрда Туркистон маҳаллий транспорт бошқармаси, 1925 йил июнда Сурхондарё вилоят йўл бошқармалари ташкил этилди[12].

XX асрнинг 30-йилларида Сурхондарёда автомобиль корхонаси пайдо бўлди. Автомобилда юк ташиш йўлга қўйилиши туфайли, аравада юк ташиш ишлари камайди[1.183]. 1931 йилдан вилоят автотранспорт ва тош йўллар бошқармаси ташкил этилди. Қайд қилиш керакки, 1933 йилгача вилоятда юқорида айтилган йўл бошқармаларининг бирор бир бўлими йўқ эди[13].

Бу даврда йўл хўжалиklarини аҳволи фожиали ҳолатда эди. Янги йўллар қурилмас, эскилари эса таъмирланмас эди. Шу сабабли аҳоли яшаш марказлари орасида транспорт алоқалари тупроқли йўллар ва сўқмоқлар орқали, араларда бажарилар эди. Бундай аҳвол 1932 йилгача давом этди. Пахта етиштириш ва бошқа қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш йилдан-йилга кўпайиб бориши натижасида йўл қурилиши ва йўлларни таъмирлаш ишларига ҳам эътибор берилди. 1930 йилда Тўпаланг дарёси устида узунлиги 150 м бўлган кўприк қурилди[10]. Йўл қурилиши 1930 йилларда сезиларли ўсиб, Сарисийё, Денов, Шўрчи, Жарқўрғон туманларини бирлаштирадиган шох йўл қуриб битказилди. 1935–1936 йиллари шу йўлдан от аралар, туяларда Душанбе шаҳрини қуриш учун ғишт ташилди[14].

Транспорт соҳасида амалга оширилган ишлар, йўл қурилиши, йўловчиларга хизмат кўрсатиш, юкларни ўз вақтида манзилларига олиб бориш соҳасида Ўзбекистонда ўзига хос ишлар амалга оширилди. Ўзбекистонда 1940 йилда жами йўл тармоқларининг узунлиги 1,9 минг километрни ташкил этган. Шундан тош-бетон қопланган автомобиль йўлларининг узунлиги 31,6 км, унинг 4,3 км.и қаттиқ бетон қопламалардан иборат эди.

Ҳашар орқали сув иншоотларини қуриш тажрибасига асосланиб, ўша йили автомобиль йўлларини қуриш ишлари давом эттирилди. 1940 йилда узунлиги 708 километр бўлган Катта Ўзбек тракти, яъни Тошкент–Самарқанд–Термиз йўлини қуриш учун алоҳида қарор қабул қилинди. Бу йўлни қуриш давомида Сурхондарё вилоятида узунлиги 145 километрлик йўл тармоқлари ишга туширилди. Шунингдек, 87 километрлик Оқрабод–Шўроб ва Дарбанддаги тоғли довондан йўл ўтказилди. Қолган 58 км масофада қумли ва барханли жойларда шағал-қум тўкилиб, йўл қурилди[15].

Сурхон воҳасининг лойиҳа асосида йўл қурилиши ва сунъий иншоотлари учун маҳаллий қурилиш материалларидан имкони борича кўпроқ фойдаланиш назарда тутилиб, йўл қурилиш бошқармаси вилоятга, туманга, колхозга ва бригадаларга бўлинди. Қурилиш ишларига раҳбарлик қилиш учун «Штаб» ташкил қилинди ва ҳар бир ҳудуд телефонлаштирилди. Қурувчилар учун чойхона, маданий ва тиббий хизмат учун дўконлар, ошхоналар ташкил этилди. Колхозчиларнинг ҳамкорлиги оммавий тус олди. Йўл устидаги қоплама учун шағал-қумлар йўл яқинида жойлашган карьерлардан қазиб олиниб фойдаланилди.

Маида оқар сувларни ўтказиш иншоотлари учун тошлардан ва маҳаллий хом ашёлардан фойдаланилди. Шу иншоотларнинг кўпчилиги ҳозирги кунда ҳам (Оқрабод–Сайроб йўли) сақланиб турибди[16]. Кўприк қурилишида биринчи марта метан кондинциясиз қувурлардан фойдаланиб, Шўроб, Қорасув каби дарёлар



устидан катта кўприклар қурилди. Тезкор халқ ҳашари йўли билан қурилган кўприклар йўл хўжалигини яхшилаб, йўлсизлик муаммоларини бартараф қилди.

1940 йилда Сурхондарёда Катта Ўзбек тракти қурилиши ва шу йўлдан фойдаланиш ишларини бажарадиган биринчи ташкилот пайдо бўлди[11]. Уруш олди йилларида йўллар ётқизишда кўпгина ишлар бажарилган, йўлсизликни тугатиш бошланган бўлса ҳам, маблағ ва қурилиш материалларининг етишмаслигидан бу соҳадаги ишлар тўла рўёбга чиқмади. Темир йўл жуда кам, тош йўллар эса халқ хўжалигининг ҳамма тармоқларига юкларни ташиб етказиш имконига эга эмас эди. Йўлларнинг носозлиги халқ хўжалиги учун бошқа қийинчиликларни ҳам келтириб чиқарди. Чунончи бу ҳол пахта экиш учун ерларни ўзлаштиришга, қишлоқ хўжалигининг бошқа экинларини кўпайтириш, ишлаб чиқариш кучларини ҳудудий ташкиллаштиришга имкон бермас ва аҳолининг транспортга бўлган эҳтиёжини қондирмас эди.

1945–1949 йилларда автотранспортда юк ва йўловчилар ташиш ҳажми ўсди. Шу йилларда республикага 9548 та янги юк автомобили келтирилди[7]. Ўзбекистонда автомобиль хизматидан фойдаланиш йилдан йилга ошиб бориши натижасида янги йўл қурилишлари амалга оширилди, йўлларнинг сифат ва самарадорлиги анча яхшиланди. Ўзбекистонда шағал ётқизишиб, асфальт қилинган йўллар 1940 йилда 31,6 минг км, 1965 йилда 27,5 минг км, 1970 йилда 28,3 минг км, 1973 йилда 29,4 минг км, 1975 йилда 30,5 минг километрни ташкил этди[8.233].

1955 йил бошларида Сурхондарё вилоятидаги йўл тармоқларининг ҳолати бир мунча яхшиланди. Лекин бу ерда йўл қурилиши ишлари континентал, тез ўзгарувчан об-ҳаво шароитида бажарилганлиги боис йўл хўжалиги қоқоқлигича қолар ва бу соҳа халқ хўжалигининг бошқа тармоқларидан ортада қолаётган эди. Шунинг учун вилоятда қисқа муддат ичида йўлсизликни тугатиш муаммоси пайдо бўлди. Йўлсизликда хом

ашё, техника ва маблағ ресурсларини топиш, йўллар қурилиши ва уларни қайта таъмирлашни механизациялаш, йўл устларини капитал типдаги қопламалар билан қуриш, қурилишни тезлаштира оладиган технологияни ўзлаштириш талаб қилинарди.

Вилоятда шағал-қум аралашмасига Жарқўрғон нефтини аралаштириб йўлга ётқизиш жорий этилди. Бу эса ҳудудда йўл қурилиш суръатини тезлаштиришга ёрдам берди. 1952–1954 йилларда Катта Ўзбек трактининг Термиз шаҳрининг шимолий дарвозаси бўлимида, Эски Термиз-Каптархона, Ангор йўналишларида шу усул қўлланилди. Бу биринчи тажриба сифатида амалга оширилди. 1953–1955 йилларда Сурхон трактидаги Навшаҳар–Қорақир–Жарқўрғон йўллари ҳам шу усул қўлланилди[9].

Совет ҳукумати иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда автомобиль йўл қурилишига жиддий эътибор берди. Хом ашё манбалари жойлашган ҳудудларни Марказ билан боғлаш мақсадида катта йўл трассаларини қуришга киришиб, Ўзбекистон ҳудудида ҳам йирик йўл трассаларини бирлаштириш билан боғлиқ лойиҳаларни амалга оширди. Пахта ва қишлоқ хўжалик маҳсулотларини белгиланган манзилларга етказиш бўйича махсус таянч йўллари ишга туширилди. Ўзбекистонда 1953 йили 6,5 минг километр тош йўллар, 0,9 километр асфальт-бетон йўллар топширилган бўлса, 1958 йилда 8,1 минг километр тош йўллар, 3,3 минг километр асфальт-бетон йўллар қуриб фойдаланишга топширилди[6.237].

Фойдаланишга топширилган автомобиль йўллар асосан янги ўзлаштирилган кўрик ва бўз ерлар, янги барпо этилган шаҳарлар, давлат хўжаликлари, маъмурий марказлар ҳисобида бўлиб, аҳоли кўп истиқомат қиладиган аҳоли пунктлари, тоғ, тоғолди қишлоқлари бундан истисно эди. Бундай жараённи амалга оширишдан мақсад марказ манфаатлари асосида, белгиланган

режа бўйича пахта хом ашёсини ташиб кетишга мўлжалланган эди.

Хулоса қилиб шуни алоҳида таъкидлаш мумкинки, Сурхон воҳасида йўл тармоқларини қуриш ва ишга туширишдан асосий мақсад марказни хом ашёга бўлган талаб ва эҳтиёжларини қондириш, кўчириб келтириладиган русий аҳолининг ижтимоий-иқтисодий шароитларни яратиш, янги аҳоли манзилгоҳларни қурилиш ашёлари билан таъминлаш, шунингдек аҳолига хизмат кўрсатиш тармоқлари орқали ҳарбий стратегик имкониятларни мустаҳкамлаш каби масалалар муҳим қилиб олинган эди. Маҳаллий аҳолига йўловчи хизматини

кўрсатиш кўпроқ Марказ манфаатларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилди.

Совет тузумининг иқтисодий-сиёсий зиддиятлари, ишлаб чиқариш ва таъминотдаги узилишлар, маъмурий-бўйруқбозлик тизимидаги ноаниқ кўрсатмалар, сохта мажбуриятлар, дабдабали баландпарвоз чақириклар темир йўл тизимига ҳам ўз салбий таъсирини кўрсатди. Темир йўл транспортидаги ноқонуний ҳаракатлар, марказнинг маъмурий-бўйруқбозлик сиёсати натижасида юзага келган иқтисодий инқироз жанубий ҳудудлардаги иқтисодий тараққиётга ҳам жиддий салбий таъсир кўрсатди.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Азимов М. Термиз тарихи (энг қадимги даврлардан ХХI аср бошигача).– Қарши: Насаф, 2001.– Б.183.
2. Турсунов С., ва бошқалар. Термиз тарихи. –Б. 218.
3. Турсунов С.Н. Сурхондарё вилояти тарихини ўрганиш –Тошкент: А.Қодирий, 1997. – Б.46.
4. Турсунов С.Н., Қобилов Э.О.Пардаев Т., Муртазаев. Б Сурхондарё тарихи кўзгусида.–Тошкент: Шарқ, 2001. –Б.317.
5. Умаров И., Раҳмонов Ҳ., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар (хатакилар уруғи мисолида). –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2014. –Б. 281.
6. Советский Узбекистан за 40 лет. Статистический сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1964. – С.237.
7. Ўзбекистон Миллий архиви, 303-фонд, 2-рўйхат, 135-иш, 54-варақ.
8. Народное хозяйство Узбекской ССР 1975. – Ташкент: Узбекистан, 1976. – С.233.
9. Сурхондарё вилоятида давлат архиви, 76-фонд, 1-рўйхат, 754-иш, 72-73-варақлар.
10. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 95- фонд, 1-рўйхат,, 189-иш, 14-варақ.
11. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 454-фонд, 3-рўйхат, 464-иш, 63-варақ.
12. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 95-фонд, 1-рўйхат,15-иш, 28- варақ.
13. Сурхондарё давлат архивининг Денов филиали, 425- фонд, 1-рўйхат, 21-иш, 9-варақ.
14. Сурхондарё давлат архивининг Денов филиали, 425-фонд, 1-рўйхат, 29-иш, 31-варақ.
15. Сурхондарё давлат архивининг Денов филиали, 425-фонд, 1-рўйхат, 31-иш, 15-варақ.
16. Сурхондарё давлат архивининг Денов филиали, 425-фонд, 1-рўйхат, 31-иш,23-варақ.

## СУРХОН ВОҲАСИ ХУНАРМАНДЧИЛИГИДА ҚУРУВЧИЛИК СОҲАСИНИНГ АНЪАНАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

**Мамаражабов Ғайрат Абдулхакимович**

Термиз давлат университети

Жаҳон тарихи кафедраси доценти в.б.,  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

[mamarajabovg@tersu.uz](mailto:mamarajabovg@tersu.uz)

UO‘K: 94:745(575.1)‘1991/2020”

<https://orcid.org/0009-0001-6486-898X>

**Аннотация:** Сурхон воҳаси хунармандчилигида уй-жойларни пайдо бўлиши ва моддий маданиятнинг шаклланиши, тараққий этиши, ривожланиши муҳим аҳамиятга эга. Тарихий адабиётлардан маълумки, моддий маданият манбалари асосида ўтмиш аждодларимизнинг турмуш тарзи, иқтисодий ва маданий тараққиётдаги ўрни, жаҳон цивилизацияси тарихига қўшган муносиб ҳиссасини билиб оламиз.

**Калит сўзлар:** маданий, тураржойлар, меъморчилиги, маданий-маиший, хонақоҳ, паҳса, гувала, «бўрикалла», шапати, «хўржин том», ёмғир «қибла», тўсинлар, ток, уй-жой қурилиши.

**Аннотация:** Возникновение жилища и формирование, развитие и рост материальной культуры имеют важное значение в истории узбекского народа. Из исторической литературы известно, что на основе источников материальной культуры мы узнаем образ жизни наших предков, их роль в хозяйственном и культурном развитии, их достойный вклад в историю мировой цивилизации.

**Ключевые слова:** культура, жилища, архитектура, культурно-бытовая, ханақоҳ, хлопок, гувала, «борикалла», шапати, «корзинная крыша», дождевая «қибла», балки, нечет, жилище.

**Abstract:** The emergence of housing and the formation, development and growth of material culture are important in the history of the Uzbek people. It is known from the historical literature that on the basis of the sources of material culture we learn the way of life of our ancestors, their role in economic and cultural development, their worthy

contribution to the history of world civilization.

**Keywords:** cultural, dwellings, architecture, cultural-domestic, khanaqoh, cotton, guvala, «borikalla», shapati, «basket roof», rain «qibla», beams, odd, housing.

Ўзбекистон худудида уй-жойлар қурилиши қадимий тарихга эга бўлиб [1], Сурхон воҳасида қадимги тураржойлар табиий шароитни ҳисобга олган ҳолда барпо қилинган. Шунингдек, ҳар бир қурилган бино қурилишида ундан фойдаланиш манфаатлари тўлиқ ҳисобга олинган. Шарқ мутафаккири Абу Носир Фаробий уй-жой қурилиши кўпдан-кўп геометрик услубларга бўлишини, улар ичида «қуриладиган меъморий обида тарҳини тузиш санъати» мавжудлигини таъкидлаган [2.24]. Шунингдек, Абу Али ибн Сино тураржой меъморчилигида қурилажак уйнинг жойини, унинг шамол йўлига нисбатини, қуриладиган уй-жой ёнидан ўтадиган сувнинг таркибини, яқин атрофда турмуш шароитига салбий таъсир кўрсатувчи манбаларнинг бор-йўқлигини назарга олиш зарурлигини уқтириб ўтади. Ўрта Осиёда ҳар бир шаҳар, тураржой меъморчилиги жойнинг табиий шароити, об-ҳавоси, халқнинг иқтисодий, ижтимоий ҳаёти таъсири асосида ривож топган.

Сурхон воҳаси аҳолисининг анъанавий уй-жойлари, маданий-маиший иншоотларининг қурилиш тарҳи, дизайни, меъморчилик композицияларида сўнгги ўрта асрлар даврида бунёд этилган маданий-маиший иншоотларнинг қурилиш анъаналари изларини кузатишимиз мумкин. Д.Нозиловнинг фикрича, ўрта

асрларда бу ерда ўзига хос Тоҳаристон (Бақтрия) меъморчилик мактаби шаклланган [3.144]. Хусусан, бунга Сурхон воҳасидаги Денов марказида XVI асрда икки қават қилиб қурилган Сайид Оталиқ мадрасаси ва Катта Вахшивор қишлоғида 1713 йилда авлиё, шоир Сўфи Оллоёр томонидан қурдирилган масжидни мисол келтиришимиз мумкин. Масжид хонақоҳ, икки томони айвон ва қўшма хоналардан ташкил топган. Хонақоҳ ва айвон томи тўсин билан ёпилган бўлиб, синчли пахсадан қурилган. Шимолишарқий томони ҳашаматли бўлиб, меҳробсимон равоқлар ишланган. Хонақоҳдаги меҳроб равоқи анча чуқур бўлиб, унинг икки томонидаги тўрт равоққа бўртма чизиклар тортилган. Бундай безаклар жануби-ғарбий айвон деворида ҳам мавжуд. Айвондаги еттинчи ва хонақоҳдаги олтинчи устун ўйма ва рангли нақшлар билан безатилган [4.68-69]. Бундай иншоатлардаги қурилиш услублари Денов, Юрчи каби беклик марказларида ҳамда Вахшивор, Сина, Сангардак каби ўтроқ аҳоли яшайдиган қишлоқлардаги уй-жойлар қурилишида акс этганлигини кўришимиз мумкин. Аҳолининг доимий тураржой, уй томи пахса, хом ғишт, гувала яъни «бўриқалла», шапати [5] тоғли ҳудудларда синч девор, тош девордан иборат бўлган [6]. Дастлаб бир хонали, икки хонали XX аср бошларига келиб «хўржин том», «боми том», «обдовли том» ва болохонали уйлар вужудга кела бошлаган.

Тоғли ҳудудларда доимий тураржойлар асосан сой бўйларида, анҳор ёқаларида бунёд этилган бўлиб, уйларни қуришда ҳудуднинг табиий-географик хусусиятлари эътиборга олинган. Хусусан, уй-жойлар қуриладиган ҳудудга қуёш ёруғлиги тушиш ҳолати, дарадан ўтадиган совуқ шамол йўлидан сақлаш, ёмғир ва селнинг сойга тез оқиб тушиши, уйларни сувга ва деҳқончилик қиладиган ҳудудларга яқинроқ жойларда қуриш, қолаверса табиий офатлардан сақланиш каби масалаларга эътибор қаратилган.

Воҳадаги ўзбеклар ва тожикларда уй-

жой қуришда ўзига хос урф-одатлар бўлган. Масалан, уй қурилишини бошлашдан олдин кун ўнглиниб, ҳафтанинг хайирли ва хосиятли кунлари аниқланиб [7.179-184], шундан сўнг қўй сўйилиб, қўни-қўшнилари чақирилган. Меҳмондорчиликдан сўнг уй деворига тошни биринчи бўлиб бадавлат, ёши улуғ кекса киши қўйган, қолганини ёшлар давом эттирганлар. Воҳанинг Вахшивор, Бодиҳаво каби қишлоқларида эса уй қурилишига чақирилганларнинг ҳаммаси биринчи кунни ўзлари билан уй деворига биттадан тош келтирганлар. Кейин меҳмон бўлиб тарқалишган. Уй қурилишини эса уй эгаси ўз оила аъзолари билан бошлаган. Уй пойдеворининг биринчи қаторини уй эгасининг ўзи қалаб, қолганига ҳашар уюштирган.

Ахборотчиларнинг таъкидлашича, ота-боболари қадимдан одатда уй қуришда ишни бинонинг «қибла» томонидан бошлашган.

Тоғли ҳудудларда уйлар асосан бир томонга, яъни сой томонга қаратиб қурилган. Сойдан тоққа томон баландлик бўлиб бориши уйларнинг бу тартибда қурилишига олиб келган. Уйларнинг олд томони эса шу баландлик ҳисобига қаватма-қават бўлиб тоғ томон ортиб боради. Бу ҳудудда уйларнинг тоққа қаратиб қурилиши яхши натижа бермайди. Чунки тоғдан келадиган қор ва ёмғир сувлари тўппа-тўғри уй ичкарасига кирса, иккинчидан тоғ ён бағрига қурилган уйнинг орқа девори бўлмаганлиги сабабли уйнинг томи баландлик ҳисобига ёпилади. Бу эса уйнинг олд томонини бошқа ёққа ўзгартиришга имкон бермайди. Уйларнинг орқа деворларини тоғ ҳисобига қурилишининг асосий сабаби шундаки, бунда биринчидан, қурилиш ашёлари ва ишчи кучи тежалган бўлса, иккинчидан, юқори қаватда жойлашган тураржойлар олдида кенг ҳовли бунёд этилган. Тоғларда асосан тоғ ён бағирларида бунёд этилган молхона, отхона, омборхона кабиларнинг томи ҳовли тарзда ишлатилган. Чунки, тоғ ён бағрида тиккаликда қурилган уй-жойларнинг пастки қисмлари шу хонадоннинг ҳовлиси вазифасини ўтаган.

Албатта, уйни ёпишда ёғоч (асосан арча, тол ёки терак) тўсинлар тоқ (3, 5, 7, 9, 11, 13) қўйилган. Масалан, ошхона, дахлизлар учун уч ёки бешта ёғоч (хори) ишлатилса, меҳмонхона ва бошқалари учун етти, тўққиз, ўн биттагача қолаверса, уйнинг хоналари катталашшига қараб ундан ҳам кўп ишлатилган. Томнинг ёғочи (хори) устидан васса қўйилиб, васса устидан чий, бўйралар ёки камиш тўшаб сомон лой билан сувалган. Ҳар йили ёмғир ва қор сувлари ўтиб кетмаслиги учун сомон аралаштирилган лой билан суваб турганлар. Қиш фаслида қор ва музларнинг том устида узоқ вақт туриб қолишининг олдини олиш мақсадида том устига вақти-вақти билан туз сепиб турилган [8].

Воҳада уй қуришда асосан маҳаллий қурилиш ашёларидан фойдаланилган. Тоғли худудларнинг юқори қисмини ўрмонзорлар ташкил этганлиги сабабли бу худудда пахса девор ўрнига синч девор кенг қўлланилган. Синч девор жуда қулай ва мустаҳкам бўлганлиги билан ажралиб турган. Синч деворда токча, тахмон ўрнатиш қулай бўлган. Тоғли худуд аҳолиси шамол эсадиган ва сел келадиган томонига тош девор ёки қўш синчли девор қуришган. Шунингдек, синч деворли уйларнинг хоналари кенг ва баланд бўлади.

Синч девор тагсинч, каллак, устун, забаррав, устунгўша, қалама, ховонда, пуштак, бачки каби қисмлардан ташкил топган. Воҳанинг тоғли худудларида синч девордан ташқари кесак, яъни гувала деворлардан ҳам фойдаланишган. Бу ҳолатни воҳанинг тоғ олди қишлоқларида кузатишимиз мумкин.

Сурхон воҳасида дастлаб пахсали уй қурилиши қоратегинлик усталар томонидан бажарилган, кейинчалик эса маҳаллий усталар ҳам бу анъаналарни ўзлаштириб давом эттирганлар [9]. XX асрнинг биринчи чорагида Сурхон воҳасининг Миршоди, Элбаён, Хўжамулки каби қишлоқларида пахсали уйлар қурилган. Пахса уй баландлиги 70-80 см ли устма-уст ётқизилган қатор қатламдан ташкил топиб, бу уйларнинг бўйи беш

қадам, эни уч қадам, деворларнинг қалинлиги икки ёки уч қарич бўлиб сирти кесилмаган. Биринчи қаторда фақат эшик ўрни қолдирилган. Иккинчи қаторда дераза, токча, эшик ўрни қолдирилса, учинчи қаторда дераза, дарча, эшик, токчаларнинг усти беркитилгандан сўнг айлантириб чиқилган. Пахсали уйларнинг бурчаклари ярим айлана шаклда бўлиб, тўрт бурчагига девор ёпиштирилган ҳолда тўрт устун ўрнатилган. Том хариси эса шу устунларга қўйилган. Буни айрим тадқиқотчилар қишда бўлиб турадиган бўрон, қор ва ёмғир суви бино бурчакларини ювиб кетмаслигини назарда тутиб қилинган, деб таъкидлайди [10.68].

XX асрнинг 40-йилларидан анъанавий шаклда қурилган, лекин тузилишида замонавий кўринишлар бўлган янги уйлар воҳанинг Юрчи ҳамда Денов марказларида барпо этила бошланган. Сурхон воҳасининг тоғли ва тоғ олди худуд аҳолиси билан чўл худудида яшовчи аҳолининг тураржойлари ички тузилиши, жиҳозланиши айрим этник ва худудий жиҳатлари билан фарқ қилган. Тоғли худуд аҳолисида ўтроқликка хос хусусият уй жиҳозларида ўзига хос ўринга эга. Хусусан, уйлар дахлизли, дарчали ҳамда ён деворларида токчалар бўлиши билан ажралиб турган. Уйнинг ички томонини безашда аввал ерга чий (бўйра) ёки «бордон» тўшалиб унинг устига кигиз ёки гилам тўшалган. Шунингдек, воҳада XX асрнинг биричи чорагида айрим ҳовлилар ички ва ташқи ҳовлилардан иборат бўлиб, ички ҳовли аёллар ва оиланинг тан маҳрамлари учун бўлса, ташқи ҳовлида эса асосан бир неча хонали меҳмонхоналар бўлиб, ташриф буюрган меҳмонлар шу ташқи ҳовлида кутиб олиниб, шу ердан кузатилган. Хонадон соҳибалари эса юзлари номаҳрамга тушмасин, деб ташқи ҳовлига ўтмаган [11]. Айрим тадқиқотчиларнинг қайд этишича, ҳовлиларнинг ички ва ташқи қисмларга бўлиниши қадимги Юнонистон ва Рим каби давлатларда ҳам мавжуд бўлиб, ислом дини ўзидан анча аввал мавжуд бўлган аёлларнинг жамиятда ажралиб



яшаш шаклини қонунлаштирган [12.13].

Бу уйларда қиш фаслида сандал (танча)лардан фойдаланганлар. Сандал томонлари тенг тўрт оёқли курсидан иборат бўлиб, у асосан хонанинг ўртасига ўрнатилган. Сандал устига кўрпа, чойшаб ёпиб қўйилган. Воҳанинг Киштут, Хўжаасмин каби қишлоқларида эса доимий тураржой уйнинг тепа қисмидан мўри, яъни туйнук қўйилган ҳамда уйнинг ичида чой ва овқат тайёрланган. Туйнукдан тутун чиқиб, ҳаво янгиланиб, алмашиб турган[13].

Шунингдек, ҳовлида узум тоқлари кўтарилиб, «войиш» (ишқом) қилинган

ҳамда мевали ва баъзан эса мевасиз дарахтлар экилган. Баъзи ҳовлилар девор билан ўраб олинган. Кўпгина ҳолларда чўл ҳудудларда ярим ўтроқ тарзда яшовчи юз, кўнғирот, дўрмон аҳоли асосан бир хонали уйларда яшаган. Бу уйларни шамоллатиш учун олди ва орқа томонларидан «ярим кулоч» баландликда деворларини бир ёки икки жойидан тешилиб туйнук ясалган, уйлар дарчасиз ва тоқчасиз бўлган. Тадқиқ этилаётган даврда сандал ўчоқ қиш фаслида бутун оиланинг асосий ўтириб суҳбатлашиш, овқатланиш, исиниш, жун титиш, урчук йигириш, қолаверса, ётиш учун ҳам асосий жой ҳисобланган.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Турсунов С.Н. ва бошқалар. Сурхондарё тарихи. –Тошкент, 2004.
2. Нозилов Д. Чиғанок ичида марварид // Совет Ўзбекистони санъати. –Тошкент, 1981. –№ 9. –Б. 24.
3. Нозилов А.Д. Мастера школ горного зодчества Средней Азии. –Ташкент, 2001. –С. 144.
4. Турсунов С.Н. ва бошқалар. Сурхондарё тарих кўзгусида. –Тошкент, 2001.
5. Дала ёзувлари. 2021 йил. Шўрчи тумани Ялти, Тўла қишлоқлари.
6. Дала ёзувлари. 2021 йил. Узун тумани Хонжиза, Хўжаасмин қишлоқлари.
7. Устаев Ш. Дни недели в поверьях народов Южного Узбекистана / Труды Байсунской научной экспедиции. Вып. 3. –Ташкент, 2007. –С. 179-184.
8. Дала ёзувлари. 2022 йил. Денов тумани Сангардак қишлоғи.
9. Дала ёзувлари. 2022 йил. Денов тумани Ҳазорбоғ, Хайрабод қишлоқлари.
10. Воронина В.Л. Узбекское народное жилище // СЭ. –М., 1949. –№2. –С. 68.
11. Дала ёзувлари. 2023 йил. Сариосиё тумани маркази.
12. Воронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. –М., 1963. –С. 13.
13. Дала ёзувлари. 2023 йил. Қумқўрғон тумани Чаёнтепа қишлоғи.

## TURKISTONDA QOZILARNING YER-MULK ISHLARIGA OID MEYO'RIY TALABLAR TARIXIDAN

**Karimov Kaxramon Sadikovich**

Qo'qon davlat pedagogika isntituti dotsenti v.b.,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

qahramonjob876@umail.uz

<https://orcid.org/0009-0006-2397-8572>

UDK: 94(575.1)"18/19":347.995

**Аnotatsiya:** Мақоллада туркистон о'лкasi mahalliy aholisiga Rossiya imperiyasi tomonidan mahalliy boshqaruvga kiritilgan huquqiy-meyo'riy talabalar va o'zgarishlar, yer-mulkka egalik qilish, sotish va sotib olish,

olti-sotti holatini rasmiylashtirish, vasiylik tartiblari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalliy boshqaruv, huquqiy-meyo'riy talabalar, yer-mulk, egalik qilish huquqi, vasiylik.

**Аннотация:** В статье представлены сведения о нормативно-правовых изменениях, внесенных Российской империей для местных жителей Туркестанской области, о владении, купле-продаже земли, узаконении шестипродажного статуса, порядке опеки.

**Ключевые слова:** местной самоуправлений, право-нормативные студенты, имущество, право собственности, попечительство.

**Abstract:** The article provides information on legal and regulatory changes introduced by the Russian Empire to local residents of the Turkestan region, ownership, sale and purchase of land, legalization of six-sale status, guardianship procedures.

**Key words:** local government, legal-normative students, property, right of ownership, guardianship.

**Kirish.** Sartiya (o'troq aholi) fuqarolarining sag'ir \* (صغیر) bolalariga va ularning mol - mulklariga vasiylar tayinlash har bir joyning o'z qozilariga taalluqlidir. Vasiyat masalalari xususida shu qozilarning ustidan syezd qozilari nazorat qilib turadilar[1].

Vasiylar har yangi kalendar yilning birinchi yanvaridan qoldirmay qozilarga hisob[2] berishlari shart deb belgilangan[3]. Mas'ul qozilar ushbu hisobotlar xususida o'z fikrlarini yozib bo'lgach, uni tasdiqlash uchun syezd qozilariga taqdim qilgan[4].

Vasiylar beparvolik va xiyonat qilgan vaqtida ularning katta va kichik ayb va gunoh ishlarini syezd qozilari so'roq qilib hukm chiqarilgan[5].

**Manbalar tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti (Bundan keyin: FASHI) fondida saqlanayotgan qo'lyozma, toshbosma asarlar, materiallar tarixiy voqelikning o'zini emas, balki tarixiy voqelikni o'zida aks ettirgan manbalarni tadqiq qilishga yordam beradi. Bu manbalar ichida memuar, qo'lyozmalar, qonunlar, shariat, fiqh, odob-axloqqa oid to'plamlar,

\* Sag'ir (صغیر) - hali voyaga yetmagan yetim bola.

xotira va esdaliklar ham asosiy o'rin tutadi va ular birlamchi manbalar hisoblanadi. Tadqiqotni tayyorlashda fonda mavjud chig'atoy (eski o'zbek) yozuvidagi matnlar, fors tildagi manbalaridan ham unumli foydalanildi. Bu manbalar masalaga bevosita aloqador, arxiv hujjatlarida aks ettirilgan voqealar tafsilotini mustahkamlaydi, masalaning tub mohiyatini oydinlashtiradi.

Turkiston general gubernatori general adyutont Ruzenbaxning Farg'ona muzofotig'a qilg'on safarlarini bayoni[2] (ترکستان کینیرال کوپیرناتورى کینیرال ادیوتانت روزینباخ نینگ فرغانه مضافاتیغە قیلغان سفەرلاری نی بیانی) asrning yozilishi haqida kirish qismida Toshkentda chiqqan Turkiston viloyatining gazetidan olib bosilganligi keltirilgan.

Mirzo Olim Maxdum hoji uzoq yillar "Turkiston viloyati gazetisi"da muharrirlik qilgan mahalliy ziyolilardan bo'lib, Tarixi Turkiston (تاریخ ترکستان) "Tarixi Turkiston" asarining birinchi qismi 1908 – 1915-yillar davomida o'zi boshchilik qilayotgan gazetada bosilib chiqqan va 1915-yili Rossiya imperiyasi tomonidan Toshkentning bosib olinishining 50 yillik sanasi munosabati bilan alohida kitob rovida Turkiston general-gubernatori harbiy okrugi bosmaxonasida chop etilgan[3]. Ushbu asar L.A. Zimin, A.Z. Validov, P. Soliev, P.P. Ivanov, S. Jalilov, Ye.B. Bekmaxanov, A.M. Muxtorov, V.M. Ploskix, A.L. Troiskaya, R.N. Nabiev, A. Juvonmardiev, V.A. Romodin, M.K. Kutlugov, A. Tohirjonov, A.P. Qayumov, N.D. Mikluxo-Maklay, Ch.A. Stori, B.A. Ahmedov, A. Nabiyeu, va boshqalar olimlar tadqiqot olib borganlar.

Turkiston viloyatidagi xalqlarni zabt va rabt qilmoq ya'ni boshqarmog'ining nizomi (ترکستان ولایتی داغی خلقلرنی ظبط قلماق نظامی)[4] asarida Turkistonda mavjud bo'lgan viloyatlar, uyezdning tashkil etilishi, general-gubernator, uning noiblar, qozilar va biylarning vazifalari bayon qilingan.

Yer haqida ikki turli fikr (بیر حقندە ایکی) (تورلی فکر)[5] risola mustamlaka davrida yer-suv masalasiga bag'ishlangan. Unda o'tkazilgan yer-suv islohati borasidagi ikki xil yondashuv yoritilgan. Risolaning "Ifodai maxsus" qismi Rus podshosining

hukmronligi davrida qonunlarni qabul qilinishiga oid ma'lumot bilan boshlanib, unda podshoning o'ziga ma'qul bo'lgan qonunlar qabul qilgani o'ziga ma'qul bo'lmaganlarida xalq manfaatini o'ylamaganligi haqida keltiriladi.

Turkiston tarixining darslari (تركستان) [6]. Asar Turkistonning chegaralari, hududining tuzilishiga oid ma'lumotlar bilan boshlanadi. Maydoni xususida muallif "uch Girmoniya davlaticha bo'lub, Ariz daryosida Itolyaning kabidir" deya ma'lumot beradi. Turkiston besh viloyatdan tashkil topgan bo'lib, ular Kaspiyorti, Sirdaryo, Yettisuv, Farg'ona (Pomir bilan), Samarqand viloyatlaridir. Ikki xonlikni ham Rusiyaga qaram o'lka sifatida eslatadi.

Turkiston viloyatida har xil xatlar va aktlarga va pattalarga marka yopishtirmoq xususidagi nizom va qoidalarning bayoni (تورکستان ولایتیده هر خیل خطرگه مه رکه یاپشترماق) [7]. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistondagi mustamlakachi ma'muriyat mahkamasi, uning xodimlariga topshiriladigan xatlarga, vasiqalarga, fuqarolarning bir-birlariga yozadigan xat, vasiqa va pattalarga marka (yorliq) yopishtirish, marka (yorliq)larni sotish, markalarni yopishtirish ustidan nazorat o'rnatish, markalarni yopishtirish borasidagi qoidabuzarliklar haqida ma'lumotlar beradi.

**Natija va tahlillar:** Sartiya fuqarolarining avloddan avlodga o'tgan yillar mobaynida ota bobolaridan meros sifatida qoldirib tasarruflarida kelgan mulklar mavjud bo'lgan. Vorsiy mulk egalari ijtimoiy-iqtisodiy manfaat bilan foydalanib turgan mol-mulk va yerlar o'troq yashab turgan joyning rasm-rusumlari, urf-odatlariga hamda Rossiya imperiyasi tomonidan mahalliy boshqaruvga kiritilgan qoidalariga muvofiq o'z mulklari ekanlig'i tasdiqlanadi[1].

Katta ariqlar, buloqlar, daryolar va ko'llar suvlaridan fuqarolarning foydalanmog'i bu "rus podshohning rasmig'a" (ya'ni mustamlaka qoidalariga) muvofiq bo'lgan[1].

Musulmonlar egalik qilgan yerlarida o'sgan yovvoyi daraxtlar o'zlariga, egasi bo'lmagan bo'sh yerlar podshohlikka tegishli

bo'ladi[1].

Turkiston o'lkasi hududida tobe' qilinib, podshohlikka qarashli yerlarga aylantirilgan joy fuqarolariga mazkur yerlarda chorva mollarini o'tlatishlari ta'qiqlanmagan. Hududdagi tabiiy resurslar qum, tosh va tuproqidan foydalanishlari (olishlari) mumkin bo'lgan[1]. Ammo fuqarolarning Rossiya imperiyasiga tegishli deya belgilangan bu kabi yerlardan foydalanishlari tartibini Turkiston general gubernatar belgilab berardi[1].

Jamoat qishloq fuqarolariga tegishli bo'lgan yerlardan foydalanishlari tartibi va miqdorini joyning rasm-rusumiga (mahalliy tartib-qoida) muvofiq xoh oilalar o'rtasida va xoh har bir hovli boshiga taqsim qilinib, chegaralab olgan holda foydalanishlari mumkin edi[1].

Har qaysi uy egalarining o'z tasarrufida foydalanib turgan yerlariga buyond qilgan imoratlari va ekkan daraxtlari ularning mutlaqo o'zlariga tegishli bo'lgan[1].

Har bir viloyat musulmon fuqarolari o'z yerlarini birovga o'tkazib berishi, hadya qilishi\*, mulk mollarini meros qilib ketishi va shu mulklarning vorislar o'rtalarida taqsimlab berishi har qaysi yerdagi musulmonlarning o'z maxsus odatlariga muvofiq bajarilgan. Musulmon fuqarolarining mazkur yerlarini Rossiya imperiyasi tomonidan o'lkada joriy qilingan me'riy huquqlarga tayanilgan "Nizom"larda ko'rsatilgan tartibda Turkiston viloyatidagi fuqarolari olishi mumkin bo'lgan.

G'ayrjins\* yerlarini begona (yoki boshqa mamlakat fuqarosi) odamlarga o'tkazib berish Rossiya qonuniga muvofiq amalga oshirilgan. Lekin bu suratda yer sotib olgan odam shu yerni sotuvchini yer sotgan vaqtda shu yerdan foydalanishi qanday belgilangan bo'lsa, sotib olgan odam ham shu tariqa foydalanishi zarur edi[1].

**Xulosa.** Islomiy hujjatlar xususan, qozilik mahkamasi hujjatlari ma'lum bir

\* Hadya shartnomasi - ashyoni tekinga mulk qilib berish, mulk huquqini berish yoki bu majburiyatlarni olishga aytiladi.

\* Bu o'rinda boshqa jinsdagi; urug'i boshqa, qabilasi boshqa ma'nosida keltirilgan.

an'analar asosida rasmiylashtirilgan va ularda qozining muhri, yozma qarori, masala yuzasidan dalili keltirilgan bo'lishi shart qilingan. Turkistonda xalq sudya(qozi)larining huquqiy me'yorlar legalizatsiyasi jarayonida ushbu holatlar saqlanib qolingani bo'lsa-da ayrim o'zgarishlar ham kuzatiladi. Masalan, hujjatlar qo'lyozma shaklda yoki yozuv mashinkasida maxsus kotiblar tomonidan yozilgan. Xat va xabarlar pochta xizmati orqali maxsus markalar yopishtirilgan holda jo'natilgan va jiddiy mazmundagi xabarnomalar so'rg'ichlangan. Rus imperiyasi

ma'muriyatiga tegishli hujjat va qog'ozlarda bosma gerb, naqshlar, hudud va tashkilot nomlari, tipografik elementlar uchraydi.

Xullas, Turkiston o'lkasida mahalliy boshqaruv tizimining taraqqiyot yo'li, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, tarixiy merosi, ularning g'oyaviy yo'nalishlari, qozilik mahkamalari notarial laboratoriyasini chuqur o'rganish o'zbek davlatchilik tarixi, xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlari o'zbek xalqining huquqiy boshqaruvda milliy ruh aks etish manzarasini teran tasavvur etish imkonini beradi.

#### Fodalanilgan adaiyotlar ro'yxati:

1. Qonun. – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 730. – V. 10, 11, 12.
2. «Turkiston general gubernatori general adyutont Ruzenbaxning Farg'ona muzofotig'a qilg'on safarlarini bayoni» (ترکستان کینیرال کوبیرناتورى کینیرال ادیوتانت روزینباخ نینگ فرغانه مضافاتیغه) (قیلغان سفرلاری نی بیانی). – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 723. 44 varaq.
3. Mirzo Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston (تاریخ ترکستان). – Toshkent: 1915, FASHI. – Qo'lyozma № 723. 44 varaq.
4. «Turkiston viloyatidagi xalqlarni zabt va rabt qilmoq ya'ni boshqarmog'ining nizomi» (تورکستان ولایتی ده غی خلق لارنى ضبیت و ربط قیلیمق یعنی باشقارماغی نینگ نظامی). – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 9542. 232 varaq.
5. «Yer haqida ikki turli fikr» (بیر حقتده ایکی تورلی فکر). – Samarqand: 1919, FASHI. – Qo'lyozma № 9441. 35 varaq.
6. Turkiston tarixining darslari (ترکستان تاریخی ننگ درسلیرى). FASHI. – Qo'lyozma № 19222. 10 varaq.
7. Turkiston viloyatida har xil xatlar va aktlarga va pattalarga marka yopishtirmoq xususidagi nizom va qoidalarning bayoni (تورکستان ولایتیده هر خیل خطلرگه مه رکه یاپشترماق خصوصیده) (نظام و قاعیده لر بیانی). FASHI. – Qo'lyozma № 9539. 10 varaq.

### 1950-1980 YILLARDA SURXONDARYO VILOYATI HUNARMANDCHILIK ARTELLARI XODIMLARINING IJTIMOY AHVOLI VA SOHANI MUTAXASSISLAR BILAN TA'MINLASH

**Ergasheva Sayyora Abdusoatovna,**

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi,  
sergaseva223@gmail.com

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0004-1881-7200>

<https://commons.datacite.org/doi.org?query=>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonning janubiy hududlaridan ya'ni Surxondaryo viloyatida 1950-1980 yillarda artellarda xizmat ko'rsatgan hunarmandlarning ijtimoiy ahvoli, sohaga mutaxassislar tayyorlash borasida olib

borilgan urinishlar bu sohadagi muammolar haqidagi fikrlar bayon etilgan. Viloyatda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish jarayonini tashkil etishda "ustoz-shogird" tizimida olib borilganligi va uning natijalari davriy matbuot hamda arxiv materiallari

asosida yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, kasb-hunar taʼlimi, oʻquv ustaxonasi, temirchilik, tikuvchilik, duradgorlik, zavod va fabrikalar, hunarmandchilik.

**Аннотация:** В данной статье описывается социальное положение ремесленников, служивших в артелях южных районов Узбекистана, то есть Сурхандарьинской области в 1950-1980 годах, попытки подготовки специалистов в этой области и проблемы в этой области. Процесс профессиональной подготовки молодежи в провинции осуществлялся по системе «мастер-подмастерье» и его результаты освещались на основе периодической печати и архивных материалов.

**Ключевые слова:** производство, научно-техническое развитие, профессиональное образование, учебная мастерская, кузнечное, портняжное, столярное дело, фабрики и фабрики, ремесла.

**Abstract:** This article describes the social situation of artisans who served in artels from the southern regions of Uzbekistan, i.e. Surkhondaryo region in 1950-1980, attempts to train specialists in this field and the problems in this field. The process of vocational training of young people in the province was carried out in the "master-apprentice" system and its results were highlighted on the basis of periodical press and archival materials.

**Key words:** production, scientific and technical development, vocational education, educational workshop, blacksmithing, tailoring, carpentry, factories and factories, crafts.

**KIRISH.** XX asrning 50-70-yillarida oʻzbek xalqining asriy anʼanalarini, mehnat koʻnikmalarini, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllarini, aholi turli qatlamlarining, hududlarning u yoki bu mehnat turiga boʻlgan ehtiyojini hisobga oladigan darajada aholi ish bilan band etilmagan. Bir soʻz bilan aytganda,

industrialashning maqsadga yoʻnaltirilgan dasturi yoʻqligi Oʻzbekiston sanoati, jumladan anʼanaviy hunarmandchilikni rivojlanishining uyushgan va yaxlitligi tarzining buzilishiga olib keldi. Tub aholi industrial mashgʻulligiga doir oʻtgan asrning 80-90-yillaridagi muammolarning ildizi shundadir[3.B.43].

Bir vaqtlar respublikani ildam sanoatlashtirishga intilish, mamlakat harbiy va iqtisodiy ahvoning tangligi, barcha masalalar markaz tomonidan qatʼiy belgilab berilganligi barpo etilayotgan va mavjud korxonalarining ishchi-xizmatchilari respublikadan tashqarida shakllantirilishiga olib keldi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD:** 1950-1980 yillarda Surxondaryo viloyati mahalliy sanoat korxonalariga mutaxassislar tayyorlash holati va muammolari haqidagi maʼlumotlar Surxondaryo viloyati arxivining 366-fond, Oʻz.SSR mahalliy va yoqilgʻi sanoati vazirligining charm ishlab chiqarish boʻyicha Termiz sanoati kombinati (1939-1963 yy.); 45-fond, Surxondaryo viloyat mehnatkashlar deputatlari ijroiya komiteti (1941-1991 yy.); 564-fond, Viloyat hokimligi oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlim boshqarmasi (1994-2001 yy.) hujjatlarida yoritilgan.

*Maqolani yozishda arxiv hujjatlaridan tashqari tadqiqot mavzusiga bagʻishlangan oʻlkashunoslarning asarlari, statistik toʻplamlar, davriy matbuot materiallari, shuningdek sovet va mustaqillik davri olimlarining tadqiqotlari muhim manba vazifasini oʻtab, ulardagi koʻpgina maʼlumotlar birinchi marotaba ilmiy tadqiqot doirasiga kiritildi.*

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan boʻlib, Surxondaryo viloyati mahalliy sanoat korxonalarining iqtisodiy rivojlanishida anʼanaviy hunarmandchilik artellarining ahamiyati tadqiq etilgan

**MUHOKAMA.** Kasb-hunar taʼlimi malakali kadrlar takror ishlab chiqarish tarkibiga kiradi, xalq xoʻjaligining turli



kasblarga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiradi va shu bilan birga xalq ta'limining tarkibiy qismi hisoblanadi. SSSRda o'tgan asr 50-yillarining ikkinchi yarmida sodir bo'lgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, universal yetti yillik ta'limning joriy etilishi va boshlang'ich kasb-hunar ta'limini qayta tashkil etish oldindan belgilab qo'yilgan edi. 1950-yillarning oxiriga kelib, O'zbekistonda kasb-hunar ta'limi muassasalarining yetarlicha keng tarmog'i ishladi: texnikumlar va FZOning maktabi har yili mingdan ortiq malakali ishchilarni tayyorladi. Biroq ularning moddiy-texnika bazasining holati nihoyatda zaif va ishlab chiqarish talablariga javob bermas edi. Ushbu nomuvofiqlik ishchilarni tayyorlash sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina mehnat zaxiralari ta'lim muassasalari eskirgan o'qitish usullari va qoloq texnologiyaga amal qilishda davom etdilar. Bundan tashqari, maktablarning past darajasi, ba'zan esa o'zlarining o'quv-ishlab chiqarish bazasining yo'qligi, o'quvchilarning amaliyotini tashkil etishda ularning bazaviy korxonalariga to'liq bog'liqligini belgilab berdi, ular ko'pincha ishlab chiqarish rejasini bajarish, kasbiy ta'limni ishlab chiqarish bilan almashtirish uchun foydalanilgan.

Ayniqsa, ishlab chiqarish ta'limining markaziy figurasi bo'lgan ustalar orasida malaka darajasi past edi, ularning yarmidan ko'pi hatto umumiy o'rta ma'lumotga ham ega emas edi. Shunday qilib, 1950-yillarning ikkinchi yarmida mamlakatda hukm surgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat ishchilarni almashtirishni tayyorlash tizimini tubdan o'zgartirishni talab qildi.

1958-yil 24-dekabrda SSSR Oliy Soveti "Maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlash va SSSR xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Mazkur Qonunga muvofiq kasb-hunar ta'limi yagona umumiy ta'lim bazasi – sakkiz yillik maktabga o'tkazildi. Qonunda maktab ta'limini hayot bilan uzviy bog'liq holda olib borish, yoshlarning aqliy, ma'naviy va jismoniy kamolotini shakllantirish, ularga kasbiy ta'lim berish vazifasi qo'yildi[22.B.128]. Bir-biridan nafaqat turli bo'limlarga mansubligi, balki turi, o'qish

muddatlari bilan ham farq qiladigan turli xil maktablar, kurslar endi shahar va qishloq kasb-hunar maktablariga aylantirildi. Kasb-hunar ta'limi tizimi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlari uchun keng profilli ishchilarni tayyorlashga mo'ljallangan. Qonunning qabul qilinishi bilan kasb-hunar ta'limi muassasalarida ishchilar tayyorlash fan-texnika taraqqiyotining ortib borayotgan talablari hamda maktablarga o'qishga kirayotgan yoshlarning umumiy ta'lim darajasini oshirishdan kelib chiqqan holda tuzilgan yangi o'quv reja va dasturlari bo'yicha amalga oshirila boshlandi[21.B.176]. Xuddi shunday qonun O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan 1959 yilda qabul qilingan. 10 yillik o'rta maktablar 11 yillik maktablarga aylantirildi.

Maktablar uchun yangi o'quv rejalari, dasturlari va darsliklari tuzildi, maktablarda ustaxonalar qurildi. Maktab tajriba maydonlari paydo bo'ldi. Ishchi yoshlar uchun kechki va sirtqi maktablar ochilib, ular ish joyida o'qish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 1958-1965-yillarda 1000 ga yaqin shunday maktablar ochilib, ularda 143,5 mingga yaqin yoshlar tahsil oldi[21.B.186].

Surxondaryo viloyatida 1959-yildan boshlab maktab ta'limini hayot bilan bog'lab olib borish bo'yicha amaliy ishlar yo'lga qo'yildi. Jumladan, Termiz shahridagi "Pravda" gazetasi[12], Denov tumanidagi "Lenin[13]", Angor tumanidagi "Karl Marks"[22.B.176], "Muqimiy"[15] nomli maktablarda mehnat ta'limi yaxshi yo'lga qo'yildi. 1959-60-o'quv yilidan boshlab ishlab-chiqarish ta'limi bilan bog'langan o'rta umumiy ta'lim mehnat ta'limi maktabiga aylantirilgan Termiz shahridagi "Pravda" gazetasi nomli maktabda 9-11 sinflarda o'qiyotgan o'quvchilarga umumiy ma'lumot bilan birga ishlab chiqarish ta'limi berishga ham kirishildi. Shu o'quv yilida 9-10 va 11-sinflarda 88 nafar o'quvchilar kasbiy ta'lim olishdi. Ulardan 22 kishi kompleks quruvchilik ixtisosi bo'yicha tayyorlandi[9.B.104].

Quruvchilik kasbini egallagan o'quvchilar yozgi ta'vil davrida maktabni

ta'mirlashda faol qatnashdilar. 1300 so'mlik ta'mirlash ishlarini bepul bajarib, maktabga katta foyda keltirdilar. Maxsus tuzilgan shartnoma asosida Termiz shahridagi qurilish boshqarmasining obyektlarida-ma'muriy xo'jalik korxonada maishiy va uy-joy binolari qurishda mehnat qildilar. Qurilish boshqarmasi o'quvchilarni turli mehnat qurollari bilan ta'minlagan.

Maktabda kasbiy ta'lim olgan o'quvchilar 2-3 toifaga ega bo'lishgan. Masalan, Ro'zimurod Qalandarov, Shokir Xo'jayev, Begimqul Aminqulov, Yashin Ismoilov, Annaqul Shaymardonov, Bo'ri Karimovlar ana shunday o'quvchilar hisoblanishgan. Ular ustalik bilan g'isht terishgan, suvoqchilik va beton ishlarini bajarganlar, deraza romlari va eshiklar yasashgan. 11-sinfidagi qizlar tikuvchilik ixtisosi bo'yicha kasbga yo'naltirilgan. Turdixol Bozorova, Inoyat Begasheva, Anorxol Quvvatova, Oyimgul Choriyeva, Oysoat Choriyeva va Hidoyat Hamidullinalar tikuvchilik kasbini mutaxassis o'qituvchi Amina Amirxonova rahbarligida o'rgahdilar. Tikuvchi qizlar maktab sportchilari, duradgorlik va slesarlik ustaxonasida ishlovchilar uchun 100 ta bridja, 100 ta qisqa yengli ko'ylak, 100 ta kofta, 20 ta xalat va 20 ta fartuk tikib berishgan. Bu bilan ular maktabga 656 so'm foyda keltirdi[16]

Kasb tanlashda o'quvchilarni avvaldan tayyorlab borishga e'tibor qaratilgan. Shu sababli, birinchidan, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan qo'l mehnati darslari yaxshi tashkil etilgan edi. Ikkinchidan, mehnat ta'limi turkumidagi fanlar bo'yicha 5-7 sinflarda mehnat darslarining 8-sinfda amaliy darslarning yuksak saviyada o'tishi ustidan nazorat kuchaytirildi. Uchinchidan, o'z-o'ziga xizmat qilishni yaxshilashga jiddiy e'tibor berildi. To'rtinchidan, mehnat darslarini tashkil qilish va o'tkazishga o'quvchilarning yosh xususiyati va bilim saviyasi hisobga olingan bo'lsa, beshinchidan, mehnat qurollarining bolalar uchun mos bo'lishiga e'tibor berildi. Duradgorlik, temirchilik, hunarini o'rganish uchun maktablarda zahira yaratildi[17].

**NATIJALAR.**1959-yil

Denov

tumanidagi Lenin nomli o'rta maktab jamoasi ta'lim tarbiya ishlarini turmush bilan bog'lab olib borishga birinchilardan bo'lib boshlagan edi. Maktabning 9-sinfida duradgorlik va tikuvchilik bo'yicha bilim berila boshlandi. Ishlab chiqarish ta'limini o'rgatish bo'yicha mahalliy sanoat kombinati baza qilib olindi. O'g'il bolalar mebel sexida duradgorlikni, qizlar esa tikuv sexida tikish-bichishni o'rganish bo'yicha mashg'ulotlarga qatnasha boshladi. Biroq dastlabki vaqtlarda o'quvchilarning ko'p vaqti zoye ketdi. Negaki, mebel sexida ularga astoydil hunar o'rgatish yaxshi tashkil etilmadi. Buning ustiga ular uchun asbob-uskunalar yetishmasdi. Ishdan keyin qolib o'z istagi bilan o'rgatuvchi ustalar bo'lmagan. Shu holda bir yarim yilgacha o'quvchilarning maktab bilan mebel sexiga qatnashidan natija chiqmadi. Tikuv-bichuvni o'rganish bo'yicha mashg'ulotlarning saviyasi ham bundan yaxshi emas edi.

Maktab ma'muriyati ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha ahvolning nihoyatda achinarli ekanligini o'z vaqtida payqab o'quv-texnika bazasi mustahkamlash zarur ekanligi masalasini dastlab shahar sovetiga, hatto viloyat ijroiya komitetiga qo'yishdi. Buning samarasi o'laroq o'quv ustaxonalari qurish uchun mablag' ajratildi va qurilish ishlari jadal sur'atlarda boshlab yuborildi. Ammo duradgorlik, tikuvchilik ustaxonalari bitkazilsa-da, ularda na asbob-uskuna va na material bor edi. Shuning uchun uch dona "Tula" elektr tikuv mashinasi va tokarlik stanogi sotib olindi hamda mehnat mashg'ulotlari mutaxassis o'qituvchilar tomonidan o'tilgan[16].

1962-yilda maktab o'quvchilari orasida duradgorlik bo'yicha o'z toifasiga ega ustalar yetishib chiqq boshladi. O'qituvchi Marhamat Almatova boshchiligida tashkil etilgan tikuvchilik to'garigidagi o'quvchi qizlar esa tikuvchilik kasbini sir-asrorini o'rganishdi. Ko'pchilik ota-onalar qizlariga tikuv mashinalari olib berdilar[6.B.187]. Chevar qizlar bichish-tikish ustaxonasida sakkizta "Tula" elektr tikuv mashinasi yordamida erkaklar ko'ylagini, o'quvchilar formasini tikish bilan birga kiyimlarga gul solish, ilmoq o'tkazish kabi murakkab ishlarni ham

bajardilar.

O'quvchilar qo'l mehnati yordamida tayyorlangan mebel va kiyim-kechaklarga "Ishlab chiqarish bilan bog'langan Lenin nomli o'n bir yillik maktabning mahsuloti" deb shtamp bosildi. Maktab o'z mahsulotlarini savdo tarmoqlariga chiqardi. Shuni ham aytish kerakki, mahsulotlar davlat magazinlaridagidek sifatli va bejirim bo'lishi bilan birga ularning narxidan o'n foiz arzon edi[5.B.59.]

**XULOSA** qiladigan bo'lsak, kasbiy ta'lim tizimini qayta tashkil etishning dastlabki yillarida erishilgan muvaffaqiyatlar, agar ishchilar tayyorlash shakli sifatida

umumta'lim maktabiga yo'naltirilgan bo'lmaganda, yanada muhimroq bo'lishi mumkin edi. 1960-yillarning boshlarida texnik maktablarning yopilishi ham qonunga xilof edi. Kasb-hunar maktablarining xo'jalik kengashlari tasarrufiga o'tkazilishi o'quv jarayonini markazlashgan holda boshqarishni qiyinlashtirdi. Ko'pgina maktablar inersiya va o'rnatilgan an'analar tufayli yangi, eng murakkab va istiqbollilarga e'tibor bermasdan, ommaviy kasblar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashni davom ettirdilar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-77-son qarori.
2. Abdujabbarova M.T. Istoricheskoye formirovaniye shveynix fabrik v Uzbekistane. –Moskva, Simvol nauki, 2017.
3. Valiyev A. Qanday jamiyat quramiz? //Fan va turmush jurnali. – Toshkent, 1992.- № 9-10.
4. Dmitriyeva, L. N Deyatelnost Kommunisticheskoy partii po podgotovke molodix rabochix professionalno-texnicheskimi uchilishami (1959-1963 gg.): (570): (Na materialax Leningrada). Avtoreferat diss. na soiskaniye uchen. stepeni kand. ist. nauk / Leningr. gos. un-t im. A. A. Jdanova.
5. Denov tuman davlat arxivi, 193-fond, 1-ro'yxat, 63-yig'ma jild, 59-varaq.
6. Denov tuman davlat arxivi, 80-fond .1-ro'yxat, jild-876, 187 varaq.
7. Denov tumani davlat arxivi 43,62,193- fondlar.
8. Denov tuman davlat arxivi, 43-fond , 1-ro'yxat, 5-yig'ma jild, 4-varaq.
9. Zaxarovskiy L. V. Sovetskaya model professionalno-texnicheskogo obrazovaniya: aktualizatsiya opita v sovremennix usloviyax: Yekaterinburg; 2015. 104 s.
10. Ziyadullaev N.S. Legkaya industriya Uzbekistana. Sostoyanie i problem razvitiya. – T.: "Uzbekistan", 1970. – 142 s.
11. Nazarova T. Mahalliy sanoat va xalq iste'moli mollarni ishlab chiqarish. – T.: Fan, 1977;
12. "Lenin bayrog'i" gazetasi,, 1960-yil 9-mart.
13. "Lenin bayrog'i" gazetasi, 1962-yil 18-aprel.
14. "Lenin bayrog'i" gazetasi, 1960-yil 20-may.
15. "Lenin bayrog'i" gazetasi, 1960-yil 13-yanvar.
16. "Lenin bayrog'i" gazetasi, 1965-yil 23-aprel.
17. Isoqov B.R. O'zbekiston hunar-texnika ta'limi tizimida ishchi kadrlar tayyorlash va tarbiyalash (1975-1985).; ). Tarix fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1987.
18. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 255-fond, 1-ro'yxat, 188-ish, 76-varaq.
19. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 361-fond, 1-ro'yxat, 2621-ish, 328-varaq.
20. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 361-fond, 1-ro'yxat, 317-ish, 90-varaq.
21. Fayziev M., Rodimkin E. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi. – T.: O'zbekiston, 1978.
22. Qodirov E.K. O'zbekiston umumta'lim maktablarining rivojlanish tarixi (1917-1975 yy);

Toshkent, “O‘qituvchi”, 1979; B.176.

23.Qo‘ldosheva D. Umumiy ta‘lim va hunar maktabini isloh qilish yo‘li. - Toshkent.: Bilim, 1986. – B.18.

## MARKAZ SOVET KISHILARINI KOMMUNISTIK RUHDA TARBIYALASHDA MADANIYAT MUASSASALARIGA TAYANDI

**Hotamov Abduvohid Boboxonovich,**

Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi Denov tuman adliya bo‘limi Denov tuman  
yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti.

UO‘K: 94:(575.1)“1970-1980”

<https://orcid.org/0009-0001-4567-111X>

**Annotatsiya:** Mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida klublarning siyosiy-tarbiyaviy, madaniy-oqartuv faoliyati mazmuni partiya ilgari surgan kommunistik qurilish vazifalari, konkret tarixiy sharoit, ideologiya kuchlari joylashuviga qarab belgilandi. Klublar va boshqa madaniy-oqartuv muassasalarining oqartuv ishlari axborot oqimining tobora ortib borishiga, fan-texnika revolyusiyasi yutuqlariga bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi. Turli-tuman formalarda, axborot, bilim tarqatish, ularni propaganda qilish o‘chog‘i sifatida klublarning roli borgan sari oshib bordi.

**Kalit so‘zlar:** Xalq universitetlari, maktabgacha tarbiya muassasalari, texnikum, pedagogika bilim yurtlari, sovet mafkurasi.

**Аннотация:** На каждом этапе развития страны содержание политико-просветительской, культурно-просветительской деятельности клубов определялось в зависимости от задач коммунистического строительства, выдвигаемых партией, конкретных исторических условий, расположения идеологических сил. Воспитательная работа клубов и других культурно-просветительских учреждений меняется в зависимости от возрастающего потока информации и достижений научно-технической революции. В различных формах возрастает роль клубов как центров распространения информации и знаний, их пропаганды.

**Ключевые слова:** Народные университеты, дошкольные

образовательные учреждения, техникумы, педагогические учебные заведения, советская идеология.

**Abstract:** At each stage of the country's development, the content of political-educational, cultural-enlightenment activities of the clubs was determined depending on the tasks of communist construction put forward by the party, concrete historical conditions, location of ideological forces. The educational work of clubs and other cultural and educational institutions changes depending on the increasing flow of information and the achievements of the scientific and technical revolution. In various forms, the role of the clubs as a center for spreading information and knowledge and their propaganda has been increasing.

**Key words:** People's universities, pre-school education institutions, technical schools, educational institutes of pedagogy, Soviet ideology.

**Kirish.** 1970-yillarda tobora ortib borayotgan ma‘lumotlar, axborotlar ichida muayyan kishi uchun uning ehtiyojlariga, qarashlariga, manfaat-qiziqishlariga ko‘proq mos tushadiganlarini tanlay olish muhim masala bo‘lib qolgan edi. Binobarin, klubda ish olib borayotgan va axborotlar oqimida ommaga yo‘l ko‘rsatayotgan propagandistning roli, ana shu axborotlarni tushunishga, to‘g‘ri qarashni shakllantirishga yordam beruvchi agitatingning roli ham oshib bormoqda yedi. Kommunistlar fikricha, burjua propagandasi o‘z ixtiyoridagi butun

vositalar yordamida ommani chalg'itishga, jahonda sodir bo'layotgan voqealarni baholashda o'z tushunchasini qabul qildirishga urinayotgan bir davrda propagandist, agitator faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi.

1970-yillar ideologiya kurashining o'ziga xos xususiyati shundaki, bu kurashda faqat filosoflar, siyosatchilar, olimlar ishtirok etmagan. 1970-yillarda esa ana shu kurashga million-million mehnatkashlar ommasi tortilgan. Binobarin, sovet kishilarida kommunistik dunyoqarash va yetuklikni, kommunistik axloqni shakllantirish madaniyat muassasalarida tarbiyaviy va oqartuv ishlari nechog'lik tashkil etilganligiga, bu ishlarni tayyorgarligi bo'lgan munosib kishilar olib borishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan.

**Adabiyotlar va manbalar tahlili.** Mustaqillik yillarida X.E.Yunusova[1], O.Qosimova[2] O'zbekistonning sovetlar davridagi madaniy-ma'naviy hayotiga bag'ishlab yozilgan asarlar, amalga oshirilgan ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib bordilar. Mustaqillik yillarida o'zbek tarixshunosligi yangi uslubiy tamoyillar va yangi sifat darajasiga ko'tarilgan asarlar bilan boyitib borildi.

Istiqloq yillarida bir qator tarixchi olimlar O'zbekiston janubiy viloyatlarining sovet hokimiyati yillaridagi madaniy-ma'naviy hayoti bo'yicha tadqiqotlar olib bordilar. Jumladan, S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, B.Murtazoyev[3] va boshqa olimlarning tadqiqotlarida Surxondaryoning 1970-1980 yillardagi madaniy – ma'rifiy hayotiga oid bir qator ma'lumotlar mavjud[4].

1970-80 yillarda avtoklublar klub ishining eng operativ turiga aylangan. Avtoklublar ko'chib yurish imkoniyatiga ega bo'lganliklari va uzoq brigadalardagi qishloq xo'jalik xodimlariga xizmat ko'rsata olganliklari tufayli katta ahamiyatga ega edi. Bunday klublar magnitofonlar, kinostanovkalar, radioapparat, ko'chma kutubxonalar, stol o'yinlari, turli ko'rgazmali agitatsiya vositalari bilan ta'minlangan. Avtoklublarga birkutilgan madaniy-oqartuv xodimlari xalq xo'jalik planlarining bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni diqqat bilan kuzatib

borishgan. «Jangovar varaqalar», jadvallar, diagrammalar, shiorlar, zarur bo'lib qolgan hollarda «satirik varaqalar» chiqarib turishgan. Avtoklublar xodimlari shtati katta bo'lmaganligi sababli bu yerda har tomonlama bilimga ega bo'lgan, yuksak saviyali, jurnalist va rassomlik, propagandistlik va ekonomistlik qobiliyati bor, texnikani biladigan kishilar ishlashi lozim edi. Zotan ular ko'pincha ishlab chiqarish ilg'orlarining nutqlarini, o'z kasbdoshlariga murojaatlarini magnit lentasiga yozib olishadi. 1970-80 yillarda respublikada 400 dan ziyod avtoklub faoliyat olib borar edi. Ular katta agitatsiya va madaniy-oqartuv ishlari olib borib, qishloq mehnatchilari orasida hurmat qozondilar.

Ko'pgina klublarda qiziqarli leksiya va dokladlar, tematik kechalar, taniqli kishilar, ishlab chiqarish ilg'orlari, urush va mehnat veteranlari bilan uchrashuvlar muntazam ravishda o'tkazib turilar edi. Badiiy havaskorlik ishtirokchilari konsertlari tashkil etilar, yangi urf-odat va marosimlar propaganda qilinar edi. Ilg'or kolxoz klublarida qishloq xo'jalik bilimlarini propaganda qilish kabinetlari ishlar, stendlar jihozlangan, ishlab chiqarish povatorlari va ilg'orlari tajribasini o'rganish va yoyishga ko'maklashuvchi metodik kabinetlar tashkil etilgan edi.

KPSS XXV syezdi o'ninchi besh yillikda (1976-1980) madaniy-oqartuv muassasalari zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yukladi. Bular orasida partiya va hukumatimiz rahbarligida turmushni kommunistik yo'sinda qayta qurish ishining tarkibiy qismi bo'lgan qishloq turmush madaniyatini yuksaltirish masalalari alohida o'rinni egallaydi. 1980-yillarda barcha madaniy-oqartuv muassasalari ana shu vazifani hal etishga safarbar etilgan. Zero, madaniyat muassasalari ommaviy-siyosiy va madaniy-tarbiyaviy ishlarining, xususan, qishloq aholisi turmush madaniyatini yuksaltirishning tayanch punktlari bo'lib qoldi.

Qishloq mehnatkashlarini kommunistik ruhda tarbiyalash masalalari va qishloq turmush madaniyatini oshirish problemalari yuzasidan Toshkentda bo'lib o'tgan



Butunittifoq ilmiy-amaliy konferensiya mamlakat, shu jumladan respublikamiz madaniy-oqartuv muassasalari faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Arxiv hujjatlarida ko'rsatilgan bu ko'rsatkichlarning real bo'lib o'tganligiga ishonch hosil qilish qiyin. Chunki, mustabid sovet tuzumi hayotining barcha jabhalarida 70-yillardan boshlab, qo'shib yozish illatlari tomir ota boshlagan edi. Bundan o'z navbatida madaniy oqartuv muassasalari ham tabiiyki, mustasno bo'lmagan. Lekin, partiyaning mafkuraviy ta'sirini kuchaytirish shunchalik izchil tarzda olib borildiki, klublarda ma'ruza o'qish maxsus maktablarda ta'lim olgan kadrlar tomonidan mafkuraviy ishlar ahamiyatini yoritish, "Burjua ideologiyasini" fosh qilish singari mavzuda bo'lib, bu kadrlar ham mamlakatda shakllangan vaziyatga qo'shib ketishdan boshqa yo'l emas edi[1]. Yuqorida ta'kidlangan bir qator qarorlarda ko'rsatilgan va rejaga muvofiq ochilishi lozim bo'lgan klublar, turli sabablarga ko'ra ochilmay qoldi.

Xullas, 1945-yilda Surxondaryoda 167 ta klub faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1985-yilda taalluqli ravishda 245 taga yetdi yoki o'tgan 40 yil mobaynida klublarning soni taxminan 2 baravarga ko'paydi. Raqamlarga qarab baho berilganda, bu shubhasiz o'sish deb ta'kidlash mumkin. Lekin, bu borada masalaning boshqa tomoniga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Klublarda, avvalo sovet tuzumining ichki siyosati, g'oyaviy mafkuraviy tamoyillari targ'ib qilindi. Ommani amalda tasdiqlanmagan, bajarilishi real bo'lmagan rejalarni tuzib, uni amalga oshirishga hissa qo'shdirishga safarbar etishga harakat qilindi. Sovet davrida zamonaviy klublar qurish, davr talabiga javob beradigan texnik jihozlar bilan ta'minlash ishiga deyarli e'tibor qaratilmadi. Klublar aslida KPSSning kommunistik jamiyat qurish g'oyalarini targ'ibot-tashviqot qilish markazlariga aylantirildi. Aksariyat holatlarda uyushtirilgan uchrashuvlar, turli darajadagi kechalarga tinglovchilar majburan jalb qilinardi. Ko'p holatlarda esa klublar asosan maktab o'quvchilari hisobidan to'ldirilib, rasman ko'rinish hosil qilinardi.

1970-1980 yillarning birinchi yarmida,

klublarda o'tkaziladigan aksariyat kechalarga bormaslik, undan ketib qolish holatlari avj oldi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistondagi mavjud kutubxonalar o'z faoliyatlarini sovet tuzumi sharoitida amalga oshirib, tarbiyaviy ishlarni yaxshilash va kengaytirish maqsadida turli mavzularda kitob ko'rgazmalari, ma'ruzalar, munozaralar, konferensiya va kechalarni uyushtirishning asosiy tashkilotchilaridan biriga aylandi. O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 17-noyabrida qabul qilgan "O'zbekiston SSRda kutubxonalar ishini yaxshilash tabirlari to'g'risida"gi qarorida Respublika kutubxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, milliy an'analar asosida rivojlantirish kabi masalalar emas, aksincha partiyaning g'oyaviysiyosiy mafkurasini targ'ib etish vazifalari belgilab berildi[2].

Qarorda aholi o'rtasida, asosan, siyosiy va ateistik tarbiyani kuchaytirish bosh vazifa qilib belgilandi. Shunga muvofiq, kutubxonalar ishining asosiy mazmuni dinga qarshi kurash, o'tmishning "zararli sarqit"larini qoralash, partiya va sovet davlatini mahv etish masalalari tashkil etdi. Kutubxonalarda uyushtirilgan ma'ruza, ko'rgazma, suhbat va konferensiya mavzularini tanlashda ham yuqorida ta'kidlangan omillar to'la o'z aksini topgan. Jumladan, "Lenin-yoshlarga", "Lenin kommunistik axloq to'g'risida", "Ulug' dohiyning safdoshlari", "Kommunistik va diniy ahloq", "Diniy bayramlarning kelib chiqishi va mohiyati to'g'risida", "Dinga qarshi dalillar" kabi mavzular kundalik hayotning yetakchi mavzusiga aylantirildi. Gazetalarda "Yuksak turmush tarzi uchun", "Qishloqqa-yuksak turmush madaniyati", "Kolxoz qishloqlari jamoli", "Qishloqlarimiz qiyofasi", "Yangi an'analar hayoti" kabi ruknlar ostida respublikada qishloqlar qurilishi, sotsialistik turmush tarzi va umumsovet madaniy turmush an'analarini tashviqot qilishga bag'ishlangan ko'plab materiallar e'lon qilingan[6]. Kutubxonalarda ateistik tashviqotlar uchun "Ateizm burchagi" tashkil etilib, unga adabiyotlar bilan birga mavzuga oid tavsiya ro'yxatlari, suhbatlar, ma'ruzalarning taxminiy matnlari ham

qo'yildi. Kutubxonalarda dinning "zararli" tomonlarini targ'ib etuvchi adabiyotlar guruhlar orasida suhbat, munozara tariqasida keng xalq ommasiga yoyildi. Asosiy madaniy-oqartuv muassasalardan biri bo'lmish kutubxonalarda ham xuddi yuqorida ta'kidlangandek, salbiy illatlar va nochor ahvolni kuzatish mumkin edi. Tadqiq qilinayotgan yillarda janubiy viloyatlarda kutubxona muassasalari shu ishga moslashtirilmagan, hech bir qulayliklarga ega bo'lmagan binolarda faoliyat olib bordi. Kutubxonalarda ishning sifatini emas, sonini o'stirish yo'lga e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda, jumladan Surxondaryoda viloyatida kutubxonalar soni asosan XX asrning 60- yillaridan ko'paya boshladi. Surxondaryoda 1950-yilda 91 ta kutubxona faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1985-yilda ularning soni 778 taga yetdi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1951-yil 2-iyunda qabul qilgan "O'zbekiston SSRda kutubxonalar ishini yaxshilash tadbirlari to'g'risida"gi qarorida, viloyatlardagi ko'pgina kutubxonachilarning saviyasi past darajada ekanligi, bu esa aholiga kutubxona- bibliografiya xizmati ko'rsatishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlandi[2]. Respublika Madaniyat Ministrligi ushbu qarorni turmushga tadbiq etish maqsadida, kolxozlar mablag'i hisobiga kolxoz kutubxonalarini xodimlarini tayyorlash uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda shug'ullanadigan ikki oylik kurslarni Toshkent shahrida tashkil etdi. Respublikaning barcha viloyatlaridagi kutubxonachilar navbat bilan chaqirilib, malakalari oshirildi. 1952-yil 10- mayda O'zbekiston KP(b) Markaziy Komitetining byurosi "Qishloq klublari va kutubxonalarining ishi to'g'risida" qaror qabul qildi[2]. Mazkur qarorda qishloq kutubxonalarini xodimlarining professional o'quvini tashkil etish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Shunga muvofiq, Qashqadaryo viloyatida qishloq kutubxonachilarining ikki kunlik seminar-mashg'ulotlari o'tkazildi. O'zbekiston SSR Madaniy-oqartuv muassasalari boshqarmasining ko'rsatmasiga muvofiq respublikadagi viloyat kutubxonalarini

1954-yilda va 1955-yilning birinchi kvartalida 60 dan ortiq turli darajadagi seminarlar o'tkazildi. Bu seminarlarda esa o'z navbatida 600 ga yaqin kutubxonachi xodim qatnashdi. 1954-yil avgustda Surxondaryo viloyatida kutubxonachilik sohasida katta bilim va tajribaga ega bo'lgan kutubxonachilar rahbarligida kutubxona xodimlari uchun 10 kunlik seminar o'tkazildi[8].

Sovet hukumati tomonidan kutubxonalar ishini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirilishiga qaramasdan, ularning faoliyatini birdaniga yaxshilashga erishilmadi. 1959-yilda kolxoz va sovxozlarda yangi kutubxonalar tashkil etish, mavjud kutubxonalar tarmog'ini kengaytirish va kitobxonlarga xizmat ko'rsatishda kitob fondlaridan barcha aholining foydalana olishi joriy qilina boshlandi. Jumladan, Surxondaryo viloyati yirik kutubxonalarini kitob fondlari kitobxonlarga keng ravishda ochib qo'yildi.

1960-yil 13-sentyabrda "Surxondaryo viloyat Denov tumanida madaniy-oqartuv muassasalarini rivojlantirishning uch yillik plani to'g'risida"gi qaror qabul qilindi[5]. 1961-1963-yillarda tuman kolxozlari uchastkalarida o'z kutubxonasi va bolalar kutubxonasiga ega bo'lgan 21 ta klub qurish mo'ljallandi. Ularda o'z navbatida 25 ming nusxa kitob bo'lishi kerak edi. Rejada barcha aholi punktlari, ulardagi aholi soni, ommaviy kutubxonalar tarmog'i hisobga olindi. Bir qancha kutubxonalarining o'rnini almashtirish va yangilarini ochish, aholi kam yashaydigan joylarda ularning filiallari, ko'chma kutubxonalar tashkil etish mo'ljallangan edi[6].

1980-yilda Surxondaryo kutubxonalarida 3098 nusxa kitob, jurnallar mavjud bo'lsa, 1985-yilga kelib 4392 nusxa kitob va jurnallar bor edi.

1985-yilda Surxondaryo shaharlarida 2 ming kutubxonada 2,4 million nusxa kitob va jurnallar bo'lsa, qishloq joylardagi 1,0 ming kutubxonada 6,6 million nusxa kitob va jurnallar mavjud edi[7].

Madaniy-oqartuv muassasalarining xodimlari ilmiy-ateistik propandaga bag'ishlangan tadbirlarni uyushtirishda mehnatkashlarning talab va istaklarini,

qiziqishlarini hisobga oldilar, ularning tashabbuskorligiga, aktivligiga tayandilar. Ilmiy-ateistik mavzudagi tadbirlarni uyushtirishdan avval jamoat tashkilotlari bilan madaniy-oqartuv muassasalari hamkorlikda yagona ish planlarini ishlab chiqmoqdalar, ayrim rayonlarda esa ateistik xalq universitetlari tashkil etilmoqda. Bularning hammasi, shuningdek, hayotga yangi urf-odat va marosimlarni tobora izchil va keng joriy etish diniy sarqitlar bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina eski marosimlarni hayotimizdan chetlashtirildi.

Surxondaryo oblast madaniy-oqartuv muassasalari qoshidagi avtoklublar dala shiyponlari, formalar va yaylovlarda tez-tez bo'lib, ilmiy-ateistik mavzularda qiziqarli tadbirlarni amalga oshirdilar. Bir yilda Gagarin rayon madaniyat bo'limiga qarashli bitta avtoklubning o'zi 120 dan ortiq leksiya va suhbat o'tkazdi. Shunpigdek, Bog'dod, Farg'ona va Buvayda rayoilarining madaniyat uylari xodimlari tashabbusi bilan tashkil etilgan ko'chma ilmiy-ateizm xalq universitetlari, Buxoro shahridagi Gagarin nomli klubning mahallalarda olib borayotgan ishlari ijobiy natijalar bergan edi. Samarqand, Toshkent, Jizzax, Sirdaryo oblastlaridagi klub muassasalarida ilmiy-ateizm mavzuida o'tkazilgan tadbirlar ham mazmundorligi, aktualligi, qiziqarligi, ilmiyligi va ta'sirchanligi bilan mehnatkashlarning siyosiy ongini oshirish, ularni kommunistik ruhda tarbiyalashda, o'tmish sarqitlarini fosh etishda, kishilar o'rtasida kommunistik munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Respublikamizdagi ommaviy kutubxonalar va ularning xodimlari ilmiy-ateistik bilimlarni propaganda qilish maqsadida ateistik mavzuda kitob

ko'rgazmalarini, ateistik temadagi kitoblarga obzorlar, kitobxonlar konferensiyalarini tashkil qildilar. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro oblast kutubxonasining yoshlar o'rtasida ateistik sohada olib borayotgan ishlari g'oyat ibratlidir. Kutubxona xodimlari oblast Ateizm uyi va «Bilim» jamiyati bilan hamkorlikda tematik kechalar va «Ateizm kunlari»ni o'tkazishayapti. Samarqand oblast kutubxonasi bo'lsa 1975 yili «1000 muammo va 1000 kashfiyot» degan mavzuda «Kitob oyligi» tashkil qildi va 12325 nusxa kitob tarqatdi.

**Xulosa.** Surxondaryo oblast madaniy-oqartuv muassasalarida keyingi yillarda ilmiy-ateistik propaganda ishlari ancha jonlandi. Ateistik tarbiyani yanada kuchaytirish maqsadida oblastda 10 joyda ateist agitatorlar maktabi tashkil etildi. Bunday maktablarga 240 dan ortiq tinglovchilar qatnashdi. Madaniy-oqartuv muassasalaridagi ateistik targ'ibot ishlariga ana shu maktabni bitirib chiqqan targ'ibotchilar keng jalb qilingan. Boysun rayonida din va eskilik qoldiqlarini batamom bartaraf etish uchun ateistik gruppalar tashkil etilgan. Ular diniy uydirmalarga qarshi kurashda ateistik propagandaning barcha forma va metodlaridan mohirona foydaldilar. Veteranlar klubi qoshida tuzilgan qariyalarning ateistik gruppasi rayon markazida, yoshlar orasida, choyxonalarda, dala shiyponlarida va tashkilotlarda o'chrashuvlar, leksiyalar tashkil yetgan edilar. Rayonda siyosiy jihatdan puxta tayyorlangan 24 kishi shtatsiz lektor, 11 kishi siyosiy dokladchi, 15 kishi ateist-ektor, 190 kishi yetti joyda «Bilim» jamiyati lektorlari sifatida samarali mehnat qildilar.

#### Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Yunusova X.E. O'zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlarini. –T.: Zarqalam, 2005. -B.42.
2. Qosimova O. O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi. -T.: O'qituvchi, 1977. -B.108-110.
3. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T., Murtazoyev B. Surxondaryo tarix ko'zgasida. – Toshkent: Sharq, 2001;
4. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. –Toshkent:

Sharq, 2004;

5. Трехлетний план развития культурно-просветительных учреждений в Денауском районе Сурхандарьинской области. – Т.: Уздавнашр, 1960. -С.36.

6. O‘zbekiston kommunisti. 1977. - № 5. -33 b.

7. Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет советской власти. -Т., 1987. -С.276.8. Surxondaryo VDA. 95-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 11-ish, 9-varaq.

## TERRORISM AND ITS MANIFESTATIONS

**Suyunov is the son of Ilyas Juma.**

An employee of the Internal Affairs Department of Surkhandarya region, a free seeker.

UO‘K: 94:(575.1)

<https://orcid.org/0009-0001-4523-4678X>

**Abstract:** The problem of terrorism and extremism as a global social phenomenon covers all countries of the world. Uzbekistan, as an integral part of the world community, is no exception. This article describes the views on terrorism and its manifestations.

**Key words:** terrorism, international cooperation, prevention of crime, concept of international crime, UN General Assembly, E.G. Lakhov.

**Аннотация:** Проблема терроризма и экстремизма как глобального социального явления охватывает все страны мира. Узбекистан, как неотъемлемая часть мирового сообщества, не является исключением. В данной статье изложены взгляды на терроризм и его проявления.

**Ключевые слова:** терроризм, международное сотрудничество, предупреждение преступности, концепция международной преступности, Генеральная Ассамблея ООН, Э.Г. Лахов.

**Introduction.** In 1970-1980, terrorism, especially international terrorism, was studied in depth. Due to the fact that international terrorism has become a global problem by the last decade of the last century, this topic is not only for scholars dealing with international law, but also for experts in other fields, in particular, scholars and practitioners who study the problems of combating crime by the domestic laws of each country. has become a very complex and controversial topic that needs to be researched by Approaching the

issue based on the experience and scientific work carried out in foreign countries in this direction allows for a deeper analysis of the act, which is considered one of the most serious crimes, the so-called international terrorism.

**Materials and Methods.** The analysis of foreign experience requires, first of all, to explain "terrorism" as a legal term. Because there is still no consensus on this matter. For example, American experts T.Arnold and M.Kennedy believe that many people agree that terrorism cannot be defined as a concept" [1;13]. One of their compatriots, V. Mallison and S. Mallison, talking about the specific aspects of the crime of terrorism, said that terror is the systematic use of severe violence and the threat of violence to achieve public or political goals [1 ;14], they emphasize.

In fact, by the 90s of the 20th century, new forms of terrorism appeared. In particular, the number of international terrorist groups or criminal organizations that are trying to carry out their criminal activities in several countries at the same time is increasing rapidly in different regions of the world, and the level of social danger of crimes committed by them on a regular basis is increasing. This process, i.e., the mass development of international terrorism, undoubtedly led to the confusion of international relations. As a result, there was a need to develop a set of official international documents reflecting the issues of combating "international terrorism" within the framework of the United Nations

Organization. focused on the study of this extremely serious crime problem, which threatens the security of

It should be noted that in 1950, a committee of experts dealing with crime prevention and delinquency problems was established within the UN Economic and Social Council system, and by 1971, its name was "Crime Prevention and Combating It was changed to "mitisa", and since 1993, it has been called "Crime prevention and justice commission on criminal cases". This commission was entrusted with the responsibility of not only preventing crime, but also developing international rules and standards that would allow for the trial of crimes.

Most importantly, the UN General Assembly tasked this organization with the task of in-depth study of the problems of crime prevention and combating violations, and preparation of specific recommendations and guidelines for the UN Congress every five years regarding their prevention or elimination. So far, a total of 10 congresses of this international organization have been held at the UN. At these congresses, a number of important documents, rules and recommendations related to the prevention of crimes of an international nature and the activities of the bodies fighting against them were prepared and adopted. At this point, it can be pointed out that among the documents related to the fight against crime approved by the UN Congress, several recommendations have been developed for the prevention of terrorism, drug business, and organized crime. In particular, the discussion of the resolutions on "Combating Terrorism" at the VII UN Congress (Milan - 1985) and "Combating Terrorist Activities" at the VIII Congress (Havana - 1990) gained great importance at the international level. In the report at the 5th UN Congress, "Torture and terrorism are the use of force with the aim of forcing people to submit to their opinion by state authorities, certain individuals or groups of individuals under the threat of suffering or death. They are two aspects of the same evil"[2:35-36], of course, it is not for nothing.

Also, E. Arecha, a Western scientist, said, "Terrorism is generally considered one of the criminal acts, because such a criminal act causes confusion and terror in the society, disrupts the public order, and stifles the anti-terror movement by the social forces. It should be defined as actions that are deliberately carried out in order to increase suffering and suffering in society [1; 14]", and listed a number of subjective signs that this act is extremely socially dangerous.

In a number of sources, including Russian dictionaries, the meanings of concepts such as "terror", "terrorism", "terrorist act" are indicated in different ways. For example, in the explanatory dictionary of V.I. Dal, it is stated that the purpose of terrorism is to kill and threaten with the use of force, while in the dictionary compiled by S.I. Ojegov, this concept is slightly clarified, that is, "terror is nothing but the use of physical violence against political opponents up to physical destruction" [3]. In the "Brief Political Dictionary" published in Russian in 1971, it was explained that "terror is a policy of intimidation, use of force and punishment against political opponents up to the point of their physical destruction." According to Ye. G. Lyakhov, the term "terrorist act" should be understood as the infliction of serious bodily injury on an individual in connection with his performance of political duties" [1; 14-15]. In the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language" published in 1981, similar to those mentioned above, that is, "the use of force against a terrorist-political enemy is killing, extermination", "terrorism is the policy and tactics that are combined with terror, the concepts of terrorism"[4;465] are described. The authors of the dictionary defined the legal terms related to terrorism in a very narrow sense under the influence of the historical process related to the struggle of two opposing poles, stuck in the shell of the totalitarian regime policy and communist ideology of the former Soviet Union. , there is every reason to say. In our opinion, they try to define the concept of terrorism only on the basis of important social facts related to the terrorist crimes committed in different



countries except the USSR in the 60s and 80s of the 20th century. The fact that until the eighties of the 20th century, terrorist crimes were almost never investigated by the law enforcement agencies of the former Union can be a proof of our words. Since a unique policy was implemented in the territory of the Union, which was completely separated from foreign countries, it was preferable to describe the act as banditry and subversion rather than describing it as a crime of terrorism in the country of the Soviets. Similarly, by scholars of the former totalitarian regime, terrorism was included as an international crime, and it was connected with politics. They considered that there is no social, political, economic, or moral basis for committing terrorism in our country, therefore, it is a disease characteristic of imperialism, which is considered to be the highest stage of capitalism.

Nevertheless, the problems and scientific views related to terrorism and the main features of this crime have been more or less studied by Russian scientists during the last century. In particular, despite the fact that A. N. Trainin expressed the concept, essence, and characteristics of international crimes in a general way, he did not dwell on each of them separately. In his research, he limited himself to citing the provisions of the "Convention on the Prevention and Suppression of Terrorism" discussed in 1937[5; 156].

I.I. Karpes, the goal of terrorism is to harm democratic, progressive, social reforms, to harm the property of enterprises, organizations, institutions, and individuals, to frighten people, and fascists against them. racists. that it is an act consisting of the use of violence and physical destruction for the benefit of the reactionary views and ideology of anarchists, chauvinists or military bureaucratic currents, as well as material or other benefits by criminal elements or organizations, groups, individuals who sponsor them [6 ;64-98] recognized.

L.A. Mozharyan raised terrorism to the level of state policy and considered it the most terrible international crime [7; 28].

**Results and discussion.** Above, we have described the opinions of some contemporary

Russian legal scholars about "terror" or "terrorism". Western and Eastern jurists, as well as American scientists, have expressed their own unique opinions about legal terms such as "state terrorism" and "international terrorism".

In particular, British professor Colin S. Gray recognizes the opinion that terrorism is the use of force or the threat of force to achieve a political goal[1;17].

According to the Indian scientist S. Agravala, "the necessary elements of the crime of international terrorism are the use of force or the threat of using force, which creates dangerous conditions for innocent people or the population in general, as well as the international appearance of the crime" [1 ;17], we consider it very reasonable. Because, although the socially dangerous actions of criminals (groups or organizations) engaged in international terrorism appear to be related to international relations to a certain extent, in fact, the purpose of these criminal subjects is to damage international relations and have absolutely nothing to do with them. It is distinguished by the fact that it is aimed at threatening or endangering the lives of innocent people or the population, as well as threatening a specific state policy. Currently, such actions are increasing so much that in such a dangerous situation, no one can guarantee that "I will not be a victim of such a crime."

Similarly, J. Dugard, a scientist from the Republic of South Africa, stated that international terrorism is a violent act that undermines international relations, aims to bring about political changes, and is considered inconsistent with the acceptable moral norms of the international community. puts special emphasis on the fact that the implementation of such an act is aimed at confusing international relations[1;16].

**Conclusion.** In conclusion, it should be said that terrorism, international terrorist crimes are historically characteristic of different periods, and a general, clear and concise understanding of these terms has not been developed until now. This crime is defined differently in the international law

and in the domestic laws of the states. There are also different approaches in several conventions related to the fight against terrorism. Sometimes even contradictory

concepts are stated in them. All this is ultimately one of the reasons for the ineffectiveness of the fight against this crime today.

#### References:

1. Лахов Э.Г. Терроризм и межгосударственные отношения. - М: Международное отношения. 1991. -С. 13, 14, 15, 16, 17.
2. Доклад пятого конгресса ООН по предупреждению преступности и обращению с правонарушителями. - New York. 1976. – С. 35-36.
3. Ожегов С.И. Словар русского языка. - М: Русский язык. 1986. – 691 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -М. Русский язык. 1981. – 2 жилд. – Б. 465.
5. Трайнин А.Н. Заўита мира и борьбы с преступлениями против человечства. – М. 1956. -156 б.
6. Карпец И.И. Преступления международного характера. – М. 1979. - С. 64-98.
7. Можарян Л.А. Терроризм: права и вымысль. – М. 1983. – С. 28.

### GLOBAL IQLIM O'ZGARISH DAVRIDA YOSH AVLODNI ONA TABIATGA MEHR MUHABBAT RUHIDA TARBİYALASHDA KEKSA AVLOD VAKILLARINING TUTGAN O'RNI

Zoir Axmedov,

Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0005-2153-1512>

**Annotatsiya:** Mustaqillika erishganimizdan so'ng davlatimiz tomonidan tabiatni asrashga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bunda lmiy ta'limotlar bilan birga milliy qadryatlarimizdan keksa avlod vakillarini o'git va ko'rsatmalariga ham quloq tutildi.

**Kalit so'zlar:** Hadis, nuroniylar, tabiat, ekologik talim-tarbiya, ekologik muammo, yashil makon, chang-g'ubor.

**Аннотация:** После обретения независимости наше государство стало уделять особое внимание сохранению природы. Наряду с научными учениями были выслушаны также поучения и наставления представителей старшего поколения по нашим национальным ценностям.

**Ключевые слова:** Хадисы, светила, природа, экологическое образование, экологическая проблема, зеленые насаждения, пыль.

**Annotation:** After gaining independence, our state began to pay special attention to the

preservation of nature. Along with the scientific teachings, the teachings and instructions of the representatives of the older generation from our national values were also listened to.

**Key words:** Hadith, luminaries, nature, ecological education, ecological problem, green space, dust.

XXI asrda butun dunyo bo'yicha vujudga kelayotgan atrof-muhit tozaligi va biz nafas olayotgan atmosfera musaffoligiga rahna solayotgan ko'plab holatlar insoiyat hayotiga tobora jiddiy xavf solmoqda. Ayniqsa, yildan-yilga kuchayib borayotgan iqlim isishi va buning natijasida mavjud global ekologik muvozanatning izdan chiyotgani barcha mamlakatlar xalqlari qatori yurtimiz aholisini ham ogohlik va sergaklikka chaqirmoqda.

Alloh taolo dunyodagi barcha zohiriy va botiniy ne'matlarni mukarram inson zoti uchun yaratdi va unga bo'ysundirib qo'ygan. Haq taolo bu haqda shunday deydi:“(Ey

insonlar!) Alloh osmonlar va Erdagi hamma narsani sizlarga bo'yinsundirib qo'ygani va sizlarga barcha zohiriy va botiniy ne'matlarini komil berganini ko'radingizmi?" (Luqmon, 20). [1: 2]

Modomiki, tabiat qo'ynida yaratilgan barcha ne'matlar inson uchun ekan, bu ne'matlarni har tomonlama asrab-avaylash, tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish barchamizning burchimizdir. Payg'ambarimiz (alayhissalom) hadisi shariflarida shunday deb marhamat qilganlar: "Kim bir daraxtni ekib, meva bergunicha ehtiyotlab, parvarishlasa, Alloh taolo huzurida shu daraxtdan eyilgan har bir mevada unga sadaqa bo'ladi". [1:4]

Mamlakatimizning o'z istiqboliga erishishi ekologiya muammolarini jadal va katta mas'uliyat bilan hal qilishda yangi boshqichga olib chiqdi. Qadimdan xalqimizda daraxtzor qishloqlarda xastaliklar bo'lmaydi degan gaplari bor. Shu munosabat bilan 1992 yil dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'asis etilishi, shu nomad Davlat dasturi, "Ekologik ta'lim-tarbiya" kontseptsiyasining ishlab chiqilishi muammolarni bartaraf etishga jidiy kirishilganidan dalolatdir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Ma'naviy-ruhiy tiklanish insonning erga va uning boyliklariga bo'lgan munosabatlarni ham o'z ichiga olishi lozim. Sivilizatsiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo'lsa, qishloq xo'jaligi ming yillar mobaynida butunlay sug'oriladigan dehqonchilikka asoslangan mintaqada er va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhimdir. Er, havo, suv va olov (quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan. Afsuski, oxirgi yuz yillikda aynan mintaqaning ekologik tizimiga juda katta zarar etkazildi. Ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish sohasidagi an'anaviy odob-axloq qoidalari unutib yuborildi. Bu qoidalarga ko'ra suv va erni o'ylamay-netmay bulg'ash, isrof qilish

gunohi azim hisoblanar edi". [2: 5]

Ekologik xavf-xatar ko'lami pinhon tutilgani bilan uning halokatli belgilari aniq ko'rina boshlaydi. Ammo bugungi kunda vaziyat ancha o'zgardi. Dunyoning turli nuqtalaridagi ekologik tanglik ochiq-oydin muhokama etilmoqda. Chunki, atrof-muhitning ifloslanishi, zaharlanishi va ishdan chiqishi butun sayyora miqyosidagi hodisaga aylandi. Ekologik tanglikning aks-sadosi barcha qayta tiklanish jarayonlarida o'z ifodasini topmoqda. Jumladan, "70-yillarning o'zidayoq har yili biosferaga o'rtacha 40 milliard tonnadan ortiq ishlab chiqarish chiqindilari tashlanardi. 2000 yilga kelib uning hajmi 100 milliard tonnaga etdi". [4:5]

Endilikda insoniyatni umuminsoniy qadryatlar asosida birlashtiruvchi yangi mafkura-ekologik mafkura paydo bo'lmoqda. Bu-insoniyat mafkurasidir. Chunki ekologiyaning o'zi tobora umuminsoniy muammoga aylanib bormoqda. Ekologik mafkura diniy, milliy, sinfiy kelishmovchiliklarni mutlaqo inkor etadi. Uning yangiligi va o'ziga xosligi ham, ehtimol xuddi ana shundadir. Ekologik mafkura nafaqat umuminsoniy, balki aytish mumkinki, tabiat va inson uchun yagona bo'lgan umum hayotiy qadryatlarga tayanadi. Ekologik mafkura-hayot, inson va tabiat hamkorligi mafkurasidir.

Atrof-muhitni toza tutish, chiqindilarni o'z vaqtida saranjom-sarishta qilish, notoza jismlar va turli ko'zga ko'rinmas zararkunandalardan ehtiyotlash ham tabiatni asrashda muhim ahamiyatga ega ekanini oila a'zolarimiz, yoshlarimizga doim uqtirib borishimiz kerak. Shu o'rinda zararli chang-g'ubordan ehtiyot bo'lish haqidagi quyidagi hadisi sharifga diqqat qaratishimiz ham ayni muddao: "Ehtiyot bo'linglar, chang-g'ubordan turli yuqumli kasalliklar tarqalishi mumkin". [1:4] Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam shunday ta'lim berganlar: "Odamlarga aziyat berayotgan daraxtni yo'ldan olib tashlagan kishini jannatda aylanib yurganini ko'rdim". [1: 4]

Xalqimizning ajoyib an'anasi-hashar mana necha asrlardan beri barhayot yashab kelmoqda. Hashar beminnat yordam,

elkadoshlik, mehru oqibatlik, sadoqatni o'zida mujassam etgan boqiy qadryatdir. 2010 yil 13-14 mart kunlari nuroniylar boshchiligida uyushqoqlik bilan, mehnat bayrmi hashar o'tkazilgan. Elimizda azaliy udumlardan biri bu mangulik ziyoratgohlar-qabristonlarni obodonlashtirish hisoblanadi. Jumladan, "hasharda 6834 ta qabristonlar obodonlashtirildi, cho'p-cho'paklardan tozalandi. 639 ziyoratgoh orastalandi, ajdodlarning ruhi poklariga hurmat-izzat bajo keltirildi. Xuddi shunday daraxt nihollari, gul ekish, ta'bir joiz bo'lsa, har bir insonning ezgu orzusidir. Bog' yaratish, ayni paytda tabiatning bag'riga malham qo'yishdir. Hashar kunlarida diyorimiz bo'yicha 1084674 dona mevali, 162 5909 tup manzarali, 1526996 dona gul ko'chatlari ekildi. Har bir ishda bo'lgani kabi hasharda ham faxriy otaxonlar bosh-qosh bo'ldilar. 615431 nafar nuroniylarning aytgan o'g'itlari, yaxhi niyatlari 3159781 nafar yoshlarni ruhlantirdi". [2: 2]

Nabotot va hayvonot dunyosini qanchalik ehtiyot qilsak, suv va suv havzalariga nisbatan ham shunday insoniy munosabatda bo'lishimiz zarur. Xususan, suvni ortiqcha isrof va iflos qilish, suv havzalarini bulg'ash dinimiz ta'limotida qattiq qoralangan. Bu haqda Tabaroniy rivoyat qilgan hadisda shunday deyilgan: "Payg'ambarimiz oqar suvni iflos qilishdan qattiq qaytarganlar" (Imom Tabaroniy rivoyati). [1: 4]

2010-yil 13-14-mart kunlari mamlakatimizda bo'lib o'tgan umumxalq xayriya hasharida nuroniy otaxonu naxonlar ham faol ishtirok etgan. Viloyatlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak jumladan, "Qoraqalpog'istonda 30 mingdan ziyod faxriy mahalla hududlarini, aholi turar-joylarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida faol qatnashdilar. Turar-joy mavzalariga 37 ming tupdan ziyod mevali, 82 ming tupga yaqin manzarali va 8500 dona gul ko'chatlari ekildi". [2:2]

2010 yil 14-15 mart kunlari o'tkazilgan umumxalq xayriya hasharida Respublikamizning turli mintaqalarida istiqomat qilib turgan nuroniy otaxonlar, onaxonlar va o'quvchi yoshlar ishtirokida

mavjud qabriston, ziyoratgoh va qadamjolar obodonlashtirilgan. Jumladan, "600 ming tup mevali, 1 mln. tupdan ortiq manzarali daraxt va gul ko'chatlari o'tqazildi". [2: 2]

Yurtimizda har bir bir xayrli ishni boshlashdan oldin natija berishi uchun yoshi ulug' keksalardan maslahatlar olingan. Bu haqda "Nuroniy" jamg'armasi Jizzax viloyati Forish tuman bo'linmasi raisi G'aybulla To'ychiyev quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Forish tumanida 7 ming 900 nafar pensioner yashaydi. Ularga har oyda 856 million so'm mablag' pensiya sifatida tarqatiladi. Bu ishda tuman "Nuroniy" jamg'armasi faollari ishtirok etib, ularning pensiya pulini o'z vaqtida olishni ta'minlamoqda. Shu yilning (2010) 13-14 mart kunlari tumanda shanbalik o'tkazildi. Unda birinchi kuni 25 ming kishi (larning 12 ming 400 nafari yoshlar) qatnashib, 9 ming tup mevali, 6 ming tup manzarali, 1000 tup tut, 10 ming 400 tup gul ko'chatlari ekildi. Ikkinchi kuni 22 ming kishi (10 ming 800 nafari yoshlar) shanbalikka qatnashib, 8 ming tup mevali, 7 ming 800 tup manzarali, 1200 tup tut, 9 ming 600 tup gul ko'chatlari ekildi. Ana shu shanbalikda ekilgan daraxtlarni yoshlar qatori qariyalar ham parvarish etmoqda". [2:2] Demak, azaldan ajdodlarimiz tomonidan mahallalarni obodonlashtirish, bog'u bo'stonga aylantirishdek ezgu amallar bebaho qadriyat sifatida shakllantirilgan. Mazkur an'anani izchil davom ettirgan holda, barcha hududlarda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish orqali aholiga munosib sharoit yaratish, turmush madaniyatini yanada yuksaltirish, eng asosiysi, yoshlarni xayrli ishlarga da'vat etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2021-yilning 2-noyabridan 10-dekabriga qadar mamlakatimizda daraxt ekish bo'yicha "Dolzarb 40 kunlik" e'lon qilingan bo'lib, ushbu tashabbusni yanada faol tashkil etish maqsadida O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasining yurtimizdagi keksa avlod vakillariga murojati qabul qilingan. Jumladan, unda ta'kidlanganidek; "...albatta, ko'chat ekish, bog' yaratish xalqimizga xos ezgu

qadryatlaradan sanaladi. Otalarning farzandiga atab daraxt ekishi ham avloddan-avlodga o'tib, qadryat darajasiga ko'tarilib kelayotgan an'analarimizdan biri".[3:2] Demak, ushbu an'analarni yoshlarga etkazish doirasida barcha xayrli tadbirlarda, nuroniylarning hayotiy tajribasi muhim hisoblanadi.

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Qaysi bir musulmon biron ko'chat eksa yoki ekin eksa, so'ng undan qush, inson, yoki hayvon yesa, albatta, bu bilan o'sha banda uchun sadaqa bo'ladi", (Imom Buxoriy rahimahulloh rivoyati).[4: Shayx Alijon qori sahifalari

O'zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasining 49-moddasida "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi"-deb belgilab qo'yilgan.

Daraxt ekib, bog' yaratish borasida boshqa bir rivoyatda shunday deyilgan: "Undan o'g'irlansa ham, u (ekkan) uchun sadaqa bo'ladi. Undan birortasi olsa ham, u uchun sadaqa bo'ladi" [4: Shayx Alijon qori sahifalari (Imom Muslim rahimahulloh rivoyati). Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida amalga oshirilayotgan obodonchilik va bunyodkorlik ishlarida "Nuroniylar jamoatchilik kengashi"ning alohida o'rni bor. Jumladan, "Kengash a'zolari tuman

hududidagi mahallalarda 75 mingdan ortiq mevali va manzarali ko'chatlar o'tqazib, yo'llar, xonadonlar va qabristonlarni obod qilishda namuna ko'rsatishdi. SHuningdek, keng jamoatchilik bilan birgalikda mahallalarda to'y va ma'rakalarni ixchamlashtirish, isrofgarchilik, erta turmushning oldini olish, yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohga barham berish borasida targ'ibot ishlarini olib borishmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kollejlardagi o'quv jarayonlari hamda o'quvchilarning davomatlari ham nuroniylar etiboridan chetda qolmayapti. Bundan tashqari, mahallardagi kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, kekxa va faxriylar holidan xabar olish ham jamoatchilik kengashi a'zolarining doimiy e'tiboridan o'rin olgan". [5: 2

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev raisligida 2021-yil 2-noyabrda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Toshkent shahar nuroniy jamg'armasi raisi, senator Rustam Kalanov quyidagilarni keltiradi. Jumladan; "Toshkent shahridagi 579 ta fuqarolar yig'inlari tomonidan nuroniylar tashabbusi va tajribasidan keng foydalangan holda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha mahallalarning dasturlari qabul qilinishi yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi, tegishli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida barcha mahallalarda umumxalq hasharlari, keng qamrovli obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlari bo'lmish "Mahalla barakasi", ta'lim muassasalarining o'quvchi va talabalari ishtirokida esa "Mahallamga nihol ekaman!" aksiyasini o'tkazish hamda Toshkent shahar hududida gul ko'chatlari ekilishi yuzasidan bir kunda jami 14 589 ta gul ko'chati ekilgan bo'lib, tadbir boshidan buyon jami 1 430,4 ta ko'chat



ekilgan.

Shu bilan birga, tumanlarda ko'p qavatli uylar joylashgan hududdan tashqari boshqa hududlarda gul ko'chatlarini ekish bo'yicha bir kunda jami 12 840 ta gul ko'chati ekilgan bo'lib, tadbir boshidan buyon jami 155 733 ta ko'chat ekilgan hamda mevali daraxtlarni ekish bo'yicha bir kunda jami 11 348 ta gul ko'chatlari ekilgan bo'lib, tadbir boshidan buyon jami 115 971 ta ko'chat ekilgan". [6:7]

Davlatimizda, "Dolzarb 40 kunlik" da faol va tashabbuskor nuroniylar, "Keksalar maslahati" guruhlari a'zolarini keng jalb etgan holda daraxt ko'chatlari ekish ishlarini mahalliy aholi, ayniqsa, yoshlar ishtirokida uyushqoqlik bilan o'tkazish ko'zda tutilgan. Jumladan: "Yashil makon" umummilliy loyihasiga muvofiq, "Unga ko'ra, kuz fasli hamda 2022-yilning bahor mavsumida yurtimizdagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hududlarida 40,3 mln. Dona manzarali va mevali daraxt, buta ko'chatlari hamda qalamchalari ekilishi rejalashtirilgan". [7: 2] 2021 yil kuz faslida Sirdaryo viloyatidan boshlangan qum bo'roni qisqa muddatda poytaxtimizga chang-to'zoni bilan etib borgan. Jumladan: "Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bunday tabiat hodisasi 150 yildan buyon kuzatilmagan. Oradan 3-4 soat o'tgandan so'ng farg'ona vodiysi, jumladan, viloyatimizga ham yopirildi. Ko'plab kasalmandlar xususan, nafas yo'llari, astma, yurak-qon tomiri xastaliklari bilan kasallanganlar va keksalar o'rtasida tibbiy xizmatlarga murojaatlar ko'paydi. Biz qancha ko'p ko'chat ekib, "Yashil maydonlar" ni ko'paytirsak, bunday ofatlardan himoyalangan bo'lamiz." [8: 2]

Kelajakni oldindan ko'ra olguvchi, Davlatimiz rahbari tomonidan ko'chat ekish, yangi yashil hududlar barpo etishga alohida e'tibor qaratildi. Avvalari, ko'chatlar bahor faslida ekilardi bu esa inson omilimi yoki tabiatning injiqliklari sabab nobud bo'lardi. Bunday salbiy holatlarni oldini olish uchun davlatimiz rahbari tomonidan alohida topshiriq berildi. Jumladan, "respublika bo'yicha 200 mln. ko'chat ekib, uning 95-98

foizini saqlab, ko'karib ketishiga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda." [19: 2]. Demak, kuzda ekilgan daraxt ko'chatlari qish davomida qor va yomg'ir suvlaridan to'yinib ildiz otib olishiga zamin bo'lgan.

Hovli-joylarimizni ozoda, shinam saqlash, avvalo, oilaviy sog'-salomat yurishimizda muhim ahamiyatga ega. Payg'ambarimiz Muhammad sollalohu alayhi va sallam marhamat qilganlar: "Haqiqatan ham Alloh yaxshidir va yaxshilikni sevadi. Pokdir, poklikni xush ko'radi. Olijanobdir, olijanoblikni do'st tutadi. Saxiydir, saxiylikni sevadi. Hovli-joyingizni ozoda tuting. Xudoning g'azabiga uchragan qavmlarga o'xshamang". [1:4] Xulosa qilib aytganda, atrof muhitni toza, ozoda saqlash, asrab-avaylash va chiroyli tarzda kelajak avlodga omonat etkazish barchamizning burchimizdir.

Bugungi kunda insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari tobora ortib bormoqda. Har qanday muammoni, xususan, ekologik masalalarni hal etishda ham ziddiyatlar tug'uladi. Ekologiya, eng avvalo, insonning ma'naviyati, ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog'langan. Insonning turli-tuman jismoniy va ruhiy jihatdan xastaliklarga chalinishidan tortib, to uning xulq-atvoridagi har xil illat, aytaylik, g'aflat, bilimsizlik, jaholat,, xudbinlik, faqat o'z maqsad g'oyalarini yaxshi ko'rish, ochko'zlik, qizg'anchilik va boshqalarsiz, inson ma'naviyati olamining ziddiyatli ekologiyasiga borib taqaladi.

Xulosa o'rnida demoqchimizki, mazkur muammolarni bartaraf etish, hududlar obodligini ta'minlash va buning natijasi o'laroq, aholi turmushini yaxshilash boraida davlatimiz tomonidan qator muhim islohotlar olib borilmoqda. Xususan, mahalla va ko'chalardagi daraxtlar sonini ko'paytirish, aholi xonadonlari va ijtimoiy soha ob'ektlari atrofida mevali daraxtlarni ekish bo'yicha zarur choralar amalga oshirilmoqda. Shu ma'noda daraxtlarni ko'paytirish, ularning turi va xilma-xilligini yanada oshirish bo'yicha davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarni hayotga joriy etishda nuroniylarning ham o'rni juda zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nuroniy gazetasi E-mail: nuroniy-gazeta@umail.uz nuroniy-gazeta@mail.ru 2018-yil 28-noyabr, № 49 (956). O'zbekiston musulmonlari idorasi fatvo bo'limi xodimi Muslim Ataev "Bolaga tabiatni asrashni o'rgating!".
2. O'zbekiston faxriylari gazetasi 2010-yil, 3-dekabr 49-50 (541-542) sonlar. ISSN-9342 "Ilm-fan hamkorligi ekologik muammolarni hal etishda muhim omil".
3. Nuroniy ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta. 2021 yil 17-noyabr №-45 (1107) "Dolzarb 40 kunlik": "har bir kishiga-bir daraxt" tamoyili ustuvor. Ikromjon Najmiddinov, Namangan viloyati Nuroniy jamoatchilik kengashi raisi, Oliy Majlis Senati a'zosi.
4. Shayx Alijon qori sahifalari
5. Nuroniy ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta. O'z muxbirimiz. 2018 yil 4-aprel №-15 (922) "Jamoatchilik kengash a'zolarifaol."
6. Rustam Kolonov, Toshkent shahar nuroniy jamg'armasi raisi, senator "Keksalik va hozirgi zamon: mavjud holat, rivojlanish tendensiyalari va istiqboldagi muammolar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami (13-oktabr 2022-yil) "Toshkent shahrida nuroniylarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar" "Mahalla va oila nashryoti" T; 2022.
7. Nuroniy ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta. 2021 yil 10-noyabr №-44 (1106) "Yashil makon" umummilliy loyihasida nuroniylar faol.
8. Nuroniy ijtimoiy, ma'rifiy, ommabop gazeta. 2021 yil 17-noyabr №-45 (1107) "Dolzarb 40 kunlik": "har bir kishiga-bir daraxt" tamoyili ustuvor. Ikromjon Najmiddinov, Namangan viloyati Nuroniy jamoatchilik kengashi raisi, Oliy Majlis Senati a'zosi.

## БУХОРО – ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР

Нурбек Бегалиев,

Шахрисабз педагогика институти Тарих кафедраси ўқитувчиси

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0005-2512-1245>

**Аннотация:** Мақолада бугунги кунда Ўзбекистон худудидаги Бухоро-Қарши йўлида жойлашган сардобанинг маданий ёдгорлик сифатидаги аҳамияти, Самарқанддан Қарши орқали Хуросон ва Эроннинг савдо шаҳарларига борадиган карвон йўлларида фойдаланиш ҳақида сўз боради.

**Таянч иборалар:** Сардоба, Какир, Учмуллаб, Карчак Бел, Абдуллахан ИИ, карвонсаройлар, рабатлар ва қалъалар, йирик шаҳарлар, йўл бўйидаги иншоотлар.

**Аннотация:** В статье говорится о значении сардобы (цистерн), расположенных на дороге Бухара-Карши на территории Узбекистана сегодня как памятника культуры, использовании караванных путей из Самарканда в

торговые города Хорасан и Иран через Карши.

**Ключевые слова:** Сардоба, Какир, Учмуллаб, Карчак бель, Абдуллахан II, караван-сарай, рабаты и замки, крупные города, придорожные сооружения.

**Abstract:** The article talks about the importance of sardoba (cisterns) located on the Bukhara-Karshi road on the territory of Uzbekistan today as a cultural monument, the use of caravan routes from Samarkand to the trading cities of Khorasan and Iran through Karshi.

**Key words:** Sardoba, Kakir, Uchmullab, Karchak Bel, Abdullakhan II, caravanserais, rabats and castles, large cities, roadside structures.

Ўзбекистон худудининг ўзига хосликларидан бири, шундаки, бу ерда воҳалар бепоен чўллар билан ёнма-ён жойлашган. Чўлларни кесиб ўтиш орқалигина бир воҳадан иккинчи воҳага бориш мумкин бўлган. Бироқ чўлларни кесиб ўтиш бир мунча оғир кечган. Зеро, чўл худудларида сув бўлмаган. Сувсиз эса карвонларнинг қатновини таъминлаш мумкин бўлмаган. Шу сабабли ҳам аجدодларимиз чўлларда, карвон йўлларида уларнинг фаолиятини таъминлаш мақсадида сув сақланадиган иншоотлар – сардобалар барпо этишган.

Ривожланган ўрта асрларда кенг фойдаланилган карвон Шимолий Уструшонога, сўнгра эса Сирдарё воҳасига, Шошга ёки Ўтрорга олиб борган. Бу йўллар бўйлаб бир неча карвонсарой, работ ва қалъалар, уларнинг айримлари ёнида қудуқлар ёки сардобалар бўлгани аниқланган.[1:42-44] Бу маълумотлар Х-ХII асрларда бу йўналишдаги карвон йўлидан анча фаол фойдаланилганидан далолат беради.

Амир Темур ва темурийлар даврида мамлакат пойтахти Самарқандни Мовароуннаҳр ва Хуросоннинг йирик шаҳарлари билан боғловчи йўллар минтақадаги ички савдо йўллари тизимининг бош бўғинини ташкил этарди. Карвон йўлларида хавфсизликни таъминлаш соҳасида олиб борилган тадбирлар, кўплаб йўлбўйи иншоотлари (карвонсаройлар, сардобалар, кўприклар ва бошқалар) барпо этилиши, ички ва ташқи савдони ривожлантиришнинг давлат сиёсати даражасига кўтарилгани Амир Темур давлати ижтимоий-иқтисодий сиёсатининг асосий йўналишларидан эди.

Бухородан Балхга ўтувчи карвон йўлининг биринчи қисмини Бухоро - Қарши йўналиши ташкил этиб, Қоровулбозор, Қўш сардоба, Бўзачи, Қақир, Хўжа Муборак, Косон орқали ўтган. Бу йўналишдаги биринчи йирик бекат Қоровулбозор бўлиб, бу ерда XVI асрнинг охирларида Абдуллахон II томонидан қурилган катта карвонсарой ва маҳаллий аҳоли Гумбаз деб атовчи сардоба мавжуд

эди.[2:26] Кейинги бекатлар, XIX асрнинг 80-йилларида вайрон бўлиб кетган Қўш сардоба[3:26] ҳамда Қоровулбозордан 16 версть узоқликда жойлашган Бўзачидаги работ ва сардобадан иборат бўлган.[4:30] Манбаларда “Қақир” деб аталган кейинги бекатда ҳам работ ва сардоба мавжуд бўлган. Работ XVII асрда Бухоро хони саройида дастурхончи мансабини эгаллаб турган Зоқир бий исмли киши маблағига [5:32], сардоба эса XIX асрнинг биринчи ярмида Амир Насрулло томонидан қурилган [6:78].

Бухоро – Қарши йўли ўртасида жойлашган Хўжа Муборакда[7:43] карвонсарой ва кичик бозор мавжуд бўлиб, Бухородан келувчи карвон йўли шу ерда иккига ажралган. Йўлнинг асосий тармоғи Косон орқали Қаршига олиб келган. Иккинчи йўналишда Бегичак сардоба ва Якка сардоба орқали Каспи кўрғонига борилиб, бу ердан Қаршига ёки тўғри Амударё кечувларига томон кетиш мумкин бўлган. Каспи яқинидаги сардоба зиёратчилар, маҳаллий аҳоли ва савдо карвонларини сув билан таъминлашда катта ўрин тутган.

Қарши шаҳридан Ғузор – Окробот – Термиз орқали ёки Амударёнинг ўрта оқимидаги жойлашган Келиф ёки Керке кечувлари орқали Балхга кетиши мумкин бўлган. Сўнги ўрта асрларда Қаршидан Амударё кечувлари – Керки ва Келифга кетувчи йўллардан самарали фойдаланилган. Бу йўлларнинг аҳамиятини яхши англаган Абдуллахон II Қарши ва Амударё оралиғидаги чўлда кўплаб сардобалар барпо эттирди. Бир-биридан бир кунлик масофада (25-30 км.) жойлашган бу сардобалар XX асрнинг 30-йилларида қисман ўрганиб чиқилган бўлиб[8:23], улар Қарши – Керки ва Қарши – Келиф савдо йўлининг йўналишини аниқлаштиришда катта ўрин тутди. Қаршидан Керки кечувларига олиб борган карвон йўли Эски Нишон ва Сангир сувлоқ сардобаси орқали ўтган. XIX аср рус ҳарбийлари ҳисоботларига кўра Қарши ва Нишон оралиғидаги масофа 27 верст бўлган.[9:56] Эски Нишонда Абдуллахон

II томонидан қурилган сардоба ва работ XIX асрнинг 60-йилларида вайрона ҳолда эди[10]. Сардоба эса XX асрнинг 60-йилларида бутунлай бузиб ташланган бўлиб, унинг харобалари, биз тўплаган маълумотларга кўра, Эски Нишон қишлоғидан 3-4 км. ча жануби-шарқда жойлашган.

Бу йўналишдаги кейинги бекат Усти очик сардоба, маҳаллий чўпонлардан олган маълумотимизга кўра, ҳозирги пайтда Таллимаржон сув омбори тагида қолиб кетган. Қарши – Керки йўлидаги энг йирик иншоот бўлган Сангир сувлоқ сардобаси Туркманистондаги эски Таллимаржон қишлоғининг жануби-шарқда жойлашган. Бу сардоба ҳақида А. Вамбери ҳам маълумот қолдирган. XIX аср охирида бу сардоба ёнида Керки беги буйруғи билан карвонсарой барпо этилган бўлиб [3:7], у бизнинг давримизгача етиб келмаган. Сангир сувлоқ сардобасида Қаршидан келувчи йўл иккига ажралиб, биринчи йўналиш Қирққудук орқали Керкига, иккинчиси Бутош сардобаси ва Йулғуноғиз орқали Келиф кечувига олиб борган.

Мир Иззатулло Қаршидан Қоратепа, Каркинчак, Қизқудук, Шўрқудук ва Сардоба (бу Сардоба Абдуллахон иккинчи даврида барпо этилган сардобалардан бири бўлса керак) орқали Келиф кечувига келувчи йўлни қайд этади. Қарши – Келиф савдо йўлида Юсуф сардоба, Ураси сардоба, Исфантўда, Абдуллахон сардобаси ва Келиф яқинидаги Ўғуз сардобалари бўлган. Қаршидан Келифга Керки кўрғони орқали ҳам бориш мумкин бўлиб, бу йўл Амударёнинг ўнг қирғоғи бўйлаб ўтган. Келиф кечувидан савдо йўли Шибирғон ва Балхга ҳамда Кобул шаҳри орқали Ҳиндистоннинг савдо шаҳарларига қараб кетган.

Қарши шаҳридан савдо карвонлари Янгикент қишлоғи – Ғузор – Оқрабат – Темир Дарвоза орқали Сурхон воҳасига, бу ердан Шеробод ва Термиз орқали Балхга, Афғонистон ва Ҳиндистоннинг бошқа савдо шаҳарларига кетишган. Ғузордан Оқрабатга кетган йўл Катта ва Кичик

Урадарёлар кўшиладиган жойда тармоқланиб, бир йўналиши Анорбулоқ деган жойда Калтаминор йўлига қўшилган бўлса, иккинчиси Гулабулоқ тепалиги орқали Тангаҳаромга, бу ердан унча катта бўлмаган Якарча довони орқали Чашмаи Хафизжон (Габзон)га олиб чиққан. Оқрабатда Шаҳрисабздан келувчи Калтаминор йўли билан қўшилиб, Темир дарвоза, Шуроб ва Шеробод орқали Сурхон воҳасига чиқилган. Бу йўналиш Шеробод яқинидаги сардоба орқали ўтган. XIX аср охирларида бу йўлларни ўрганиб чиққан рус ҳарбий разведкачилари Ғузордан Темир дарвозагача бўлган тоғ йўлини, Чашмаи хафизжондан 10 верстча ғарбда жойлашган дара йўли бироз текисланса, аравалар юриши учун қулайлигини қайд этишган.

Келифдан Ғузор ва Қаршига ўтувчи йўллардан сўнгги ўрта асрларда изчил фойдаланилган. Келифдан Хўжа қишлоғи (28 версть), Қўйтан қишлоғи (38 версть), Беклар қудук ва Маликтоғдаги Учмулла (Карчак бел) довони орқали Абдуллахон работига (16 версть) келинган. Бу ерда йўл тармоқланиб, бири Ғузорга, иккинчиси Қаршига қараб кетган. Манбаларда Қўйтан қишлоғи Келиф – Ғузор йўлидаги ягона бозор бўладиган жой сифатида эслатилиб, бу қишлоқдан Шерободга ҳам йўл ўтиши қайд этилади. Карчак қишлоғи яқинида эса Абдуллахон томонидан қурилган бир неча работлар ва сардоба бўлгани бу йўналишнинг сўнгги ўрта асрлардан бошлаб изчил фаолият кўрсатганлигини билдиради.

Бу даврда Самарқанддан Қарши орқали Хуросон ва Эроннинг савдо шаҳарларига борувчи карвон йўлларидан фойдаланиш давом этди. Самарқандан Қаршига икки йўналишда йўл келган. Биринчиси Ажирим, Шўрбозор, Айритом орқали ўтган. Шўрбозор XVII аср бошларига тегишли манбаларда Самарқанд ва Қарши оралиғидаги муҳим манзил сифатида қайд этилади. Биз тўплаган маълумотларга кўра, Шўрқудукда сардоба мавжуд бўлиб, у ўтган асрнинг 60-йилларига келиб

бутунлай бузилиб кетган. Маҳаллий ёзма манбаларда ҳам, бу худудлардаги йўлларни ўрганиб чиққан рус харбийлари асарларида ҳам бу сардоба ҳақида маълумот учрамайди. Бу эҳтимол, XVI-

XVIII асрларда анча кенг фойдаланилган мазкур йўналиш XIX-XX аср бошларида ўз аҳамиятини йўқотиб, Жом орқали ўтувчи йўлнинг аҳамияти ошиб бориши билан изоҳланиши мумкин.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Немцева Н.П. Караванными дорогами голодной степи // Вехи времен. Рассказы о памятниках истории и культуры Узбекистана. – Ташкент, 1989, – С. 42-44
2. Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. – Ташкент, 1935. – С. 26-27
3. Мавлонов У.М. Позднесредневековые транзитные дороги Кашкадарьинского оазиса // Культурное наследие Средней Азии. – Ташкент, 2002. – С. 156.
4. Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 годах. Т. 2. – СПб.,
5. Авский. Сардоба Абдуллахана // Журн. Разведчик, 1893. – № 120. – С. 82-83.
6. Еврейнов. Рекогносцировка пути через Джамский перевал на гузар и на Карши 1887 г. Генерального Штаба полковника Еврейнова // СМА. – СПб.: Военная типография, 1888. Вып. XXXVI. – С. 115, 118.
7. Маев Н. Очерки Гиссарского края // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. – СПб., 1879. Вып. V. – С. 144-145.
8. Мавлонов Ў., Аминов Б. Мир Иззатулло ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2006. – № 4. – Б. 20-22.
9. Арандеренко Г.А. Цистерны в Каршинской степи // Досуги в Туркестане. – СПб., 1883. – С. 248.
10. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии / Перевод с немецкого с примечаниями В.А. Ромодина. – СПб., 2005. – С. 190.

## ЎРТА ОСИЁ ГЕОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАРИХИ (1939-1945 ЙИЛЛАР)

**Толибов Нурбек Абдиганпорович,**

Шаҳрисабз педагогика институти Тарих кафедраси ўқитувчиси

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0005-2566-887X>

**Аннотация:** Мақолада 1939-1945 йилларида олиб борилган географик изланишларнинг илмий ва амалий аҳамияти ҳамда географик тадқиқотларнинг кенг қамровли эканлигидан келиб чиқиб, табиий география, гидрология, картография, шунингдек геология фанлари доирасида олиб борилган илмий изланишларнинг тарихи ёритилган.

**Калит сўзлар:** Тошкент Давлат университети(САГУ), СССР Фанлар Академияси, СССР ФА СОПСи, Жануби-Шарқий Қизилқум, Манғишлоқ ярим

ороли, Устюрт платоси, Н.Л. Корженевский, Р.С. Лобач, О.Ю. Пославская тадқиқотлари.

**Аннотация:** В статье описано научное и практическое значение географических исследований, проведенных в 1939-1945 гг., а также комплексность географических исследований, а также история научных исследований, проводимых в области естественной географии, гидрологии, картографии и геологии.

**Ключевые слова:** Ташкентский государственный университет (САГУ),



Академия наук СССР, ФА СОПС СССР, Юго-Восточный Кызылқум, полуостров Мангышлок, плато Устюрт, Н.Л. Корженевский, Р.С. Лобач, О.Ю. Пославская учёба.

**Abstract:** The article describes the scientific and practical importance of geographical research conducted in 1939-1945, as well as the comprehensiveness of geographical research, and the history of scientific research conducted in the fields of natural geography, hydrology, cartography, and geology.

**Key words:** Tashkent State University (SAGU), Academy of Sciences of the USSR, FA SOPS of the USSR, South-East Kyzylqum, Mangishloq Peninsula, Ustyurt Plateau, N.L. Korzhenevsky, R.S. Lobach, O. Yu. Poslavskaya studies.

География соҳаси узок даврдан бери инсонларнинг табиий ресурслардан оқилона фойдаланиши ҳамда жамиятнинг табиатга муносабатини оптималлаштириш муаммоларини ҳал этишнинг назарий ва амалий масалалари билан шуғулланиб келди. 1939-1945 йиллар мобайнида географик тадқиқот ишларнинг амалий йўналиши янада аниқлашди ва бевосита муҳофаза манфаатларига қаратилди. Айнан шу нуқтаи назардан ҳам шу йиллардаги географик тадқиқотлар тарихини ўрганиш долзарб масалалардан ҳисобланади.

Уруш йилларида Ўрта Осиёнинг бой табиий географиясини ўрганиш ва илмий асосда тадқиқ этиш ишига кўплаб таниқли олимлар ўз ҳиссаларини қўшиб келдилар. Жумладан, В.А. Жоржио раҳбарлигида «Ўрта Осиёдаги синоптик жараёнлар» номли капитал монография яратилди. Шунингдек, В.А. Бугаевнинг «Ўрта Осиё иқлимини ҳосил қилувчи метеорологик омиллар» (1943), «Ўрта Осиё ва Қозоғистон иқлими» (1945) асарлари босилиб чиқди. В.А. Бугаев билан Б.А. Жоржионинг Ўрта Осиё ва унга туташ ҳудудлар (Ўрта Шарқ ва Ҳиндистон) синоптик метеорологияси ва иқлимга оид оригинал тадқиқотлари халқаро аҳамият касб этди.

Уруш йилларининг эҳтиёжлари геологик ва географик тадқиқотлар мавзуларини амалий мақсадларга мослаштириш ва янада жонлантиришни тақозо этди. Республикамиз Фанлар академияси институтлари олиб борган илмий тадқиқотлар натижасида фойдали қазилма конлар, ирригатсия иншоотлари бунёд қилиб, қишлоқ хўжалиги ва саноатни ривожланишига имконият яратдилар. Ушбу йилларда ўлкамиз табиатини тупроқ-географик, биогеографик ва комплекс ландшафт-географик йўналишларда ўрганиш давом этди. Ўз навбатида, ўлканинг текислик қисмида яйлов ресурсларини аниқлаш, баҳолаш, картага тушириш, ер ости минерал бойликларини излаш юзасидан жуда катта тадқиқот ишлари олиб борилди. Бунда бир қатор натижаларга эришилди.

Университетнинг Н.Л. Корженевский ва Н.Г. Маллицкий каби етакчи географлари Ўрта Осиё айрим районларининг табиий географик тасвирини ёзишдан ташқари гидрологик-гляциологик тадқиқотларини ҳам давом эттирдилар. Ёш олимлардан О.Ю. Пославская, Н.Д. Долимов, Л. Васильева ва бошқалар регионал географик ва геоморфологик мавзулар устида ишладилар[1].

1941 йил Н.Л. Корженевскийнинг Ўрта Осиё табиий географиясига оид китоби босилиб чиқди. Бу китобда автор XX асрнинг 40-йилларигача ўтказган кўп йиллик географик тадқиқотларига маълум даражада яқун ясайди. Н.Л. Корженевский мазкур йилларда Ўрта Осиё картографияси тарихи борасида ҳам қатор илмий ишларини чоп эттирди. Олим Фанлар академияси Ўзбекистон филиалининг картографик бюросида сақланган Ўрта Осиё ҳудудлари акс эттирилган эски 12 та картани топиб ўрганди[2]. Кейинроқ ҳам олим бу борадаги ишларини яна давом эттириб, XVIII асрда Ўрта Осиёнинг картографик ва географик тарихи бўйича қимматли маълумотлар жамланган мақоласини — Фанлар академияси ахбортномасида эълон қилдирди[3].

Уруш йилларида САГУ географлари ҳам муҳим тадқиқотлар ўтказдилар. Географлар сафига Москва олимларидан М.Г. Кадек, В.М. Четиркин, Г.Н. Черданцев, А.Н. Ракитников келиб қўшилдилар.

Комплекс табиий-географик районлаштириш — табиий географиянинг энг муҳим биринчи даражали муаммоларидан бири ҳисобланади. Табиий-географик районлаштиришнинг илмий жиҳатдан пухта асосланган принципи, услуби ва таксономик бирлиги (схемаси) фақат илмий аҳамиятга эга бўлишдан ташқари халқ хўжалигининг турли соҳалари учун ҳам амалий аҳамиятга эгадир. Чунки табиий бойликлардан оқилона фойдаланиш, уларни муҳофаза қилиб, ўзгартириш, халқ хўжалигини интенсив ривожлантириш, халқ хўжалик тармоқларини ихтисослаштириш энг аввало ҳудуд табиати ичидаги тафовутларни ҳар томонлама ва илмий жиҳатдан пухта билишни тақозо этади. Зеро географияда районлаштириш – табиатда объектив мавжуд бўлган ҳудудий табиий географик бирликларни аниқлаш, ажратиш ва чегаралаш жараёни ҳисобланиб, табиий географик районлаштиришнинг асосий вазифаси ҳудудни ўхшаш ва фарқ қилувчи белгиларига қараб, уларни мустақил қисмларга бўлишдан иборатдир. 1943 йилга келиб Ўрта Осиёнинг экологик тамойиллар асосида мажмуали географик районлаштириш концепцияси ва схемаси яратилди.

В.М. Четиркин 1943 йил Ўрта Осиёни географик таърифлаш ва районлаштиришга бағишланган “Турон фацияси” номли асарини ёзиб тугатди. В.М. Четиркиннинг асарида ўлка табиатига оид тўпланган жуда катта экологик ва географик тарихий илмий меросни чуқур назарий таҳлил қилиш ва умумлаштириш асосида Ўрта Осиёнинг ҳақиқий районлаштириш наъмунасини яратди. В.М. Четиркин монографиясининг биринчи қисмида 1880-1940 йиллар давомида ўлкани табиий

районлаштиришга оид яратилган барча асарларни чуқур танқидий таҳлил қилди. Олим асарнинг иккинчи қисмида А.А. Григорьевнинг табиий географик жараён ҳақидаги таълимотига ҳамда Ўрта Осиё тадқиқотчиларининг илмий меросига таяниб, ҳудудларлар экологик режими ҳақидаги ғояни олға суради. Хуллас, В.М. Четиркиннинг бу асари ва уруш йиллари ёзган мақолалари Ўрта Осиё табиий географиясининг долзарб масалаларини тадқиқ қилишга қўшилган муносиб ҳисса бўлди[4]. В.М. Четиркиннинг Ўрта Осиё ҳақидаги регионал-ландшафтшунослик концепцияси ўз вақтида С.В. Калесник, Э.М. Мурзаев, Ю.Г. Саушкин, Н.А. Гвоздецкий ва Л.Н. Бабушкин[5] каби атоқли географлар томонидан юксак баҳоланди. Ландшафт ҳақидаги таълимот ривожланиб бориб, табиий географиядаги алоҳида илмий йўналишни ҳосил қилди. Ушбу йўналишда олиб борилган илмий изланишлар кейинчалик сон жиҳатидан ҳам, сифат жиҳатидан ҳам ўсди ва XX асрнинг иккинчи ярмига келиб, ландшафтшунослик деб ном олган янги фанга айланди. Ландшафтшунослик ҳам комплекс табиий географияда бўлгани каби умумий ландшафтшунослик ва регионал ландшафтшуносликка бўлинади. Умумий ландшафтшунослик Ернинг ландшафт сферасининг тузилиши, динамикаси, ривожланиши, мавжудлик фаолияти каби умумназарий масалалар билан шуғулланади.

Ўрта Осиё Давлат университетининг ўлка чўллариини ўрганиш юзасидан олиб борган тадқиқотлари орасида Жанубий Қизилқум ва Устюрт экспедициялари илмий натижаларининг аҳамияти жиҳатидан алоҳида ажралиб туради.

Устюрт комплекс экспедицияси 1944-1945 йиллар ЎзССР ФА билан ҳамкорликда уюштирилди. Бу экспедицияда географлар – Н.Л. Корженевский, Р.С. Лобач ва О.Ю. Пославская иштирок этдилар. Экспедиция натижалари икки катта асарда жамланди[6]. Экспедиция материалларида Жануби-Шарқий Қизилқумнинг чегаралари,

ландшафтлари ва географик ўрганилганлик даражаси баён қилинди. Қорақалпоқ Устюртининг табиатига кўра ҳақиқий чўл эканлиги, унинг шимолий чўллар билан жанубий чўллар ўртасида «оралик» ўрин тутиши, ландшафтларининг ниҳоятда мозаиклиги ҳақидаги хулосалар ўлка географиясига кўшилган муносиб ҳисса бўлди.

1944-1945 йиллар СССР ФА СОПС [7]и ва География институти ҳам Манғишлоқ ярим ороли билан Устюрт платосида комплекс экспедицион тадқиқотлар олиб борди. Экспедиция бу ҳудудларнинг рельефи ва тупроқ - ўсимлик ресурслари ҳақида айниқса қимматли маълумот тўплади.

Мазкур давр Ўрта Осиёнинг тоғли қисмида муҳим аҳамиятга эга бўлган хомашё турларни излаб топиш, ўсимлик ва сув ресурсларини ўрганиш долзарб масалалар эди. СССР ФА олимлари ва маҳаллий олимлар иштирокида темир рудаси базаси сифатида Чотқол, Қурама тизмалари, Мўғултоғ, Суренота ва Сангзор-Зомин районларидаги конлар батафсил текширилди. Бу даврда Қозоғистон ва Ўзбекистоннинг ер ости бойликлари айниқса катта ва истиқболли эканлиги маълум бўлди. Ўзбекистоннинг темир рудаси, коксланувчи кўмир, флюс ва бинокорлик материалларга бойлиги аниқланди[8].

Ўзбекистон тоғларида ва тоғ олди минтақаларида ҳам кўмир захиралари мавжуд бўлиб, аҳолини, ишлаб чиқаришни энергияга бўлган эҳтиёжини маълум қисмини таъминлаб келган. 1940 йилда Оҳангарон водийсида Ўзбекистонда йирик кўмир кони ташкил топди ва кўмир саноатига асос солинди. Иккинчи жаҳон уруши даврида немис-фашист кўшинлари вақтинча Донбасс ва Москва атрофидаги кўмир конларини босиб олган пайтда Ангрен кўмир кони СССР ҳудудидаги мудофаа учун хизмат қилувчи заводларни ёқилғи билан таъминлашга катта ҳисса кўшди[9].

Уруш йиллари А.С. Уклонский ва В.И. Попов раҳбарлигидаги геология

кафедралари Ўзбекистоннинг ўз қора металлургиясини яратиш ташаббуси билан чиқиб темир рудаси ва магнетит конларини геохимиявий-минералогик жихатдан текширдилар. Бундан ташқари, металлургияда фойдаланиладиган кум, сланец, графит конлари ўрганилди.

Л.Н. Бабушкин — Ўзбекистоннинг, П.И. Колосков — Қозоғистоннинг об-ҳаво ва иқлим шароитини қишлоқ хўжалиги нуктаи назаридан баҳолаш билан шуғулландилар[10].

Тупроқлар географияси жихатидан Ўзбекистон ҳудудини табиий географик районлаштиришда унинг ҳудуди Турон провинциясининг бир қисми ҳисобланиб, табиий мажмуалари компонентларининг фарқи унинг текислик қисми билан тоғолди ва тоғларида яққол кўзга ташланади. Ўзбекистон тупроқларининг географик тарқалишини текислик провинциясида кенглик, тоғолди тоғ провинциясида баландлик минтақалари бўйича кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир[11]. Ўлка тупроқлари географиясини ўрганиш юзасидан ҳам муҳим тадқиқотлар олиб борилди (М.А. Глазовская, А.Н. Розанов, С.А. Кудрин, М.А. Орлов, У.У. Успанов, И.И. Синягин, Э.Н. Благовешченский, Н.В. Кимберг, Б.В. Горбунов, С.А. Шувалов, М.А. Панков ва б.) [12].

**Хулоса.** Ўрта Осиёда уруш йилларида амалга оширилган тадқиқотлар комплекс географик характери ва илмий ғоя ҳамда умумлашмаларга бойлиги жихатидан алоҳида ажралиб туради. Мазкур даврда илмий тадқиқот ишларининг амалий йўналиши янада аниқлашди ва бевосита мудофаа манфаатларига қаратилди. Ўрта Осиё табиатини ўрганиш ва табиий ресурсларини аниқлаш борасидаги тадқиқотлар жадал давом этди. Ушбу даврнинг эҳтиёжлари туфайли ўлканинг минерал ва ўсимлик бойликларини аниқлаш ҳамда баҳолашда муҳим ютуқлар қўлга киритилди. Шунингдек, бу паллада комплекс ва тармоқ географик экспедициялар уюштирилиб, соҳага доир

катта фактик маълумотлар тўпланди. Табиий географияда методологик аҳамияти муҳим деб ҳисобланган бир қатор тушунчаларга жумладан, табиий географик комплекс, ландшафт, табиий географик компонент, ландшафт ҳосил қилувчи омиллар ва жараёнларга оид тушунчаларга аниқликлар киритилди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Раҳимбеков Р.У, Донцова З.Н. Ўрта Осиё табиатини географик ўрганиш тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1982. -Б.178.
2. Корженевский Н. О старинных картах, хранящихся в Узбекистанском филиале Академии Наук СССР // Известия Узбекстанского филиала Академии наук СССР. 1941, №3. – С. 67.
3. Корженевский Н.Л. К истории развития картографии и географических представлений о территории Средней Азии и Узбекистана в XVIII-XIX вв. // Известия АН СССР. Вып. 1. – Т., 1949. – С. 46-53.
4. Раҳимбеков Р.У, Донцова З.Н. Ўрта Осиё табиатини географик ўрганиш тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1982. -Б.181.
5. Мурзаев Э.М. Схема физико-географического районирования Средней Азии. // Известия АН РУз, серия география, 1953, № 6. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекистана. Труды ТашГУ, вып. 231. Ташкент, 1964. 118 с.
6. Коровин Е.П, Гранитов И.И. и др. Каракалпакский Устьюрт в перспективе его хозяйственного освоения. Тр. САГУ, нов. сер. том I. Биология, 1945.
7. Ишлаб чиқарувчи кучларни ўрганиш совети. (География соҳасини ўрганувчи махсус институтлардан бири)
8. Раҳимбеков Р.У, Донцова З.Н. Ўрта Осиё табиатини географик ўрганиш тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1982. -Б.178.
9. Бўриева М.Р, Тожиева З.Н, Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. (ўқув қўлланма). –Тошкент, 2011. -Б.80.
10. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекистана. Труды ТашГУ, вып. 231. Ташкент, 1964. 118 с.
11. Ходжиматов А, Холмуродов Ш. Тупроқлар географияси. -Т.: «Фан ва технология», 2018, -Б.106-108.
12. Раҳимбеков Р.У, Донцова З.Н. Ўрта Осиё табиатини географик ўрганиш тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1982. -Б.181.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN IQTISODIY HAMKORLIGI TARIXIDAN (QOZOG‘ISTON MISOLIDA)

**Shukurov Sobir,**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasida o‘qituvchisi

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0005-1143-986X>

**Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida Mustaqillik yillaridan, ya’ni 1991- yildan bugungi kunga qadar tarixiy shaharlar, ma’daniy meros obyektlari, o‘zaro

baynalmilal tashkilotlar tashkil etilganligi va urf- odat, an’anaviy qadriyatlarimizning o‘zaro yaqin qardosh xalqlar sifatida shakllanganligi haqida.

**Kalit so‘zlar:** madaniy meros, urf- odat,

an'ana, baynalminal, qadriyat, madaniy hamkorlik.

**Аннотация:** между Республикой Узбекистан и Республикой Казахстан с лет независимости, т.е. с 1991 года по сегодняшний день, происходит установление исторических городов, объектов культурного наследия, взаимных международных организаций и традиций, традиционных о формировании наших ценностей как близкие братские народы.

**Ключевые слова:** культурное наследие, традиция, традиция, интернационал, ценность, культурное сотрудничество.

**Annotation:** About the establishment of historical cities, objects of mining heritage, mutual international organizations and the formation of Customs, traditional values as closely related fraternal peoples from the years of Independence between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Kazakhstan, that is, from 1991 to today.

**Keywords:** mining heritage, tradition, international, value, mining cooperation.

O'zbekiston Respublikasining Qozog'iston Respublikasi bilan ikki tomonlama aloqalari 1992 - yil 14 - iyun kuni Birinchi Prezidentimiz Islom A. Karimovning Qozog'istonga rasmiy davlat tashrifi chog'ida Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarbayev bilan Turkiston shahrida uchrashib, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Bu ikki qardosh davlatlar madaniy tarixida muhim voqea bo'ldi. Shu kundan boshlab hozirgi kungacha ko'plab o'zaro madaniy hamkorlik asosida konferensiyalar, uchrashuvlar va davra suhbatlari tashkil etildi. Bunday kelishuvlar madaniy hamkorlikning huquqiy asoslarida o'z yechimini topgan.

O'zbekiston va Qozog'iston madaniy hamkorligining huquqiy asoslarida quyidagi hujjatlar asos bo'lib xizmat qiladi: O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasida madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, ta'lim, sport va turizm sohasida hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi Bitim (1994 - yil 10 - yanvar), "O'zbekiston

Respublikasi hukumati va Qozog'iston Respublikasi hukumatlari o'rtasida madaniy sohada hamkorlik to'g'risida" gi Bitim (1996 - yil 16-yanvar), O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi bilan Qozog'iston Respublikasi Madaniy va axborot vazirligi o'rtasida madaniyat sohasida 2013 - 2015 - yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi qabul qilindi [1].

Bugungi kunda ham O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasida imzolangan huquqiy hujjatlar ikki tomonlama madaniy hamkorlikning rivojlanishiga salmoqli xissa qo'shmoqda. Shuningdek, bu hujjatlar ikki davlat o'rtasidagi ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy - gumanitar sohalardagi kelishuvlarni qonun yuzasidan mustahkamlab, huquqiy asosini ta'minlab kelmoqda.

1991 - yildan to 2020 - yilgacha 30 ga yaqin o'zaro oliy darajadagi tashriflar amalga oshirilganligining o'zi ikki davlat munosabatlarining ko'lamini va darajasini ko'rsatib beradi. 2020 - yilgacha davlatlar o'rtasida ikki tomonlama xarakterdagi 220 ta hujjat rasmiylashtirilgan, ularning 90 tasi davlatlararo va hukumatlararo mazmundagi xalqaro shartnomalar, 57 tasi idoralararo mazmundagi xalqaro shartnomalar va 73 tasi boshqa mazmundagi bitimlar tashkil etadi [2].

O'zbekistonning Qozog'iston bilan o'zaro kelishuv hamkorligi tarixining huquqiy asoslarini mazmunan va sohaviy tegishligi asosida bir qancha guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

- 1) Siyosiy mazmundagi bitimlar.
- 2) Iqtisodiy mazmundagi bitimlar.
- 3) Transport - kommunikatsiyasi va davlat chegaralari bilan bog'liq bitimlar.
- 4) Madaniy - gumanitar sohalarga oid bitimlar.
- 5) Jinoyatchilikka qarshi kurash, ekologiya va boshqa sohalardagi bitimlar [3].

Biz esa keltirilgan guruhlardan madaniy - gumanitar sohalarga oid malumotlarni ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Qozog'iston Respublikasi-ning siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy, savdo - sotiq, madaniy - gumanitar va strategik hamkori hisoblanadi. Bu ikki qardosh davlatlar Markaziy Osiyo



subregionida yetakchilik qilib, mintaqaning rivojlanishiga katta xissa qo'shmoqda. Madaniy sohalarning teatr, musiqa, adabiyot, tasviriy san'at va boshqa yo'nalishlarini rivojlantirish uchun ko'plab konferensiyalar va anjumanlar tashkil etilmoqda.

Madaniy jihatdan o'zaro yaqin bo'lgan, kerak bo'lsa ba'zi ko'rinishlari takrorlanadigan bu ikki qardosh o'zbek va qozoq xalqlari, tarixdan ma'lumki kelib chiqishi ya'ni etnogenezi bir - birlariga bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun ham ularning madaniyati, urf - odatlari va qadriyatlari uyg'unlashib ketgan. Ayniqsa, adabiyot yo'nalishida bunga guvoh bo'lishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida adabiyot yo'nalishi bunday madaniy - ma'rifiy tadbirlarining yalovbardori bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz.

O'zbek - qozoq adabiyotlaridagi o'zaro hamkorlik jarayonini atqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov shunday ta'riflagan: "XX asr boshlarida o'zbek adibi Abdulla Qodiriy yaratgan roman-lar qozoq yozuvchilari uchun ham adabiy maktab bo'lgani haqida Muxtor Avezov ko'p yozgan... Qozoq adabiyotidagi epiklik, xalq og'zaki ijodiyotiga moyillik kabi xislatlar, asosan mumtoz adabiyot an'analari ruhida shakllangan o'zbek adabiyotini yanada yorqin ranglar bilan boyitishga munosib xissa qo'shdi. Ikki xalq adabiyoti vakillarini bamisoli egizakka o'xshatish mumkin, zero Muxtor Avezov va Oybek, G'afur G'ulom va Sobit Muqonov, Abdulla Tojiboyev va Mirtemir, Abdulla Oripov va O'ljas Sulaymonovlar adabiyot maydonida bir - biriga hamnafas bo'lib qalam surdilar..." [4].

Hammamizga malumki, adabiyot xalqlarning milliy qadriyatida muhim o'rin egallab xalqlarning madaniyatida tarkibiy qism hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida yaratilayotgan yangi avlod uchun adabiyot-lar qudratli qurol vazifasini o'tab, xalqlar o'rtasida do'stlik rishta-larini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, o'zbek va qozoq xalqlari adabiy aloqalari ham mustahkamlanib kelmoqda [5].

O'zbek va qozoq xalqlari adabiyotida

o'ziga xos bo'lgan xislatlardan yana biri - har ikki qardosh xalqlardan yetishib chiqqan buyuk adabiyotshunos shoir va yozuvchilarining ijodlarini yaxshi o'rganib, o'zlarining adabiyotga bo'lgan bilim va tajribalarini ortirib bordi. Bu esa ikki qardosh xalqlar adabiyoti-ning bir - birlariga yanada uzviy bog'lanishi uchun bevosita turtki bo'ldi. Shuningdek, ko'plab tarjimalar esa rivojlanishi uchun zamin yaratdi. Xususan, bunga misol qilib buyuk qozoq klassik adabiyotining yorqin vakili, yangi qozoq adabiyotining asoschisi Abay Qo'nanboy o'g'lini keltirishimiz mumkin. Uning 700 dan ko'proq she'rlari va 10 ga yaqin kichik hajmdagi dostonlari yetib kelgan. Jumladan, Q. Seydanov kabi tarjimonlar ham Abay ijodidan tarjima qilgan [4:3].

Buyuk qozoq shoiri Abay asarlarida bayon qilingan ozodlik, Mustaqillik va xalqlar o'rtasidagi do'stlik g'oyalari qozoqlarga ham, o'zbeklarga ham tushunarli va yaqin. Xamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatri jamoasi 1995 - yil Almati-da o'z dasturini Muxtor Avezov nomidagi teatr saxnasida "Abay" spektaklini ko'rsatish bilan boshlagani ramziy ma'noga ega [4:15].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasidagi madaniy - ma'nafiy sohalar faqat adabiyot bilan cheklanib qolmay, teatr, musiqa va boshqa san'at sohalari-ni ham qamrab oldi. Bu ishlarni amalga oshishi uchun turli festivallar, eng asosiysi "Madaniyat kunlari" ko'rinishidagi madaniy - ma'rifiy tadbirlar asosiy vazifalarni bajarib berdi.

Ikki mamlakatning madaniy aloqalarini rivojlantirishda teatr san'atining o'rni ham beqiyos. O'zbekiston va Qozog'istonning mashhur teatr jamoalari doimiy ravishda turli festivallarda ishtirok etib kelmoqdalar. Masalan, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlab 1997 - yili fevral oyida o'tkazilgan "Navro'z" teatr san'ati festivalida Qozog'iston Respublikasining Chimkent viloyati Shanin nomidagi drama teatri ishtirok etadi [4:3].

Teatr haqida so'z borganda "O'zbek jadidchilik harakatining otasi" - Mahmudxo'ja Behbudiyning: " Teatr - bu ibratxonadir" -

degan mashhur soʻzlarini eslamalikning iloji yoʻqdir. Chunki, teatr xalqning ma'naviy jihatdan yuksalishiga va jamiyatda boʻlayotgan voqealarni tushunib, hattoki uni taxlil qilishga juda katta foydasi bordir. Shuning uchun ham bu sohani rivojlantirishda mintaqaviy davlatlar oʻrtasida madaniy - ma'rifiy tadbirlar oʻtkazilmoqda.

Oʻz navbatida Oʻzbek milliy akademik drama teatri Qozogʻiston Respublikasining Olmaota (hozirda Nur - Sulton) shahri-da 2000 - yil avgust oyida oʻtkazilgan Xalqaro "Madaniyat festivali"da muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Ushbu tashrif chogʻida Oʻzbek Milliy akademik drama teatri va Muxtor Avezov nomidagi Qozogʻiston akademik drama teatri oʻrtasida ijodiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan rejalar belgilab olindi. Shunga binoan, keyingi yillarda ikki mamlakatning teatr ijodkorlari oʻrtasida qator ijodiy uchrashuvlar oʻtkazildi [5].

Qozoqlar qadimdan oʻzbeklar bilan yonmayon yashab keladilar: bu holatni ikki xalqning tarixiy yaqinligi va turmush tarzlari turlichaligi bilan izohlash mumkin. Koʻchmanchi hayotga moslashgan qozoqlar, asosan, chorvachilik bilan shugʻullanib, yaylovlarda hayot kechirgan boʻlsa, oʻzbeklar esa qadimdan oʻtroq dehqonchilik bilan shugʻullanib, madaniy va savdo - sotiq markazlari boʻlgan shaharlarda yashaganlar. Ikkala xalq ham "uyingni toshlar bilan emas, doʻstlaring bilan himoya qil" degan maqolga amal qilgan holda hamjihatlik va totuvlikda yashaganlar.

Hozirgi kunda Oʻzbekistonda 800 mingdan ortiq qozoq, Qozogʻistonda esa 550 mingdan ortiq oʻzbeklar istiqomat qilmoqda. Qozoq etnosi Qozogʻistondan tashqarida MDH mamlakatlari orasida Oʻzbekistonda eng koʻp yashaydi. Bu esa ikki qardosh xalqlarning bir - birlariga qanchalik bogʻliqligini yana bir bora isbotlaydi. 1992 - yilning martida qozoqlarning birinchi qurultoyi oʻtkazilib, Oʻzbekiston qozoq milliy madaniy markazi tashkil etildi. Bugungi kunga kelib ushbu markaz tarkibida Qozogʻiston Qozoq milliy madaniy markazi, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Xorazm, Sirdaryo va

Toshkent viloyatlaridagi uning boʻlinmalari, shuningdek, Toshkent shahar boʻlinmasi ish yuritadi[6].

Markaz faoliyati qozoq millatiga mansub fuqarolarning madaniy ehtiyojlarini qondirish, qozoq tilini oʻrganishga koʻmaklashish, qozoq xalqining anʼanalari va urf - odatlarini asrash, yoshlarning qozoq tilida taʼlim olishlarini taʼminlash maqsadida oliy va oʻrtamaksus taʼlim muassasalari bilan hamkorlik qilish, yosh iqtidorlarni qoʻllab - quvvatlash kabi turli yoʻnalishlarda olib borilmoqda.

Milliy madaniy markazlar qoshida folklor, milliy va estrada ansambllari, vokalraqs va cholgʻu asboblari jamoalari faoliyat yuritadilar. Markaz faollarining tashabusi bilan Navoiy viloyatining Konimex tumanida tarixiy etnografik muzey, Toshkent viloyatining Boʻstonliq tumanida "shaxsham" etnografiya muzeyi ochilgan boʻlib, ularda qadimgi mehnat qurollari, uy - roʻzgʻor buyumlari, milliy liboslar va bezaklar namoyish qilingan. Madaniy - ma'rifiy tadbirlar doirasida har yili "Aytis" oqinlar musobaqasi, " Altibaqan", "Tusaukesa" va boshqa milliy bayramlar oʻtkaziladi. Markaz rahnamoligi va ishtirokida qozoq milliy madaniyati, adabiyoti va san'atining Toli bi, Ayteke bi, Qazibek bi, Abay, Jambul, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, Gabit Musrepov, Muqogʻali Makatayev kabi taniqli namoyanda-larining yubileyleri nishonlanadi [6].

2019 - yil Oʻzbekistonda "Qozogʻiston yili" munosabati bilan koʻplab konferensiyalar, uchrashuvlar, tadbirlar, bayramlar tashkil etildi. Bu esa ikki davlat madaniy - ma'rifiy qadriyatlarining yanada mustahkamlanishiga asos boʻldi. Xususan, 2019 - yil 20 - dekabr kuni Oʻzbekistonda "Qozogʻiston yili" munosabati bilan Toshkentdagi "Turkiston" san'at saroyida Qozogʻiston xalq artisti Maqpal Junusovning katta konserti boʻlib oʻtdi. Unda Qozoq xalq oqanlari qoʻliga doʻmbira olib, qoʻshiqqa ogʻiz ochganda dalalar oxanrabo ovozga toʻlib, ajib bir manzara kasb etdi. Qozoq oqini Jambul Jabaev yoki opera xonandasi Roza Baglanova kuylaganda goʻyo butun mavjudot sukut saqlab tinglayotgandek edi [7].

**Xulosa** o'rnida shuni ta'kidlash lozim, o'zbek va qozoq xalqlari qadimdan bir - birlariga uzviy bog'liq xolda shakllandi. Chunki, ular turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar hisoblangan. Bu ikki qardosh xalqlar mustamlakachilik davrida ne - ne mashaqatlarni, qeyinchiliklarni, og'ir kunlarni boshdan kechirdi. SHunday xatarli damlarda ular bir - birlariga yelkadosh bo'lib, bu sinovlardan omon - eson o'tib olishdi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, Birinchi Prezidentimiz Islom A. Karimov va Qozog'iston Respublikasi Birinchi Prezidenti Nursulton Nazarbaev boshlab bergan o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy - ma'rifiy, gumanitar va strategik aloqalarning yangi davri boshlandi. Bu esa o'zbek va qozoq xalqlarining yanada ahilligi, inoqligi va mehr oqibatining ortishiga olib keldi. Qozog'istonning Birinchi Prezidenti Nursulton Nazarbaev shunday degan: "Qozoqni o'zbekdan, o'zbekni qozoqdan ajratib bo'lmaydi". Shuningdek, "Qozog'iston

o'zbeklarning ham tarixiy Vatanidir". Bu so'zlar ikki qardosh xalqning bir - birlariga bo'lgan mehr - oqibatni yanada ortishiga zamin yaratadi. O'zbeklarda ham shunday bir naql bor : "Do'sting qozoq bo'lsa, yo'lda adashmaysan". Bu o'z -o'zidan o'zbek va qozoqlarning qadimdan bir - birlariga bo'lgan ishonchini ko'rsatadi. 2017 - yilda ikki davlat madaniy tarixida muhim yil bo'ldi. Madaniyat, teatr, musiqa va boshqa ko'plab san'at sohlarida yangi davr boshlandi. Prezidentimiz Shavkat M. Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan sayi - harakatlar O'zbekistonda yashab kelayotgan nafaqat qozoq xalqi, balki 130 dan ortiq millat va elatlarni bir - birlariga bo'lgan munosabatlarini izchillik bilan o'rganib, urf - odatlari, qadriyatlarini, tili, dini va boshqa xususiyatlarini hisobga olib, ma'naviy, madaniy - ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bu esa butunjahon e'tiborini Markaziy Osiyoga qaratib va ko'plab e'tiroflarga sazovor bo'lmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oltiboyev A O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarining iqtisodiy va madaniy - gumanitar sohalardagi hamkorligi (1991 - 2020 - yillar misolida). 94 - bet. Toshkent - 2022.
2. Договорно - правовая база / [http:// www. -uze posol'stvo. kz/ru/page/dogovorno - pravovaya - baza - 9581](http://www.uzeposolstvo.kz/ru/page/dogovorno-pravovaya-baza-9581).
3. Oltiboyev A O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarining iqtisodiy va madaniy - gumanitar sohalardagi hamkorligi (1991 - 2020 - yillar misolida). 20 - bet. Toshkent - 2022.
4. O'zbek - qozoq adabiy aloqalari. – T.: Mashhur - press. 2018 - B.3-15
5. "Xalq so'zi" 1995 - yil 23 - may.
6. O'z .MA, 7 - F - M, 1 - ro'yxat 724 - ish, 92 - varaq.
7. [https://interkomitet.uz/mita - a - ida/ milliy - madaniy - markazlar/](https://interkomitet.uz/mita-a-ida/milliy-madaniy-markazlar/).
8. [https://uza.uz/oz/politics/zbekistonda-ozo-iston-yili-ardoshlik-rishtalari-mustakamlan - 12 - 2019](https://uza.uz/oz/politics/zbekistonda-ozo-iston-yili-ardoshlik-rishtalari-mustakamlan-12-2019).

## КОММУНИСТИК МАФКУРАНИНГ АТЕИСТИК ТАРФИБОТ ТИЗИМИНИНГ ХАРАКТЕРИ ВА УНИНГ МИЛЛИЙ ЎЛКАЛАРДАГИ ХУСУСИЯТИ

Жумаев Бекзод,

Термиз давлат университети эркин тадқиқотчиси

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0065-4278-616X>

**Аннотация:** Ушбу мақолада коммунистик мафкуранинг ва совет ҳукуматининг динга қарши олиб борган кураши ва унинг оқибатлари ҳамда бу борада юритган сиёсати юзасидан бирламчи манбалар асосида маълумотлар

берилган.

**Таянч сўзлар:** атеизм, тарғибот, мафкура, коммунистик, тузум, ислом, дин, клуб, маданият.

**Аннотация:** В данной статье на основе первоисточников представлены сведения о борьбе коммунистической идеологии и советской власти с религией и ее последствиями, а также ее политике в этом отношении.

**Ключевые слова:** атеизм, пропаганда, идеология, коммунист, режим, ислам, религия, клуб, культура.

**Abstract:** This article provides information based on primary sources on the struggle of the communist ideology and the Soviet government against religion and its consequences, as well as its policy in this regard.

**Key words:** atheism, propaganda, ideology, communist, regime, Islam, religion, club, culture.

Совет ҳокимияти Ўзбекистондаги диний муассасалар ва ташкилотлар фаолиятини қоралаб, уларга қарши ҳужум бошлади. Жумладан, Ўзбекистонда чоп этилган “Коммунист”, “Муштум”, “Янги қишлоқ”, “Маориф ва ўқитувчи” каби бир қатор журналларда динга қарши тарғиботни кучайтиришга қаратилган мақолалар чоп этилди. Қурбон ва Рўза ҳайити байрамларини таъқиқлаш, ана шу кунларда тарғибот ва ташвиқотни кучайтириш, “Қизил чойхона”, “Қизил бурчак”, ишчи-деҳқон клубларида худосизликни тарғиб қилувчи марказлар тузиш кампаниялари уюштирилиб, улар моддий жиҳатдан қўллаб-қувватланди [1].

Маданий соҳаларни мафкура измига солиш дин масалаларини ҳам четда қолдирмади. Марксизмга асосланган совет мафкурачилари исломнинг юксак илмий-маданий қимматини инкор этиш учун унга нисбатан “социалистик турмуш тарзига мос келмайдиган” [2] эски, қолоқ, реакцион қарашлар деган устқурмани танлаб олдилар. Марказнинг бу устқурмаси Ўрта Осиё тарихи билан шуғулланган машҳур шарқшунос олим

В.В.Бартольднинг исломни жаҳон тарихининг бир кўриниши бўлган мусулмон маданияти сифатидаги таърифи эътиборга олинмади.

Ўша пайтларда илғор руҳонийларнинг берган маслаҳатлари, уларнинг тинчлик-тотувлик билан таълим ислохотларини амалга ошириш тўғрисидаги таклифлари рад этилди. Чунки расмий ҳукумат улардан хавфсираб, бу, янги шароитга мослашиб олиш учун уринаётган руҳонийларнинг айёр сиёсатидир, деб баҳолади [3].

Партия ва давлат арбоблари орасида ислом дини Ўрта Осиёдаги маҳаллий миллатларнинг мустамлакачилик зулмига ва руслаштиришга қарши раҳнамоси деган фикр мавжуд эди.

Шунинг учун ҳам динга ва руҳонийларга қарши 30-йилларда очикдан-очик кураш олиб борилди. Бунинг учун махсус “Курашчан худосизлар” ташкилоти тузилиб, унинг бўлимлари барча корхона ва муассасаларда ташкил этилди.

“Курашчан худосизлар” иттифоқи умумий шубҳаланиш вазиятини кучайтиришда катта роль ўйнади. Унинг фаолиятида ёш қизларни турмушга бериш, қалин олиш, аёлларни хўрлаш ҳолларига қаршилиқ кўрсатиш каби ишларда ижобий натижаларга эришилган бўлсада, бироқ руҳонийлар ва динга эътиқод қилувчиларга нисбатан шафқатсиз кураш олиб боришда салбий роль ўйнади. Бу ташкилот берган маълумотлар асосида республика ҳукумати томонидан 1931 йилнинг ўзида Фарғона, Бекобод ва Тошкентда бир қатор черковлар, масжидлар ва диний мактаблар ёпиб қўйилди.

Тошкентнинг Октябрь тумани аҳолиси комсомол клубларига айлантирилган масжидларни халққа қайтаришни талаб қилиб чиқди. Лекин бу чиқишлар тузумга қарши уюштирилган тарғибот деб баҳоланган.

“Курашчан худосизлар” иттифоқи ҳисоботида кўра, 1931 йилда беш йиллик режа бажарилган бўлиб, унинг сафига Ўзбекистонда 90000 киши аъзо бўлган,

улардан 60000 нафари ёшлар эди [4]. Лекин шунга қарамасдан, Ўзбекистон халқлари диний эътиқоддан, диний қадриятлардан мутлақо воз кечмади. Большевикларнинг динга қарши зўравонлиги ва таъқиблари остида бўлсада, бу эътиқодни имкон даражасида сақлаб қолишга ҳаракат қилди.

Бироқ большевистик сиёсий доиралар ўзгача динни, ўзгача эътиқодни халқ онгига сингдиришга ҳаракат қилди. Бу дин партиянинг дини, яъни марксизм ғояси эди. Бу ғояни оммалаштириш учун барча имкониятлар ва воситалар ишга солинди. Жамиятга асосий мафкура сифатида марксизмнинг киритилиши натижасида бошқа дунёқарашлар батамом инкор этилди.

“Курашчан худосизлар” уюшмасининг биргина Ўзбекистонда 3300 та маҳаллий ташкилотлари мавжуд бўлиб, уларда 112 минг фаоллар иш олиб борган. Иттифок бўйича 1940 йилда “Курашчан худосизлар” уюшмасининг 3 млн. аъзоси бўлиб, уларнинг 60 фоизини ишчи ва деҳқонлар, 25 фоизини аёллар ташкил қилди[5].

Республиканинг кўпгина туманларида динга қарши маъруза, мулоқот, савол-жавоб кечалари, даҳрийликни тарғиб қилувчи “Энг яхши шеър”, “Динга қарши очерк”, “Динга қарши карикатура” каби танловлар уюштирилиб, радио эшиттиришлар, театр томошалари сингари турли туман шаклдаги иш усул ва воситаларидан кенг фойдаланилди.

Ушбу йилларда диний муассасалардан тортиб олинган масжид ва мадрасаларнинг бинолари колхоз омбори, отхона, виноарок, пиво ишлаб чиқарувчи корхона кабиларга айлантирилди, муқаддас қадамжоларга зиёрат қилиш таъқиқланиб, улар қаровсиз қолдирилди. Минглаб уламоларни тарбиялаб, уларни вояга етказган Тошкентдаги Барокхон мадрасаси Ўзбекистон ССР Атеистлар музейи ихтиёрига берилиб, музейни шакллантириш ва бинони таъмирлаш учун давлат бюджетидан 17 минг сўм маблағ ажратилди.

Бу даврда динга қарши қаратилган адабиётлар нашр этишга алоҳида эътибор қаратилиб, 1939-1940 йиллар давомида 30 хил номдаги 470 минг нусхада адабиётлар чоп этирилди[6].

1940 йилда биргина Фарғона вилоятида 79.166 сўмлик динга қарши кураш мазмунидаги адабиётлар, қўлланмалар харид қилинган. Ушбу адабиётлардаги фикрлардан халқ орасида тарғиб қилиш учун 272 та агитатор, 210 нафар лектор фаолият юритган.

Диний ишлар вакили, вилоят вакиллари рухсатсиз очилган масжидларга қарши доимо кураш олиб борган, уларни ёпишга, йўқ қилишга ҳаракат қилган. Улар норасмий масжидларни ноқонуний очилган деб, имомига солиқ солиб, имомликдан воз кечишга мажбур қиларди. Ноқонуний имомларга маъмурий, жиноий жазо кўриш мумкин эмас эди. Маълум вақт ўтиб тақводорлар ўз орасидан имом тайинлаб, яна махфий равишда масжидни очиб оларди. Масжидда намоз ўқиш мусулмонларнинг қалбида бўлганлиги учун яширин масжидлар очилаверган. Диндорларнинг бу ҳаракатига қарши кураш норасмий масжидларни ёпиш масаласи Диний ишлар бўйича кенгашнинг Ўзбекистондаги вакиллари учун энг мураккаб ишларидан бири бўлган.

Совет органлари диний маросимларни – никоҳ, жаноза, маърака ва бошқаларни диний арбоблар бажариши каби урф-одатларни тазйиқ ўтказиб ҳам йўқ қилиш имкониятини топа олмай, масжидлари йўқ йирик қишлоқ ва районларга рўйхатдан ўтказилган диний арбобларни тайинлашга мажбур бўлган. Расмий масжидлар йўқ аҳоли яшайдиган жойларда қўшимча 104 нафар мусулмон диний арбоблари рўйхатга олинган ва бунинг натижасида республика бўйича мингга яқин норасмий диний арбобларнинг фаолияти тўхтатилган.

СССР ХКС ҳузуридаги Диний ишлар бўйича кенгаши 1945 йил 29 январда Ўзбекистон ХКС ҳузуридаги ишлар бўйича кенгаши вакилликка йўлланган хатида ЎзССР ХКС 7 та мазорни Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний



бошқармаси фармойиши[7] билан қолдирилганлиги хабар қилинади. 1950-йилларнинг иккинчи ярмида ва 60-йилларда дин ва динга муносабат билан боғлиқ бир қатор қарорлар қабул қилинди. КПСС Марказий Комитети 1960 йил 13 январда “Диний маросимлар ҳақидаги совет қонунларининг диндорлар томонидан бузилишини тугатиш тартиблари тўғрисида” қарор қабул қилган. Бу қарорни амалга оширишга қаратилган қарорида[8] диндорларга хизмат қиладиган аппаратни ортиқча кўпайтириб юборган, ибодатхоналарни кенгайтирган ва асоссиз таъмирлаган, деб танқид қилинади.

Муқаддас жойларга, уларни зиёрат қилишга қарши кураш КПСС МКнинг 1958 йил 28 ноябрдаги “Муқаддас жойларни зиёрат қилишни тугатиш бўйича чоралар тўғрисида”ги қароридан кейин айниқса кучайди. Бу қарорга асосан, барча муқаддас жойлар ёпилиши керак эди. Ўзбекистон диний ишлар бўйича кенгаш вакилининг маълумотига кўра, республикада 1959 йил 30 майгача ҳисобга олинган. “Муқаддас жойлар” 176 та эди. Шулардан 138 та муқаддас жой ёпилган эди. Ўзбекистон диний ишлар бўйича вакилининг 1962 йил 4 февралдаги маълумотига мувофиқ, 1960 йил 1 январда республикада фаолият кўрсатган муқаддас жойлар 295 та бўлган. 1960-1961 йилларда кўрилган чоралар туфайли 245 та муқаддас жойлар ёпилган. 1962 йил 1 январда республикада фақат 49 та муқаддас жойлар фаолият кўрсатган.

1970 йили Ғарб мамлакатлари жаҳонга советларнинг динсиз эканини, диндорларнинг барча диний эътиқодлари чегараланганлигини айтаётганини инобатга олиб, совет ҳукумати “виждон эркинлиги таъминланганини” кўрсатиш мақсадида тезлик билан Уфа, Боку, Бўйнакск ва, хусусан, Тошкентдаги диний идораларнинг фаолиятини кенгайтиришга ва улар воситасида Тошкент шаҳрида ҳам Ислом олий маҳадини[9] очишга, 1969 йили диния назорати қошида халқаро алоқалар бўлими ва тўрт тилда журнал[10] чоп этишга, Қуръони каримни ва “Ал-

Жомеъ ас-саҳиҳ” ва “Ал-Адаб ал-муфрад” [11] асарларини араб тилида нашр қилишга, Иттифоқ бўйича йигирма беш нафар мусулмонларни ҳажга юборишга ва халқаро анжуманлар ўтказишга рухсат этилди.

Шунингдек, Ўзбекистондаги рўйхатга олинган масжидлар сони 1978 йилда 70 та, 1979 йилда 71 та, 1980 йилда 74 та, 1981 йилда 78 та, 1982 йилда 80 та, 1983 йилда 80 та, 1984 йилда 82 тага кўпайтирилган. Шу давр ичида рўйхатга олинмаган ва фаолият кўрсатаётган масжидлар сони 90 тадан 46 тага камайган. 1978-1984 йиллар мобайнида рўйхатга олинган диний маросимларни бажаришга рухсат берилган диний арбоблар миқдори 221 нафардан 299 нафарга кўпайган. Рўйхатга олинмаган норасмий фаолият кўрсатаётган диний арбоблар сони ўша даврда 1300 нафардан 518 нафарга камайган. 1978-1984 йилларда расмий масжидлар миқдори 12 тага кўпайган бўлса, норасмий масжидлар сони 44 тага камайган. Расмий диний арбоблар сони 78 нафарга ортган бўлса, норасмий диний арбоблар 782 нафарга камайган.

Хулоса тарқисиди шуни қайд этиш керакки, Совет давлатининг ислом дини ва Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлар идораси таркибига кирувчи муассасалар иш фаолиятига муносабати сиёсий вазият тақозоси билан доимий тарзда ўзгариб турган. 1944 йилдан совет давлатининг дин соҳасидаги сиёсати мусулмонларга берилган “виждон эркинлиги” нинг кўриниши сифатида намоён бўлди. [12] Аслида эса уларга нисбатан танқидий муносабатда бўлинган. Жумладан, Совет тузумининг тазйиқ ва кескинликлари Диний бошқараманинг ички ва ташқи фаолиятига таъсири, диний бошқарма таркибидаги муассасаларнинг мустақил иш олиб боришларига тўсқинлик қилган. Совет ҳукумати уруш йилларида расман диний идора таркибига кирувчи муассасалар очишга рухсат берган, лекин амалда уларнинг фаолиятини имкон қадар чеклаган. Муассасалар диндорларнинг аризасига асосан республика ҳукуматининг қарори, совет ташкилотлари

ва Диний назорат хулосалари асосида диний ишлар бўйича кенгаш тавсияси билан СССР Министрлар Совети қарори билан очилган. Архив манбаларига кўра, 1960 йиллардан кейин совет ҳукуматининг чекловлари диний муассасанинг молиявий иқтисодиётига катта зарар келтирган. Шунинг учун кўпгина исломий муассасалар

мустақиллик йилларигача қаровсиз қолиб кетган. Айтиш мумкинки, совет давлати диний муассасаларга нисбатан турлича сиёсат олиб борган бўлсада, Диний бошқарма томонидан олиб борилган тадбирлар ўз замонасига хос ислом маданиятининг сақланиб қолишига улкан сабаб бўлган.

### Фойдаланилган манбалар ва адабиётлар рўйхати:

1. Атеистик суҳбатлар.Мақолалар тўплами.-Т., 1990.-Б.14.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб...-Б.393
3. Икрамов А. О духовенстве и школе. Избранные труды в 3-х томах.Т.1.-Ташкент: Узбекистан, 1972. - С.280
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб...-Б.394
5. Икрамов А. О духовенстве и школе. Избранные труды в 3-х томах.Т.1.-Ташкент: Узбекистан, 1972.-С.280
6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб...-Б.394
7. Юлдуз Бобоқуллова Турсунова, Ўтмишга назар 3 жилд, 10 сон. Т.,2020.
8. Ғафуров У. Тошкент ислом институти: Бароқхондан Имом Бухорийгача // Тошкент Ислам университети илмий-таҳлилий ахборотномаси. 2002, 1- сон. – Б. 8-13.
9. Салмонов А. “Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати” – Тошкент: Тафаккур, 2015.
10. “Ҳидоят” ойлик диний- ижтимоий, илмий- адабий нашр 2003 й. 9 сон.
11. Пўлатов Ф.Этиқодлар кураши. – Т., 1964.
12. Саидбаев Т. Ислам и общества. –М., Наука, 1978. -С. 166.

## ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИНING ИЖТИМОЙ ТУРМУШ ДАРАЖАСИ

Олламурад Нурали,

Денов тадбиркорлик ва педагогика институти ўқитувчиси

UDK: 94(575.1)

<https://orcid.org/0009-0045-5511-8177>

**Аннотация:** Мақолада иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда Сурхондарё вилоятидаги қишлоқларда аҳолининг ижтимоий таъминоти, маиший турмуш тарзи юзасидан таҳлилий маълумотлар берилган.

**Таянч сўзлар:** қишлоқ, турмуш, аҳоли, таъминот, иш ҳақи, пахта яккаҳокимлиги, сарф ҳаражат, даромад, боқимандалик, пул, товар, тақчиллик.

**Аннотация:** В статье представлены аналитические сведения о социальном обеспечении и бытовом образе жизни населения сел Сурхандарьинской области в годы после Второй мировой войны.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, жизнь, население, предложение, заработная плата, хлопковая монополия, расходы, доходы, благосостояние, деньги, товар, дефицит.

**Abstract:** The article provides analytical information on the social support and household lifestyle of the population in the villages of the Surkhondarya region in the years after the Second World War.

**Key words:** agriculture, life, population, supply, wages, cotton monopoly, expenditure, income, welfare, money, commodity, deficit.

Уруш йилларида ва урушдан кейинги

халқ хўжалигини тиклаш йилларида ижтимоий соҳанинг ривожланишига қилинадиган сарф-ҳаражатлар сезиларли даражада чекланган эди. Чунки уруш ва тиклаш даврининг қийинчиликлари ижтимоий соҳани изга солиш йўлида қилинадиган вазифаларни орқага суриб қўйган эди. Ижтимоий дастурларга ишлаб чиқариш учун қилинган сарф-ҳаражатлардан қолган маблағлар ажратиларди. Бу даврда бутун мамлакатда бўлгани сингари Ўзбекистон қишлоқ аҳолисининг аҳоли ҳам ниҳоятда оғир эди. Уруш йилларида агрохўжаликлар моддий техник базасининг заифлашуви, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштиришнинг кескин камайиб кетганлиги қишлоқ аҳолиси иқтисодиётини мушкуллаштириб юборди, ўзбек деҳқонларининг ҳаддан ташқари қашшоқлашувига олиб келди. Бу даврда ижтимоий ишлаб чиқаришда қатнашиш орқали кун кўриш аҳолиси даромадининг асосий манбаи эди. Лекин колхозчиларга ёзилаётган меҳнат кунлари орқали бериладиган натура ҳолатидаги иш ҳақлари аҳолининг минимал даражадаги талаб ва эҳтиёжларини ҳам қондира олмасди. Чунки 1945 йилда республика колхозларидаги барча ишлар учун атиги 363,7 млн меҳнат куни ёзилган эди[1]. Бир колхозчига ёзилган ўртача меҳнат куни шундан аввалги йилдагига нисбатан 311 дан 293 га тушиб қолган эди. Бу даврда колхозчиларнинг меҳнатига ҳақ тўлаш асосан маҳсулот билан амалга оширилди. Бу эса қишлоқ аҳолининг бозор билан алоқаларини анча чеклаб қўярди. Қолаверса меҳнат куни учун тўланадиган маҳсулотларнинг миқдори ҳам ниҳоятда паст эди. Ваҳоланки, Ўзбекистон қишлоқ аҳолисининг таркиби анъанага кўра анча катта эди. 1945 йил 1 январ ҳолатидаги ҳисоб китобларга биноан ўзбек қишлоқларининг оила таркиби жамоа хўжаликлари бўйича 4,6 кишини, давлат хўжаликлари бўйича эса 3,9 кишини ташкил қиларди[2].

Меҳнатга ҳақ тўлашнинг етарли бўлмаганига қарамадан жамоа хўжалиги аъзолари далаларда зўрлик билан

ишлатиларди. Меҳнат куни минимумини бажарилмаганлиги учун қаттиқ маъмурий чоралар қўллаш тартиби ҳамон давом этиб келмоқда эди. Ҳамма даражадаги раҳбарлар жазо чорасини меҳнат интизомини мустаҳкамлашнинг асосий воситаси деб ҳисобларди. Бу даврда давлат хўжаликлари яъни совхозларнинг ишчиларининг иш ҳақи ҳам анча паст эди. Масалан, 1946 йилда саноатда иш ҳақи 453 рубль бўлгани ҳолда, совхозлардаги иш ҳақи 165 рубльни ташкил этарди[3]. Албатта иттифоқ ва республиканинг сиёсий раҳбарияти барча ресурсларни қишлоқ хўжалигини юксалтириш учун сафарбар қилиш мақсадида урушдан кейинги дастлабки йилларда қишлоқ меҳнаткашлари меҳнатини рағбатлантиришнинг, меҳнат кунларини ҳисоблашнинг меҳнатга ҳақ тўлашнинг тартибларини ўзгартиришга уруниб кўрди. 1948 йил 19 апрелда СССР Министрлар Совети “Колхозларда меҳнатни ташкил қилишни яхшилаш меҳнат унумдорлигини ошириш ва уни тартибга солиш тадбирлари тўғрисида” қарор қабул қилди[4]. Бу қарор жамоа хўжалиги аъзоларининг меҳнатига ҳақ тўлаш тартибини бир оз яхшилади. Қолаверса, 1947 йилда ўтказилган пул ислоҳоти ҳам қишлоқ аҳолиси моддий аҳолига таъсир ўтказишда муҳим омил бўлди. Бундан ташқари, СССР Министрлар Советининг 1949 йил 4 февралда қабул қилган “Колхоз ва совхозларда пахтачиликни ривожлантириш тўғрисида”ги қарори ҳам қишлоқ иқтисодиётини мустаҳкамлаш ва хўжаликларнинг даромадини оширишда муҳим аҳамият касб этди[5]. Республика пахтакорлари давлатга топширган пахта ҳосили учун 1949 йилда 4 млрд 76 млн.рубль шу жумладан 904 млн.рубль миқдорида мукофот пули олган эди[6]. Кўриниб турибдики, ўзбек деҳқонининг турмуши ҳам бир қадар изга туша бошлади. Буни Сурхон воҳаси қишлоқ аҳолига тўланаётган иш ҳақлари миқдорининг ошиб боришидан ҳам билиш мумкин. Мисол учун вилоятдаги қишлоқ хўжалик жамоалари етиштирган пахта ҳосили учун

1948 йилда 87 млн рубль пул олган бўлса 1949 йилга келиб 283 млн.рубль пул олдилар[7]. Пахта нархларининг оширилганлиги ҳамда жамоа ва давлат хўжаликларининг даромадларини кўпайтириш юзасидан кўрилган чоратадбирлар хўжаликларнинг иқтисодий аҳволини муайян даражада мустаҳкамлашга ва деҳқонларнинг моддий турмуш даражасини нисбатан яхшилашга ёрдам берди. Лекин урушдан кейинги йиллар ва XX асрнинг 50-йилларнинг бошларида мутлоқ кўпчилик одамлар, айниқса қишлоқ аҳолиси учун қийин давр бўлди. Бошқарувнинг маъмурий тизими, қуруқ сафсатадан иборат валюнтаристик қарашлар қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга ва умуман ижтимоий ҳимоя тизимига зарарли таъсир ўтказди. Провардида инсон омили масаласи кейинги ўринга суриб қўйилди. Оқибатда ижтимоий соҳа учун маблағ ажратишнинг қолдиқ принципи устуворлик қилди. Шу боисдан ҳам қишлоқ жойларда уй-жой ва маданий маиший қурилишни ташкил қилиш соҳасидаги камчиликлар, шунингдек қишлоқ меҳнат аҳлининг моддий фаровонлигини ошириш юзасидан кўрилатган чора-тадбирлар етарли эмас эди. Қишлоқларда уй-жойлар, мактаблар, шифохоналар, кескин тарзда етишмасди. Қишлоқ хўжалик ишчиларига иш ҳақи тўлаш тизими мутлоқо талабга жавоб бермасди. Бунинг устига қишлоқ меҳнат аҳлига иш ҳақлари ойлаб тўланмасди. Ҳатто колхозчилар кексалик нафақасини олишдан ҳам маҳрум эди. Тўланаётган иш ҳақлари кундалик эҳтиёжни қопламас эди. Шу боисдан ҳам қишлоқ аҳли томорқалар ҳисобидан яшарди. Урушдан кейинги йилларда томорқа қишлоқ аҳолиси моддий таъминотининг асосий манбаи эди. Шунга қарамадан давлат томорқа хўжаликлари эгаларига ҳеч қандай ёрдам бермасди. Аксинча урушдан кейинги дастлабки йилларда колхозчиларнинг томорқаларини бир неча бор қисқартирди. Мисол учун 1946 йил сентябрда ВКП (б) МҚ ва СССР ҳукуматининг “Колхозларда қишлоқ хўжалик уставининг бузилишини тугатиш

чоралари тўғрисида”ги қарорига биноан Сурхондарё вилоятидаги 6137 колхозчининг оиласига қарашли томорқалардан 752 гектар ер уставда белгиланган меъёрлардан ортиқча” деб тортиб олинди[8]. Қишлоқ аҳолисини ердан маҳрум қилиш жараёни 1950-йилларда ҳам давом эттирилди. Бундай адолатсизликка ҳеч ким қарши чиқа олмади. Чунки қишлоқ хўжалик артели тўғрисидаги низом одамларнинг ҳошиш истагидан йироқ ҳолда тузилган, низомни ўзгартириш ёки унинг қоидаларини қишлоқ аҳолисининг манфаатларига мослаштиришнинг ҳеч қандай иложи йўқ эди. Негаки мустабид тузум ҳар қандай эркин фикрни жиловлаб қўяр эди. Лекин меҳнат аҳолининг мумкин қадар фаровонлигини оширмасдан туриб, меҳнат унумдорлигига эришиб бўлмас эди. Шу боисдан ҳам 1947-1950 йилларда энг зарур моллар ва озиқ-овқат маҳсулотларининг чакана нархлари бир неча марта пасайтирилди. Бироқ пул ислоҳоти ҳам нарх-навонинг пасайиши ҳам аҳолининг харид қувватини сезиларли даражада оширмади. Масалан, Сурхондарё вилоятининг Шеробод туманидаги Киров номли жамоа хўжалиги аъзоларининг бир меҳнат қунига 65 тийин тўланган бўлса, туманнинг Ленин номли жамоа хўжалигида бу кўрсаткич 36 тийинни ташкил этган[9]. Ҳатто баъзи жамоа хўжаликлари меҳнат қунига бундан ҳам кам ҳақ тўланган. Мисол учун 1951 йилда Ўзбекистондаги 239 жамоа хўжалигида меҳнат қунига умуман ҳақ тўланмасдан чекланган тарзда дон билан натура ҳақи берилган. 42 та қишлоқ хўжалик артели аъзоларига ҳатто ғалла ҳам берилмаган[10]. Шу даврда қишлоқ меҳнат аҳлининг даромадлари салмоғида иш ҳақининг улуши атиги 5,8 фоизини ташкил этарди. Колхозчиларнинг умумий даромади саноат ишлаб чиқариш ишчиларининг даромадидан тахминан 1,5 баравар паст эди. Ўрта ҳисобда бир колхозчи оиласига бир йилда 1090,1 рубль тўғри келарди. Бу пулнинг 674,2 рубльи овқат учун, 207,9 рубльи ноозиқ-овқат моллари, асосан

газлама ва кийим кечак учун сарфланарди[11].

Республикада полиз ва мева етиштириш учун кулай шароит бўлишига қарамасдан ушбу маҳсулотларни истеъмол қилиш 1950 йилларда белгиланган физиологик меъёрлардан тахминан 8-9 баравар кам эди. Аммо 1953 йил сентябр пленумидан кейин қишлоқ аҳолисининг моддий аҳволида сезиларли ўзгаришлар содир бўлди. Чунончи солиқ сиёсатини тартибга солиш, давлатга маҳсулот етказиб бериш мажбурий меъёрларини камайтириш, харид ва тайёрлов нархларининг оширилиши туфайли қишлоқ хўжалик кучларини ўсиши ҳамда хўжаликларнинг даромадларини ошишига шарт-шароит яратилди. Пленум қарорларига биноан меҳнат кунига тўланадиган пул ва натура тўловлари оширилди. 1953-1955 йилларда колхозчиларга аванс бериш тизимини тартибга солиш соҳасида муҳим қадамлар қўйилди. 1956 йил 6 мартда КПСС МҚ ва СССР Минстрлар совети “Колхозчиларга ҳар ойда аванс бериб туриш ва колхозчилар меҳнатига ҳақ ва қўшимча ҳақ тўлаш тўғрисида”ги қарорни қабул қилди. Ушбу қарорга биноан қишлоқ меҳнаткашларига аванс бериш тартиби узил-кесил тартибга солинди. XX асрнинг 50-йилларнинг охирларига келиб колхозчиларнинг ўртача иш ҳақларида ҳам ўзгаришлар бўлди. Мисол учун Сурхондарё вилоятининг Жарқўрғон туманидаги Норали Боймуродов жамоа хўжалиги 1956 йилда ялпи даромадни 4324 рубльга етказиб, шундан 830 минг рубльини колхозчиларга мукофот қилиб берди[12]. Лекин ҳали жамоа хўжаликлариде меҳнат ҳақиға пул билан бирға маҳсулот билан ҳақ тўлаш ҳоллари устуворлик қиларди. Бу эса аҳолининг бозор билан боғланишиға, эркин харид нархида ўз эҳтиёжи учун маҳсулот сотиб олишиға жиддий таъсир қиларди. Аммо шунға қарамасдан аҳолининг даромади маълум даражада ошди. Мисол учун 1958 йилда Сурхондарё вилояти Ангор туманидаги Ленин номли жамоа хўжалиги

аъзоси Х.Саидов йил якуниға кўра 38400 рубль пул, 40 центенр ғалла олди. Бу 1957 йилдағиға нисбатан 10500 рубль кўп эди. Ёки Жарқўрғон туманидағи Сталин жамоа хўжалиги аъзоси Имомов Фозил оиласи 50940 рубль хўжалик ҳисобида даромад олди. Меҳнат унумдорлиғининг асосий кўрсаткичи албатта қилинган меҳнатға нисбатан ҳақ олиш эканлиғиға боғлиқ бўлишини юқоридағи рақамлардан ҳам билиб олиш мумкин. Бу даврда жамоа хўжаликларини давлат тасарруфиға ўтказишнинг ёрқин кўриниши бўлган “совхозлаштириш” тадбирлари ҳам кенг ёйилди. 1958 йилда Сурхондарё вилоятининг ўзидағиға 45 та комплекс механизациялашган пахтачилик бригадаси хўжалик ҳисобиға ўтказилди. Лекин бундай хўжаликларда меҳнатға ҳақ тўлашнинг бирхиллаштирилган тизими устувор бўлиб ишчиларнинг меҳнатига ва малакасиға қараб ҳақ тўлаш тартиби йўлға қўйилмаган эди. Тадқиқ этилаётган даврда давлат хўжаликлариде ишлаётган ишчи хизматчиларнинг меҳнатига ҳақ тўлашнинг кўпол равишда бузилиш ҳоллари ҳам учраб турди. Мисол учун Қашқадарё вилоятининг “1-Далварзин” совхозиде ишчиларға иш ҳақидан салкам 27 минг рубль пул кам тўланган. Шундай бўлсада қишлоқ аҳли тинимсиз тарзда далаларда ишлади. Мўл-кўл ҳосил олди, аммо қилган меҳнатининг натижасидан анча кам даромад олди. 1958 йилги ҳисоб китобларға кўра Қашқадарё вилоятида бир кишининг бир иш кунига 9 рубльу 70 тийин ҳақ тўланди. Сурхондарё вилоятида эса бу кўрсаткич 10 рубль 20 тийинни ташкил этди. Бу маблағ колхозчиларнинг эҳтиёжларини умуман қондирмас эди. Агар қишлоқ аҳлининг ҳар бир оиласиде 7-8 киши истиқомат қилишни инобатға олинса масаланиннг қанчалик жиддий эканлиғи равшан бўлади. Тадқиқ этилаётган даврда шахсий ёрдамчи хўжаликлар қишлоқ аҳолиси даромадининг муҳим манбаи бўлиб қолди. 1953 йилда колхозчилар оилаларнинг ялпи даромадида шахсий ёрдамчи хўжаликлар салмоғи 36,3 фоизға тенг бўлди. 1961



йилда эса бу салмоқ 43,8 фоизга етди, аксинча, ижтимоий хўжалик ишидан олинадиган тушумлар улуши 53,5 фоиздан 41,7 фоизга тушиб қолди[13].

Совет ҳокимиятининг кўпгина ўн йилликларида деҳқонларнинг давлат таъминоти соҳасига бефарқ қаралди. Қишлоқ аҳлининг ҳаётий манфаатларини ошқора назар-писанд қилмаслик туфайли улар кўп вақтлар мобайнида давлат пенсиялари ва бошқа нафақаларини олмади урушдан кейинги дастлабки йилларда қишлоқ хўжалик ишчиларининг ўртача ойлик пенсияси миқдори салкам 10 рубльни ташкил этарди. Ваҳоланки, ушбу таъминотдан шахсий меҳнат фаолияти билан шуғулланувчилар, уй бекалари умуман бебаҳра эди. Ўзбекистонда колхозчиларни пенсия билан таъминлаш тартиби 1959 йилдан бошлаб жорий этилди[14]. Шунини қайд этиш жоизки, пенсиялар миқдори ўртача иш ҳақи миқдоридан анча кам эди. 1960 йилда

ўртача пенсия ўртача иш ҳақининг салкам учдан икки қисмини ташкил қилган бўлса, 1960-йилларнинг охирида бу кўрсаткич ўртача ойлик иш ҳақининг қарийиб ярмига етарди. 1955 йилда совхоз ходимларининг иш ҳақи 68,8 бўлган бўлса, пенсиянерларнинг ўртача нафақаси 30-35 рубльни ташкил этарди. 1965 йилгача колхозчиларнинг пенсия таъминоти асосан колхозларнинг даромадларидан вужудга келтириладиган маблағлар ҳисобидан амалга ошириларди. Шунинг учун иқтисодий бақувват хўжаликларгина ўз аъзоларига пенсия тўлаши мумкин эди. 1962 йилда Сурхондарёдаги 64 та колхоздан 28 таси ана шундай ўзига бақувват хўжаликлардан эди. Бундай шароитда колхозчиларни пенсия билан таъминланиш даражасида ниҳоятда паст эди. Мисол учун 1964 йилда республика колхозларида атиги 172 минг пенсионер бор эди. Улар оладиган ўртача ойлик миқдори 8 рубльни ташкил қиларди.

#### Фойдаланилган манбалар ва адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Девонининг архиви 58-жамғарма, 22-рўйхат. 9-иш, 221-222-варақлар
2. ЎзРМДА 1619-жамғарма, 10-рўйхат 14-62-иш, 2-варақ.
3. ЎзРМДА 1619-жамғарма, 13-рўйхат 381-иш, 287-варақ
4. Сборник руководящих материалов по колхозному строительству. – Москва, 1949, – С.234-236.
5. Развитие сельского хозяйства в после-военные годы (1946-1970 гг) – Москва, 1972. – С.189.
6. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 446-жамғарма, 1-ёзув, 47-иш, 16-варақ.
7. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 446-жамғарма, 1-рўйхат 39-иш, 132-38-варақлар.
8. Шеробод тумани давлат архиви 42-жамғарма, 1-ёзув, 468-иш, 48-варақ.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти девонининг архиви. 58-жамғарма, 155-рўйхат 38-иш, 24-варақ.
10. ЎзРМДА 1619-жамғарма, 4-рўйхат 4006-иш, 36-79 варақлар.
11. Развитие сельского хозяйства в послевоенные годы (1946-1970 гг). – Москва, 1972, – С.291.
12. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 446-жамғарма, 1-ёзув, 137-иш, 232-варақ.
13. Зайцев Л.И. Рашиков И.Д. Социальное обеспечение колхозников. – Москва: “Колос”. 1972. – С.39.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO MATBUOTI: GAZETALAR TASNIFI

Yo'ldosheva Zubayda Hamidovna,  
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
UDK: 94(575.1).  
zyuldosheva74@gmail.com  
<https://orcid.org/0009-0008-8258-376X>

**Annotatsiya:** Mustaqilligimizning dastlabki yillarida milliy matbuotning o'rnida ancha muhim bo'ldi, chunki aholiga mavjud tuzum va bo'layotgan islohotlar haqida ma'lumot beradigan asosiy vosita bu ommaviy axbarot vositalari edi, shu sababdan, dastlab, kommunistik mafkuraviy nomlar bilan nomlangan gazetalar va jurnallar nomi mahalliyashtirilib, yangi nom va tahrirda chop etila boshlandi. Deyarli har bir tumanning o'zining gazetolari chop etiladi va ularning dastlabki sahifalarida mahalliy hokimliklarning kengashlarida tasdiqlanayotgan qarorlar berib borilar edi. Mustaqillik yillarida Surxondaryo matbuotida gazetalar tasnifi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Gazeta, umumsiyosiy gazetalar, tarmoq gazetolari, viloyat gazetolari, Ijtimoiy-huquqiy gazetalar, "Sherobod hayoti", "Jarqo'rg'on", "Chag'anyon".

**Аннотация:** В первые годы нашей независимости роль национальной прессы стала очень важной, ведь основным средством информирования населения о существующем строе и проводимых реформах были средства массовой информации, по этой причине на первых порах, газеты с коммунистическими идеологическими названиями и названием журнала были локализованы и изданы под новым названием и изданием. Почти в каждом районе есть свои газеты, и на их первых страницах публикуются решения, одобренные советами местных самоуправлений. В годы независимости в прессе Сурхандарьи заговорили о классификации газет.

**Ключевые слова:** Газеты, общеполитические газеты, сетевые газеты, региональные газеты, общественно-правовые газеты, «Шерабод Лайф»,

«Джаркурган», «Чаганьон».

**Abstract:** In the early years of our independence, the role of the national press became very important, because the main means of informing the population about the existing system and the reforms that were taking place were the mass media, for this reason, at first, newspapers with communist ideological names and the name of the magazine was localized and published under a new name and edition. Almost every district has its own newspapers, and on their first pages, the decisions approved by the councils of local governments were given. In the years of independence, the press of Surkhondaryo talked about the classification of newspapers.

**Key words:** Newspapers, general political newspapers, network newspapers, regional newspapers, social and legal newspapers, "Sherobod Life", "Jharkurgan", "Chaganyon".

Matbuot bu so'z tor va keng ma'noda ishlatilishi mumkin. Bu keng ma'noda barcha turdagi bosma nashr ishlarini: kitob, gazeta, jurnal, hujjat bularning barchasi matbuot deyiladi, tor ma'noda esa matbuot bu gazeta, jurnallarni bildiradi. Uning maqsadi esa mavjud tuzimning kuchli ma'naviy ta'sir doirasi sifatida aholi ongiga ma'lum bir g'oyalarni singdirish va shakllantirishdan iboratdir. XXI asrdan boshlab internet va ijtimoiy tarmoqlarning ham rivojlanishi matbuotning yangi sohalarini shakllantirdi va rivojlantirdi, shu bilan birga bosma nashr ko'rinishidagi matbuotning ham inqiroziga yo'l ochib berdi.

Mustaqillik yillarida milliy matbuot viloyatda mavjud siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy va boshqa sohadagi yangiliklar berib borildi. Har bir mahalliy

hokimlik huzurida o'zining nashr etiluvchi gazetasi mavjud hisoblangan bu esa O'zbekistonda matbuot va gazetalarning soni yildan yilga o'sib borishiga xizmat qildi va bu jarayon 2019-yilgacha davom etdi hamda dunyo bo'ylab karonavirus pandemiyasining boshlanishi aholi o'rtasida qog'oz variantidagi matbuot gazetalarning obro'sini va ahamiyatini yo'qotdi. Chunki aholi o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarni o'rni ko'payib bordi.

Har bir davriy matbuot nashrining o'zi ham alohida yahlit manba bo'lib ham xizmat qilishi mumkin. Bu haqida bevosita davriy matbuot bilan ishlash bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan tadqiqotchilar ham fikr bildirib o'tgan. Xususan, L.D.Dergacheva "Davriy nashrlar o'zlari haqida, tarixiy manba sifatidagi xususiyatlari haqida so'zlab bera oladilar"[2;94], deydi. Gazeta va jurnal yillik to'plamlari shu nashr to'g'risida yetarlicha to'liq tavsifni olish: muharrirlar va nashriyotning o'zgarishi, obuna bo'lish va e'lonlar berish narxlarini kuzatish, nashrlar tuzilmasi (sarlavhalar, bo'limlar qo'shilishi yoki yo'qolishi) va tashqi ko'rinishidagi o'zgarishlarni, nashrning hajmi va boshqa ma'lumotlarni qiyosiy-tarixiy tahlil qilishga imkonini beradi. Davriy matbuot materiallarini sinchkovlik bilan o'rganish, nashrning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun sharoitlarini aniqlash, uning yo'nalishini, maqsadli auditoriyasini, o'quvchilarining xohish istaklarini aniqlash imkonini beradi.

Gazeta sahifalarida hayotni aks ettirishning alohida turi bolmish publitsistikaga keng o'rin beriladi. Gazetada publitsistikaning axboriy (xabardor qiluvchi) qismi va uning janrlari - xabar, reportaj, korrespondensiya (kichik maqola) va boshqalar keng o'rin oladi. Shuningdek, publitsistikaning tahliliy va badiiy-publitsistik turlari ham gazetada keng qo'laniladi. Gazeta o'z sahifalarida fotojurnalistika va rasmchilikdan ham keng foydalanadi. Surxondaryo viloyati hududida gazeta sohasi Sobiq ittifoq davridan boshlab shakllana boshlagan va har bir tuman tashkil etilganida uning vaqtli matbuoti ham tashkil etilgan.

XXI asrga kelib globallashgan dunyoda

matbuot ham yangicha ko'rinishga keldi va endi onlayn ko'rinishdagi gazetalari ham paydo bo'la boshladi. Shu tariqa gazetalarning onlayn va bosma ko'rinishlari paydo bo'la boshladi. Yurtimizga 1995-1996-yillarda dastlabki .uz internet domenlari ishlatilib boshlangan bo'lsa-da, 2005-2006-yillardan boshlab onlayn matbuot ko'rinishidagi saytlar faoliyat yurita boshladi.

Surxondaryodagi 1991-2020-yillarda faoliyat yuritgan bosma ko'rinishidagi gazetalari o'z navbatida turli xillarga bo'linib ketadi. Ular avvalo ijtimoiy hayotni yoritish nuqtai nazaridan uchga bolinadi:

1. Umumsiyosiy gazetalari;
2. Ixtisoslashgan gazetalari;
3. Tarmoq gazetalari;[4;53].

*Umumsiyosiy gazetalari* - bunday turdagi gazetalari shu hududdagi aholisining asosiy qismini qamrab olishga va shu hudud uchun zarur bo'lgan masalalarni yoritishga e'tibor qaratadi. Bunday gazetalari davlat, tashkilot, muassasa, rasmiy, norasmiy gazeta, davlatga qarashli yoki mustaqil gazetalari ham bo'lishi mumkin. Surxondaryo viloyatida chiqadigan rasmiy - "Xalq yo'li", "Surxon tongi", «Zarya Surxan», "Sherobod hayoti", "Denov ovozi", "Sarosiyo", "Taraqqiyot" singari rasmiy gazetalari; "Fidokorlar", "Adolat", Milliy tiklanish", "O'zbekiston ovozi" singari partiya gazetalari mustaqil "Hurriyat" gazetalari misol keltirish mumkindir.

*Ixtisoslashgan gazetalari* — bunday turdagi gazetalari, asosan, ma'lum bir jamiyatdagi soha va ijtimoiy guruhni qamrab olishi mumkin va bu gazetalari aynan shu sohadagi inonlar uchun ularning tilida, ilmiy tilda bo'lishi ham mumkin. Bunga misol qilib, Surxondaryo viloyatida chiqadigan «Tibbiyot va hayot» deb ataluvchi ijtimoiy-ma'rifiy, "Janub posboni" ijtimoiy-huquqiy, "Davriy mezon" - huquqiy-ijtimoiy masalalariga bagishlangan gazeta va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek yana yoshlar uchun "Kamolot" va "Kamalak" O'zbekistonda Markaziy Kasaba uyushmalari idorasining nashri - "Ishonch", Mudofaa vazirligi nashri - "Vatanparvar" gazetalari ham ko'pchilik uchun mo'ljallab chiqarilishi boisidan umumsiyosiy gazetalarga kiritish mumkin.

Respublika miqyosida ham bunday gazetalarni sanash mumkin: qishloq xo'jaligi va undagi hayotni yoritishga moslashgan "Qishloq hayoti", ta'lim-tarbiya, oliy ta'lim, maktablar hayoti va faoliyati sohasini yoritishga moslashgan "Ma'rifat", ilma'rifat, san'at va adabiyot sohasiga bag'ishlangan "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", iqtisodiyot va shu sohadagi yangiliklarni yoritadigan "Mulkdor", jamiyatimizdagi oila masalalariga bag'ishlangan "Oila va jamiyat", sport yangiliklari va xabarlarini berib boriladigan "Sport", "Erudit" kabi ma'lum bir sohaga bag'ishlangan ixtisoslashgan gazetalarni misol keltirishimiz mumkindir.

*Tarmoq gazetalari* – bunday turdagi gazetarlar biror-bir tashkilot yoki biror infratuzulma doirasida nashr etilib, faqat shu doiradagi odamlar uchun tarqatiladi va foydalaniladi. Bunday gazetalardan O'zbekiston Respublikasi Aloqa vazirligi nashri hisoblangan "Xabar", shuningdek, ichki ishlar vazirligi tomonidan tegishli "Postda" gazetasi, O'zbekiston Respublikasi temiryo'llariga qarashli "Temiryo'lchi" kabi gazetalarni misol keltirish mumkin. Ushbu yuqorida sanab o'tilgan gazetarlar ushbu sohada ishlovchi va sohaga aloqadorlar uchun mo'ljallab chiqarilgandir.

Gazetaning shunday vazifalari borki hududiy jihatdan ma'lum bir hududni chegaralab olgan, ya'ni bunga Surxondaryo viloyatini misol qiladigan bo'lsak, viloyatimizda respublika, viloyat, tuman, shahar va tashkilot miqyosidagi gazetarlar borki ular o'sha hududdagi, asosan, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy, ilmiy, tashkiliy, siyosiy masalalarga urg'u beriladi.

Surxondaryo viloyatida o'rganilyotgan davr, 1991-2020-yillarda faoliyat yurityotgan OAVlari ma'muriy hududiy jihatidan bir necha turlarga bo'linishi mumkin, masalan:

1. *Markaziy gazetarlar* – ushbu turdagi gazetarlar respublikamizda chiqayotgan har xil mavzudagi gazetarlar: siyosiy, sport, iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy tarmoq gazetalari misoldir, ushbu turdagi gazetalarga "Sport", "Vatanparvar", "Postda", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Xalq so'zi", "Kamilot"

va hokozolar kiradi. Bu turdagi gazetalarning asosiy xususiyati esa butun respublika bo'ylab ko'plab tirajda chiqishidir.

2. *Viloyat gazetalari* – respublikamizning har bir viloyatida Xalq deputatlari viloyat kengashi va viloyat hokimligining rasmiy matbuot nashrlari mavjuddir, bunday gazetalarga misol qilib esa: "Ovozi Samarqand", "Toshkent oqshomi", "Farg'ona haqiqati", "Buxoro axborotnomasi", "Qashqadaryo" kabi viloyatlardagi gazeta nashrlari misol keltirish mumkin. Surxondaryo viloyatida esa bunday gazetalarga "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" kiradi.

3. *Shahar gazetalari* - respublikamizning har bir viloyatida bo'lgani kabi har bir shaharda Xalq deputatlari viloyat kengashi va shahar hokimligining rasmiy matbuot nashrlari mavjuddir, bunday gazetaga misol qilib esa "Termiz oqshomi" gazetasini keltirish mumkin;

4. *Tuman gazetalari* – Surxondaryo viloyatidagi har bir tuman Xalq deputatlari viloyat kengashi va tuman hokimligining rasmiy nashrlari bo'lib bular quyidagilar: "Janub quyoshi" - Termiz, "Chag'anyon" - Denov, "Taraqqiyot" – Qiziriq, "Oltinsoy tongi" – Oltinsoy, "Sherobod hayoti" – Sherobod, "Qumqo'rg'on sadosi" – Qumqo'rg'on, "Jarqo'rg'on" – Jarqo'rg'on, "Sariosiyo haqiqati" – Sariosiyo, "Angor yog'dusi" - Angor, "Boysun" – Boysun, "Yangi Bandixon" – Bandixon, "Bobotog'tongi" – Uzun tumanlarining gazetalari misol qilish mumkin.

5. *Korxonalar, muassasa gazetalari* – bunday gazetarlar odatda biror muassasaning yoki korxonaning ichida bo'layotgan yangilik va yutuqlari yoritiladi. Bunday gazetalarga Termiz davlat universitetining "Termiz universiteti", Termiz iqtisodiyot va servis universitetining "TISU xabarlarini", Termiz muhandislik va texnologiya nashri bo'lmish "Texno PRESS" va Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi va "Surxonsanoatqurilish" kompaniyalari bilan hamkorlikdagi "Xalq yo'li" gazetalarni misol keltirish mumkin;

6. *Devoriy gazetarlar* – bunday turdagi

gazetalar odatda hech qayerda nashr etilmaydi va ularda mahalliy yangiliklar ham bo'lmaydi, bunday devoriy gazetalar tashkilotlar, muassasalar va kompaniyalarda biror-bir munosabat bilan, masalan, bayram munosabati bilan tashkil etiladigan ko'rik tanlovlar ko'rinishidagi devoriy posterlardir. Bunday gazetalar misol qilib esa "Biz psixoaktiv moddalarga qarshimiz!" va "Konstitutsiyamiz – bosh qomusimiz!" kabi mavzudagi devoriy gazetalar misol keltirish mumkin.

Matbuot va vaqtli nashrlar yana *kunduzgi* va *kechki* gazetalar ham bo'linadi. Yuqorida sanalgan respublikamiz va viloyatimizdagi gazetalar kunduzgi gazetalar turkumiga kiradi va qolgan gazetalar ham aksariyati kunduzgi gazetalar turkumiga kiradi. Bunday turdagi gazetalar alohida xislatlarni ham talab qiladi, ya'ni bunday gazetalar tezlikda tarqalishi, ularda yoritiladigan mavzu ham ko'proq xabarlar ko'rinishida, madaniy va ma'raviy, ko'ngilochar mavzuda bo'lib, uni o'quvchilarni dam oldiradi. Ushbu turdagi gazetalar jahon miqyosida "Washington evening star" (AQSh), "Evening news" (Angliya), "Gamburger abendblatt" (Germaniya), "Izvestiya" (Rossiya), respublikamizda "Vecherniy Tashkent", "Toshkent oqshomi" gazetalarini misol keltirish mumkin. Surxondaryoda garchi nomi shunga o'xshash (Termiz oqshomi) gazeta bo'lsa ham, ammo viloyatda kechki gazetalar turiga mansub vaqtli matbuot mavjud emas, odatda bunday gazetalar katta shaharlarda nashr etiladi.

Vaqtli matbuot yana o'quvchilari uchun yoshiga qarab ham chiqariladi, bunday holatda gazetalar *bolalar*, *yoshlar* va *kattalar* uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Matbuotning yana nashr etilish vaqtiga qarab ham *kunlik*, *haftalik*, *oylik* va *yillik* turlari ham bordir. Bunda *kundalik* gazetalar haftada bir necha marta: ikki, uch va yana yetti martagacha chiquvchi gazetalar kiradi. Ayniqsa onlayn faoliyat ko'rsatuvchi matbuotlarda xabarlar kunlik va soatlab ham berilib boriladi. *Haftalik* gazetalar esa haftada bir marta undan kam bo'lmagan holatda

chiquvchi gazetalar kiradi. *Oylik* nashrlar bir oyda bir-ikki marta chiquvchi gazetalar, *yillik* nashrlar esa har chorak yoki yarim yillikda chiquvchi nashrlar bo'lib, ayniqsa, yillik chiquvchilari jurnal ko'rinishida bo'ladi.

Gazetalarning tadqiqot mavzusi va davridan kelib chiqqan holda jurnallarni o'quvchi auditoriyasi, asosiy nashr yo'nalishi va qamroviga asoslanib quyidagi tasnif ishlab chiqildi:

1. *Umumiy ijtimoiy-siyosiy masalalar yoritilgan nashrlar* – "Surxon tongi", "Zarya Surxon", "Muzrabod", "Oltinsoy tongi", "Jarqo'rg'on", "Sariosiyo", "Qumqurg'on sadosi", "Boysun", "Denov ovozi", "Sherobod hayoti" "Janub quyoshi", "Chag'anyon", "Taraqqiyot", "Angor yog'dusi", "Boysun", "Yangi Bandixon", "Bobotog' tongi va b.

2. *Ijtimoiy-huquqiy gazetalar* - bunday gazetalar ham umumiy masalalar yoritilishi bilan birga, asosan, huquqiy masalalar yoritiladi. Bunday gazetalar: "Surxon ovozi", "Davr mezon", "Taraqqiyot", "Janub posboni" kabi gazetalar misol keltirish mumkin.

3. *Ijtimoiy-ma'rifiy gazetalar*, bunday nashrlarda esa xalq o'rtasidagi ijtimoiy muammolar, xalq orasidagi ijtimoiy muammolarni hal qilishga bag'ishlangan maqolalar ko'proq chop etiladi, masalan: "Oltin voha", "Texno Press",

4. *Iqtisodiy* (xo'jalik, sanoat, ishlab chiqarish) masalalar yoritilgan nashrlar – "Xalq yo'li", "Xovar" va boshqalar

5. *Madaniy va ma'rifiy* (din, til, adabiyot, san'at) jarayonlar aks etgan nashrlar – "Janub yoshlari", "Davr mezon", "Ayol va zamon", "Xalq va hayot", "Hurayda", "Termiz oqshomi", va b.

Shuni yana qo'shimcha qilsih mumkinki: Surxondaryo viloyatida yana bitta rus tilida 1941-yildan "Zarya Surxon" va bitta tojik tilidagi 200-yildan "Xovar" gazetasilari chop etilmoqda

Respublikamiz mustaqillikka erishgach gazeta va jurnallar chop etish va ularni sifatini oshirish masalasi turar edi. Surxon vohasida dastlabki gazetalar XX asrning 30-yillaridan boshlab chiqa boshlaagan. Shulardan bittasi



sifatida esa “Surxon tongi” gazetasini misol qilishimiz mumkin. Bu gazetada uch yuz nafardan ortiq ijodiy va texnik xodim kelib ketgan. O‘tgan 100 yilga yaqin vaqt ichida gazeta tahririyatini o‘n to‘qqizinchi muharrir boshqarmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida. O‘zR qonuni. O‘zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari. Законодательные акты Республики Узбекистан о средствах массовой информации. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to‘plami. T.: O‘zbekiston, 2007. 4-11 b.
2. Дергачева Л.Д. К вопросу об источниковедческом изучении дореволюционной журналистики России // Государство и общество. История, экономика, политика, право. 2001, № 1. Б. 94.
3. Abduazimova N. A. Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. T.: Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, 2007.
4. T.M.Qozoqboyev, M.Xudoyqulov. “Jurnalistikaga kirish”, - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. 53-bet.
5. To‘lqin Qozoqboyev. Jurnalistika asoslari. T.: Musiqa, 2007.
6. Xudoyqulov M. Ommaviy axborot vositalari tipologiyasi: Ma’ruzalar matni. T.: O‘zMU, 2000.

## BUXORO AMIRLIGINING BOYSUN, DENOVA VA SHEROBOD BEKLIKLARIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMI

Tojiyev Jasur,

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

UDK: 94(575.1).

<https://orcid.org/0009-0008-1123-456X>

**Annotatsiya:** Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda ta‘lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlar, dastur va qonunlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etishda bu borada Buxoro amirligi va uning tarkibida bo‘lgan Boysun, Denov va Sherobod bekliklarida asrlar davomida rivojlanib kelgan boy tajriba maktabini o‘rganish, tegishli saboq chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** Ta‘lim tizimi, Boysun, Denov, eski usul maktablari, yangi usul maktablari, Hududiya, Sayyiod Otaliq, mudarris.

**Аннотация:** При разработке и реализации мероприятий, программ и законов в области образования в Новом Узбекистане сегодня важно изучение богатого опыта школы, сложившегося на протяжении веков в Бухарском эмирате и провинциях Байсун, Денов. и Шерабад,

которые являются его частью, и извлечь соответствующие уроки становится важным.

**Ключевые слова:** Система образования, Бойсун, Денов, старомодные школы, новые методические школы, Худудия, Саййод Аталиқ, мударрис.

**Abstract:** In the development and implementation of activities, programs and laws in the field of education in New Uzbekistan today, it is important to study the rich experience school that has developed over the centuries in the Emirate of Bukhara and the provinces of Boysun, Denov and Sherabad, which are part of it, and draw relevant lessons. becomes important.

**Key words:** Educational system, Boysun, Denov, old method schools, new method schools, Hududiya, Sayyiod Ataliq, mudarris.

**Kirish.** XIX asr oxiri va XX asrning

boshlarida Denov, Boysun, Sherobod beklilari Buxoro amirligi tarkibida bo'lib, mang'itlar sulolasi vakillari tomonidan boshqarilar edi. Garchand, Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligi bosib olingan bo'lsa-da, ichki boshqaruvning amirlik usulida saqlanib qolishi tufayli ko'p sohalar an'anaviy tarzda rivojlanishda davom etdi. Xususan, an'anaviy madaniy hayot, ta'lim tizimi ham saqlanib qoldi. Buxoro amirligida ta'lim ikki bosqichda olib borilgan. Birinchi bosqich quyi, ya'ni boshlang'ich maktabda, ikkinchisi – yuqori bosqich madrasalarda davom ettirilgan.

Boshlang'ich an'anaviy maktab musulmon bolalari uchun umumiy ma'lumot beradigan xat-savod chiqarish maskanlari bo'lib, arab imlosida savod olish, yozish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, hisoblash qoida va ko'nikmalarini hosil qilish tabiat va jamiyat, atrof-muhit, islom dini haqida bilim tushunchalar berish, axloq-odob me'yorlariga amal qilishni o'rgatishdan iborat edi.

Boshlang'ich maktablar asosan guzar va masjidlar, ba'zilar esa madrasalar qoshida bo'lgan[2;55]. Shahar va qishloqlarning qariyb barchasida bunday maktablar faoliyat yuritgan[10]. Maktablarda o'g'il va qiz bolalarga alohida, ajratilgan holda ta'lim berilgan. O'g'il bolalar masjid, madrasa va qorixonalarda, qiz bolalar esa otin oyilar uyida yoki o'z xonadonlarida o'qitilgan.

Maktabxonalaridagi darslar ertalab quyosh chiqishidan to asr namozigacha (soat 17.00) davom etib, juma va bayram kunlari o'quvchilar darsdan ozod qilingan. O'qituvchi (domla) yil bo'yi sabr-toqat bilan maktabxonani ochib, o'quvchilarini kutib o'tirgan. Aksariyat maktablarda jismoniy, estetik tarbiya masalalari deyarli e'tibor berilmagan, bolalar berilgan vazifani boshini tebratib o'qish yoki takrorlash bilan band bo'lgan. Bola ruhiyatini yaxshi biluvchi domlalar har bir yarim-ikki soatda tanaffus e'lon qilib turgan[1].

Maktabda bolalarning o'qishi uchun to'lov ota-onalar tomonidan qoplanib, bir yillik to'lov har bir bola uchun 1 tildan 3 tillogacha mablag'ni tashkil qilar edi. Bundan

tashqari, ota-onalar mullaga xalat, ko'ylak, etik, kovush kabi buyumlar olib berishgan. Shuningdek, bola Qur'on o'qishga o'tganda va har bir porani yod olganda farzandlarining ustozini turli sovg'a-salomlar bilan siylashgan[3;211].

Maktablarda o'quvchilar dastlab iymon masalasiga oid "Kalimai shahodat" va "toyiba"ni yodlashgan. Undan so'ng arab alifbosini o'rganib, "Haftiyak" kitobini o'qishgan[4], uni tugatgandan so'ng esa "Tajvid" kitobini, keyin esa "Chor kitob"ni mutolaa qilishgan. "Chor kitob"da bolalarga islom dinining asosiy qoidalari o'rgatilgan. N.Xanikov Buxoro maktablarida 8 ta o'qish kitobi: Alifbo, Qur'on, Farzi ayn, Chor kitob, Dodbi, Hofiz Sheroziy, So'fi Olloyor (Allohyor)ning "Maslak-ul muttaqiyn", Mirzo Bedil asarlari o'qitilganini ta'kidlaydi[3;213].

Amirlikdagi ta'lim tizimida tarbiya masalalari juda muhim ahamiyat kasb etgan va diniy e'tiqodni mustahkamlashga, iymon va axloqiy poklikka e'tibor qaratilgan. Xullas, boshlang'ich maktab o'qish va yozish, hisob-kitob qoidalari qatorida o'quvchiga ma'naviy qiyofasini islom ta'limoti doirasida shakllantirish vazifasini ham bajargan.

Qizlar maktabida o'qitish o'g'il bolalar o'qiydigan masjidlar huzuridagi maktabxonadagi o'qitishdan bir muncha farq qilar edi. O'g'il bolalar o'qitiladigan maktablardan farqli ravishda, qizlar maktablarida mumtoz shoirlar ijodini o'rganish bilan birga qizlar tarbiyasining o'ziga xos jihatlari, chunonchi, uy-ro'zg'or tutish, pazandalik, pokizalik, sharqona odob-axloq ham o'rgatilgan[1].

Quyida eski usul maktablarining faoliyatidagi qator muammoli holatlarga to'xtalib o'tamiz:

1. Boshlang'ich maktabda o'qitiladigan kitoblarning o'z ona tilida bo'lmaganligi, asosan arab tilida bo'lgan.

2. O'qitish usulining talabga javob bermagan. O'quvchilar maktabxonalarda yillab o'qishgan.

3. Boshlang'ich maktabda o'quvchilarni jazolash.

4. Maktablarda amaliy ahamiyatga molik bilimlar berilmas hamda olingan bilim

hayotda, turmushda deyarli qoʻllanilmas edi.

Shuning uchun ham, XX asr boshlariga kelib Buxoro amirligida, jumladan Denov, Boysun va Sherobod bekliliklarida ham yangi usuldagi maktablar ochildi. Yangi usul maktablari musulmon maktablarining dasturlari va taʼlim tizimini isloh qilib, oʻquvchilarga oʻz ona tilida xat-savod chiqarishga moʻljallangan edi. Yangi usuldagi maktablarda oʻqitish tartibi ancha oson va sodda boʻlib, tezda xat-savod chiqarish imkoni boʻlgan. Shuning uchun ham amirlikdagi mahalliy ziyolilar koʻproq yangi usuldagi maktab qurish va oʻqitishni targʻib qilishga harakat qildi.

Yangi usuldagi maktablarning qulayligi va unda tezda xat savod chiqarish imkonining kengligi mahalliy aholi, hatto yuqori lavozimdagi baʼzi mulozimlar, diniy ulamolar, shariat peshvolari tomonidan tan olinib, qoʻllab-quvatlanadi. 1912-yilda Buxoro amirligida yangi usuldagi maktablarning soni 57 taga yetadi[5;260]. Shuni alohida taʼkidlash joizki, yangi usuldagi maktablarda yangi dunyoviy bilimlar oʻqitilib, eskirib qolgan oʻqitish uslubidan voz kechilgan boʻlsa-da oʻquvchilarning maʼnaviy dunyoqarashini shakllantirishda islom dini asos sifatida qabul qilindi.

Mirzo Salimbek oʻzining xotiralarida yangi usuldagi maktabning afzalliklari toʻgʻrisida toʻxtalib, ularda bolalar juda qisqa davrda savod chiqarganligi sababli uning nufuzi oshib borganligini, shuningdek, eski maktablardan aholi zodagon qatlamining bir qismi yuz oʻgirib, bolalarini yangi usul maktablariga bera boshlaganligini, yangi usuldagi maktablardagi darsliklarning hammasida diniy qoidalarga amal qilinishini qayd qilgan[6].

Yangi usuldagi maktablar asta sekin mahalliy aholi oʻrtasida shuhrat qozona boshladi. Sadriddin Ayniy yangi usuldagi maktabning qulay jihatlariga toʻxtalib: Bir necha yil eski maktablarda xat va savod chiqara olmaganlar yoki eski maktab tartib qoidasiga boʻysunmagan bolalarning otalari bizning maktab oʻquvchilarining ikki oylik maʼlumotlarini koʻrib, kamoli ixlos bilan bolalarini keltirib topshira berdilar[7;202] –

deb taʼkidlaydi.

Amirlikdagi oʻta dindor ruhoniylar yangi maktablarning ochilishiga keskin qarshilik koʻrsatib, turli igʻvo-boʻhtonlarni tarqata boshladi. Ular yangi maktab bitiruvchilari shariatga xilof ish qiladi, avvaliga oʻquvchilar gazeta oʻqishni oʻrganadi, keyingi yili esa ozodlik talab qiladi, uchinchi yili esa amir hazratlarini taxtdan agʻdarishga harakat qiladi deb, amirning yangilikka boʻlgan fikrini oʻzgartiradi[11]. Bu igʻvo va gap soʻzlarga ishongan amir Olimxon 1914 yil 5 iyulda amirlikdagi barcha yangi usul maktablarni yopish toʻgʻrisida farmon chiqaradi[12].

Farmonda yangi usuldagi maktablarning faol vakillarini shahardan chiqarib yuborish, shuningdek, toʻgaraklar tuzish, gazeta oʻqish va uni muhokama qilish taqiqlangan. Amir farmoni bilan qoʻshbegi va qozikalon boshchiligida ishchi guruh tuzilib, oʻqituvchilardan yangi usuldagi maktablarni ochmaslik va unda dars bermaslik, ota-onalardan esa bolalarini yangi usuldagi maktablarga yubormaslik toʻgʻrisida tilxat olingan[13].

Buxorodagi diniy ulamolar va amir tomonidan yangi usuldagi maktablarni yopish uchun qanchalik qarshilik qilinmasin, buni toʻxtata olishmadi. Sharqiy Buxoroda esa 58 ta maktabda 3815 nafar oʻquvchi taʼlim olib, unda 193 nafar oʻqituvchi mudarrislik qilgan[8].

Rossiya hukumati rus fuqarolarini Buxoro amirligiga koʻchirib olib kelganidan soʻng amirlikning ruslar yashaydigan shaharlarida rus tiliga ixtisoslashgan maktablar ochilgan. Masalan, Termiz shahrida 1906 yilda harbiy cherkov huzurida birinchi marotaba yangi usuldagi rus maktabi faoliyat yurita boshlagan. Bu maktabda 600 dan ortiq maktab yoshidagi bolalardan faqat 35 nafari oʻqigan[14].

1913-yilda ofitserlarning bolalari uchun boshlangʻich maktab ochilgan. Shundan soʻng mahalliy va boshqa toifadagi Rossiya fuqarolarining bolalari uchun ham Termiz shahrida gimnaziya ochishga harakat boshlangan. 1917-yilga kelib ota-onalarning saʼyi-harakati va ularning mablagʻi hisobiga boshlangʻich maktab ochishga ruxsat

beriladi[14]. XX asr boshlariga kelib Termiz shahrida 1 ta ikkinchi darajali, 8 ta birinchi darajali, 12 ta eski usuldagi maktab bo'lib, Sherobod aksionerlik jamiyati Termizdagi boshlang'ich maktablarga 2600 rubl mablag' ajratgan[15].

XX asr boshlarida Buxoro amirligining Denov, Boysun va Sherobod bekliliklarida ham eski va yangi maktablar faoliyat yurita boshladi[9;172]. Quyidagi jadvalda eski va yangi maktablar va ularning qaysi bekliliklarda mavjudligi hamda soni ko'rsatilgan.

Bekliklar	Eski maktablar	Yangi maktablar
Denov	48 ta	4 ta
Boysun	9 ta	6 ta

Sherobod 23 ta 6 ta

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Buxorodagi boshlang'ich maktablar o'quvchining savod chiqarishi, diniy axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutsa-da, ta'lim maskani sifatida XX asr boshlarida zamon talablariga javob bera olmas, uning faoliyatida qator jiddiy muammolar bor edi. Chunonchi, maktablar uchun yagona o'quv dasturi, o'quv rejasi mavjud emasdi. Ularning har biri o'z holicha faoliyat ko'rsatgan, o'quv jarayoni majburiy rejaga asoslanmagan va boshlang'ich maktablarda ta'lim jarayoni ko'p jihatdan maktabdor domlaning faoliyati, iqtidoriga bog'liq bo'lgan. O'qitish, ta'lim-tarbiya berish usuli zamon talablari darajasidan ancha orqada bo'lgan.

#### Foydalanilgan manba adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobojonova Feruza. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri — XX asrning boshlari) // -Toshkent: «Adib» nashriyoti, 2014. 128 b.
2. Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Toshkent. 2017. - B. 55.
3. Хаников. Н. Описание Бухарского ханства. СПб. 1843. - С. 211-213.
4. Наливкин В. Школа у Туземцев Средней Азии // Туркестанский ведомости, 1898. 8 август.
5. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркистане (1865-1924). М. - С. 260.
6. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Пер. с персидского, введения и примеч.: Н.К.Норкулов, ред. перевода: А.К.Арендс, предисловие, ред. введения и примеч.: А.С.Сагдуллаев. – Ташкент: Akademiya, 2009. – С. 207.
7. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. // Asarlar.–Toshkent: Badiiy adabiyot, 1963. I tom. - B. 202.
8. Mingnorov A.T. XX asrning 20-yillarida Turkistondagi ma'orif masalalarining davriy matbuotda yoritilishi // Tarixiy manbashunoslikning dolzarb masalalari. T. 2013.
9. Материалы по районированию Узбекистана. Вып. I Самарканд.1926 С. 41- 172.
10. O'z MA, 1010-jamg'arma, 1-ro'yxat, 66-ish, 91- varaq
11. O'z MA, I-2-jamg'arma, 1-ro'yxat, 268-ish, 20-29 varaq.
12. O'z MA, I-2-jamg'arma, 1-ro'yxat, 268-ish, 7 varaq.
13. O'z MA, I-2-jamg'arma, 1-ro'yxat, 268-ish, 34 varaq.
14. O'z MA, I-3jamg'arma, 1-ro'yxat, 754-ish, 11-varaq.
15. O'z MA, I-3jamg'arma, 1-ro'yxat, 754-ish, 11-varaq.
16. O'z MA, I-3jamg'arma, 1-ro'yxat, 678-ish, 319-varaq.

## ETNOGRAFIYA

## ФРАНЦ БОАС ВА ТАРИХИЙЛИК МАКТАБИ

Барно Мамажоновна Убайдуллаева,

Ўзбекистон Миллий университети “Антропология ва этнология” кафедраси доценти,  
тарих фанлари доктори  
UDK: 94(575.1).<https://orcid.org/0009-0008-4597-231X>

**Аннотация:** Мақолада машҳур олим Франц Боаснинг фаолияти ва асосий асарлари ҳақида умумий маълумотлар келтирилган. Шунингдек, унинг маданий релятивизм, тарихийлик ҳамда антирасизмга оид назариялари бўйича қарашлари таҳлил қилинган. Бундан ташқари, тарихийлик мактабининг асосий ғоялари баён этилган.

**Калит сўзлар:** халқ, этнология, маданият, Америка, релятивизм, назария, антропология, тарихий.

**Аннотация:** В статье представлен обзор деятельности и основных работ известного ученого Франца Боаса, а также проанализированы его ключевые идеи в области культурного релятивизма, историзма и антирасистских теориях. Кроме того, представлен обзор основных направлений американской исторической школы.

**Ключевые слова:** народ, этнология, культура, Америка, релятивизм, теория, антропология, исторический.

**Annotation:** The article provides an overview of the activities and main works of the famous scientist Franz Boas, and also analyzes his key ideas in the field of cultural relativism, historicism and anti-racist theories. In addition, an overview of the main directions of the American historical school is presented.

**Key words:** folk, ethnology, culture, America, relativism, theory, anthropology, historical.

Маълумки, 1890-йилларга қадар АҚШда этнология фани эволюцион йўналишда ривожланган. Аммо XIX асрнинг сўнгги ўн йиллигида Америка

этнологиясида атоқли олим ва жамоат арбоби Франц Боас асос солган янги йўналиш вужудга келди. Ушбу янги мактаб Боас мактаби ёки тарихий этнология мактаби, деб аталади. Янги илмий йўналишнинг пайдо бўлиши этнологияга оид назарияларнинг инқироз ҳолати билан боғлиқ бўлиб, баъзи олимлар ҳукмрон парадигмаларни рад этиб, турли халқлар ҳаётни ўрганишга мутлақо янги ёндашувларни таклиф қилишди [14].

Этнологиянинг вазифаларини қайта кўриб чиқишнинг асосий ташаббускорларидан бири бўлган Боас барча анъанавий этнология мактабларини (эволюционизм, диффузионизм, функционализм) етарлича универсал эмаслиги ва бундан ташқари - нотўғри хулосаларга олиб келади, деб рад этади ва этнологияни бутунлай янгидан яратишни таклиф қилди. Унинг ғояси этнографик маълумотларни тўплашни бошидан бошлаш, сўнгра улар асосида умумий хулосаларни чиқариш, аста-секин янги усуллар ва янги назарияларни ишлаб чиқиш эди.

Франц Ури Боас (1958-1942) Германиянинг Вестфалия вилоятидаги Минден шаҳрида туғилган. Унинг оиласи яҳудий бўлиб, либерал мафкуралар билан танилган ва мустақил фикрлашни рағбатлантиришга мойил кишилар эди. Боас оилада ёшлигидан китобни қадрлашга ўргатилган, унинг қизиқиш доираси жуда кенг, табиий фанларнинг барчаси уни қизиқтирар ва маданиятни ўрганшга ҳам бефарқ эмасди. У Гейделберг, Бонн ва Кил университетларида табиий ва аниқ фанлар, жумладан география, математика ва



физика фанларини ўрганди ва 1881 йилда у сув рангини идрок этишни аниқлайдиган физик параметрлар бўйича номзодлик диссертациясини ҳимоя қилди.

Боас бир йиллик армиядан сўнг, 1883 йилда Канаданинг шимолий қирғоғидаги Баффин оролига саёҳат қилади. Оролда яшовчи маҳаллий халқларнинг тили ва маданияти олимни шунчалик ҳайратда қолдирдики, уларни жиддий ўрганишни бошлади ва бир йил Баффин оролида ўтказди. 1888 йилда эса ўзининг тадқиқот натижаларига асосидаги, ва этнология соҳадаги илмий фаолиятининг бошланиши бўлган "Марказий эскимослар" асарини нашр этди[4].

Шу тариқа олим табиий дунёни эмас, балки одамлар ва маданиятни ўрганишга ўтиб, илмий фаолияти йўналишини ўзгартирди. Боас ўша пайтдаги ҳукмрон қарашлардан фарқли ўларок, ўзининг дала ишлари орқали барча жамиятлар маданияти тенг эканлигига ишонди. У ўша давр тилига кўра "ёввойи" ёки "ибтидоий" ва "маданиятли" ҳисобланган жамиятлар ўртасида туб тафовутлар борлиги ҳақидаги даъвога қарши чиқди. Боас учун барча инсон гуруҳлари принципиал жиҳатдан тенг эди. Унинг фикрича, бу халқларни фақат ўз маданий контекстида тушуниш, англаш керак эди [1].

Боас 1893 йилги Бутунжаҳон Колумбия кўرғазмаси ёки Кристофер Колумбнинг Америкага келишининг 400 йиллигига бағишланган Чикаго Жаҳон кўрғазмасининг маданий экспонатлари билан яқиндан ҳамкорлик қилди. Бу жуда катта иш эди ва унинг тадқиқот гуруҳлари томонидан тўпланган материалларнинг аксарияти Боас Колумбия кўрғазмасидан кейин бир мунча вақт ишлаган Чикагодаги дала музейи коллекциясининг асосини ташкил этди.

Боас шундан сўнг Нью – Йоркка келди ва дастлаб Америка табиий тарих музейи куратори вазифасида ишлади. У музей шароитида халқларнинг кундалик турмуши нусхалари саҳналарини тайёрлаш бўйича ғоя муаллифларидан бири эди. 1890 йилда музейда ташкил этилган

Шимолий –Ғарбий соҳил кўрғазма залини яратиш ва очиш ҳамда унга оид тадқиқотлар ўтказишда асосий рол ўйнади. Бу кўрғазма зали Шимолий Американинг туб халқлари ҳаёти ва маданиятига бағишланган бўлиб, олим ушбу музейда 1905 йилга қадар фаолият олиб борди.

Боас 1899 йилда Колумбия университетига уч йиллик ўқитувчилик фаолиятдан сўнг биринчи антропология профессори бўлди. У университетнинг антропология кафедрасини ташкил этишда муҳим рол ўйнади ва бу кафедранинг биринчи фалсафа доктори бўлди.

Олимнинг машҳур асарлари: «Ибтидоий одамнинг онги» (1911), «Америкалик хиндуларнинг тиллари бўйича маълумотнома» (1911), «Антропология ва замонавий ҳаёт» (1928), «Ирқ тил ва маданият» (1940) кабилардир.

Хусусан "Ибтидоий одамнинг онги" («The Mind of Primitive Man») асари 1911 йилда нашр этилган бўлиб, 1926 йилда рус тилига таржима қилинган. Мазкур асар Америка халқларининг турли ирқлари ва халқларининг менталитети, ақл-заковати, маданияти турларини ўрганишнинг энг йирик йўналишларидан бири – тарихий этнология мактабига асос солди, ҳамда антропология, тил ва маданият фалсафаси, диншунослик, тилшунослик каби билимларга оид қатор соҳаларнинг назарий жиҳатдан шакллантиришга катта ҳисса қўшган[2. С. 146].

Ушбу асарнинг асосий ғояси ўша даврда фанда мавжуд бўлган ирқчилик назариялари, яъни, "оқ" ирқнинг ақлий, психофизиологик ва маданий устунлигини, шунингдек, замонавий европаликларнинг архаик маданиятни сақлаб қолган халқлар билан таққослаганда интеллектуал устуворлиги ҳақидаги ғояга қарши кескин қарама-қаршилиқда шаклланган эди. Ирқчиликка қарши, этник ва маданий камситишларга қарши норозилик Боаснинг илмий позициясида муҳим ўрин тутди [13. С.132 – 133].

У "Ибтидоий одамнинг онги" асрида табиий фанлар методларини юқори баҳолаган ва улардан баъзиларини

гуманитар фанлар соҳасига экстраполяция<sup>2</sup> қилишга интилган. Олим биология ва анатомия маълумотларига асосланиб, ирқий гуруҳларнинг физиологик хусусиятлари (масалан, энса суякнинг шакли) ва миясининг хусусиятлари (масалан, мия вазни) турли одамларнинг интеллектуал қобилиятлари ёки хиссий стандартлари билан турли одамларнинг интеллектуал қобилиятлари ёки хиссий стандартлари билан тўғридан-тўғри боғлиқ эмас, деган.

Боаснинг фикрича, на ирқ, на географик шароитлар инсон шахсини шакллантирувчи асосий омиллардан бири эмас. Этник маданият ва ижтимоий муҳит асосида тафаккур, ҳис-туйғулар ва хатти-ҳаракатлар шаклланади. Шу тарзда Боас ўз релятивистик ғояларни илгари сурди ва ахлоқий тушунчаларнинг бутун тизимини танқидий қайта кўриб чиқиш муаммосини кўйди ва тадқиқотчидан ўз маданиятига асосланган баҳолашдан озод бўлишини талаб қилди [16].

Биобарин, Боаснинг маданий релятивизм назариясида барча маданиятлар моҳиятан тенгдир, фақат ҳар бир маданиятни ўша маданият нуқтаи назаридан тушуниш керак. Олимнинг фикрича, икки маданиятни солиштириш, олма ва апелсинни солиштиришга ўхшайди, бу мевалар бир-биридан тубдан фарқ қилади. Шунинг учун бу меваларни солиштириб бўлмайди. Демак, маданиятларга ҳам шундай ёндашиш керак эди. Бу маданиятлар ва маданий ёдгорликларни эволюцион тараққиёт босқичлари билан асослашга уринган ўша даврдаги эволюцион назарияга қарши ёндашув эди. Боаснинг назарида ҳеч қандай маданият бошқасидан кўра кўпроқ ёки камроқ ривожланган ёки тараққий этган эмас. Улар шунчаки бир-биридан бошқача. Худди шу ёндашувдан, Боас турли ирқий ёки этник гуруҳлар орасида айримлари бошқалардан кўра кўпроқ

ривожланган, деган қарашни рад ва ўша даврда ҳукмрон бўлган илмий ирқчиликка ҳам қарши чиқди.

Боас учун антропология турли халқлар маданияти ва тажрибаларини тадқиқ этадиган маданий антропология, археология, лингвистик антропология ва жисмоний антропологияни ўзида бирлаштирган яхлит бир соҳа эди.

Унинг фикрича, ирқий гуруҳлар ўртасидаги ўзига хос анатомик ва физиологик фарқлар (бош суяги шакли, бўйи, тери ранги ва бошқалар) атроф-муҳитнинг таъсири ва "тарихий воқеаларнинг умумий йўналиши" билан боғлиқ бўлиб, когнитив, хиссий ва иродавий қобилиятлар эса барча инсонлар учун умумий характерга эгадир [3].

Боас замонавий одамларнинг ва ривожланишнинг архаик босқичидаги халқларнинг психологик хусусиятларини таққослаб, улар ўртасида сезиларли фарқ йўқлигини таъкидлади. Боаснинг фикрича, "онгни ташкил топишида ... ақлий концентрацияни сақлаб туриш қобилияти, фикрлашнинг янги ғояларга очиклиги – бу барча муҳим интеллектуал фазилатлар принципал жиҳатдан ўхшашдир; кузатувчилар томонидан аниқланган фарқлар бу фазилатларнинг моҳияти билан эмас, балки уларнинг намоён бўлиш шакллари билан боғлиқ" [6. С.60 – 61].

Ф.Боаснинг назарий қарашларини унинг қатор мақолаларида ҳам ўз аксини топган: "Этнология муаммолари" (1888), "Антропологияда қиёсий методнинг чегаралари" (1896), "Антропология тарихи" (1904), "Этнология методлари" (1920), "Эволюция ёки диффузия" (1924), "Антропологияда тарих ва фан" (1936) ва бошқалар. Асосан шу асарлар асосида унинг методологик қарашларини баён этган.

Илмий фаолиятининг бошида Американинг шимоли-ғарбий қирғоғидаги қабилаларни ўрганар экан, Боас Морган ғоялари таъсирда эди, бироқ, унинг кейинги ишларида Франц Боас маданий эволюция назариясининг бир қатор қоидаларини шубҳа остига қўйган биринчи

<sup>2</sup> Экстраполяция – лотинча - extrā – ташқарида, ундан ташқари ва – polio – тўғирлаш, ўзгартириш маъносини беради.

анти-эволюциячи олимлардан бири сифатида танилган.

Ф.Боас, айниқса, эволюция назариясидаги “маданият тараққиёти доимо оддийдан мураккабга қараб боради”, деган фикрни кескин танқид қилди[10]. Бундан ташқари, у ўз асарларида бир хил ривожланиш босқичида бўлган барча тарихий маданиятларнинг ўхшашлиги ҳақидаги эволюционистик тезисни қайта-қайта шубҳа остига қўйди ва бир-биридан фарқ қилувчи этнографик ҳодисаларни солиштиришга йўл қўйиб бўлмаслигини таъкидлади[6. С.12]. Бирок, Боас инсоният маданияти ривожланишининг умумий қонуниятларининг аҳамиятини, эволюция назариясининг ушбу асосий тамойилини ҳеч қачон бутунлай рад этмаган. У “инсоният маданияти ривожланишининг умумий қонуниятлари борлигини” тан олди, лекин уларнинг мавжудлигини фақат “индивидуал маданиятлар”ни ўрганиш орқали исботлаш мумкинлигини кўрсатди [7. С.517].

Бинобарин, барча халқлар деярли бир хил даражада мураккаб маданиятларга эга бўлиб, улар бир-биридан “пастки” ва “юқори” сифатида эмас, балки ривожланишининг тарихий-географик хусусиятларига кўра ўзига хос ўзига хос хусусиятлари билан фарқланади. Айнан шу хулоса, Боас томонидан илгари сурилган “маданий релятивизм” назариясига асос бўлди, десак хато бўлмайди.

Боас динлар ва мифологияларни ҳам шу назария асосида шарҳлади. У архаик эътиқодларнинг хусусиятларини ушбу эътиқод эгалари ўз ғояларини “маданиятли” одам учун ғайриоддий бўлган бундай ассоциациялар тизимида киритишлари билан изоҳлади.

Боас алоҳида маданиятларни ўрганишда тарихий методга амал қилишни таклиф қилди, бу унинг ёрдамида ўрганилаётган турли маданиятлар тарихини синчковлик билан тасвирлаб бериш ва “уч томонлама натижага эришиш имконини берди: биринчидан, у маданият элементларини шакллантирган ёки

ўзгартирган ташқи муҳитни очиб беради; иккинчидан, унинг психологик қиёфасини белгиловчи омилларни аниқлайди, учинчидан, тарихий алоқаларнинг таъсирини белгилайди[11. С.86].

Бошқача қилиб айтганда, Боас антропологларни ўзларининг услубий устуворликларини ўзгартиришга ва тарихий усулга мурожаат қилган ҳолда, тадқиқотларни реал фактлар билан асослашга чақирди. Бунинг учун “аниқ белгиланган географик ҳудудларда” ёки бошқа йўл билан “кичик географик ҳудудлар маданияти” да жойлашган ўзига хос маданиятларни ўрганиш керак. Шу билан бирга, антрополог қиёсий усулни камайтирмади, балки у “фақат ҳар бир алоҳида маданиятнинг барча ички алоқаларини ўрганишда олинган тарихий материал асосида кутилган натижаларга эриша олади” деб ҳисоблади [7. С.523].

Боаснинг мулоҳазаларидан кўриниб турибдики, Америка антропологияси фақат эмпирик асосга эга бўлган тарихий методни қўллаш орқали илмий асосга таянади. Шу муносабат билан Боас антропологияда фактларнинг асосий йиғувчилари – археологлар ва этнологларга алоҳида ўрин ажратди. Шунинг учун ҳам олим ўз шоғирдларидан экспедиция шароитида тавсиф усулини қўллашни талаб қилди. Дала кундаликларининг батафсил юритилиши экспедиция фаолиятининг муҳим натижаси бўлди. Олим ўзининг кейинги мақолаларидан бирида “Этнология усуллари”да америкалик антропологлар (гап Америка тарихий мактаби издошлари ҳақида кетмоқда Б.У.) асосан тарихий методга амал қилишларини таъкидлайди [14].

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, Боас тадқиқотнинг тарихий усулини изчил ҳимоя қилган ҳолда нафақат эволюционизм, балки диффузионизмнинг соддалаштирилган ва схемалаштирилган ёндашувларига ҳам қарши чиқди. Агар олим ўзининг дастлабки асарларида аниқ жамиятларнинг ривожланишини тушунтириб, диффузионизм ғояларига

таянган бўлса, кейинчалик, у гарчи турли маданиятларнинг ўзаро алмашинув жараёнини рад этмаса-да, аммо аккумуляция ва диффузия маданиятни тушунишда калит бўла олмайди, деган хулосага келади [12, С. 98 – 99].

Олимнинг ўзи 1910-йилда диффузия назариясидан воз кечганини ва “маданият динамикаси, маданият интеграцияси ва шахс ва жамиятнинг ўзаро таъсири” муаммоларига ўтганини тан олди [9].

Боас маданий эволюциянинг моноистик тушунчасидан фарқли ўларок, маданиятлар эволюциясининг плюралистик назариясига амал қилди. У шундай ёзган эди: “Биз бир вақтда бирга мавжуд бўлган, аммо, бутунлай бир-биридан фарқ қилувчи, турли маданиятларни тан олишимиз биланок, ривожланишнинг ягона универсал чизиғи ҳақидаги гипотеза ўз ўрнини йўқотиши аниқ бўлади” [8. С.519].

Боасни инсоният цивилизациясининг мавҳум фалсафий тарихий муаммолари ҳам қизиқтирар эди ва у америкалик антропологлар цивилизация тарихининг фалсафий муаммолари билан шуғулланишда европалик ҳамкасбларидан кам эмаслигини таъкидлади [8. С.520]. Бироқ, амалда олим инсоният цивилизациясининг фалсафий муаммоларини қандайдир “формулар” ёрдамида ҳал қилишни ўйламаган, балки маданий динамика жараёнларига устувор аҳамият бериб, алоҳида маданиятларни ўрганиш имконини берувчи плюралистик ёндашувни афзал кўрган.

Боаснинг фикрича, агар антрополог “кўз ўнгимизда содир бўлаётган жараёнларни тушунтириб бера олмаса”, “цивилизация ривожланишининг умумий муаммолари билан шуғулланиш”дан мантиқ йўқ [8. С. 521].

Боаснинг хулосалари шуни кўрсатдики, маданият тарихини қайта куриш ўта эҳтиёткорликни талаб қилади. Унинг фикрича, маданият тарихини тиклашга уринишда тадқиқотчи беихтиёр билвосита далиллар билан қаноатланади ва у ёки бу этнографик маданиятнинг барча

босқичларини ибтидоий маданиятнинг айрим рудиментларига мос келиши ҳақидаги асоссиз хулосага келади. Ташқи кўринишидан бир-бирига ўхшаш маданий ҳодисалар турли хил келиб чиқиши ва турли функцияларга эга бўлиши мумкин.

Ф.Боаснинг турли маданиятларда қадриятлар тизими ва ахлоқий тамойилларга оид қарашлари алоҳида қизиқиш уйғотади ва уларни антропологик тадқиқотларда қўлланиладиган муҳим методологик қоида сифатида қараш мумкин. Унинг фикрича, ҳар қандай маданиятни объектив илмий тадқиқ қилиш, қачонки, тадқиқотчи ўз маданиятининг қадрият йўналишларидан халос бўлгандагина мумкин бўлади. Шунда олим ҳар қандай маданиятга ўз-ўзидан кириб бориш имкониятига эга бўлади, бу эса унга ҳар бир халқнинг идеалларини холисона аниқлаш ва уларни маданий қадриятларнинг умуминсоний доирасига киритиш имконини беради [14]. Боаснинг бу ғояси кейинчалик Америка антропологиясининг релятивистик йўналишининг асосини ташкил қилади.

Шу тарзда Боас ва унинг мактаби методологиясида марказий ўринни эмпирик асосга эга бўлган тарихий метод эгаллаган. Ягона мумкин бўлган илмий ёндашув сифатида антрополог олинган маълумотларни синтез қилишдан бутунлай воз кечиб, фактларнинг миқдорий тўпланишига ва уларни диққат билан тавсифлашга имкон берди. Тадқиқотчи ўзининг бутун илмий фаолияти давомида антропологлар ўз илмий изланишларида индуктив методга таяниши ва фактик материалдан илмий умумлаштиришга ўтиши керак, аксинча эмас, деган ишонччи изчил ҳимоя қилди. Америка тарихий мактабининг натижалари этнографик ва археологик материалларни тўплаш, дала тадқиқотлари усулларини ишлаб чиқишдан иборат эди.

Америка тарихий мактаби ҳар бир маданиятни маълум бир маданий ҳудуд доирасида пайдо бўлган ўзига хос ҳодиса сифатида кўриб чиқди. Маданий динамика диффузия ва аккумуляция орқали маданий

элементларнинг кириб келиши ёки олиниши натижасида юзага келадиган ўзгаришлар билан изоҳланган. Шундай қилиб, Франц Боас томонидан асос солинган Америка тарихий мактабининг услубий асоси маданиятни статик ҳолатда ўрганишни бошлаган.

Кўпчилик Ф.Боасни "Америка антропологиясининг отаси", деб атайди. Бунга сабаб, шуки у Колумбия университетида маданий антропология бўйича америкалик олимларнинг биринчи авлодини тайёрлаб етиштирди.

Машҳур антропологлар Кларк Уисслер, Александр Гольденвейзер, Роберт Лоуи, Пол Радин, Маргарет Мид, Рут Бенедикт ва ёзувчи Зора Нил Херстон кабилар ҳам унинг шогирдлари эди. Бундан ташқари, унинг бир қанча шогирдлари бутун мамлакат бўйлаб турли университетларда, жумладан, Берклидаги Калифорния университети, Чикаго университети, Шимоли-ғарбий университет ва бошқа жойларда биринчи антропология бўлимларига асос солган. Кўшма Штатларда антропологиянинг академик фан сифатида пайдо бўлиши Боас ва унинг шогирдлари фаолияти билан чамбарчас боғлиқ. Шунингдек, Боас АКШда антропологлар учун асосий профессионал ташкилот бўлиб қолган Америка Антропология Ассоциациясининг ташкил этилиши ва ривожланишида асосий рол ўйнаган шахс эди.

Франц Боаснинг антропологик қарашлари унинг лингвистик тадқиқотларидан ажралмас эди. Гарчи ҳиндуларнинг тиллари Боасдан олдин ҳам америкалик тадқиқотчилар (Ж.У. Пауэлл, Д.Г. Бринтон) томонидан ўрганилган бўлса-да, айнан у Америка ҳиндуларининг тилларини тизимли тавсифлаш ва ўрганишни бошлаган ва бу тадқиқот учун илмий асос яратган эди.

Франц Боаснинг тилшунослик ҳақидаги фикрлари Вилгелм фон Гумболдтнинг тил ва тафаккур ҳақидаги қарашлари таъсирида шаклланган. Боас тил одамларнинг дунёқарашини белгилашига амин эди ва Гумболдтнинг

тилнинг "ички шакли" ҳақидаги ғояси у томонидан Америка ҳиндуларининг тиллари ўртасидаги фарқларни тавсифлаш учун ишлатилган [15].

Бироқ Ғарбий Европа тилшунослигида ишлаб чиқилган лингвистик тавсифнинг анъанавий тамойиллари ҳинду тилларини тавсифлашда номақбул бўлиб чиқди, шунинг учун Ф.Боас ва унинг издошлари тавсифий тилшунослик методини ишлаб чиқдилар. Ушбу услубнинг марказида тадқиқотчи, одатда икки тилда бўлган информатор билан ишлашда махсус танланган саволларни сўраш турар эди. Шунинг учун ҳам Америка антропологиясида Боас туфайли дала тилшунослиги методологиясига, ахборотчи (информатор) билан ишлаш усулларига алоҳида эътибор берилди.

Боас Америка тилшунослигида ўрганилаётган тилнинг синхрон тавсифини биринчи ўринга қўйиш амалиётини бошлаб берди. Бундан ташқари, у ҳинду тилларининг тавсифи билан боғлиқ ҳолда, сўзларни ажратиб кўрсатиш учун махсус тадқиқот тартибларини ишлаб чиқишни бошлаган. Кейинчалик Ф.Боаснинг антропологик тилшунослигидан икки йўналиш: Л.Блумфилд асос солган дескриптивизм ва Э.Сэпир этнолингвистика йўналиши пайдо бўлди [5].

Антропологиянинг ривожланиши учун Боаснинг маълумотлари катта аҳамиятга эга бўлиб, унга кўра назарий билимлар эмпирик маълумотларнинг ишончли асоси бўлиши керак эди. Бу қоидага ўзи амал қилган Боас маҳаллий ҳиндуларнинг психофизиологияси, тиллари, маданияти ва динини чуқур ўрганган.

Ф.Боас ўз шогирдларидан ҳам ўрганилаётган маҳаллий халқ тилини билишни қатъий талаб қилди. Унинг талаби билан шогирдлари барча матнларни дастлаб асл тилда ёзар ва кейинчалик инглиз тилига сўзма-сўз таржима қилишар эди. Боаснинг ўзи 17 та ҳинд лаҳжаларини билган ва уларни ўрганишга жиддий ва пухта ёндашган. Олим фольклор ва бошқа матнларни ёзиб, уларнинг грамматик



тузилишини чуқур ўрганиб чиқди ва кейинчалик тилларнинг ўзаро муносабатларини ўрганиш усулини таклиф қилди. У келиб чиқиши билан боғлиқ бўлмаган қўшни қабилаларнинг тиллари нафақат луғат, балки фонетика ва грамматик тузилишда ҳам ўхшашликни пайқаган.

Франц Боас 1942 йилда Колумбия университети кампусида инсультдан вафот этди. Унинг шахсан ўзи томонидан танланган материаллари ўлимидан сўнг «Раса ва демократик жамият» номи билан тўплам сифатида нашр этилди. Мазкур китоб ирқий дискриминацияга қарши қаратилган эди.

“Ибтидоий одамнинг онги” ва бошқа асарларида баён этилган ғоялар Боаснинг кўзга кўринган шогирдлари – А.Кребер, Э.Сэпир, Р.Бенедикт, Л.Уайт ва бошқалар томонидан давом эттирилди. Боас ва унинг мактаби фаолияти натижаси аниқ антропологик маълумотларга асосланган илмий билимлар тизими бўлиб, маҳаллий маданиятларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда инсониятнинг цивилизациялашган ривожланишининг умумий жараёнини қайта тиклади.

Боас ва унинг издошларининг Америка антропологиясига қилган катта хизматлари шундан иборатки, улар муҳим этнографик материаллардан фойдаланган ҳолда турли қабилалар ва халқлар маданиятини ўрганишда ҳар қандай формулалар, умумий схемалар ва назарияларнинг (эволюция ёки диффузионизм) фойдасизлигини кўрсатдилар. А. Кребер ва Л. Уайт маданий антропологиянинг шаклланишига катта ҳисса қўшдилар. Хусусан, Л.Уайт маданиятшуносликни мустақил фан сифатида алоҳида ажратиб кўрсатиб, унинг фан соҳаси ва асосий тадқиқот усулларини белгилаб берган.

Агар биз Америка тарихий мактабининг моҳиятини ва унинг этнологияга қўшган ҳиссасини

тавсифлайдиган бўлсак, у қуйидаги асосий қоидаларда намоён бўлади:

- Этнология ҳар бир халқни, унинг тили, маданияти ва антропологик типини алоҳида ва ҳар томонлама ўрганиши керак;

- турли халқлар маданиятининг ўзаро таъсири муайян географик ҳудудлар доирасида маданий жамиятни вужудга келтиради;

- ушбу ҳудудлар чегарасида халқларнинг ўзаро таъсирининг ўзига хос шакллари, индивидуал маданий элементларнинг тарқалишини излаш керак;

- инсоният ва унинг маданияти тараққиёти катта қийинчилик билан ўрганиладиган умумий қонуниятлар асосида содир бўлади;

- тараққиётнинг умумий қонуниятларини билишда ҳодисаларнинг ташқи ўхшашлигига алданмаслик керак, улар аслида тубдан тубдан фарқ қилиши ва келиб чиқиши турлича бўлиши мумкин.

- ўзимизнинг ахлоқий баҳолаш мезонларни бошқа маданий типдаги халқларга ўтказмаслигимиз керак;

- ҳар бир халқ тарихан ўз ижтимоий идеалларини, ўзига хос ахлоқий меъёрларини шакллантирган.

Боаснинг кўплаб шогирдлари ва издошлари орасида энг машхурлари сифатида К. Уисслер, А. Гольденвейзер, Р. Лоуи, П. Радин Л. Уайтларни кўрсатиш мумкин, лекин, қарашлари яқин бўлган шогирди Альфред Кребер эди.

Хулоса қилиб шуни айтиш керакки, Франц Боаснинг қарашлари ва фаолияти таъсирида АҚШда антропологларнинг профессионал мактаби шаклланган. Айнан у этнология, биология, тилшунослик, археология ва бошқа билим соҳалари маълумотлари асосида инсон ҳодисасини маданий ва тарихий ранг-баранглигида ҳар томонлама ўрганишга илмий асос солган. Шу муносабат билан, олим ва унинг издошлари Америка антропологиясининг барча замонавий йўналишлари, жумладан, маданий антропологиянинг асосчиларига айланди, деган фикр асослидир.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Аверкиева Ю.П. Франц Боас (1858-1942) // Краткие сообщения. Ин-т этнографии им. Н.Н. Миклухо-Маклая. – М., 1946.
2. Аверкиева Ю. П. История теоретической мысли в американской этнографии. – М.: Наука, 1979.
3. Американская школа исторической этнологии // <https://arheologija.ru/amerikanskaya-shkola-istoricheskoy-etnologii/>
4. Боас Франц // [https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye\\_nauki/](https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/)
5. Боас Франц <http://www.religiocivilis.ru/hristianstvo/christ-b/3540-boas-franc.html?start=1>
6. Боас, Ф. Ум первобытного человека. – М.; Л., 1926.
7. Боас, Ф. Границы сравнительного метода в антропологии // Антология исследований культуры. Интерпретация культуры. – С-Пб., 1997. – Т. 1.
8. Боас, Ф. Методы этнологии // Антология исследований культуры. Интерпретация культуры. – СПб., 1997. – Т. 1.
9. Боас, Ф. История и наука в антропологии: ответ // Антология исследований культуры. Интерпретация культуры. – СПб., 1997. – Т. 1.
10. Боас Ф. Эволюция или диффузия? / Пер. Ю.С.Терентьева // Антология исследований культуры. СПб.: Университетская книга, 1997. Т.1. С.343-347.
11. Клейн Л. С. История антропологических учений / под ред. Л. Б. Вишняцкого. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2014.
12. Кузнецов И. В. История “История антропологии Франца Боаса // Этнографическое обозрение. – М., 2002. – № 6. – С. 96-108.
13. Токарев С. А. Рецензии (Франц Боас. Ум первобытного человека) // Этнография. – 1928. – № 1. – С. 132–133.
14. Токарев С. А. История зарубежной этнографии. – М.: Высш. школа, 1978 (электрон ресурс) <https://www.hse.ru/data/>
15. Подзюбан Е.В. Методологические положения Франца Боаса и его школы // <https://cyberleninka.ru/article/n/metodologicheskie-polozheniya-frantsa-boasa-i-ego-shkoly>
16. Франц Боас // <https://rus.team/people/frants-boas>

**ҚАДИМГИ ШАРҚ ТАРИХИЙ МАНОҚИБЛАРИ ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ  
АҲОЛИСИ ЭТНОГРАФИЯСИНИ ЎРГАНИШДА МУҲИМ МАНБА СИФАТИДА**

**Очил Бўриев,**

Қарши давлат университети профессори

**Муртоз Усмонов,**

Қарши давлат университети доценти

UDK: 94(575.1).

<https://orcid.org/0009-0005-2134-879X>

**Аннотация:** Ушбу мақолада Қадимги Шарқ тарихий маноқиблари ва уларнинг Қашқадарё воҳаси этнографиясини ўрганишдаги аҳамияти баён этилган.

**Аннотация:** В данной статье описывается значение для изучения этнографии Кашкадарьинского оазиса Древневосточные источники.

**Annotation:** This article describes the significance of the ethnography of the Kashkadarya oasis in the ancient Eastern sources.

**Калит сўзлар:** Қадимги Шарқ, тарихий маноқиб, Қашқадарё воҳаси, Эрон Ахамонийлари, Персеполь, қадимги турк, қарлук, Хитой ва Ҳиндистон тарихий

маноқиблари, этнография.

**Ключевые слова:** Древний Восток, исторические памятники, Кашкадарьинский оазис, Ахемениды Ирана, Персеполь, древний тюрк, карлук, китайская и индийская исторические перспективы, этнография.

**Key words:** Ancient East, historical perspective, Kashkadarya oasis, Achaemenids of Iran, Persepolis, ancient Turk, Qarluq, Chinese and Indian historical perspectives, ethnography.

Қашқадарё воҳаси этнографиясига оид манбаларнинг мазмун-моҳиятига кўра қуйидаги гуруҳларга ажратиб, тавсиф этиш мумкин: қадимги манбалар (Авесто, Эрон Аҳамонийларининг қоятош битиклари, ҳинд, юнон, хитой, қадимги турк, византия, маҳаллий ёзма манбалар), араб тилидаги манбалар, форс тилидаги манбалар, эски ўзбек тилидаги манбалар, форс-тожик тилидаги манбалар. Қуйида Қадимги Шарқ тарихининг баъзилари ҳақида тўхтаб ўтилади.

**Авесто.** Ўрта Осиё халқлари қадимги тарихи ҳақида илк маълумот берувчи дастлабки манба бўлиб, унинг “Видевдот” китобида қадимги аждодларимизнинг ҳамда маълумотлар мавжуд. Мазкур асарда ўлкамизда ислом дини ёйилгунча (милодий VIII асргача) аждодларимиз эътиқод қилган зардуштийлик динининг муқаддас китобидир.

Авестодаги қадимги географик ҳудудий тушунчалар - вилоятлар номлари, ижтимоий - иқтисодий муносабатлар жамиятнинг ижтимоий таркиби, маҳаллий аҳолининг этногенези, этник қабилалар, тарихи учун ноёб манбадир [1].

**Эрон Аҳамонийларининг қоятош битикларида.** Милоддан аввалги VIII асрнинг охири – VII асрнинг бошларида Форс кўрфазидидаги Аҳамон сулоласига асос солиб, ўғли Чишпиш форс қабилалари иттифоқини тузган. Бу даврдаги миҳхат ёзувларида Парсуман (Персуа) мамлакатнинг подшоси Кир I тилига олинган, у ягона давлат давлат барпо қилади. Милоддан аввалги 559 йилда Кир

II ҳокимиятга келган. Милоддан аввалги 545-540 йилларда Аҳамонийлар Касбий, Орол, Бактрияни эгаллаган Доро I даврида авж олиб, у милоддан аввалги 518 йилда Оролбўйи сакларини бўйсундирган.

Бу урушда Аҳамонийларга ўлпон (солик) тўловчи мамлакат ва халқларнинг подшонинг Персеполь шаҳридаги шох саройига кўтарилувчи пиллапоя деворларида, Суза шаҳридаги Доро I ҳайкал ёзувларда битилган.

**Персеполь деворидаги бўртма расмлар.** Персеполь (Тахти Жамшид) шаҳрида Доро ва Ксеркс саройига олиб борувчи тош пиллапоя деворларига Эрон Аҳамонийларига тобе 23 та мамлакатлардан хирож олиб келувчи вакиллар суратлари бўртма шаклида ишланган. Улар вакилларнинг совға-саломлар, қиёфаси, кийим-бошлари, қурол-лари, уларга хос ҳайвонлари ҳам тасвирланган.

Сугдиёнадан борганлар 8- қаторни ташкил этиб, 7 нафар кишини ташкил этган. 11-қаторида тиграхауда саклари, 15-қаторда бактрияликларнинг беш нафар вакили, 17 қаторда хоразмликлар олиб борган совғалари билан бирга кўрсатилган.

Булар орасида бактрияликлар (турли идишлар, тери, мўйна, туя билан), суғдийлар (турли газламалар, тери ва қўйлар билан), саклар (от ва чакмонлар билан), парфияликлар (идишлар ва туя билан) ва хоразмликлар (от, қурол-аслаҳа билан) суратлари ҳам мавжуд.

Хуллас Эрон Аҳамонийлари даври суратларида ва ёзувларида Сугдиёна, Бактрия, Хоразм ва сак қабилаларининг этник тарихи ва этномаданияти тўғрисида қизиқарли маълумотлар мавжуд (Асқаров А. Кўрсатилган асар).

Аҳамоний подшоларининг битиклари форс тилида ёзилган бўлиб, улар ижтимоий, сиёсий ва диний масалаларга оид подшо буйруқларидан иборат бўлиб, уларда Ўрта Осиё қадимги аҳолисининг этник номлари ҳам келтирилганлиги диққатга сазовордир.

**Бехистун ёзувлари.** Бу Доро I даврида Карманшоҳ ва Ҳамадон шаҳри ўртасида йўлда баланд қоятошда қадимги форс,

элам ва аккад тилларида ёзилган. Ёзувда шох Доро I номидан хабар берилиб, 23 давлатни босиб олганлигини ёзган. Шулар қаторида Бактрия, Суғдиёна тилга олинган, саклар устига юриш қилганлиги баён этилган.

**Нақши Рустам.** Аҳамонийларнинг мазкур ёзувларидаги тобе бўлган 28 та сатраплик ва халқларнинг рўйхати келтирилиб, улар орасида бактрияликлар, суғдиёналиклар, хоразмлик, парфияликлар ҳақида маълумотлар мавжуд.

**Суза ёзуви.** Доро I нинг Суза шаҳридаги подшоҳ саройида ўрнатилган ҳайкалдаги ёзувларида Бактрия, Суғдиёна, Хоразмдаги саклар тилга олинган. Олтинни Бактриядан, ялтироқ тош ва ложуардни Суғдиёнадан, фирузани Хоразмдан келтирилганлиги қайд этилган.

**Қадимги турк манбалари.** XVII асрда Сибирь, Мўғулистонда, Олтой ҳамда Ўрта Осиё, Ўзбекистонда топилган руний битикларининг кўплаб гуруҳи мавжуд: Енисей, Мўғулистон, Тунюкук, Култегин, Билга хоқон, Онгин, Олтой, Шарқий Туркистон, Қозоғистон, Қирғизистон битиклари. Бу битиклар Ўрта Осиё, жумладан Ўзбекистон халқларининг араблар истилоси арафасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётини ўрганишга кўмаклашади [2].

Қадимги руний ёзувлари (асосан сопол идишларга ёзилган) Фарғона, Олой водийси ҳамда Жанубий Ўзбекистон ва Тожикистон худудидан, яъни Бекобод, Исфара, Марғилон, Фарғона, Андижон, Қувасой, Ўш, Ўзган, Кофирниҳон, Суғддан ҳам топилганлиги диққатга сазовордир.

**Хитой манбалари.** Қашқадарё воҳаси тарихи ва этнографияси бўйича маҳаллий тилларда ёзилган ёзма манбалар мавжуд эмас. Шу боисдан ушбу масалани ўрганишда хитой манбалари муҳим аҳамиятга эга. Илк ўрта асрларда Хитойда ҳукмронлик қилган сулолалар тарихига бағишланган манбалар “Бейшу”, “Суй шу” ва “Таншу” каби расмий солномаларда Жанубий Суғд аҳолиси этнографияси ҳақида маълумотлар келтирилган [3].

Шунингдек, Будда роҳибларининг

саёхатномалари, кундалик-ларида ҳам кўплаб этнографик маълумотлар ҳам мавжуд. Будда зиёратгоҳлари билан танишиш учун Хитойдан чиқиб, Шимолий Тохаристон ва Жанубий Суғдда бўлган будда монахлари кундаликларида аҳоли этнографияси бўйича маълумотлар учрайди[4].

Туркистон тарихи қадимги даври ҳақидаги маълумотлар ўша давр Хитой муаррихлари отаси – Сима Цянь (мил. авв. 145 ёки 86 йй) 130 китобдан иборат “Ши Цзи” (“Тарихий хотиралар”) ва Бан Гунинг (32-92) “Биринчи Хан династиясинин янги тарихи” асарлари орқали етиб келган.

Сима Цянь ушбу асарида Ўрта Осиё, унинг 123 - бобида Фарғона қадимий аҳолиси ва ҳаёти ҳақида қимматли маълумотлар мавжуд.

Хан ҳукмдори Уди (мил.авв. 140-87 йй.) милоддан аввалги 138 йилда юэжчи қабилари ҳузурига ҳарбий зобит Чжан Цянни юборган. У мил. авв. 114 йилда Туркистонга иккинчи марта 300 нафардан иборат карвонга бош бўлиб келган ва императорга ҳисоботлар юборган. Бу ҳисоботларда ҳам этнографик маълумотлар мавжуд. Цима Цянь “Тарихий хотира” асарини Чжан Цян маълумотларига асосланиб ёзган. Ушу асарда Канкия (Кангюй) давлати аҳолиси этнографияси ҳақида лавҳалар келтирилган [5].

630 йилда Тан сулоласи даврида Суғдиёна орқали Ҳиндистонга ўтган Сюан Цяннинг 723-727 йилларда Хитойдан сув йўли орқали Ҳиндистонга, Суғдиёнага, кейинчалик Фарғона ва Шарқий Туркистон орқали юртимизга қайтган. Будда монахи У Куннинг “У Кун Жу Цзи” (“У Куннинг Ҳиндистонга саёхат қайдлари”) асарида ҳам этнографик лавҳалар келтирилган[6].

Шунингдек хитой муаррихлари Бань Гу (32-92), Фан Хуа (398-445), Ли Янь Шоу (тахминан 595-678), Вей Чжен (580-643), Оуян Сю (1007-1072), Сун Ци (998-1061) асарларида ҳам ҳозирги Ўзбекистоннинг жанубий вилоятлари ҳамда Шарқий Туркистон ҳақида этнографик маълумотлар учрайди[7].

**Қадимги хинд манбалари.** “Махабхарата” (“Бхарата авлодлари жангномаси”) санскрит тилида ёзилган бўлиб, 100 минг байтни ўз ичига оладиган 18 та китобдан иборат. Асар милоддан аввалги X-VIII асрларда яратилган. Достонда Ҳиндистонга борган саклар, массагетлар, тохарлар ва қадимги Қанка ҳақида қимматли маълумотлар учрайди [8].

Таъкидланган асарда шундай сатрлар келтирилган: “Унинг (подшоҳ Юдхишхиранинг) эшиги олдида борган халқлар билан бирга саклар, тохарлар ва қанқлилар ҳам навбат кутиб турардилар. Паҳмоқ, пешаналари шохлар билан безатилган; қўлларида турли-туман

совғалар: жун, рангли ипак ва пата (оқ қайининг бир тури) дарахти, толасидан, шунингдек, камёб матолардан, пахтадан тўқилган газламалар, майин нафис терилар, узун ва ўткир қиличлар, шамширлар, темир найзалар, хар хил болгалар, ичимликлар, хушбўй нарсалар, турли-туман қимматбаҳо тошлар...”

Хуллас Қадимги Шарқ - тарихий маноқибларида Марказий Осиё, Ўзбекистон қолаверса Қашқадарё воҳаси аҳолиси этнографияси тўғрисида қизиқарли ва ноёб маълумотлар мавжудки, уларни янги ва холисона ўрганиб, салмоқли илмий асарлар яратиш мумкин.

### Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати.

1. Авесто, Яшт китоби. М.Исҳоқов таржимаси. –Т.: “Шарқ”, 2001. -128 б; Авесто. Видевдот китоби. М.Исҳоқов таржимаси. –Т.: ТошДШИ, 2007. -100 б; Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. –Т.: “Шарқ”, 2001. -338 б; 4. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. –Т., 2015. Б.95-99.

2. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Т.: “Ўқитувчи”, 1982; Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. 2-нашри. –Т., 2001. Б.46-49; Назаров Н. Турк рунологиясининг тарихий аспекти ва тафаккур таракқиетидаги ўрни. Монография –Т., 2021.

3. Бичурин Н. Я (Иакинф)., Собрания сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В трех томах т.2. -М., -Л.,1950. с.240-276.

4. Кюннер Н.В. Китайские известия о народах Южной Сибири, Центральной Азии и Дальнего Востока. –М.,1961.

5. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. Фарғона., 2013. Б.182-190; Шу муаллиф. Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши –Т., 2001; Асқаров А. Кўрсатилган асар. Б.116-124.

6. Каримова Н. Сведения Хуэй Чао по истории Центральной и Южной Азии – Тошкент. Востоковедения., 2015. № 1. с.45-51.

7. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. 2-нашри. –Т., 2001.Б.50-54.

8.Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. 2-нашри. Т.: “Ўқитувчи”, 2001. Б.33-34.

### КАШТАЧИЛИКДА РАМЗЛАР СЕМАНТИКАСИ

**Абуллаева Насибахон Арабовна,**  
Андижон давлат педагогика институти  
Ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси,  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
УЎК 391.4:746(575.121)  
<https://orcid.org/0009-0008-4513-879X>

**Аннотация:** Ўзбек каштачилигида тасвирланган накш ва рамзларни семантикаси ҳақида маълумотлар берилган.  
**Калит сўзлар:** Атиргул, ҳаёт дарахти,



геометрик нақшлар, учбурчак, тўртбурчак, анор.

**Аннотация:** Дана информация о семантике узоров и символов, описанных в узбекской вышивке.

**Ключевые слова:** Роза, Дерево жизни, геометрические узоры, треугольник, прямоугольник, гранат.

**Abstract:** Information about the semantics of patterns and symbols described in Uzbek embroidery is given

**Key words:** Rose, Tree of life, geometric patterns, triangle, rectangle, pomegranate.

Миллий хунармандчиликнинг турли соҳаларига тегишли буюмлардаги турли шакл ва безаклар ўз генезисига кўра, кишилик жамиятининг илк босқичларига тааллуқлидир. Аслида, бундай рамзий белгилар кишиларнинг маънавий рухий диний ҳамда табиат ва коинот ҳодисалари ҳақидаги дунё қарашлари замирида пайдо бўлган. Ҳалқ амалий санъати, хусусан, каштачиликдаги ҳар қандай тасвир ва шакл маълум бир маного эга.

Илмий адабиётларда каштачилик буюмларида акс этган нақш безакларини таснифлаш борасида ягона фикр мавжуд эмас. Бир қатор тадқиқотчилар ўз илмий изланишларида нақш безакларини турлича таснифлайдилар. Масалан, туркман гиламлари тарихини ўрганган Г. И. Саурова ўз тадқиқотида ушбу санъат намуналаридаги нақш безакларини икки гуруҳ, яъни геометрик ва тасвирий характердаги нақшларга ажратиб, улардан геометрик характердагилар реал ҳаётни ифодаласа, тасвирий кўринишдаги нақш безаклари эса ўз ўрнида ўсимликсимон ва жонзотлар тасвиридан иборат деб кўрсатади.[1] Бошқа бир тадқиқотчи В. В. Ванслов эса нақш безакларини бешта гуруҳ, яъни геометрик, ўсимликсимон, жонзотлар, предметлар ва аралаш нақш безакларига ажратади.[2] Шунингдек, тоғли тожикларнинг нақш безакларини ўрганган этнограф М.С.Андреев уларни саккиз гуруҳга, бошқа бир олим С. В. Иванов эса қирғиз нақш безакларини етти

гуруҳга бўлинишини қайд этган.[3]

Юқорида номлари келтирилган тадқиқотчиларнинг ҳар бири нақш безакларини турли гуруҳларга ажратар экан, уларни услублаштирилган характери ва уларда ифодаланган рамзларга қандай маъно юкланганлигидан келиб чиққан. Хунармандчиликда нисбатан кўп ва ёрқин рамзлар солинган буюмлар бу – каштачилик намуналаридир.

Миллий кашталардаги нақш безакларини тўрт гуруҳ, яъни ўсимликсимон (ислимий), геометрик (хандасавий), зооморф (хайвон) ва антропоморф (одам) кўринишидаги нақшларга ажратиш мумкин.[4]

Ўсимликсимон (ислимий) нақшлар каштачилик буюмларида турма-тур шаклда тасвирланади. Хусусан, дарахт, унинг шохи, барги, гули ҳамда меваси асосий ўсимликсимон нақш турлари ҳисобланади.

Жаҳон халқларида дарахт култи муҳим ўрин тутган. Ҳолбуки “...табиатга гўзаллик бахш этган дарахтлар уларнинг турли-туманлиги, ўсиб чиқиши, барг ёйиши, гуллаши, мева тугиши, умрининг узунлиги ва ривожланиш жараёни билан боғлиқ турли туман ҳолатларни кузатган аждоқларимиз ўзини ўраб олган буюм – ҳодисалар каби дарахтларни ҳам жонли деб тасаввур қилганлар. Бунинг натижасида анимистик қарашлар келиб чиққан”.[5]

Дарахт култи билан боғлиқ эътиқодий қарашларни келиб чиқиш тарихи қадим даврларга бориб тақалади. Тадқиқотчи Л. И. Ремпельнинг аниқлашича, “ҳаёт дарахти” образининг моддий маданият ёдгорликларида акс этиши илк палеолит даврида юз берган.[6]

Ўзбек, шу жумладан, Фарғона водийси кашталарида дарахт тасвири баъзан якка, баъзан эса жуфт қилиб тикилган. Юқорида таъкидланганидек, бундай кўринишни маҳаллий чеварлар “ҳаёт дарахти”, “муқаддас дарахт” ёки “дунё дарахти” деб атайдилар. Негаки, бундай дарахт халқ тасаввурига кўра одам ва оламини яратилишининг асосидир. Боз устига,

бундай дарахт вертикал тузилишига кўра, устма-уст жойлашган оламнинг учта қисми, яъни осмон, замин ва ер ости оламларини ўзаро бирлаштириб турувчи восита, деб қаралади.[7]

Туркий халқларининг кўплаб афсона ва эртақларида “*ҳаёт дарахти*” ҳақида маълумотлар келтирилади. Ҳалқона мифологик тасаввурига кўра, “*ҳаёт дарахти*”нинг юқори қисмида афсонавий Семурғ (ёки айрим ҳолларда бургут) ўтиради, илдиз остида эса аждар (ёки баҳайбат илон) яшайди. “*Ҳаёт дарахти*”нинг ўрта қисмида эса одамлар жойлашган. Дарахтнинг юқори қисми, яъни шохлари само (эзгулик олами)га туташган бўлса, қуйи қисми – илдизлари (ёвузлик олами) зулмат, яъни жаҳаннамга туташ. Худди шу икки бир-бирига қарама-қарши кучлар эзгулик билан ёвузлик ўртасида курашда афсонавий Семурғ эзгулик оламига ёрдам берса, ёвузлик рамзи бўлган аждар кишиларга ёмонлик келтиради. Демак, бундан кўриниб турибдики, афсонавий Семурғ қуши “*Ҳаёт дарахти*” билан ўзаро боғлиқ, ажралмас бўлиб, эзгулик ва ёвузликни кузатиб турувчи ҳамда ҳақиқат учун курашувчи адолат тимсоли сифатида халқ тасаввурини гавдаланади.[8]

Ўзбек халқининг афсона ва эртақларида “*ҳаёт дарахти*”нинг бадиий эквиваленти сифатида кўп ҳолларда чинор тушуниланган.[9] Анъанавий кашталарда акс эттирилган дарахт тасвирларининг аксарияти ҳам ўзининг кўриниши жиҳатидан айнан салобатли ва сершоҳ чинорга ўхшатиб тикилган. Масалан, Наманган вилояти музейида сақланаётган XIX аср охирига оид девор чойшабда “*йўрма*” ва “*босма*” чок услубида тикилган дарахт тасвири худди шундай кўринишга эга.

Гуллаб турган дарахтнинг шохи тасвиридаги нақш элементи анъанавий каштачиликда кўп учрайдиган безак ҳисобланади. Қийғос гуллаган дарахтнинг шохи ҳалқона тасаввурга кўра, ҳаётнинг давомийлиги, аждодлар ортидан авлодлар келиши, новдалардаги гулларнинг чаман

бўлиб очилаётганлиги эса бахт-саодат, қувонч ва шодлик белгиси ҳисобланади. Асосий мотив ҳисобланган гул нақши нафақат гуллаётган дарахт шохи тасвири, балки алоҳида гул нусхалари шаклида ҳам кашта буюмларини безайди. Хусусан, жуда кўп кашталарда *гулисафсар*, *нарғиз гул*, *бойчечак*, *лола* ва *атиргул* каби “*ислимий*” гул нақшлари тикилганлигини кўриш мумкин. Кашталарга тикилган бундай нақшларнинг ҳам ўз рамзий маъноси мавжуд.

Каштачиликда гул нақшига севги, муҳаббат ва садоқат рамзи сифатида муносабатда бўлиш одат тусига кирган. Айниқса, гуллардан атиргул нақши ўзига хос маънога эга. Ҳалқ орасида атиргул икки ёш, яъни йигит ва қизнинг кўнгили ришталарини боғловчи бир восита сифатида қаралиб, йигит ўз маҳбубасига етишиш йўлида кўп азоб ҳамда машаққат чекиши атиргулга нисбатан айтилган қуйидаги қўшиқ мисрасида ҳам ўз ифодасини топган:

*“Гулни гул дерму киши,  
гулнинг тикони бўлмаса.  
Ёрни ёр дерму киши,  
ёрнинг вафоси бўлмаса”*.[10]

Шунингдек, каштачиликда қалампир, бодом, анор, олма ва пахта сингари ўсимликсимон нақш гулларини тикиш ҳам кенг оммалашган. Албатта, бу каби рамзлар билан боғлиқ ҳам қатор халқона тасаввурлар шакллланган. Масалан, қалампир ёки бодом шаклидаги нақш турини бунга мисол келтириш мумкин.

Ҳар икки, яъни “*қалампир нусха*” ва “*бодом нусха*” нақшлар ўзбек ва тожик халқларининг анъанавий бош кийими - дўппиларига асосий безак сифатида тикилади.

Илмий адабиётларда халқимизнинг анъанавий дўппиларнинг шаклланиш тарихи, унинг ҳудудий хусусиятлари, тайёрлаш усуллари ва албатта, уларга тикилган нақшларнинг рамзий маъноси ҳақида бир қатор қимматли ҳамда аини вақтда қизиқарли маълумотлар келтирилган.[11]

Ўзбек ва тожик халқи эртақларининг

миллий бош кийими ҳисобланган дўппида акс эттирилган қалампир ва бодом тасвирларининг рамзий маъноси ҳақида бугунги кунгача тадқиқотчилар турлича фикр-мулоҳазаларни билдирганлар. Чунончи, Г.Григорьев дўппининг юза(устки) қисмидаги қалампир ёки бодом тасвирининг генезиси ҳақида фикр билдириб, асли қушнинг бош ва оёқ қисмлари тасвири бўлганлиги, ушбу тасвир аста-секин ўзгара бориб, қалампир ёки бодом шакли кўринишига келганлигини таъкидлайди.[12]

Маълумки, бу ҳар икки безак (қалампир ёки бодом) нақшли дўппиларнинг тарқалиш ареали асосан, Фарғона водийси ҳисобланади. Дала-этнографик тадқиқотлар давомида маҳаллий дўппиларда акс этган ушбу тасвирларнинг маъноси ва уларни пайдо бўлиши ҳақидаги ҳалқ орасидаги мавжуд бўлган айрим ривоятларни ёзиб олиш имкониятига эга бўлинди.

Улардан бирининг мазмуни қуйидагича: Марғилон шаҳрида яшовчи Ҳалима Маҳмудова исмли кекса чевар дўппидўз маҳаллий (Марғилон) дўппини тайёрланиш тарихи ҳақида ҳалқ ичида кенг тарқалган шундай ривоятни келтиради: “Ўтмишда шу ҳудудларда яшовчи аҳоли орасида қандайдир сабабга кўра юқумли касаллик тарқалиб, ҳалқ жабр кўра бошлабди. Шунда бу ер ҳукмдори табибларни ўз ҳузурига чорлаб, ушбу касалликни олдини олиш, беморларни даволаш, акс ҳолда, уларни жазолашни айтибди. Табиблар орасида нисбатан ёшроқ бир йигит биринчи бўлиб ушбу касалликни давосини топиш ва беморларни даволашга муваффақ бўлибди. Бундан хабар топган ҳукмдор ушбу табибдан даволаш сирларини сўраганда, у барча беморларга қалампир истеъмол қилдирганлиги ва шу йўл билан касалликни даволаганлигини айтибди. Шунда ҳукмдор бош кийим тайёрлаш билан шуғулланувчи чеварлардан бирига ўзи учун тайёрланадиган бош кийимга қалампир нусха нақш тикишини буюрган экан. Ҳалқни ёмон касалдан халос этган

қалампирга шу тариха ҳурмат кўрсатилган дейилади”.[13]

Бироқ, олиб борилган тадқиқотлар ушбу нақш элементи узоқ асрлик тараққиёт давомида қадимий нақш элементларини сайқалланиб келиши натижасида юзага келганлигини кўрсатади. Чунончи, баъзи тадқиқотчилар уни ёмон руҳлардан турли асровчилик хусусияти билан боғлиқ эътиқодий қарашлар замирида вужудга келганлигини таъкидлайдилар.

Шунингдек, ўзбекларда дўппининг тўрт томонини ер юзасининг тўрт томони, яъни шимол, жануб, шарқ ва ғарбига ёки йилнинг тўрт фаслига баҳор, ёз, куз ва қишга қиёсланиши хусусида ҳам ҳалқона тасаввурлар мавжуд. Маҳаллий каштадўзларнинг фикрича, дўппининг ёнлари, яъни “кизак” қисмидаги тўрттадан ярим айлана шаклда тикилган кашта гули эса қуёш рамзини англатади.[14]

Санъатшунос М. Фозилий ўзининг “Дўппи космогонияси ёки бу бодом тасвири эмас” деб номланган мақоласида Фарғона водийси дўппиларидаги тасвирларнинг рамзий маъноси ҳақида бугунги кунда фанда мавжуд бўлган қарашлардан фарқли ўлароқ, ўз мулоҳазаларини билдирар экан, у дўппи безакларига сингдирилган ғоя узоқ тарихга бориб тақалишини кўрсатиб беришга ҳаракат қилган. Муаллиф бу ҳақда шундай ёзади: “Дўппилардаги бирон-бир қисм, бирон-бир нуқта унга шунчаки киритилган эмас. Дўппи тўрт қисмдан иборат. Улардаги тасвир авлодлар давомийлигини таъминловчи ҳомилани кўрсатаётгандек тасаввур уйғотади. Марғилон дўпписининг юқори қисмидаги тўртта асосий белгини синчиклаб ўрганиб, уларни она қорнидаги бир ойлик ҳомила шакли билан солиштирсак, у қандайдир жонли оламнинг пайдо бўлиши, миллион йиллик эволюцияга эга ҳомиланинг вужудга келиши билан боғлиқ негэнтропия тармоғи эканлиги англашилади (негэнтропия-манфий энтропия экваленти ахборотнинг тарқалиши ва барча шаклларни катталаштириш усули)”.[15]

М.Фозилий ўз фикр-мулоҳазаларини давом эттириб: “Наманган дўпписининг беагида уч ойлик ҳомила шакли акс этган. Ушбу дўппи беаги оламнинг вужудга келиши билан боғлиқ қарашларнинг яратилиши ҳақидаги асотирлар тўқишга асос беради” деб ёзади.[16] Унинг фикрича, Кўқон дўпписининг пастки тўрт томонидаги тўрттадан ўн олти раамлар эса тепаликларни англатади.[16] Албатта, ушбу тадқиқотчининг фикрлари анча баҳсли ва ўз навбатида илмий асосга эга эмас. Шу боис, мазкур масалани келгуси тадқиқотлар анча ойдинлаштиради, деган фикрдаммиз.

Ўрта Осиё халқлари орасида кенг тарқалган қарашларга кўра, қалампир нақши ёмон кўздан сақлайди, бодом раамзи эса риск-рўзни билдиради.[17] Юқорида кўриб чиқилган қалампир ва бодом раамлари нафақат дўппида, балки унга хос ўсимликсимон (ислимий) нақш тури бошқа каштачилик буюмларида ҳам ўз аксини топган.

Ўсимликсимон (ислимий) нақш турларидан яна бири бу аноргул бўлиб, у наққошлик ҳамда бошқа халқ манзарали санъат турларида ишлатилади. Аноргул тасвири айниқса, Фарғона нақш услубларида кўп ишлатилади.[18] Хусусан, кашта буюмларида ҳам аноргул гули элементи кўп қўлланилади.

Одатда, аноргул нақш тури бир нечта кўриниш, яъни асосан, дарахт шохларидаги мевалар шодаси ёки анорнинг якка (бир дона) кўринишида кўп тасвирланади. Шунингдек, ушбу нақшда кўпинча аноргул мевасининг ички қисми ҳам қисман тасвирланиши учраб туради.

Буюмлар, хусусан, кашталардаги аноргул тасвири кўп маънога эга. Масалан, халқ орасида аноргул гули раамзи ҳаётдаги тўқчилик, тўқин-сочинлик, ҳамжиҳатлик, унумдорлик, ҳосилдорлик ва яшнаш каби ижобий хислатларни ифодалаган. Аноргул тасвирига нисбатан серфарзандлик маъносида қараш ҳам халқимиз орасида кенг тарқалган. Бунда аноргул мевасининг кўп донли бўлиши серфарзандлик тушунчаси билан боғланган. Шу боис,

аксарият кашталарда аноргул тасвири туширилган.

Аноргул тасвирини буюмларда акс эттириш кўп ҳолларда азалий ўтроқ-деҳқон аҳолида учрайди. Бу эса шубҳасиз, ривожланган деҳқончилик маданиятига хос турмуш тарзи билан боғлиқлигини кўрсатади.

Юқорида кўриб чиқилган ўсимликсимон (ислимий) нақш безакларидан ташқари, каштачиликда яна бир қатор тасвирлардан фойдаланилганки, уларнинг аксарияти тўқин-сочинлик, бахт-саодат ва ҳосилдорлик каби кенг маънога эга тушинчаларни ифода этади.

Фарғона водийси кашталарида ўсимликсимон нақшлар билан бирга *геометрик тасвирлар* ҳам кўп учрайди. Масалан, тўртбурчак, квадрат ҳамда ромб шаклидаги безаклар каштачиликда амалий санъатнинг бошқа соҳаларида кўп қўлланиладиган нақш элементлари ҳисобланади. Ушбу нақш элементлари ўзининг генезисига кўра, қадимий ҳисобланади. Чунончи, А.Н. Бернштам томонидан кўхна қабрдан топилган каштага солинган нақшлар ҳам бундан далолат беради.[19]

Буюмларда акс этган тўртбурчак, квадрат ва ромб шаклларида курраизаминнинг тўрт томони, яъни шарқ, ғарб, жануб ва шимолга ишора раамзи сифатида ҳам қаралади. Шунингдек, ромб шакли қадимдан ҳосилдорлик раамзи сифатида каштачиликда кенг қўлланилади.[20]

Учбурчак шаклли нақшлар анъанавий каштачиликда ўзига хос ўрин тутиб, қадимий безак турларидан бири саналади. Ушбу безак тури каштачилик соҳасидан ташқари яна ҳунармандчиликнинг кулолчилик, мисгарлик ва заргарлик буюмларига ҳам солинади. Шунингдек, кашталарда акс этган учбурчак шакли “*тумор*” кўринишида ҳам бўлиб, халқона қарашларга кўра, у уй эгаларини ёмон кўзлардан сақлаб туришга хизмат қилган.

Каштачиликда кенг қўлланиладиган геометрик шакллардан яна бири икки ёнма-ён параллел чизиклардир. Ушбу шакл кашта буюмларидан чорси (белбоғ)

ва жойнаомозларда кўп учрайди. Мазкур параллел тўғри чизиқлар инсоннинг умр йўлига қийсланади. Ёши катта ахборотчиларни таъкидлашча, ушбу йўлда шодлик ва қайғу, яхшилик ва ёмонлик, дийдор ва ҳижрон, меҳр ва қаҳр каби тушунчалар худди шу чизиқлар каби ёнма-ён юради. Бундай чизиқлар ушбу ҳолатларга ишора, деб талқин қилинади.

Маҳаллий чеварлар томонидан каштанинг ташқи хошияси сифатида тикилган тўлқинсимон нақшлар эса “сув” деб номланади ва ушбу геометрик шакл рамзий маънода асосан, инсоннинг умри бир жойда тўхтаб турмаслиги, сув каби доимо ҳаракатда бўлиши, умуман олганда, тириклик тушинчасини англатади. [21]

Бундан ташқари, айрим кашта намуналари, хусусан, чорсу, дастурхон каби буюмларда тўлқинсимон чизиқнинг иккитаси параллел ҳолатда акс эттирилади. Ушбу элемент ҳам ўзига хос маъно касб этиб, ҳалқона тушунчаларга кўра, сув икки асос – эркак ва аёлга бўлиниши, табиатдаги дуалистик тушунчаларни англатади. [22]

Ўзбек анъанавий каштачилик буюмларидаги осмон ёриткичлари, яъни ой, қуёш ва юлдузларнинг акси ҳам ўзига хос маъно касб этади. Дарвоқе, қадимда кўпгина ҳалқларнинг турмуш тарзида осмон жисмлари, уларнинг ҳолати ва ҳаракати муҳим аҳамиятга эга бўлган. Дехқон жамоалари ўз фаолиятини бошлаш ва яқунлашда осмон жисмларининг фазода жойлашиш ҳолатидан келиб чиқиб, иш юритганлар. [23] Кўчманчи ҳалқлар ҳам юлдузларга қараб бир жойдан бошқа жойга кўчиш даври ва ҳаракатланиш йўналишларини аниқлаганлар.

Осмон ёриткичлари билан боғлиқ нақшлар асосан, сўзана ва палак каби нақшли буюмларда ўзининг мажозий аксини топган. Зеро, ҳалқимизда “осмон-фалак” ибораси ишлатилади ва у ўзида “коинот” тушунчасини ифодалайди. Қадимдан осмон ёриткичларига бўлган топиниш, уларга бўлган муносабат ой, юлдуз ва қуёш тасвирини кашта буюмларида акс эттирилишига сабаб

бўлган, деб ҳисоблаш мумкин.

Миллий кашта буюмларидаги шакл ва нақшлар ичида шундайлари ҳам борки, улар уй-рўзғор буюмларининг тасвирлари билан боғлиқ ҳолда юзага келган. Масалан, туркий халқларининг анъанавий кашталарида “хум”, “офтоба”, “кўза” ва “пичоқ” каби уй-рўзғор буюмларининг ҳам тасвири кўп учрайди. Албатта, бу каби буюмларнинг тасвири кашталарда шунчаки акс этирилмаган, балки улар ҳам маълум бир маънога эга бўлган. Чунончи, кашта буюмлари, аввало, сўзаналарда учрайдиган “хум” “кўза” ва “офтоба” тасвирлари сувнинг рамзи ҳисобланади. Маълумки, сув – бу ҳаёт манбаи, шу боис инсонларда унга нисбатан ҳурмат ва эъзоз ҳар доим юқори бўлган.

Сув билан боғлиқ тарзда Ўрта Осиё халқларида қадимдан эътиқодий қарашлар шалланган. Бунга мисол қилиб зардўштийлик динидаги сув илоҳлари (Эр хубби ёки Хубби) билан боғлиқ урф-одатларни келтириш мумкин. [23]

Миллий кашталарда акс этган нақшларнинг бир қисми бевосита ҳайвонот дунёсини ифодаси сифатида намоён бўлади. Бундай зооморф хусусиятли рамзлар кўлами кенг бўлиб, кашталарда турли ҳайвонлар, паррандалар, ҳашоротлар ҳамда сув ости дунёсининг услублаштирилган рамзлари ўз аксини топган.

Кашта буюмларида акс этган жониворларнинг баъзилари ҳақиқий жонзотнинг тасвири бўлса, бошқаси эса ҳаёлий жониворларнинг услублаштирилган кўринишлари ҳисобланади. Ушбу услуб амалий санъатда “ёввойи” деб номланади. Бундай тасвирлар каштачиликда ҳам кенг қўлланилади.

Ана шундай зооморф характерга эга бўлган ва анъанавий кашталарда кўп учрайдиган нақш элементларидан яна бири бу “қўчқор шохи” дир. Ушбу нақш элементи нафақат ўзбек, балки қирғиз, қозок, туркман ва қорақалпоқ каби Ўрта Осиё халқларининг амалий санъат намуналари, хусусан, кашталарида кўп



учрайди.[24] Тадқиқотчилар бундай нақш элементини амалий санъат, хусусан, каштачиликда пайдо бўлишини кўчманчи чорвадор туркий халқларнинг хўжалик-маданий анъаналари, жумладан, қўй култига эътиқод билан боғлиқ шаклда юзага келганлигини эътироф этадилар.

Маълумки, туркий халқларда қўй азалдан муқаддас жонивор ҳисобланиб, у билан боғлиқ турли эътиқодий қарашлар юзага келган. Кўплаб тадқиқотчилар ўз асарларида Ўрта Осиё халқлари анъанавий турмуш тарзи, хусусан, эътиқодий қарашлар тизимида қўй култининг аҳамияти катта эканлигини таъкидлаб ўтганлар. Масалан, этнограф Е. М. Пешерева Ўрта Осиё халқларида қўйга нисбатан қадимдан инсонлар ҳар тур бало-қазолардан асровчи илоҳий жонивор сифатида муносабатда бўлганлигини ёзади.[25]

Водий қипчоқлари ва қирғизлари орасида - деб ёзади этнолог А. Аширов - қўй жаннатдан чиққан жонивор, деб қараш одати мавжуд бўлганлиги боис, унинг нафақат ўзи, балки бирор-бир тана аъзоси, аниқроғи, кўчқор шохи ҳам ёмон ниятли одамлар нигоҳини бартараф этиш хусусиятига эга, деб қаралган. Шу боис ҳар бир хонадоннинг кираверишига кўчқор шохини осиб қўйиш одати кенг тарқалган. Кўчқор шохини уйнинг кираверишига осиб қўйиш орқали улар уйига ёмон ниятли кишилар билан бирга кириб келувчи турли бало-қазоларни бу элемент бартараф этишга қодир, деб тушунилган”.[26]

Бошқа бир этнограф олима О.А. Сухарева эса Самарқанд безакли кашталарнинг таҳлилига бағишлаб ёзган мақоласида ушбу “кўчқар шохи” нақш элементи эркаклик ибтидоси рамзи саналишини таъкидлайди.[27] Шунингдек, кашталардаги “кўчқор шохи” нақши ҳосилдорлик ва авлодлар давомийлигини англатиши билан боғлиқ қарашлар ҳам учрайди.[28] Кашталарга турли жониворларнинг изига ўхшаш нақш безаклари ҳам кўп тикилади. Масалан, “илон изи”, “ит изи” ва “от туюғининг

изи” шулар жумласидандир. Албатта, бундай зооморф нақшларнинг ҳам ҳар бири ўзига хос маъно касб этади. Чунончи, “илон изи” нақши мисолида буни кўриш мумкин. Маълумки, илон образи жаҳон, жумладан, Ўрта Осиё халқларининг эътиқодий тасаввурлари тизимида алоҳида ўрин тутаяди.[29] Шу боис, тасвирий ва амалий санъат, хусусан, каштачилик буюмларида илон кўринишидаги нақш безаклари кўп учрайди.

Илмий адабиётлар ва дала этнографик тадқиқотлар вақтида ёзиб олинган маълумотлар таҳлили шуни кўрсатадики “илон изи” нақши бир неча маъно касб этади. Масалан, жаҳон халқларида илон қадимдан тупроқ ва сув рамзи бўлиб ҳам ҳисобланган.[30] Сув илоҳининг асосий вазифасини бажарувчи илонга айни вақтда ҳосилдорлик рамзи сифатида ҳам деб қаралган.[31]

Фарғона водийси аҳолиси орасида илонга нисбатан икки хил, яъни ижобий ва салбий тасаввур шаклланган. Ушбу тасаввурларга кўра, аҳолида “Тушингда кўрсанг – ганч (бойлик), ўнгингда кўрсанг – янч (ўлдир)” мақоли ҳам кенг тарқалган.[32] Дарҳақиқат, “Авесто”да ҳам илон ёвузлик илоҳи сифатида талқин қилиниб, у Ахриманнинг дўсти аждаҳо, яъни уч бошли, олти кўзли бўлиб, у оламни инсон зотидан тозалаш ниятида гавдаланади. Зеро, уч бошли, олти кўзли аждаҳо Ахриман томонидан айнан шу мақсадда яратилган.

Хуллас, илон халқона тасаввурларда ҳам ижобий, ҳам салбий хусусиятларга эга жонзот қиёфасида гавдаланади. Ушбу жонзот услублашган тарзда кашта буюмларидаги “илон изи” нақш безагида ўз аксини топган. Масалан, чуствлик 90 ёшли кекса ахборотчи С.Зиёдуллаеванинг маълумотларига кўра, кашта буюмларидаги ушбу “илон изи” нақши бойлик ва ризқ келтирувчи маъно касб этади.[33]

Ўрта Осиё халқларининг анъанавий кашталарида “ит изи” ёки “ит товон”, “от туюғи” деб номланувчи нақш безаклари эса ушбу халқларнинг мазкур

хайвон билан боғлиқ эътиқодий тасаввурларини гавдалантиради.

Тарихий маълумотларга кўра, ит инсонлар томонидан қўлга ўргатилган (хонакилаштирилган) дастлабки жониворлардан бири ҳисобланади. Бутун тарихий тараққиёт давомида инсоннинг ҳаёти ва хўжалиқ фаолиятида бу хайвон муҳим ўрин тутиб келган. Инсонлар итни инс-жинсларни даф этувчи магик кучга эга хайвон деб ҳисоблайдилар. Ушбу ҳиссиёт ўз ўрнида амалий санъат, жумладан, анъанавий кашталарда “*ит изи*” ёки “*ит товони*” каби нақш безакларини вужудга келишига сабаб бўлган, деб тушуниш мумкин. Кашта буюмларидаги “*от туюғи*” нақш безагини пайдо бўлиши ҳам албатта инсонларни ушбу жонивор билан боғлиқ эътиқодий қарашлари замирида шаклланган.

Илмий адабиётларда ўтмишда отни турли жаҳон, хусусан, Ўрта Осиё халқлар хўжалиқ-маданий ҳаёти ва диний эътиқолида тутган ўрни ҳақида қимматли маълумотлар келтирилган.[34] Хусусан, милоддан аввалги асрларда қадимги туркий халқларда от муқаддаслаштирилиб, культ (топиниш) даражасига кўтарилган. Натижада, от кўплаб қабилаларнинг тотеми бўлган. Отга тотем сифатида қараш, уни муқаддаслаштириш ҳалқимиз турмуш тарзида ҳам бошқа туркий халқлар каби кенг оммалашган. Яқин ўтмишда Фарғона водийсининг аҳолисида ҳам отга муносабат ўзгача бўлиб, “от мурод” яъни мурод мақсадга етказуви жонивор деб қадрланган.[35] Шу боис унинг магик хусусияти “*от туюғи*” кўринишида анъанавий кашта буюмларида нақшли безак тарзида ифодаланган. Дала тадқиқотлари давомида от туюғи тасвири туширилган кашталар ҳар бир уйнинг тўри деворларига илинганлиги ахборотчилар алоҳида таъкидладилар.[36]

Каштачи чеварларни севимли нақш безакларидан яна бири турли парранда кўринишидаги тасвирлардир. Айниқса, кашталарга булбул, лайлак, товус ва афсонавий семурғ каби қушлар тасвири

кўп тикилади. Одатда анъанавий кашталарда булбул гулзордаги гулнинг шохига қўниб турган ҳолда тасвирланади. Гул ва булбул рамзий маънога эга бўлиб, йигит ҳамда қизнинг тасвири саналади. Ёшлиқ ва севги тимсоли сифатида булбул тасвири бир қатор каштачилик буюмлари, айниқса, ёш қизлар томонидан ўз сепи учун тикилган сўзана, сочиқ, дастрўмол каби буюмларга тикилган.[37]

Афсонавий семурғ қуши доимо инсонларга ёрдам берувчи, меҳрибон ва ҳалоскор қуш сифатида гавдаланади. Бир сўз билан ифодалаганда, одамлар тасаввурида Семурғ эзгулик ҳомийсидир.[38] Шу боис, унинг тасвири йирик кашта буюмларига кўп туширилган.

Шунингдек, кашта буюмларидаги кабутар-тинчлик, турналар-бахор элчиси, лайлак-эзгулик ва фаровонлик тимсоли сифатида талқин қилинади. Аксарят ҳолларда ушбу қушларнинг тасвири кашта буюмларда жуфт ёки гуруҳ-гуруҳ тарзида тасвирлаш Фарғона водийси кашталари учун хос хусусият ҳисобланади.

Бундан ташқари, анъанавий кашталарда айрим ҳашаротларнинг тасвирларидан ҳам нақш безаги сифатида фойдаланилади. Шу ўринда, “*чаён гули*” деб номланган нақш безагининг рамзий маъносига алоҳида тўхталиш мақсадга мувофиқ. Ушбу безак нақши Ўрта Осиёнинг деярли барча халқлари кашталарида учрайди. Одамлар чаёнга нисбатан зарар етказувчи жонивор сифатида қарасаларда, айни вақтда унинг бало-қазоларни даф қилувчи магик қудратига ҳам ишонганлар ва “одамлар ҳаётига заҳар солувчи кимсалар бўлмасин” деган маънода анъанавий кашталарда уни тасвирлайдилар. “*Чаён гули*” нақш безаги андижонлик каштачи чеварлар томонидан кўпроқ белбоғларга тикилади ва унга ўзига хос маъно юклатилади.[39] Андижон шаҳрида яшовчи Болтабоева Мамлакатхон опанинг таъкидлашича, ҳамма чеварлар ҳам “*чаён гули*” нақшли белбоғ тикишни ёқтирмайдилар. Негаки, ушбу жонивор билан боғлиқ ҳалқимиздаги салбий қарашлар чеварларда бундай хоҳишни

сўндиради.[40]

Кашта буюмларида акс этган нақш безаклари ичида ўзига хос, инсонни чуқур мушоҳада қилишга чорлайдиган нақш беаги борки, бу – *антропоморф* шаклидаги тасвирлардир. Одатда, одам тасвири тўла акс этган ўзбек анъанавий кашталарини учратиш қийин. Чунки, ислом дини кенг ривожланган мазкур минтақада инсон қиёфасидаги суръатлар камдан-кам учраган. Лекин, XIX охири – XX аср бошларига оид кашта буюмларида инсон танасининг бел, қўл ва бошқа қисмларига ўхшаш тасвирлар учрайди.[41] Инсон қиёфасини тўлиқ акс эттирувчи нақшлар кўпая борди. Бундай тасвирлар кўпроқ гилам, намат (кигиз), тумор, заргарлик тақинчоқлари ва адрас мато фониди ўз аксини топган.[42]

Кашта буюмларига тикилган антропоморф нақшларнинг ҳам ўз маъноси мавжуд. Масалан, қўл шаклидаги нақш элементлари мусулмонларда “Биби Фотиманинг қўли”, тақинчоқ безакларидаги инсон боши тасвири эса ҳаётни бошланиши, табиатнинг яшнаши каби рамзий маънолар касб этади.[43]

Анъанавий кашталардаги нақш безакларнинг маъноларини таҳлили шундан далолат берадики, уларнинг кўпи ҳалқона тасаввурга кўра, ҳимоя вазифасини бажаради. Шу билан бирга, уларнинг барчаси юксак даражада таъсирчан бўлиш асносида узоқ тарихий жараёнда шаклланган маҳаллий-этниқ анъаналарни ўзида ифода этади. Қолаверса, кашталардаги безак нақшлари кишиларнинг табиат тўғрисидаги тасаввурларини акс эттирувчи образлар ва белгилар тизимини ҳамда улар билан боғлиқ дунёқараши ва ўзига хос эстетик дидини намоён этади.

Хулоса қилиб айтганда Фарғона водийсида анъанавий аҳолисининг каштачилиги маҳаллий (локал) ва этниқ хусусиятларига эга. Бундай хусусиятларнинг вужудга келишига бир қатор омиллар, чунончи, маҳаллий табиий-географик шарт-шароит, аҳолининг хўжалик-маданий хусусиятлари, этниқ

таркиби ва турли этниқ жамоалар орасидаги ўзаро алоқалар таъсир қилган.

Водий каштачилигининг маҳаллий (локал) жиҳатлари, аввало, кашта тикиладиган матоларнинг танланиши, нақш элементларининг тикиш усуллари, қўлланиладиган чоклар ва ранг тасвирларда намоён бўлади.

Фарғоналик каштачилар каштани одатда, кўпроқ косибий ип ва ипак матога тиканлар. Ипак матолар эса ўзининг қалин ёки юпқа, дағал ёки майин тўқилиши билан бошқа худудларникидан бирмунча фарқланган. Қолаверса, водийда тайёрланган ипак газламалар ўз ранги, турлари билан ҳам ажралиб турган. Бу эса водий каштачилигига хос маҳаллий (локал) жиҳатларнинг шаклланишига кучли таъсир кўрсатган.

Фарғона водийсидаги каштачи чеварлар асосан, санама ва эркин кашта тикиш усуллари қўллаб, кашта тикканлар. Улар йўрма, босма, дурия, пилтадўзи, баҳя каби чоклардан фойдаланганлар. Водий каштачилигидаги худудий хусусиятлар нақш элементларида ҳам ўз ифодасини топган.


Каштачиликнинг ривожланиши натижасида маҳаллий чеварлар орасидан мураккаб нақш элементлари тасвирини матога чизиб берувчи чизмакашлар етишиб чиққан. Айнан улар каштачиликни юқори савияга кўтарилиши, кашта буюмларни санъат даражасига етишида муҳим роль ўйнаганлар.

Фарғона водийси каштачилигида гул тасвири билан боғлиқ услублашган ва реалистик нақш элементларни каштага тикиш бошқа худудларга қараганда нисбатан кенг тарқалган. Водий кашталарида асосан, лола, чиннигул, атиргуллар ва гултожихўроз каби нақшлар сезиларли даражада кўп қўлланилганлигини кўриш мумкин. Шунингдек, водий кашталарида сариқ рангдан ҳам унумли фойдаланилган. Водийдаги ўзбек, тожик ва уйғур чеварлари каштани асосан, ип газлама ва ипак матоларга тикканлар. Азалий чорвадор қирғиз, қипчоқ, турк ва



қорақалпоқ сингари этник жамоалар эса хўжалигининг хусусиятидан келиб чиқиб, жун ҳамда теридан тайёрланган буюмларга кашта гулларини тикканлар. Кашталардаги нақш элементлар водийнинг ўтроқ ўзбек, тожик ва уйғур жамоаларида бир-биридан унчалик фарқ қилмайди. Уларнинг кашта буюмларидан кўпроқ ўсимликсимон нақш элементлари жой олса, яримкўчманчи ва яримўтроқ халқларнинг кашталарида эса ҳайвон аъзоларининг тасвирига ўхшаш нақш элементлари кўп учрайди. Ушбу ҳолатни юқоридаги этник жамоаларнинг хўжалик-маданий хусусиятлари билан изоҳлаш мумкин. Фарғона водийсида яшаётган қирғиз, кипчок, турк ва қорақалпоқларни ўтроқлашиши натижасида ўзбек, тожик ва уйғурлар билан этномаданий алоқалари кучайди. Бу эса азалий чорвадор этносларнинг амалий санъати, жумладан, каштачиликда ўтроқ

халқларниқига хос нақш безаклари кўпайиб боришига олиб келди. Водий каштачиликда қўлланиладиган нақш элементларини маъно-моҳиятига кўра тўрт гуруҳ, яъни *ислимий*, *геометрик*, *зооморф* ва *антропоморф* кўринишдаги рамзларга ажратиш мумкин. Ушбу рамзлар ичида кенг тарқалгани ислимий нақшлар бўлиб, бунда “*ҳаёт дарахти*”, *анор*, *дарахт новдаси*, *гунча*, *ҳар тур гуллар*, *мева*, *бодом* ва *қалампир* кўринишлари асосий рамзлар ҳисобланади. Шунингдек, геометрик, чунончи, тўртбурчак, квадрат, ромб, икки ёнма-ён параллел ёки тўлқинсимон чизиклар тасвири фарғоналикларнинг кашталарида кўп учрайди. Ўз навбатида, ўзбек миллий каштачилик буюмларидаги осмон ёриткичлари, ҳайвон, парранда ва сув ости жонзотларининг тасвири ҳам рамзий маънога эга.



**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Саурова Г. И. Современный туркменский ковер и его традиции. – Ашхабад, 1968. – С. 18.
2. Ванслов В. В. Содержание и форма в искусстве. – М., 1956. – С. 184.
3. Андреев М. С. Орнамент горных таджиков верховьев Амударьи и Памира. – Ташкент, 1928.
4. Иванов С. В. «Заключение» в книге «Народное декоративно-прикладное искусство. – М., 1968. – С. 100.
5. Бундай тарзда бўлиниш бир қатор тадқиқотчилар томонидан ҳам қайд қилинган. Бу ҳақда батафсилроқ қаранг: Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. – Ташкент, 2005. – С. 12; Давлатова С. Т. Ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги... – Б. 225.
6. Жўраев М., Саттиева Д. Ўзбек фолькларида ҳаёт дарахти. – Тошкент, 2010. – Б. 3.
7. Ремпель Л. И. Цепь времен (Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии). – Ташкент, 1987. – С. 32–35.
8. Жўраев Н., Саттиева Д. Ўзбек фолькларида ҳаёт дарахти ... – Б. 9.
9. Жўраев М. Мифдан дostonгача // Ўзбекистон маданияти. – 1980 йил 25 май; Ўша муаллиф: Ипак йўли афсоналари. – Тошкент, 1993. – Б. 6.
10. Жўраев Н., Саттиева Д. Ўзбек фолькларида ҳаёт дарахти... – Б. 13.
11. Дала ёзувлари. Андижон вилояти Жалакудук тумани Тўрачеки қишлоғи. 2019 йил.
12. Сухарева О. А. Тюбитейка / Народное декоративное искусство Советского Узбекистана. – Ташкент, 1954. – С. 133–134; Турсуналиев К. Все цвета радуги: (Тюбитейка и головные уборы узбеков XIX–XXвв). – Ташкент, 1991; Григорьев Г. Тус-дўппи / К истории народного узора Востока // Искусство. – 1937. – №1.
13. Григорьев Г. Тус-дўппи... – С. 112.
14. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Марғилон шаҳри. 2012 йил.
15. Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чуст тумани Олмос қишлоғи. 2021 йил.
16. Фозилий М. Дўппи космогонияси ёки бу бодом тасвири эмас / Санъат. – 2005. – Б. 17.
17. Давлатова С. Т. Ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги... – Б. 272.
18. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Данғара тумани Тайпоқ қишлоғи. 2020 йил.
19. Бернштам А. Н. Кенькольский могильник. – Л., 1940. Табл. XXXIII.
20. Бинафша Нодир. Хапамат ва гулбанд безаклари маънолари // Санъат. – 2009. – №1. – Б. 6.
21. Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чуст тумани Варзик қишлоғи. 2021 йил.
22. Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари.... – Б. 143.
23. Саримсақов А. Календарные обряды узбеков (на основе материалов Фарганской долины). Автореф. дисс.на соис. учен.степен.к.и.н. – Ташкент, 2010. – С?
24. Аширов А. А. Ўзбек маданиятида сув..... – Б. 100–106.
25. Мошкова В. Ковры народов Средней Азии конца XIX начала XX вв. – Ташкент, 1970. – С. 265; Сухарева О. А. Орнамент декоративных вышивкой Самарканда и его связь с народными представлениями и верованиями (вторая половина XIX – начало XX в) // СЭ. – 1983. – №6; Антипина К. И. Особенности материальной культуры и прикладного искусства южных киргизов... – С. 117; Абрамзон С. М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи... – С. 398.
26. Пешерева Е. М. Гончарное производства Средней Азии. – М.: Наука. 1959.– С. 100.
27. Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари.... – Б. 151.
28. Сухарева О. А. Орнамент декоративных вышивок Самарканда.... – С. 75.



29. Kate Fits Gibbon and Andren Hale. Uzbek Embroideries in the nomadic tradition. – Minneapolis Institute of Arts. 2007. – P. 122.
30. Гордеев Н. П. Змея в обрадово-религиозных системах различных народов // ЭО. – 2002. – №6. – С. 45; Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари... – Б. 24–28; Хамиджонова М. Некоторые представления таджиков связанные со змеей / Труды института истории, археологии и этнографии. АН. Таж. ССР. Т. СХХ. – Сталинабад, 1960; Воронец М. Э. Каменное изображение змеи из кишлака Сох Ферганской области / КСИИМК. Вып. 61. – М., 1956. – С. 53.
31. Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари... – Б. 25.
32. Хамиджанова М. Некоторые представления таджиков связанные со змеей... – С. 60.
33. Дала ёзувлари. Андижон вилояти Жалалқудук тумани Ёрқишлоқ қишлоғи. 2010 йил.
34. Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чуст тумани Ғова қишлоғи. 2011 йил.
35. Кузмина Е. Е. Конь в религии и искусстве саков и скифов / Скифы и сарматы. – Киев, 1987; Беленицкий А. М. Конь в культе идеологических представлений народов Средней Азии и евроазиатских степей в древности и раннесредневеком / КСИА. 1954. – М., 1978; Ремпель О. И. Цеп и времен. Вековые образы и бродягие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Ташкент, 1987. – С. 25–29; Толстов С. П. Древний Хорезм... – С. 208; Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари... – Б. 19–24.
36. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Данғара тумани Тайпоқ қишлоғи. 2021 йил.
37. Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чуст тумани Қорақўрғон қишлоғи. 2011 йил.
38. Дала ёзувлари. Андижон вилояти Андижон шаҳри. 2010 йил.
39. Жўраев М., Нарзиқулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент, 2006. – Б. 88.
40. Дала ёзувлари. Андижон вилояти Андижон шаҳри. 2011 йил.
41. Дала ёзувлари. Андижон вилояти Андижон шаҳри. 2015 йил.
42. Дала ёзувлари. Наманган вилояти Чуст тумани Каркидон қишлоғи. 2010 йил.
43. Давлатова С. Т. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида... – Б. 269–270.

## O‘ZBEK ETNIK MUHITIDA YUZZLARNING ALOHIDA O‘RNI VA AHAMIYATI

**Dulanov Otabek Yuldashevich,**

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) v.b.dotsent

[otabekdulanov56@gmail.com](mailto:otabekdulanov56@gmail.com)

UDK:39:316.334.52(091)(575.151)

<https://orcid.org/0009-0008-1141-7475>

**Annotatsiya:** Maqolada 92 urug‘-qabilalaridan biri bo‘lmish, yuzlarning Ozbekiston hududiga kirib kelishi va ularning geografik joylashuvi hamda dahalari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Yuz, Qirq-yuz, Mo‘g‘ul-yuz, Nayman-yuz Qorabo‘yin, Parchayuz, Boyovut, Qo‘shnamg‘ali, Sagissari,

Ochamayli, Qo‘ng‘irvoy, Nayman, Tarnov-karapchi, Kakoni-karapchi, Oyuvli.

**Аннотация:** В статье рассказывается о прибытии на территорию Узбекистана узян, одного из 92 родов, их географическом положении и ответвлениях.

**Ключевые слова:** Юз, Кирк-юз,

Могул-юз, Найман-юз Карабоин, Парчаюз, Боёвут, Коштамгали, Сагиссари, Очамайли, Конирвой, Найман, Тарнов-карапчи, Какони-карапчи, Аювли.

**Annotation:** The article talks about the arrival of the Uzhyans, one of the 92 clans, in the territory of Uzbekistan and their geographical location and branches.

**Keywords:** Yuz, Qirq-yuz, Moghul-yuz, Naiman-yuz Karaboyin, Parchayuz, Boyovut, Koshtamgali, Sagissari, Ochamayli, Konirvoy, Naiman, Tarnov-karapchi, Kakoni-karapchi, Ayuvli.

O'zbek xalqi tarkibidagi etnografik guruhlardan biri yuzlar bo'lib, ular 92 o'zbek urug'-qabilalari orasidagi yirik va ko'p sonlilardan biri hisoblanadi[1;83-85]. Tarixiy manbalardan "Tuhfat at-tavorixi xoniy" va "Majmu at-tavorix"da ham yuzlar haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan[2]. Yuzlarning boshqa o'zbek qabilalari bilan aralash holda yashab kelgan guruhlari ham mavjud bo'lib, ular qirq-yuz (yuz urug'i va qirq qabilasi birlashmasi), mo'g'ul-yuz, nayman-yuz va boshqa etnik nomlar bilan atalgan. Yuzlarning etnogenezi qadimgi qipchoq o'zbeklari bilan bog'liq.

Yuzlar asosan, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida yashaganlar hamda quyidagi 3 ta yirik tarmoq – Marka bolasi, Qorapchi hamda Rajab bolasi qismlariga bo'lingan.

Yuzlarning O'rta Osiyoga kirib kelishi XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligidagi Dashti Qipchoq o'zbeklari bilan bog'lanadi. Farg'ona vodiysi hududiga ham ayni shu vaqtda yuzlarning dastlabki guruhlari kelib o'rnatilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

XVIII asr boshlarida o'z siyosiy mavqelaridan foydalanib, joniylar davlatida ko'plab qavmlarning mustaqil tarzda hukmronlik qilishga intilishi kuchaygan. Ayni shu davrda yuzlar ham Mirzacho'l hududida o'zlarini mustaqil hukmronligini o'rnatgan[3;404].

Farg'ona vodiysi yuzlari haqida Marg'ilon qozisi Muzaffariddin hojida saqlanib qolgan yorliqlarda ma'lumotlar

mavjud. Ushbu yorliqlarni o'rgangan Ahmad Zaki Validiy To'g'on XVIII asr boshlariga qadar Farg'ona vodiysida yuzlarning siyosiy hukmronligi mavjud bo'lgan, degan xulosaga kelgan. Yuqoridagi dalillardan ko'rinib turibdiki, XVII asrda yuzlar Farg'ona vodiysi ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan etnografik guruhlardan biri bo'lgan. Keyinchalik ham yuzlarga daxldor ko'plab guruhlarning Farg'ona vodiysi hududiga ko'chish jarayoni yuz bergan va ular mazkur hududning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan[4;56].

1732-yilda Xo'jandni Buxoro va Farg'onadan mustaqil ravishda yuzlardan bo'lgan Muhammad Rahim Otaliqning o'g'li Oqbo'tabiy boshqargan[4;56]. Yuzlar XIX asrda ko'p sonli hamda qudratli bo'lib, ularni Qo'qonda yashaganligi qayd qilingan[5;208].

Farg'ona vodiysi hududida yuzlar bir necha qismga ajralgan bo'lib, ularning marka, qarapchi va qirq deb nomlanuvchi bo'linmalari mavjud edi. Odatda, ular marqayuz, qarapchiyuz va qirqyuz etnonimlari bilan ham atalgan[6;15]. Ushbu etnik bo'linmalar o'z navbatida, qator mayda urug'lar – marka, uya-solin va xitoyizi (xitoy yuz)ga bo'lingan.

Uyaslar 6 qismga, ya'ni kerayt, kal, norin, uyas, oqchepkan, ko'sa va boymoqli (cho'p'qon)ga bo'lingan hamda hozirda asosan, Bekobod, Zomin, Jizzax va G'allaorol tumanlarida yashaydilar. Solinlar esa 7 qismga, ya'ni davlay, jobuvchi, togay, tubi, qirsodoq, lapkarach hamda shodmon tubilarga bo'linadi. Solinlar asosan, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida istiqomat qiladi.

Xitoyizi 10 bo'g'inga, ya'ni quriqozon, tigririk, beshkubi, bogmachoyi, xojibolasi, mo'g'ol, uvol hojibachcha, xonxo'ja va sortjuzilarga bo'lingan. Ular esa asosan, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari, Samarqandning Bulung'ur tumanlari, qisman Surxondaryo viloyatida yashaydilar.

Yuzlarning yirik guruhlari biri bo'lgan qarapchilar Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona va Andijon viloyatlarida istiqomat qiladi.

Karapchilar ham o'z navbatida 13 bo'g'inga bo'lingan: Qorabo'yin, Parchayuz,

Boyovut, Qo'shtamg'ali, Sagissari, Ochamayli, Qo'ng'irvoy, Nayman, Tarnov-karapchi, Kakoni-karapchi, Oyuvli. Qirqlarning bo'linmalari haqida aniq ma'lumot yo'q yoki axborotchilar eslay olmaydi. Etnografik va toponomik ma'lumotlarni tahlil qilib, shuni qayd etish mumkin, yuzlarning uchchala bo'g'ini yonma-yon yashagan.

Rajab bolasi guruhiga tuyoqli, chol, begijuz, choljuvut, beshkal qabilalari kiradi va ular asosan, Sirdaryo hamda Samarqand viloyatlarida yashaydilar.

Farg'ona vodiysida yuzlarning boloiiazim, barchavekyuz, changyuz, devonbegi, kallar, qipchoq, nayman, mullato'pi, napkarachyuz, sirg'ali, xashtak, chauken, erganakliyuz va chorkesar kabi mayda urug'lari qayd etilgan[1;84-85].

XIX–XX asrlarda yuzlarning asosiy qismi vodiy hududiga tutash bo'lgan Zomin va O'ratepada yashaganlar[7;91-93]. Bundan tashqari, Andijon viloyatining Baliqchi, Asaka, Shahrixon, Farg'ona viloyatining Buvayda tumanlarida joylashgan bir qancha qishloqlarida ham yuzlar yashaganligi manbalarda aks etgan[8;66-67].

Yuzlar asosan, Farg'ona vodiysining janubi-g'arbiy qismida istiqomat qilgan. Hozirgi Xo'jand viloyatiga qarashli Nov va J. Rasulov nomli (sobiq Proletarsk) tumanlarida yuzlarning parcha-yuz, chaljuvit, marka yuz, seksari (sakkizsari) guruhlari yashaganlar. Parcha-yuzlarning bir qismi bo'lgan qorabo'yinlar Osiyo, Kamar, Nov, marka-yuzlarning beshbola urug'lari Kurkat va yon atrofdagi qishloqlarda istiqomat qilgan. Chaljuvitlar ham butun bir qishloqni egallagan, hozirda ushbu qishloq Charjugut deb ham ataladi. Shuningdek, Nov tumanida yuzlarning tuyoqli guruhi ham yashagan.

Hisor qishloqlari – Galakapa, Chuguntepa va Chetariqdan bo'lgan sad-yuzlar Xo'jand uyezdining Yantoq, Kattaxayri hamda Unji, yuzlarning ko'p uyushmalari Quva, Nasriddinbek, Shahrixon va Andijon viloyati qishloqlariga joylashganlar.

J. Rasulov tumanida ko'psonli tuyoqlilar (O'zbek va Gulyakandoz qishloqlarida),

qo'qoni – qorapchilar, baloiiazimlar (asosan, Gulyakandoz qishlog'ida) hamda mayda urug'lar – beshbola, devonbegi va qorabo'yinlar yashagan[1;84].

XIX asr davomida yuzlarning ko'pchiligi o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Cho'l va tog' oldi hududlar (Jizzax hamda O'ratepa oralig'i)da yashovchi yuzlarning bir qismi yarim o'troq holda istiqomat qilgan. Yuzlarning xo'jaligida dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik ham salmoqli o'rin tutganligini ko'rish mumkin.

Yuzlar boshqa yarim ko'chmanchilarga nisbatan asosan, qo'ychilik bilan shug'ullanganligi bilan farqlanadi. Ularning chorvalarida otlar nisbatan oz bo'lib, ulardan faqat yuk tashish va transport uchun foydalanilgan.

Yuzlar dafn marosimida o'ziga xoslik shundan iboratki, biror kishi vafot etgan kuni uning uyida qo'chqor so'yilgan. Uning go'shti teng bo'lingan holda ta'ziyaga kelganlarga tarqatilgan. Tarqatilgan go'sht mayit olib chiqib ketilguniga qadar eb bo'linishi shart bo'lgan. Ushbu odat "go'sht tortish" deb nom olgan. Andijon yaqinidagi yuzlarda ushbu amallar qo'shning uyida amalga oshirilgan.

Sunnat, to'y va marhumlarni yodga olish marosimlarida amalga oshirilgan odatlaridan biri qo'shish hisoblanadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham yuzlarda ushbu odat saqlanib qolgan edi.

O'zbek xalqining etnik konsolidatsiya jarayonini aralash nikohli oilalarda ham ko'rish mumkin. Aralash nikohlar turli guruhlarning o'zaro yaqinlashuviga olib kelgan. Shu bilan birga, etnik jarayonlarni ham tezlantiruvchi omillardan biri bo'lgan. O'ratepa hududidagi yuzlar turklar tojiklar va Qurama tizmasi tog'oldi hududlarida esa yuz-boyovutlar quramaliklar bilan o'zaro nikohga kirisha boshlagan[9;58].

Yuzlarning lahjalari turli etnik guruhlarni ta'siri tufayli turli xil lahjalarda so'zlashganlar. Yuzlarning dialekti o'zbek tilidagi mavjud qipchoqlarning aralashgan, o'g'uz va qarluq-chigil dialektlariga aynan mos keladi[10;58].

Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'i va Xorazmga kelib o'rnashgan Dashti Qipchoq o'zbeklari mahalliy aholining xilma-xilligini ko'paytirgan bo'lsalar ham, lekin etnik tarkibni tubdan o'zgartira olmaganlar. Chunki, ular bu yerga kelib qo'shilgan navbatdagi kichik etnik komponentlar edi, xolos.

Yuqorida qayd etilganidek, yuzlar XVI asrdan XX asr boshlariga qadar o'lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etgan qabilalardan biri hisoblanadi. XX asr boshlarida O'zbekiston va Tojikiston hududida yashagan yuzlarning soni taxminan 60 mingga yaqin bo'lgan. Yuzlar o'zbek xalqining shakllanishida ishtirok etib, uzoq vaqt davom etgan etnik assimilyasiya jarayonida XX asrning 20–30 yillarida o'zbek xalqi tarkibiga qo'shib ketgan.

Yirik o'zbek qabilalardan biri bo'lgan yuzlarning soni haqidagi aniq ma'lumot berish qiyinroq masala hisoblanadi. Dastlabki yuzlar Farg'ona vodiysiga Shayboniyxon qo'shinlari bilan kelgan bo'lib, Dashti Qipchoq o'zbeklari singari allaqachon o'troqlashib, mazkur mintaqaning o'troq turkiy tilli aholisi bilan aralashib ketgan edi. Ushbu holatda XVIII asr oxiri – XIX asrlarda vodiya kirib kelgan yuzlar to'g'risida fikr yuritiladi. Farg'ona yuzlarining aksariyatini vatani vodiya tutash Zomin va O'ratepa bo'lib, ozchiligi esa Hisordan kelgan edi. Ushbu qayd qilingan hududlar ko'rilayotgan davrda yuzlarning asosiy tarqalgan hududlari hisoblangan[7;91-93].

Yuzlarning aytarli qismlari Farg'ona vodiysining Xo'jand (Nov va Proletarsk tumanlari joylashgan hududlar XVIII asrning ikkinchi yarmida O'ratepa mulkiga qaragan[11;17-18;]) hamda Qo'qon uyezdi hududlari (Qo'qon atroflari, Beshariq)da yuzlar istiqomat qilgan. Yuzlar alohida tarzda Farg'ona vodiysining tekislik qismlari va Qurama tizmalaridagi tog'oldi hududlarida yashagan.

S.S.Gubayevaning ma'lumotiga ko'ra,

Marka-yuz qishlog'idagi yuzlar kichik juz tarkibiga kirgan va marka, qarapchi hamda qirq bo'linmalarga bo'lingan. Ularning hammasi aka-ukalar bo'lib, kattasi Marka, kenjasi Qirq bo'lgan. Bayram va tadbirlarda eng hurmatli joyda marka, undan o'ngda qarapchi, chap tomonda qirq o'tirgan. Marosimlarda qo'yning kalla qismi markaning oldiga qo'yilgan, u qarapchiga bergan va u o'z navbatida tatib ko'rgach, qirqqa uzatgan. Tilshunos X. Doniyorov yuzlar marka, karabchi va rajab degan bo'linma tarkibiga kirgan, deb ko'rsatadi[1;83].

Dashti Qipchoqdan kirib kelgan ko'chmanchi urug'-qabilalarning mahalliy aholi tarkibiga singib ketish jarayonining ayrim ko'rinishlari O'zbekistonning boshqa hududlarida ham bir xil kechganligi ko'zga tashlanadi. Buni mahalliy va chetdan kelgan aholi o'rtasidagi o'zaro nikoh munosabatlarida ko'rish mumkin. SHuningdek, bu jarayonda xonliklarga turli etnik guruhlar bilan birga kirib kelgan til elementlari mintaqa aholisi o'zlashuvida yangi so'z va iboralarning paydo bo'lishiga ham sabab bo'lgan.

Shu tariqa o'zbek xalqi tarkibidagi subetnoslar tashkil topgan va tarqalgan. Ushbu urug'lar juda keng hududlarda (Movarounnahrning tog' va tog'oldi yonbag'irlarida, ya'ni Farg'ona vodiysi tog'lari orqali Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Hisor vodiysidan to Shimoliy Afg'onistongacha) tarqalgan bo'lsalar-da, bu barcha etnik guruhlarda xo'jaligi va madaniyatining umumiy rivojlanish darajasi deyarli bir xil bo'lgan edi. Yuqorida ta'kidlangan subetnik komponentlar (sartlar, turklar va dashtiqipchoq o'zbeklari) XIX asr oxiri –XX asr boshlarida turmush tarzida, an'analarida, tilida umumiy jihatlarga ega bo'lgan bo'lsa-da, bir-birlaridan aniq ajralib turishlarini kuzatish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т., 1968. – Б. 83–85.
2. Список 92 Узбек–казахских племен // URL: [http://kyrgyz.tsu.ru/gen/g\\_03.html](http://kyrgyz.tsu.ru/gen/g_03.html)
3. Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... – Б. 404.

4. Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства.... – С. 56.
5. Валихонов Ч. Киргизское родословие / Собр. соч. Т. 1. – Алма-Ата, 1961. – С. 208.
6. Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этносларо жараёнлар... – Б. 15.
7. Гребенкин А. Д. Узбеки / Русский Туркестан..... – С. 91–93.
8. Губаева С. С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начале XX вв.... – С. 66–67.
9. Гаврилов М. Ф. Материалы к этнографии тюрок Ура-Тюбинского района... – С. 10.
10. Боровков А. К. Вопросы классификации узбекских народных говоров / Известия АН УзССР. – 1953. – №5. – С. 58.
11. Мухтаров А. Очерк истории Ура-Тюбинского владения в XIX в.... – С. 17–18.

## ВОҲА ТОЖИКЛАРИ ХЎЖАЛИК ХАЁТИДА ЧОРВАЧИЛИК ВА ДЕҲҚОНЧИЛИК КЎНИКМАЛАРИНИНГ ЖАДАЛЛАШУВИ

**Аҳмедов Сардор Сайриддин ўғли,**

Термиз давлат университети жаҳон тарихи кафедраси  
ўқитувчиси, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

UDK: 39(=222.8) 575.151’’XX/XXI’’

<https://orcid.org/0009-0005-2633-567X>

**Аннотация:** Воҳада хўжалик ҳаётида муҳим тадқиқотларда сабаб бўлган чорвачилик ва деҳқончилик фаолиятида, уларнинг тарихан яшовчанлик босқичлари маълум этник уруғлар номларига оид маълумотларни илмий ўрганиш асосида таҳлил этилди. Тожикларнинг воҳага келиб жойлашуви, шарқшунос ва этнолог олимларнинг олиб борган илмий тадқиқотларни натижалари, қабилавий уруғларга бўлинишининг хўжалик ҳаёти билан боғлиқ маълумотлар илмий таҳлил қилинди.

**Калит сўзлар:** этник, дўрмон, ўтроқ ўзбек, тожик, кўнғиротлар, лўлили, чорвачилик, деҳқончилик, йилкичилик, ёвойи эчки, ёвойи отлар, лочин, лалмикор, картошка, пиёз, олма, гилос, буғдой, гуруч, (шоли), тарик, маккажўхори, арпа.

**Аннотация:** В оазисе на основе научного изучения названий отдельных этнических родов проанализированы животноводческая и земледельческая деятельность, этапы и исторической жизнеспособности. Научно проанализированы сведения о местонахождения таджиков в оазисе, результаты научных исследований, проверенных востоковедами и этнологами,

хозяйственной жизни разделения на племенные роды.

**Ключевые слова:** этнический, лесной, оседлый узбек, таджик, колокольчики, цыгане, скотоводство, земледелие, козоводство, дикие козы, дикие лошади, сокол, лалмикор, картофель, лук, яблоки, черешня, пшеница, рис, (рис), просо, кукуруза, ячмень.

**Abstract:** In oasis, livestock and farming activities, their historical viability stages were analyzed on the basis of scientific study of information on the names of certain ethnic clans. Information about the location of the Tajiks in the oasis, the results of the scientific research conducted by orientalists and ethnologists, and the economic life of the division into tribal clans was scientifically analyzed.

**Keywords:** ethnic, forest, sedentary uzbek, tajik, bells, gypsies, cattle breeding, agriculture, goat breeding, wild goats, wild horses, falcon, lalmikor, potatoes, onions, apples, cherries, wheat, rice, (rice), millet, corn, barley.

Сурхон воҳасида истиқомат қилувчи ўтроқ ўзбек, тожик ва кўнғиротлар хўжалигида деҳқончилик ва анъанавий



чорвачилик машғулотлари барқарор сақланиб қолинган. Воҳа тожиклари билан ёнма-ён яшаб келаётган ўзбек хонадонларидан олинган маълумотларга кўра, тожикларда ҳозиргача зотдор йирик шохли моллар кўплаб боқилади, бозорларга улар олиб чиққан моллари эса харидоргир ҳисобланади. Воҳа тожиклари бугунги кунда ҳам чорва мол ва қўйларини боқиш учун нисбатан дарёбўйи ҳудудларидан фойдаланадилар. Воҳа тожиклари ўз молларини боқиш учун мавжуд тоғ ва тоғ-ёнбағирларидан фойдаланиб келмоқдалар. Мазкур ҳудудда истиқомат қилувчи тожиклар чорва молларини дарё ва тоғ-ёнбағирларида ҳайдаб боқиш учун эрталабдан тоғ-ёнбағирларига чиқиб кетадилар. Кечга яқин кун қайтиши билан уйга қайтадилар.

Сариосиё ва Бойсун туманларида чорвачилик соҳаси Иккинчи Жаҳон Уруши йилларида яхши ривожлангани ҳамда иқтисодий қийинчилик даврида аҳолининг турмуш тарзи учун муҳим аҳамият касб этган. Ҳар бир хўжаликда бир нечта чорва ҳайвонлари боқилган. Шу билан бирга тожиклар давлатга гўшт-ёғ етказиб беришда ўз хиссаларини қўшганлар. Бироқ, кейинги йилларда чорва ҳайвонлари сони камайганлиги лекин тоғли ҳудудларда чорва нисбатан кўп эканлигини таъкидлайдилар. Жумладан, Сариосиё ва Бойсун туманлари тожик қишлоқлари аҳолисининг қарийиб 80% да чорва ҳайвонлари боқиб келинади.

Албатта, бу хўжалик юритиш усули тожикларга хос бўлган, чорвачилик билан боғлиқ бўлган анъанавий турмуш тарзининг намунасидир. Турли этник жамоаларнинг хўжалигидаги бундай анъанавийлик ўз ўрнида мазкур халқлар турмуш тарзи ва маданиятидаги кўплаб этнографик белгиларни сақланиб туриши учун имконият яратади.

Дала этнографик тадқиқотлар вақтида ахборотчилардан олинган маълумотлар шуни кўрсатадики воҳа тожиклари орасида йилқичилик ҳам кенг тарқалган чорвачиликнинг бир тури ҳисобланади. Йилқиларни дастлаб боқиш лалми

йерларга ишлов бериш ҳамда махсулотлар пишганда қишлоқларга ташиш учун кенг фойдаланилган. Ҳозирги кунга келиб йилқиларни ўрнини қишлоқ хўжалиги техникалари эгаллагани учун чопағонлик учун ёки от сути учун боқилади. Ҳисор тоғларида воҳада ягона бўлган йилқи подаси боқилади подада 1000 га яқин отлар боқилади. Йилнинг апрель-май ойларида йилқилар тоғларга боқиш учун олиб кетилади август охири сентябр бошларида тоғлардан пастга махсус отхоналарга боқиш учун олиб келинади. Йилқичилик чорвачиликнинг нозик тури ҳисобланади шунинг учун эчки қўй ва қора молларга қараганда кечроқ тоғларга боқиш учун олиб кетилади ва вақтлироқ олиб келинади бу эса отларнинг ўта нозигли туфайли ва совуқ ҳавога тез нобуд бўлганлиги учун ҳам шундай чора тадбирлар кўрилади. Тожиклар орасида от боқиш ҳозирги кунга келиб жудаям қисқариб кетганига қарамай ҳамон кўплаб хонадонларда учратиш мумкин. Асосан арпа-буғдойни кўпроқ йетиштирадиган тожиклар орасида от боқиш кенг тарқалган. Тижорат мақсадида ҳам тожиклар от боқишларини учратиш мумкин от сути ва от гўштини етиштириб бериш учун ҳам боқилади.

Тоғли тожик қишлоқларида яшовчи аҳоли қадим замонлардан бери ёвойи ҳайвонларга қарши курашиб келишади бу ҳолат табиат ва яшаб турган минтақада ёвойи ҳайвонларнинг жойлашуви билан ҳам боғлиқдир.

Тадқиқот жараёнида чорвачиликнинг ноананавий турига дуч келдик воҳада яшовчи тоғли тожиклар Сариосиё туманинг Хонджиза, Сангардак, Чош, Дебодом ва Нелу қишлоқлари атрофида ёвойи эчки ва фақат айнан шу ҳудудларда ёвойи отлар яшаб келиши кузатилиб, аҳоли ҳозирги кунда ҳам бу ҳайвонларни ушлаб, қўлга ўргатиб келмоқда. Лочин ва бургутларни қўлга ўргатишиб ов учун ҳам фойдаланишлари ёки узум экувчи деҳқонлар далаларида ушбу қушларни қафас ичида сақлашади лочинни товушини эшитган қушлар узум боғларига хужум

қила олмаслиги учун ҳам айнан шу усулдан фойдаланилган.

Какликларни ушлаб боқиш қафасларда илиб қўйиш сайрашини эшитиш учун ёки қишда шўрва қилиб йейиш учун боқилган. Какликдан бошқа қушлар майна чумчуқ ва қарғаларни ушлаб алоҳида боқилади. Майна цероз касаллигига чалинган инсонларга шўрва қилиб берилса тузалиб кетишини тезлатар экан бир ой мобайнида беш олти марта кетма кет истемол қилган инсонда касаллик хавфи камайиши мумкин экан. Чумчуқ гўшти эркакликни кўпайтириш учун бефарзандларга истемол қилиш тавсия этилади. Қарға гўштини асосан саратон касаллигига чалинган беморларга шўрва тарзида истеъмол қилиш тавсия этилади. Ёввойи асалари уяси асосан тоғларда ва тоғ олди ҳудудларида қидириб топиш қийин бўлган уялардан бири саналади. Ёввойи асалари тоғларнинг қияларида уя қуриб асал тўплашлари ва бундай уяларни Сина, Чош, Каш ва Дебодом қишлоқларида истекомат қилувчи аҳоли вакиллари топиб истеъмол қилганлари ҳақида сўзлаб беришди. Ушбу асални фақат куз ойларида топиш мумкин экан.

Воҳа тожиклари дарё бўйларида жойлашувининг анъанавий чорвачилик билан боғлиқ жиҳатлари чорвачилик қадимдан тожиклар учун хўжалик фаолиятларида муҳим омил эканлиги тожик қишлоқларида олиб борилган дала дала тадқиқотлари натижалари, ҳамда кекса ёшдаги ахборотчилардан олинган маълумотларда ҳам ўз тасдиғини топган.

Ўзбекистон ҳудудида, хусусан Сурхон воҳасида тожик этник гуруҳларининг деҳқончиликка ўтиш жараёни улар жойлашган ҳудудлардаги дарёларнинг қуриши, чорва учун яйлов ва ўтлов майдонларининг кескин қисқаришига боғлиқ эди. Боз устига воҳадаги тифиз этномаданий алоқалар, этнослараро фаол интеграция ва ассимиляция жараёнлар ҳамда чорвадор халқларнинг ўтrockлашуви натижасида деҳқончиликнинг ривожланиши жадаллашиб борган. Бойсун, Денов, Шеробод, Сариосиё ва Узун

туманлари ҳудудларининг тоғ ва тоғолди ҳудудларида лалмикор деҳқончилик ривожланган. Умуман, мазкур минтақада лалми деҳқончиликнинг кўпайиши оби (сувли) ерларда пахта экиладиган майдонларнинг кенгайиши билан боғлиқ бўлган.

Воҳанинг тоғолди ва тоғнинг қуйи қисмларида суғориладиган ерлар камлиги ва лалми экинлар учун ҳам ноқулайлиги туфайли бу ерларда яшовчи ўтроқ аҳоли боғдорчиликка ихтисослашган. Сурхон воҳасининг иқлими боғдорчилик учун ниҳоятда қулайлиги тожиклар истекомат қилинадиган ҳудудларда олма, узум, гилос, нок ва анжирдан мўл ҳосил олишлари тадқиқот жараёнларида амин бўлди.

Лангар ва Чорбоғ номидаги қишлоқлар аҳолиси ўз ерларини Бекум, яъни унумдор (қумсиз) деб ҳисоблашади. Ушбу қишлоқларнинг аҳолиси ўз экин майдонларига буғдой, арпа, жўхори, тарик, зиғир ва ошқовоқ каби қишлоқ хўжалик экинларини узоқ вақтдан буён экиб келганлар. Тўқайзорларнинг очик ерларига ошқовоқ экишиб ердан унумли фойдаланганлар. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, тожик этник жамоалари донли ва дуккакли маҳсулотларни севиб истеъмол қилганлар. Ҳар бир тожик хўжалигида жўхори, албатта буғдойга нисбатан кўпроқ экилган. Унинг 20 га яқин навлари бўлиб, тожиклар асосан оқ жўхори, камроқ микдорда эса чорва учун қора жўхори етиштирганлар. Жўхорининг пояси чорва учун энг яхши озуқа ҳисобланган. Жўхорининг кўпроқ майдонларга экилишини, аввало, унинг аҳоли чорваси учун асосий озиқ-овқат маҳсулотидан бирига айланиб қолганлиги билан изоҳлаш мумкин. Шахсий томорқадан фойдаланишда эса ҳамон маккажўхори, шоли, нўхот, мош, ошқовоқ каби хўжалик эҳтиёжи маҳсулотлари экиш давом этиб келмоқда. Жумладан айрим тожик қишлоқларида мавжуд 10 сотихли томорқа ерининг 6 сотихига буғдой ва жўхори, 2 сотихига картошка ва пиёз 2 сотихига олма, гилос, бошқа бир ҳудудда эса 15 сотих

экин майдонининг 10 сотихига буғдой, арпа 3 сотихига маккажўхори, ҳамда 2 сотихига картошка пиёз экилган.

Кекса ахборотчилар билан суҳбатдан маълум бўладики, тожиклар ўз экин майдонларида помидор, картошка каби қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштирмаганлар. Картошка ва помидор Ўрта Осиёга Россиядан кириб келган ва уни дастлаб ўтроқ ўзбеклар экиб кўрганлар. Картошка аҳоли орасида тез оммалашган экин тури ҳисобланади. Кейинчалик, маҳаллий ўзбеклар таъсирида бу турдаги қишлоқ хўжалиги экини тожик қишлоқларида ҳам экила бошланди. Айни вақтда картошка воҳанинг барча ҳудудлари шахсий томорқаларида зарурий эҳтиёж ва озиқ-овқат манбаи сифатида етиштирилмоқда.

Сурхон воҳаси тожиклари деҳқончилик соҳасида асосан боғдорчилик билан шуғулланган бўлсалар, ўз хўжаликларида донли экинларлардан: жўхори, буғдой, гуруч (шоли), тарик, маккажўхори, арпа; дуккакли экинларлардан: нўхот, мош, зиғир полиз маҳсулотларидан: қовун, тарвуз, ошқовоқ; ем-хашак учун: беда; шунингдек, сабзи, пиёз, картошка, турп, ёғ ишлаб чиқариш учун кунжут, етиштирганлар.

Бир сўз билан айтганда сурхон

тожиклари ўзаро хўжалик-маданий алоқалар таъсирида қўшни ўтроқ ўзбек деҳқонларининг экин майдонларида етиштирилаётган деярли барча экин турларини етиштиришни ўзлаштириб борганлар. Бундай ўзаро хўжалик-маданий алоқалар натижасида тожикларнинг хўжалигида ҳатто боғдорчилик ва узумчилик каби қишлоқ хўжалик соҳалари ривожлана борди. Ўз томорқаларида ўрик, анжир, беҳи каби мевали дарахтларни парваришлаш тожиклар учун ҳам одат тусига кириб борди.

Тадқиқот жараёнида деҳқончиликнинг ноанъанавий турига дуч келдик. Тоғлик тожиклар ҳозирги кунда ҳам термачилик билан шуғулланишига гувоҳ бўлдик. Тоғда ўсадиган ёвойи писта, бодом, аччиқ бодом, тарик каби донли маҳсулотлар пишганида териш учун тоғли тожиклар баланд қояларга чиқиб кетишади бунай ўсимликлар тиббиётда ҳам фойдали ҳисобланади. Ёвойи олма, нок, наматак, туғдона дўлана каби мевалар ҳам пишиб етилганда тоғли тожиклар томондан теришиб бозорларга ҳам сотилади кўпинча ушбу мевалар қуритилган ҳолда истеъмол қилинади. Каврак, чуқури, ипор каби гиёҳлар тоғларда ўсганлиги сабабли воҳанинг тоғли тожиклар табобат учун ҳам кенг фойдаланишади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Харузин Н.Н. История развития жилища у кочевых и полукочевых тюркских и монгольских народностей России // ЭО. –М., 1996. –№ 1-3. –С. 3-64;
2. Нозилов Д.А. Зодчество горных районов Средней Азии. –Ташкент, 1999.
3. Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана // Труды АН ТаджССР. Т. XXVIII. –Сталинабад, 1954. –С. 133; Ўша муаллиф. Жилища узбеков племени карлук южных районов Таджикистана и Узбекистана // ИООН АН ТаджССР. Вып. 10-11. –Душанбе, 1956;
4. Ибрагимов И.О. История развития жилищ населения степных районов Южного Узбекистана конца XIX – начала XX в.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. –Ташкент, 1988;
5. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. –Тошкент, 1994; Ўша муаллиф. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. –Тошкент, 2003;
6. Хужаханов И.М. Этнорегиональные особенности традиционного жилища сельского населения Ферганской долины (конец XIX – начало XX века): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. –Ташкент, 2007.
7. Турсунов.С.Н ва бошқалар. Сурхондарё тарихи. Т., “Шарқ”. 2004. -Б.605.
8. Захарова И.В. Материальная культура уйгуров Советского Союза //

Среднеазиатский этнографический сборник. Т. 2. –М., 1959;

9. Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана// Труды АН. ТаджССР. – Сталинабад, 1954. Т. XXVIII; Андреев М.С. Таджики долины Хуф. –Душанбе, 1958.

## O‘TOV

**Qarshiyev Islom Maxmarahim o‘g‘li,**

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti v.b.,

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

UDK: 39:314.114(091)(575.151)

<https://orcid.org/0009-0004-0796-1493>

**Annotatsiya:** O‘tov — ko‘chma uy, turar joy; ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi xalqlarning asosiy turar joyi. Yengil xom ashyo (asosan, yog‘och)lardan konussimon shaklda yasaladi: aylana shakldagi panjara devor va tepa qismdan iborat bo‘lib, ustidan kigiz bilan yopiladi; shuning uchun "uy", "kigiz uy" deb ataladi. Maqolada, muallif Surxon vohasida yashovchi aholining mavsumiy turar-joylaridan biri - o‘tov haqida ma‘lumot beradi.

**Kalit so‘zlar:** mavsumiy va vaqtinchalik turar-joylar, keraga, “qora uy”, “tuynuk”, “oq o‘tov”, jafsar.

**Аннотация:** Отов – передвижной дом, резиденция; главное место жительства кочевых и полукочевых народов. Изготавливается из легкого сырья (преимущественно дерева) конической формы: круговая сетка состоит из стенки и верха и покрыта фетром; поэтому называется «дом», «войлочный дом». В статье автор приводит сведения об Отове – одном из сезонных жилищ жителей, проживающих в Сурханском оазисе.

**Ключевые слова:** сезонные и временные поселения, керага, “қора уй”, “туйнук”, “оқ ўтов”, жафсар.

**Abstract:** O‘tov is a mobile home, a residence; the main residence of nomadic and semi-nomadic peoples. It is made of light raw materials (mainly wood) in a conical shape: a circular grid consists of a wall and a top, and is covered with felt; therefore called "house", "felt house". In the article, the author provides information about Otov, one of the seasonal residences of residents living in the Surkhan

oasis.

**Key words:** seasonal and temporary settlements, keraga, “qora uy”, “tuynuk”, “oq o‘tov”, jafsar.

Har bir etnosning moddiy madaniyati, uning uyi, turar-joyi, uy-ro‘zg‘or buyumlari, taomlari, kiyim-kechaklari va zeb-ziynat buyumlari bilan belgilanadi. Asosan, iqlim o‘zgarishi va tabiiy-geografik sharoit ta‘sirida etnosning milliy ruhiyat va xarakterini ifoda etuvchi moddiy madaniyat namunalari o‘tmish silsilasida shakllanib, o‘ziga xos bo‘lgan etnik va lokal xususiyatlarga ega bo‘lgan. Masalan, uy-joylarning qurilishi, unga ishlatiladigan qurilish xomashyolari va konstruksiyasi, uyning ichki tuzilishi, o‘chog‘i va uni o‘rnatish qonun-qoidalari, uydagi buyumlarning xillari va jihozlanish kabilar nafaqat ayrim xalqlarda, balki bir xalqning o‘z ichidagi ayrim etnografik guruhlarda ham farqlangan[1;30].

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mavsumiy va vaqtinchalik turar-joylar to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotni miloddan avvalgi V asrda yashagan Gerodot o‘zining “Tarix” asarida argiplarning mavsumiy va vaqtinchalik turar-joy sifatida qurgan uy joy uchun qurilish ashyosi tabiiy o‘sib turgan daraxtlardan foydalanganliklari haqida to‘xtalib: “Har bir oila daraxt tagida yashaydi. Qishda daraxt qalin oq kigiz bilan yopiladi, yozda esa kigiz olib tashlanadi”- deb qayd etgan[2;21].

Bunday turar-joylar o‘g‘izlarda miloddiy bir minginchi yillikning oxirlarida kirib kelganligi haqida ma‘lumotlarni

uchratishimiz mumkin[3;184-185]. Muallifi noma'lum "Hudud al-olam" nomli asarda Irtish bo'ylarida istiqomat qilgan qalmoqlar haqida to'xtalib: "Qishin-yozin kishilar qora uylarda yashab, yaylov va suv axtarib, ko'chib yuradilar"[4;29] deyilgan. Ko'chmanchi xalqlarning asosiy turar-joy vositasi sifatida o'tov milodiy birinchi ming yilliklar o'rtalarida vujudga kelgan[5;50]. O'tovlar tog'li qishloqlarda ham mavsumiy yashash joy bo'lib kelgan.

Vohada o'tovlarning katta, kichik, baland bo'lishi, bezaklarining turli xilda chiroyli bo'lishi uy egasining iqtisodiy jihatdan baquvvatligidan kelib chiqib yasalgan. Iqtisodiy baquvvat kishilarning uylari ikki ustma-ust keraga, ya'ni qo'sh qanotli bo'lgan. Vohaning Qumpaykal, Qarluq, Jobu, Jaloyir, Oqqopchig'oy, Xo'jamulki, Shaldiroq, Obodon, To'da, Xomkon, Besherkak, Munchoq kabi qishloqlarida o'tovlarning eshigini janubga qaratib o'rnatganlar, chunki quyosh chiqqandan to botgunga qadar uyning ichiga quyosh nuri (ayniqsa, kuz va qish fasllarida) tushib turishi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, sharq kun chiqish va g'arb kun botish tomondan esadigan izg'irinli shamollar va yog'ingarchilik hisobga olingan. Vohada yangi uylanayotgan yigitga oq uy (oq o'tov) qilingan. Nikoh to'yiga yangi o'tov qilish odati xorazmliklarda, qipchoqlarda laqaylarda ham mavjud bo'lgan. Oq o'tovning suyagi va kigizlarini kuyov tomon, o'tovning uy sozi, ya'ni ichki jihozlari kelin tomon tayyorlagan. Oq o'tovning kigizlari asosan oq jundan tayyorlangan. Vohada o'tovni tiklash va buzish ishlarini faqat ayollar bajarganlar[6;56].

Tog'li qishloqlarda keng tarqalgan uy-joylar orasida mavsumiy turar joylardan o'tov haqida ma'lumot beramiz. Mavsumiy turar joylar ichida o'tov alohida ajralib turgan. O'tovning yog'och asosini qo'ng'irotlar boshqa yarim ko'chmanchi o'zbeklar singari sariq tol yoki terakdan yasaydilar. O'tovning devorlari yig'ma yog'och devorlar – "keraga" lardan iborat, "uvuq" ("uviq") deb ataluvchi bir uchi egik uzun-uzun xodalar o'tov tomini tashkil etgan. "Chang'aroq" deb ataluvchi

charxpalakni uvuqlarning tik uchiga qo'ndirganlar va egik tomoni keragalarga mahkam bog'langan. Chang'aroqning uvuq uchlari kiydiriladigan teshikchalar "ko'z" deb atalgan. Yanada mahkamroq bo'lishi uchun chang'aroq bilan uvuqlar "chanbog'" deb ataluvchi taxtalar bilan aylantirib qoplab chiqilgan.

Keraga panjaralari (asosan, to'rtta) o'tov devorini hosil qilgan, ular "ko'k" deb ataluvchi tuya yoki ho'kiz terisidan qilingan tasma iplar yordamida bir-biriga xochsimon ko'rinishda mahkamlangan. Har bir devorning alohida bo'lagi "qanot" deb atalgan. O'tovning tepa qismi uvuqlar va chang'aroqdan iborat. Chang'aroq ikkita yoysimon novdalar birlashtirilgan aylana yog'och chambardan iborat. U ayni vaqtda ham deraza, ham mo'ri xizmatini o'tab, "tuynuk" deb ataladi. Aholi kigiz qoplangan o'tovni "uy", eskirganini "qora uy", yangisini "to'y o'tovi" yoki "oq o'tov" deb atashgan. XX asrning o'rtalarigacha ular bu turar joy turlaridan vaqtinchalik boshpana sifatida foydalanganlar[7;43-44]. Agar o'tovning tuzilishiga e'tibor berilsa, uyning suyagi deb ataluvchi keraga, uvuq va chang'aroqdan, uyning ustini yopuvchi jihozlari-to'rlik, uzuk va tuynuk yopqichdan iborat bo'lgan.

Keraga uyning panjara qismi hisoblanib, u 48 boshdan 72 boshgacha bo'lgan. Bitta qora uyda 4 ta keraga mavjud bo'lib, har bir keraga uyning to'rtidan bir qismini egallagan va u qanot deb atalgan, to'rtalasi birlashtirilib aylantirilganda qora uyning aylana panjara qismi hosil bo'lgan. Har bir qanotda 12 tadan quloq bo'lsa (bu chinoq deb ataladi) uy 48 boshli bo'lgan, 16 tadan quloq bo'lsa uy 64 boshli uy deb atalgan[8;57].

Keraga panjaralari tuya yoki ho'kiz terisidan tayyorlangan maxsus tasmalar bilan berkitilgan. Bu tasmalar keraga ko'ki deb nomlangan[9;73-74]. Keraganing ko'ki oshiq-moshiq vazifasini bajargan. Keragalar shunday tayyorlanganki, ularni yoysa balandligi 1,40-1,60 metrlik panjara hosil bo'lgan[10;128-129]. Qanotlarning birlashgan joyini jafsar deb atashgan. Keraganing old tomoni uy eshigining ikki yon ustuni (yon



bo'sag'a) ga berkitilgan. Keragalarning birlashgan joyi-jafsarlarga balandligi 1,30-1,70 metrlik jafsar qoziqlar qoqilgan va keragalar jafsar bovlar bilan jafsar qoziqlarga mahkamlangan. Keragalarda hosil bo'lgan

panjara kataklarini ko'zanak deb atashgan, ko'zanaklar katta-kichikligiga qarab yel ko'zanak yoki tor qo'zanak deb nomlashgan[9;74].



O'tovning (qora uy) uvuqlari 2,50 metrdan 2,80 metrgacha, uzunlikda (akademik K.Shoniyozov o'zbek qarluqlarida uvuqlarining uzunligini 1,7 m deb ko'rsatgan)[11;128-129], diametri 23 sm bo'lgan, tol novdasidan tayyorlangan va uning egilgan joyi keraga quloqlariga mahkamlangan. Uvuqlar soni uyning necha boshligiga bog'liq bo'lgan. yetim uvuqlar bunga kirmagan. Eshik ustiga, ya'ni ustki bo'sag'a (erganak) ga o'rnatiladigan 5 ta uvuq yetim uvuq deb atalgan. Uyning chang'arog'i doira shaklida toldan egib qilingan. Bu qasqoq deb atalgan[9;74].

Qo'ng'irotlarning asosiy turar-joylari o'tov bo'lib, nikoh to'yi va motam marosimlarida, albatta, oq o'tov tikish va kelinni o'tovga tushirib olish hamda marhumni o'tovdan kuzatish shart bo'lgan. Ko'pchilik o'ziga to'q oila o'g'il uylantirish

munosabati bilan o'tov xarid qilgan. Odatda, 7-8 yil o'tganidan so'ng o'tov kigizlari qorayib ketganligi va uning ustki jihozlari eskirganligi bois "qora uy" nomini olgan. Ko'p hollarda o'tov 10-15 yil oralig'ida almashtirilgan. Biroq, bu safar o'tov kigizlarini oq jundan tayyorlash shart bo'lmagan.

To'y "Oq o'tov" ni o'rnatish katta oilaviy tantana hisoblangan. "Oq o'tov" ni yangi oila qurayotganlarga ular hayotida bir marotaba tayyorlangan. Yarim o'trov o'zbeklar, xususan, qo'ng'irotlar o'tovni, odatda janubga qarab qurishgan. Buning sababi, g'arbdan esayotgan izg'irin, yog'adigan yog'in va sharqdan esadigan qirqma shamollar o'tovning eshigiga to'g'ri urmasligi hisobga olingan. Shuningdek, tong otgandan kun botguncha ichki yorug'lik bir

xil tushib turishi mo'ljallangan. Qiblaga tomon oyoq uzatilmagan va yotilmagan[12].

O'tovlarning yog'och qismi ustalarga buyurtma asosida tayyorlangan yoki bozordan sotib olingan. Uyning qoplamasi (kigiz va boshqa materiallar), mustahkamlash vositalari (bog'lag'ichlar), ichki hamda tashqi bezaklarini oilaning mohir qo'lli ayollari bajarganlar. O'tov jun va ip gazlamalar bilan bezatilgan, chetlariga maxsus to'qilgan popukli gilamlar osilgan. Qadimiy turarjoyning bu turi hisoblangan o'tovlarni Sherobod hamda Boysun dashtlarida chorvachilik yaylovlarida hozir ham uchratish mumkin[9;76].

Qo'ng'irotlarda uyning eshigidan kiraverishda, ya'ni, o'rtada qazilgan o'choq bo'lgan. Aholi tomonidan o'tovga alohida e'tibor berilib, ayniqsa, yorug'lik tushishi, havo almashishi, o'choqdan chiqadigan tutunlarni avvaldan qora uyning chang'arog'ining tuynugining joylashishi bilan bog'liq holda tiklashgan. Tuynukning to'rtta uch quloch uzunlikdagi tuynuk bov "arqonlar" i bo'lib, uyning to'rt tomonidan pastga tushib turgan. Tuynukni ochib – yopishda bu tuynuk bovlardan foydalanilgan[13].

O'tovga kiraverishda o'ng tomonda (irg'ada) uy ro'zg'or buyumlari, idish-tovoqlar, qozon-qasqoqlar, dasturxon, mesh va tuluplar, un va turli zarur narsalar solib qo'yiladigan qop va xaltachalar hamda yeguliklar turgan. Chap tomonda bo'sag'a yaqiniga qopda ot yemi, qopning ustida yoki yonida otning egar-jabduqlari qo'yilgan, keraga quloqlariga xurjun, ot to'rva, yugan va echki qilidan eshilgan arqonlar ilib qo'yilgan.

O'tovning to'rida napramach va bo'g'jomalar joylashgan.

Mehmonlar uchun o'tovning to'ridan joy qilingan, mehmonlar bo'lmagan kunlari to'rida oila boshlig'i o'tirgan, o'tovning chap tomonida erkaklar, uy-ro'zg'or buyumlari joylashtirilgan, o'ng tomonida ayollar o'tirgan. Yangi oila qurgan kelin-kuyovlar oq o'toviga, ular to bir farzandli bo'lgunicha uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumlari, idish-tovoqlar qo'yilmagan. Bu davrda o'tovning ichki qismida napramach, uning ustiga bo'g'jomoga o'rab qo'yilgan bo'g'cha va kelinning yig'ilgan yuklari turgan. Shuningdek, o'tov ichi kelin sepi, kiyimlari, gilamlar, kelin tomonidan tikilgan turli kashtalar va sochiqlar bilan bezatilgan. Ular bitta farzandli bo'lganlaridan so'ng chaqaloq uchun zarur bo'lgan buyumlarga o'tov ichi asta-sekinlik bilan to'la boshlagan. Uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumlari, idish-tovoqlar va boshqa kerakli narsalar yangi oila mustaqil bo'lib ajralib chiqqanidan keyin ota-onalari tomonidan berilgan[14].

Xulosa qilib, shuni qayd etish keraki, o'tovning paydo bo'lishi va shakllanishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Aholining an'anaviy turar joylari moddiy madaniyatimizning tarkibiy qismi hisoblanadi. Surxon vohasida yashovchi aholining o'tovlari O'zbekistonning boshqa viloyatlari bilan umumiylikka ega bo'lsa-da, lekin o'ziga xos bo'lgan an'anaviy jihatlari bilan ajralib turgan. Bu ushbu Surxon vohasining tabiiy-geografik sharoiti va bu hududda istiqomat qiluvchi aholining xo'jalik-madaniy va etnik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan.

#### Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. -T.: "O'qituvchi", 2003. — B. 30.
2. Геродот. История в девяти книгах. - Л., 1972. - С. 21.
3. Агаджанов С.Г. Огузские племена Средней Азии. IX-XIII вв. // Страны и народы Востока. Вып. X. - М., 1971. - С. 184-185.
4. Прошлое Казахстана в источниках и материалах.- Алма-Ата, 1935. - С.29.
5. Вайнштейн С.И. Проблемы истории жилища степных кочевников Евразии // СЭ.-М., 1976.- № 4. — С. 50.
6. Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar.-Toshkent, 1990. — B. 117; Qurbonov A. Shimoliy Surxon vohasi etnografiyasi (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmi). -Toshkent: "Yangi nashr", 2013. — B. 56.

7. Tursunov N.N. Surxondaryo xalq me'morchiligi. Moziydan sado, 1/2019 (81). — B. 43-44.
8. Tursunov S.N., To'xtayev A.Q., Annayeva Z.M. "Jarqo'rg'on tarixidan lavhalar" –T. "Yangi nashr". 2019. –B. 57.
9. Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi... – B. 73-74, 74, 76.
10. Akademik K.Shoniyo'zov o'zbek qarluqlarida keraganing balandligi 1 m 20 sm deb ko'rsatilgan. Шаниязов К. Узбеки-карлуки.-Т.,1964.- С. 128-129.
11. Шаниязов К. Узбеки-карлуки.- Т., 1964. - С. 128-129.
12. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani Inkobod, Gummataq qishloqlari. 2022 yil.
13. Dala yozuvlari. Sherobod tumani Kampirtepa qishlog'i. 2021 yil.
14. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Xomkon qishlog'i. 2022 yil.

## B.X.KARMISHEVA TALQINIDA SURXON VOHASI "XO'JALAR" I ETNIK TAVSIFI

**To'rayev Sherzod Gulboy o'g'li,**  
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti  
UDK: 39:314.114(091)(575.151)  
<https://orcid.org/0009-0008-9564-156X>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Surxondaryo hududida yashagan urug' qabila bo'linishiga ega bo'lmagan xo'jalar, sayyidlar va eshonlar xususida so'z boradi. Maqolada tadqiq etilgan aholi vakillari kelib chiqishi, voha hududida joylashuvi, mashg'ulotlari, ijtimoiy mavqei va boshqa masalalar yoritib berilgan. Shuningdek, xo'jalar tarkibida ham ijtimoiy bo'linish mavjudligi, til borasida tafovutlar mavjudligi, ularning XX asr boshlarida umimiy miqdori ham ko'rsatib berilgan. Bu maqola yaratilishida elshunos olim Bilqiz Xalilovna Karmisheva asarlari va tadqiqotlariga tayanildi.

**Tayanch so'zlar:** Surxon vohasi, avliyolar, xo'jalar, guli surx, Boysun, Qoraxon, miyonlar, sayyidlar, murid ovi.

**Абстрактный.** В данной статье говорится о хаджах, сайедах и эшанцах, проживавших в Сурхандарьинской области и не имевших родовых подразделений. В статье описываются происхождение, местонахождение, род занятий, социальный статус и другие вопросы изучаемого населения. Также показано существование социального разделения в составе домохозяйств, наличие языковых различий и их общая

численность в начале XX века. Создание данной статьи основано на работах и исследованиях учёного Билкиз Халиловны Кармишевой.

**Ключевые слова:** Сурханский оазис, святые, ходжи, гули-сурх, Байсун, Карахан, мианы, сайиды, охота на мюридов.

**Abstract.** This article talks about Khojas, Syeds and Eshans who lived in the Surkhandarya region and did not have clan divisions. The article describes the origin, location, occupation, social status and other issues of the studied population. Also, the existence of social division in the composition of households, the existence of language differences, and their total number at the beginning of the 20th century have also been shown. The creation of this article was based on the works and researches of elscientist Bilqiz Khalilovna Karmisheva.

**Key words:** Surkhan oasis, saints, masters, guli surkh, Boysun, Karakhan, miyans, sayyids, murid hunting.

elshunosligining sho'rolar davridagi eng yuqori nuqtasi kelib chiqishi boshqird bo'lgan professor Bilqiz Xalilovna Karmisheva nomi bilan bog'liqdir. Tadqiqotchi o'zining uzoq

yillar mobaynida olib borgan izlanishlari natijasida O'zbekiston va Tojikiston aholisining etnografiyasiga doir asarlarini yozgan[6,B.77]. Aynan ushbu asarlar tadqiqotimiz asosidir. Olima B.X.Karmisheva tadqiqotlarida XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Surxon vohasi aholisi tarkibida uch qatlam ajralib turganligini qayd etilgan. Bularga birinchi navbatda chig'atoylar, xo'jalar, xardurilar, qarshiliklar va boshqalar kirgan. Ular o'troq turmush tarziga ega bo'lib, urug'larga bo'linmaganligi bilan boshqa qabilalardan ajralib turgan. Ikkinchi qatlamga Mo'g'ullar davrigacha va ularning hukmronligi davrida kirib kelgan yarim ko'chmanchilikni va urug'larga bo'linish xususiyatini saqlab qolgan, o'troq aholi orasida batamom singib ketmagan turklar, qarluqlar, xalachilar, mo'g'ullar, merishkarlar va boshqa qabilalar kiradi. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Shayboniylar bosqini davrida Dashti Qipchoqdan kirib kelgan qo'ng'irotlar, yuzlar, laqaylar, semizalar, kesamirlar, qatag'onlar, durmenlar va boshqalar uchinchi qatlam hisoblanadi.

Maqolada tadqiq etilgan xo'jalar kam sonli bo'lishiga qaramasdan, Surxon aholisi ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan hisoblanadi. Xo'ja atamasi manbalarda X asrdan beri uchraydi[10,B.37]. "Xo'ja" fors tilida - "xo'jayin", "boshliq" degan ma'noni anglatgan. Shuningdek, u turli davrlarda islom mamlakatlarida turli ma'noga ega bo'lgan faxriy taxallus sanalgan[1,B.127]. Xo'jalarga ta'rif berishda tadqiqotchilar bir xil fikrda emaslar. Ba'zilar xo'jalarni xalifa Alining avlodlari deb hisoblaydilar va payg'ambar naslidan deb da'vo qilganlar ham mavjuddir. Shuningdek, ayrimlar xo'jalar birinchi to'rt xalifaning avlodlaridir degan fikrda. Qozog'iston tarixshunosligida xo'jalar dastlabki to'rt xalifaning avlodlari va islom dinini tarqatuvchilar sifatida ko'riladi. Aslida, har uchala nuqtai nazar ham o'ziga xos tarzda to'g'ri[8,B.37]. Tojiklar va o'zbeklar orasida xo'jalar va sayyidlar alohida guruhlar hisoblangan. "Sayyid" arab tilida qabila boshlig'i, janob kabi ma'nolarga ega so'z hisoblanadi. Aholi ularni ko'pincha umumiy Xo'ja nomi bilan atagan. Xo'jalar va

sayyidlar etnik emas, balki tabaqaviy guruhlardir. Buxoro xonligida ham boshqa musulmon mamlakatlaridagi kabi imtiyozli tabaqalar qatoriga kirganlar. Sayyidlar Muhammad (S.A.V.) ning qizi Fotima va uning eri, Hazrati Alidan tug'ilgan avlodlari hisoblanib, aholi orasida alohida e'zozlangan. O'g'li Husayn avlodidan bo'lgan sayyidlar Husayniy, ikkinchi o'g'li Hasanning avlodlari esa Hasaniy deb atalgan. Xo'jalar o'zlarining kelib chiqishini payg'ambarning sahobalari yoki ba'zi "avliyolar" bilan bog'laganlar. Sayyidlar va Xo'jalarning har bir urug'ining shajarasi va nasl-nasabi bo'lgan. Bu esa ularning payg'ambar va uning sahobalaridan kelib chiqishini tasdiqlagan. Bu nasabnomalarning aksariyati soxta bo'lib, ularning yozilgan muddati arablar istilosi va ularning O'rta Osiyodagi hukmronligi davridan ancha kechroq ko'rsatilgan. Eshonlar ham asosan sayyidlardan chiqqan. Ular, odatda, katta mozorlar yaqinida, shaharlar va yirik qishloqlarda urug'-aymoq bo'lib yashagan, shuningdek yarim ko'chmanchi o'zbeklar yashaydigan joylarga yondosh hududlarda ham joylashgan. Butun bir avlodan-avlod yoxud butun qishloqlar va hatto viloyatlar aholisi ma'lum bir eshonlarning muridlari hisoblangan. Bu muridlarning daromadidan "o'z ulushini" olish, shuningdek, ularning "muqaddasligi"ga e'tiqodini saqlab qolish uchun har yili yoki ikki-uch yilda bir marta eshonlar ziyorat qilganlar[4,B.100].

O'rta Osiyoni rayonlashtirish komissiyasining 1924-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, o'zbekzabon Xo'jalar Surxondaryoning Poshxurd vodiysida 1110 kishi va Qumqo'rg'onda, Surxon daryosi qirg'og'ida 220 kishi qayd etilgan. Bu esa Boysun bekligi aholisining 4,7%, umumiy Surxondaryo aholisining 0,8% ni tashkil etgan. Poshxurd vodiysida xo'jalar Zarabog', Poshxurd, Qorabog' va boshqa qishloqlarida, Qumqo'rg'on tumanida esa Surxon vohasi o'ng qirg'og'ida Jaloyir va Taktug'ay qishloqlarida, chap qirg'og'ida Xo'ja qishlog'ida yashagan[5,B.64]. O'troq turmush tarziga ega bo'lgan etno-ijtimoiy birliklar – chig'atoylar va xo'jalar ham o'ziga xos etnik



streetiplarga egadirlar. Xo‘jalar ham til jihatdan o‘zbek tilining qarluq lahjasida hamda ayrim qishloqlarda o‘zbek va tojik tilida baravar so‘zlashadilar. Oila-nikoh munosabatlarida endogam nikoh ustunlik qiladi. Ular ham ichki antroponim urug‘larga bo‘linadi. Tarixiy-etnografik tadqiqotlarda ular aholining ijtimoiy qatlami sifatida qayd etilgan[9,B.45].

Barcha xo‘ja va sayyidlarning ijtimoiy mavqei bir xil emas edi. Ularning ba‘zilari oddiy ishchilar bo‘lib, garchi ular o‘zlarini aslzodalar deb bilib, oila munosabatlarini faqat xo‘jalar bilan qurgan bo‘lsalar-da, haqiqiy imtiyozlarga ega emas edilar. Boshqalari esa oliy ruhoniylarga mansub bo‘lib, katta vaqf yerlariga egalik qilib, ulkan daromad olishgan. Aslida xo‘jalar ichki guruhlariga bo‘lingan, ko‘pchiligining nomlari afsonaviy ajdodining ismi yoki taxallusidan kelib chiqqan. Surxon vohasi hududida sayyidlar va xo‘jalarning ko‘plab oilaviy guruhlari yashagan.

Termiz Movarounahr shaharlar orasida avliyolar va sahobalar makoni sifatida mashhur bo‘lgan. Bu yerda Movarounahrning ilk so‘fiylaridan biri, Hakimiy darveshlik tariqati asoschisi Abu Abdulloh Muhammad bin Ali al-Hakim Termiziy yashagan va dafn etilgan. O‘rta asrlardan ma‘lum bo‘lgan Termiz Sayyidlarining Alining o‘g‘li Husayn avlodidan bo‘lgan. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida. Termiz Sayyidlarining avlodlari Termiz yaqinidagi Solihobod qishlog‘ida yashagan. Shuningdek, islom olamida “sayyid” atamasining sinonimi sifatida “to‘ra” so‘zi ham qo‘llanishi mumkin.[7,B.45].

B.X.Karmisheva ma‘lumotlariga ko‘ra, Hakim Termiziy mozori qarovchilari turkman-shixlari bo‘lgan. Turkman Shix qabilasi avlod nomi bilan ham atalgan. Buning sababi turkman shixlar xalifa Abu Bakr va turkman qabilalariga mansub ekanligi va ular sahobalarining avlodlari degan afsona mavjudligidadir. Shunday qilib, shixlar xo‘jalar guruhlaridan biri bo‘lgan. Shix, shayx so‘zlari - arabchada – “oqsoqol”, “qabila boshlig‘i”, “tasavvufiy tartib boshlig‘i” ma‘nosini anglatgan. Ko‘rinib turibdiki, bu atamaning bunday tushunchasi

ko‘plab mozorlarning qo‘riqchilari shixlar, xo‘jalar va sayyidlar vakillari bo‘lganligi sababli yuzaga kelgan bo‘lib, ular ko‘pincha mozor nomi bilan bog‘liq bo‘lgan kishining avlodlari hisoblangan. Bundan kelib chiqadiki, mozorlar, ziyoratgohlar xo‘jalar va eshonlar tasarrufida bo‘lgan va ular ushbu joylarni nazorat qilishgan.

Rivoyatlarga ko‘ra, Boysun bekligining markazida joylashgan Omonxona qishlog‘idagi Sayyidlar Balxdan kelgan bir zohid Sulton Valiy ya‘ni “Muqaddas Sulton” avlodlari bo‘lgan. U Muhammad Ali Hakim Termiziyga shogird bo‘lish uchun Termizga kelgan ekan. Shunda uni imtihondan o‘tish uchun tog‘larga, tirik qolgan sahoba Sulton Siddiq yashagan Omonxona hududiga yuborishgan. Omonxona sayyidlarining Amir Temur tomonidan ajdodlariga vaqf qilingan yerlari bo‘lgan. Ularning orasidan so‘fiylar jamoasining yetakchilari bo‘lgan eshonlar chiqqan. Omonxona yaqinida joylashgan Qatar tog‘i daralarida chig‘atoy tojiklari ularning muridlari hisoblangan. Sahoba Sulton Siddiqning Omonxona yaqinida g‘oyib bo‘lgani kabi rivoyatlar, hazrat Sulton Siddiq Vali haqidagi voqealar tahlil qilinsa, Boysun va Sherobod hududlaridagi xo‘jalar asosan sayyid va miyonlardan, ya‘ni xalifalar Ali va Umarning avlodlaridan tarqalgan, degan fikrni aytib o‘tish mumkin va omonxonalik xo‘jalarning aynan siddiqiyliklardan ekanligiga shubha qolmaydi[12,B.37].

Mahalliy aholining hikoyalariga ko‘ra, Zarabog‘ qishlog‘idagi Sayyidlar Husayn avlodlaridan bo‘lib, Xo‘jag‘oni Guli Surx - «Qizil atirgul xo‘jalari» deb atalgan. Ular mahalliy ziyoratgohlarda imomlik qilganlar. Bahorda teng kunlik arafasida Zarabog‘da uch kun davomida masjidida shayxlar sharafiga guli surx marosimlari o‘tkazilgan. Bayrami munosabati bilan mozor oldiga bunchuk (tug‘) osilgan ustun o‘rnatiladi. Shundan so‘ng, uch oy davomida atrofdagi qishloqlar aholisi mozorga ziyorat qilish uchun tashrif buyurishgan. “Qizil atirgul bayrami” o‘tkazilgan mozorlar tashkilotchilari bilan oilaviy aloqalari tufayli ushbu nomga ega bo‘lgandir deya taxmin qilish mumkin[11,B.66]. Guli surx bayrami haqida



A. X. Xamraev, O. A. Suxareva va G. P. Snesevlar o'z tadqiqotlarida ma'lumot berishgan.

Qo'bodiyon bekligi Beshkent vohasiga jon baxsh etgan Chiluchor'chashma bulog'i bor edi. Buluq yonida Xo'ja oilalari imom sifatida istiqomat qilganlar. XX asr boshlarida 60 ga yaqin xo'jalik bo'lgan, shundan 8 tasi "miyon" guruhiga kirgan. Tojik tilida miyon so'zi ma'nosi "o'rta" demakdir. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bu nom Muhammad (s.a.v.) payg'ambar bilan bog'liq bo'lsa, yana ba'zi bir fikrlarga ko'ra, bu xalifa Umardan kelib chiqqanligi bilan bog'liq. Boshqalarning fikriga ko'ra, bu guruh o'z nasl-nasabi bilan Umardan to'g'ridan-to'g'ri, Alidan esa yon chiziq bo'ylab izlab, Sayyidlar va Xo'jalar o'rtasida oraliq mavqeni egallagan. Miyonlarning Qo'qon xonligidagi yuksak mavqei haqida Ch.Valixonov xabar bergan. Darhaqiqat, Chiluchor'chashma miyonlari nasliy vaqf sifatida bu buluqning suviga egalik qilgan. Ko'rinib turibdiki, buluq suvi bilan sug'oriladigan dalalardan ularning foydasiga soliq to'langan. Shuningdek, ular ko'plab ziyoratchilardan qurbonliklar shaklida katta daromad olishgan.

Boysun shahri yaqinida joylashgan Avlod qishlog'ining xo'jalari Muhammad s.a.v.ning afsonaviy nabirasi Zaynabiddinning avlodlari deb ishonilgan. Ular orasida eshonlar ham mavjud bo'lgan. Butun Boysun va unga qo'shni hududlarda yashovchi tog'chilar ushbu eshonlarning muridlari hisoblangan. Poshxurd vodiysining janubida va Denov shahri chekkasida Qoraxon deb nomlangan bir qancha qishloqlar qayd etilgan. B.X.Karmishevaga ko'ra, yuqoridagi qishloqlarda Qoraxoniylar deb atalgan Xo'jalar yashagan. Zarafshon vodiysi toponimlari orasida Qoraxoniylar yoki Qoraxon nomi ham uchraydi. U yerda Xo'ja nomi Qoraxoniylar oilasi bilan ham bog'liq. Ko'rsatilgan nomdagi qishloqlarning aholisi ushbu oilaga tegishli edi. O'zbek folklorshunosi Muzayana Alyaviya ma'lum qilishicha, qoraxoniylar oilasi o'zini "avliyo" Qoraxonning avlodlari deb hisoblagan. Xalq orasida "Avliyo ota" nomi bilan mashhur bo'lgan insonning mozori Jambul shahrida

joylashgan. Hozirda bu shahar Avliyoota deb atalgan. Ularning afsonaviy nasl-nasabiga ko'ra, bu avliyo Alining oltinchi avlodi bo'lgan[5,B.149].

Ko'pchilik xo'ja oilalari o'z otabobolarini Samarqand yaqinidagi Daxbid qishlog'idan kelgan deb hisoblashgan. Bu qishloqda Farg'onaning Kasli qishlog'idan bo'lgan mashhur shayx Maxdum A'zamning (1542-yilda vafot etgan) avlodlari hisoblangan yirik eshonlar oilasi istiqomat qilgan. Shuningdek, Xo'valing, Qoratog', Dashnavod va boshqa joylardagi xo'jalar Daxbiddan kelgan deb qaralgan. Qatarning Lyuchchak qishlog'i xo'jalari o'z ajdodlarini Xo'valingdan ko'chib kelgan deb hisoblashgan, demak, ular ham o'zlarini Maxdumi A'zam avlodlari qatorida sanashgan. Mahalliy aholi xo'jalarni ikki qismga bo'lishgan. Bular "murid ovlagan" va "murid ovlamagan" guruhlari edi. Birinchisi so'fiylik tariqatiga mansub bo'lib, ular orasidan so'fiy jamoalarining rahbarlari – eshonlar chiqqan. Hudud aholisining fikriga ko'ra, eshonlar asosan sayyidlar va miyonlardan bo'lgan.

V.V.Bartold ko'chmanchilarga kitobiy islom ilmidan ko'ra turli tasavvufiy ta'limotlarning ta'siri kuchli bo'lganligini, shuning uchun so'fiy jamoalari o'z xonaqohlarini asosan dashtga bevosita tutash hududlarda qurganligini ko'p bora keltirgan[3,B.675]. Bunday hududlar sifatida Xorazm, Buxoro va o'rta Sirdaryo, Termiz va Chag'oniyonni keltirish mumkin. Xaqqiqatan ham, XX asr boshlarida ko'plab eshon oilalari mavjud bo'lib, ularning mingtagacha muridlari bo'lgan. Yuqorida zikr etilgan Omonxona, Sallibod va boshqa hududlarning sayyidlaridan tashqari, Sayrob, Zarabog', Qoratog', Hisor, Rohati, Pistmazor, Nilkon, Xo'valing va boshqa bir qator joylarning sayyid va xo'jalari orasida eshonlar ham bo'lgan. O'tmishda har bir o'zbek qabilasining yarim ko'chmanchi guruhlari ma'lum bir urug'dan bo'lgan eshonlarning nasliy muridlari bo'lganligi ma'lumdir. Bu esa pirdosh, ya'ni bir urug'dan bo'lgan eshonlarning muridlari degan nom olib kelgan.

V.L.Vyatkin ta'kidlaganidek, xuddi O'rta Osiyo hukmdorlari sulolasi obro'-

e'tibori uchun o'z nasl-nasablarini Chingizxonga bog'lashganidek, eshonlar urug'lari o'z kelib chiqishini xalifalik davriga bog'liq ekanligini ilgari surganlar. So'fiylar jamoasining yetakchiligi odatda otadan o'g'ilga o'tgan[3,C.96]. B.X.Karmisheva Surxon vohasi aholisi ma'lum bir eshon urug'iga murid tushganligi sababini bilolmagan. O'rta Osiyoda Sayyid va Xo'ja tabaqalarining genezisi muammosi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bir qator murakkab masalalar alohida o'rganishni taqozo etadi.

Janubiy O'zbekiston mintaqasida xo'jalar va sayyidlar o'troq turg'un aholining yirik vakillaridir. O'zbek-xo'jalar Poshxurd vodiysida Zarabog', Poshxurd, Qorabog', Sharjon, Vandob va Qumqo'rg'on rayonida Jaloir, Taktugay va Surxonning chap qirg'og'idagi Xo'ja nomli qishloqlarda joylashganlar. Shuningdek, ular Termiz yaqinidagi Sallibod qishlog'ida chig'atoylar bilan birga yashaydilar. Ular B.X.Karmishevaning ma'lumotlariga qaraganda Omonxona va Xomokonda, Denov shahri va uning atrofidagi Xo'jaipok, Dashnobod kabi qishloqlarida istiqomat qilib kelganlar. Tojik tilli xo'jalar esa Sherobod vohasidagi Sayrob qishlog'i, Boysun va uning

atrofidagi Shayit, Passurxi, Sariosiyo va Avlod qishloqlarida o'zbeklar bilan birgalikda va shuningdek, yuqori Surxonda Luchchak, Katar va Langar qishloqlarida yashaydilar[9,B.46].

Boysun bekligining aholisi 6 ta tartuli va 3 ta chig'atoy urug'idan iborat ekanligi aytilgan. Chig'atoylarning uch urug'i tojiklar-chag'atoylar, xo'jalar va o'zbeklar-tog'chilar deb tushunilgan. Sayrob nomi bilan bog'liq bo'lgan ikki qishloq aholisini xo'jalar va eshonlar tashkil etgan. Qorabog'ning Daxparakent qishlog'ida turli urug'ga mansub 15 ta guruh istiqomat qilgan. Shular orasida toshkentlik eshon avlodlari mavjud bo'lib, ular dastlab Buxoroga, so'ngra Qorabog'ga ko'chib kelganlar. Shuningdek, kalxo'jalar - "taqir xo'jalar" nomli guruh ham mavjudligi qayd etilgan. B.X.Karmisheva tojik va o'zbekzabon chig'atoylarning shakllanish yo'llari bilan tojik va o'zbekzabon xo'jalarining o'ziga xos tabaqa-etnik guruhining shakllanish jarayoni bir xil bo'lgan deb hisoblagan. Xulosa qilib, ushbu ijtimoiy tabaqaviy guruhlar tarixi ancha qadimga borib taqalishi, ularning jamiyatda kata hurmat va imtiyozlarga ega bo'lganligini hamda hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligiga e'tiborga molikdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абашин С.Н. Суфизм в Средней Азии: точка зрения этнографа // Вестник Евразии. №4, Москва, 2001 - С. 127.
2. Бартольд В. В. Ишан. Сочинения, т. VI, Москва: Наука, 1966 - С. 675.
3. Вяткин В. Л. Шейхи Джуибари, «В. В. Бартольду», Ташкент, 1927 - С. 96.
4. Кармышева Б.Х. О мусульманском духовенстве в сельских районах бухарского ханства в конце XIX— начале XX века. – Москва, 1978 - С. 100.
5. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976 - С. 64, 100, 149.
6. Мирзаев Ж.З. Сурхондарё элатлари: ўрганилиш муаммолари ва истикболлари. “Бойсун баҳори” очик фолклор фестивалини Жаҳон цивилизациясидаги Бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти” мавзусидаги Халқаро илмий конференцияси мақолалар тўплами.–Тошкент:Янги нашр, 2019 - В. 77.
7. Мирзаев Ж.З. Термиз саййидлари. –Тошкент, 2018 - Б. 45.
8. Маликов А.М. Ходжи Южного Казахстана: история и идентичность. 2014 - С. 37.
9. Қаямов А. XX аср бошларида Ўзбекистон худудида этник ҳолат .– Тошкент.: Адабиёт учкунлари, 2015 - Б.45-46.
10. Резван Е. Ходжа // Ислам. Энциклопедический словарь. Москва: Наука, 1991 - С. 37.

11. Сухарева О. А. Ислам в Узбекистане, Издательство академии наук. Ташкент, 1960 - С. 66.

12. Турсунов С., Пардаев Т., Курбонов А., Турсунов Н. Ўзбекистон тарихи ва маданияти-сурхондарё этнографияси. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти –Тошкент, 2006 - Б.37.

## МУНДАРИЖА

### TARIX

**Турсунов Сайпулла Нарзуллаевич**, Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси мудири Турон Фанлар академияси академиги, тарих фанлари доктори, профессор. Устозлардан ўрнак олиб-устозга айланган комил инсон хотирасига .....3

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, Buxoro davlat universiteti professori, Jamshid Arziqulov, Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi. Turkiston tub joy aholi vakillarining umumrossiya va xalqaro yarmarkalardagi ishtiroki (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) .....6

**Мустафоқулов Рўзиқул Бойназарович**, Термиз давлат университети ижтимоий фанлар факултети бошлангич таълим кафедраси доценти, филология фанлари номзоди, Сайфиддинова Нафосат, Термиз давлат педагогика институти талабаси. Абдуназар баҳши Поёнов (1954-2022) (Абдуназар Баҳшининг 70 йиллиги олдида) .....11

**Якубов Ўткир Шермаатович**, Термиз давлат педагогика институти доценти, география фанлари номзоди, Мустафоқулов Шерали Зулфиқорович, Термиз давлат педагогика институти магистранти. Демографик жараёнларнинг илмий назарий асослари ва амалий аҳамияти .....18

**Хўшбоқов Панжи Шойманович**, Термиз давлат педагогика институти доценти, тарих фанлари номзоди. Ўзбекистоннинг тўқимачилик саноатидаги давлат сиёсати, инвестиция дастурлари ва уларни ривожлантиришида давлатнинг роли .....22

**Abulakimova Diljaxon Boltayevna**, Termiz davlat universiteti Akademik litseyi o'qituvchisi, Abduqayumov Asror Raimovich, Termiz davlat univursiteti Arxeologiya kafedراسи mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent. Toxariston hududidagi ilk o'rta asrlar davri yodgorliklaridagi arxeologik tadqiqotlar tarixidan .....26

**Абдуқаюмов Асрор Раимович**, Термиз давлат университетини Археология кафедраси мудири, тарих фанлари номзоди, доцент. Ибтидоий давр тарихи ҳақидаги билимларнинг ривожланишига доир .....29

**Kadirova Yakitjan Buvabayevna**, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti. Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida madaniyat muassasalarining faoliyati....34

**Sarvinov Omonova**, Qarshi davlat unversiteti dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori. Chim ustida xokkey sport bo'yicha "Andijanka" jamoasi faoliyati .....38

**Каноатова Феруза Бобоқуловна**, Доцент кафедрасы истории Шахрисабзского государственного педагогического института. Роль ассоциации «женщины-предприниматели» в поддержке женского предпринимательства в республике узбекистан .....42

**Umarov Jamshid Saidmuratovich**, Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedراسи tadqiqotchisi, Pegagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxondaryoda taorif tizimi .....49

- Дадамирзаева Гулчехра Абдунабиевна**, Наманган давлат университети Тарих кафедраси доценти, PhD. Ўзбекистонда ногиронлар артеллари тарихи .....54
- Хидиров Холмамат Джўраевич**, Термиз педогогика институтининг ўзбекистон тарихи ва уни ўқитиш методикаси кафедраси ўқитувчиси (PhD) доцент. Жанубий вилоятларда транспорт логистика ва коммуникация тизимида транспорт ҳамда йўл қурилишининг аҳамияти ....59
- Мамаражабов Ғайрат Абдулҳакимович**, Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси доценти в.б., тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). Сурхон воҳаси хунармандчилигида қурувчилик соҳасининг анъанавий хусусиятлари .....64
- Karimov Kaxramon Sadikovich**. *Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Turkistonda qozilarning yer-mulk ishlariga oid meyo‘riy talablar tarixidan* .....67
- Ergasheva Sayyora Abdusoatovna**, Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi. 1950-1980 yillarda Surxondaryo viloyati hunarmandchilik artellari xodimlarining ijtimoiy ahvoli va sohani mutaxassislar bilan ta‘minlash .....70
- Hotamov Abduvohid Boboxonovich**, Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi Denov tuman adliya bo‘limi Denov tuman yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti. Markaz sovet kishilarini kommunistik ruhda tarbiyalashda madaniyat muassasalariga tayandi .....75
- Suyunov is the son of Ilyas Juma**. *An employee of the Internal Affairs Department of Surkhandarya region, a free seeker. Terrorism and its Manifestations* .....80
- Zoir Axmedov**, Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi. Global iqlim o‘zgarish davrida yosh avlodni ona tabiatga mehr muhabbat ruhida tarbiyalashda keksa avlod vakillarining tutgan o‘rni .....83
- Нурбек Бегалиев**, Шаҳрисабз педагогика институтининг тарих кафедраси ўқитувчиси. Бухоро – Қариш савдо йўлида жойлашган сардобалар .....88
- Толибов Нурбек Абдигаппорович**, Шаҳрисабз педагогика институтининг тарих кафедраси ўқитувчиси. Ўрта Осиё географик тадқиқотлар тарихи (1939-1945 йиллар) .....91
- Shukurov Sobir**, Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasida o‘qituvchisi. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi tarixidan (Qozog‘iston misolida) .....95
- Жумаев Бекзод**, Термиз давлат университети эркин тадқиқотчиси. Коммунистик мафкуранинг атеистик тарғибот тизимининг характери ва унинг миллий ўлкалардаги хусусияти .....99
- Олламуродов Нурали**, Денов тадбиркорлик ва педагогика институтининг ўқитувчиси. Қишлоқ аҳолисининг ижтимоий турмуш даражаси .....103
- Yo‘ldosheva Zubayda Hamidovna**, Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi. Mustaqillik yillarida Surxondaryo matbuoti: gazetalar tasnifi .....108
- Tojiyev Jasur**, Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi. Buxoro amirligining Boysun, Denov va Sherobod bekliklarida boshlang‘ich ta‘lim tizimi .....112



## ETNOGRAFIYA

**Барно Мамажоновна Убайдуллаева**, Ўзбекистон Миллий университети “Антропология ва этнология” кафедраси доценти, тарих фанлари доктори. Франц Боас ва тарихийлик мактаби .....116

**Очил Бўриев**, Қариши давлат университети профессори, Муртоз Усмонов, Қариши давлат университети доценти. Қадимги шарқ тарихий маноқиблари Қашқадарё воҳаси аҳолиси этнографиясини ўрганишида муҳим манба сифатида .....123

**Абуллаева Насибaxon Арабовна**, Андижон давлат педагогика институти Ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). Капиталиликда рамзлар семантикаси .....126

**Dulanov Otabek Yuldashevich**, Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b.dotsent. O'zbek etnik muhitida yuzlarning alohida o'rni va ahamiyati .....137

**Аҳмедов Сардор Сайридин ўғли**, Термиз давлат университети жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчиси, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). Воҳа тожиклари хўжалик ҳаётида чорвачилик ва деҳқончилик кўникмаларининг жадаллашуви .....141

**Qarshiyev Islom Maxmarahim o'g'li**, Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida dotsenti v.b., Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). O'tov .....145

**To'rayev Sherzod Gulboy o'g'li**, Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti. B.X.Karmisheva talqinida surxon vohasi “xo'jalar”i etnik tavsifi .....149



СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ҲУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР  
ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ЦЕНТРА РЕГИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ТРАНСФЕРА  
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЦЕНТРА РАЗВИТИЯ НАУКИ И  
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИ

SURKHANDARYA REGIONAL TERRITORIAL INNOVATION ACTIVITY AND TECHNOLOGY  
TRANSFER AND SURKHANDARYO SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE AND  
TECHNOLOGY DEVELOPMENT CENTER

*Илм келажасимиз равнақидир*

СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР  
SURKHANDARYO: ILM VA TAFAKKUR  
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ  
SURKHANDARYA: SCIENCE AND  
CONTEMPLATION

*Илмий мақолалар журнали*

N-1 2024



# «СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР» ЖУРНАЛИДА ЧОП ЭТИЛАДИГАН МАҚОЛАЛАРГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

“SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR” JURNALI TAHRIRIYATIDAN

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnali yiliga 4 marta (har chorakda) nashr qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi (OAK)ning 2021 yil 12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati asosida ro‘yxatga olingan. Jurnal “Tarix” ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jurnalda o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi maqolalar nashr etiladi. Maqolalar quyidagi tartibda qabul qilinadi: maqola hajmi 6 sahifadan kam bo‘lmasligi lozim. Maqola tahririyatga Times New Roman shrifti, 14 o‘lchovda, 1,5 qator oralig‘ida, chap tomondan 3 sm, qolgan tomonlardan 2 sm qoldirilgan holatda A4 formatli standart qog‘ozda Word 2000-2023 dasturi, doc yoki docx formatida [tursunovsafullo12@mail.ru](mailto:tursunovsafullo12@mail.ru) elektron pochta manzili hamda +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55 raqamli telegram sahifalari orqali qabul qilinadi.

Maqolaga tegishli fan sohasi bo‘yicha fan doktori, professor, fan nomzodi, dotsent yoki tegishli fan bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo‘lgan xodimning taqrizi talab qilinadi (Ilova tariqasida maqolaga yozilgan taqrizning imzolangan nusxasi rangli holatda, skanerlangan variantda yuborilishi kerak).

Maqolani rasmiylashtirilganda, dastlab yuqori chap tomondan UO‘K (UDK) qaydi, bir oraliqdan so‘ng bosh harflarda maqola mavzusi, keyingi satrda muallif(lar)ning ismi, sharifi, otasining ismi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, ish joyi va lavozimi to‘liq, o‘zbek, ingliz va rus tillarida yoziladi. Keyin o‘zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiya va kalit so‘zlar keltiriladi. Matnda adabiyotlarga havola kvadrat qavslarda ko‘rsatiladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati amaldagi davlat standartlari asosida rasmiylashtiriladi. Maqolalar kirill va lotin alifbosida qabul qilinadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING 2024-YIL 31-YANVARDAGI 24-SON BUYRUG‘IGA BINOAN maqolalar xalqaro IMRAD talablari asosida quyidagi namuna bo‘yicha qabul qilinadi:

NAMUNA

MAVZU (O‘ZBEK, INGLIZ, RUS TILLARIDA)

Qarshiyev Islom Maxmarahim o‘g‘li, ish joyi, lavozimi, ilmiy unvon (o‘zbek, ingliz va rus tillarida), elektron pochta manzili, muallifning ORCID identifikatori, ya‘ni identifikatsiya raqami; maqolaning DOI raqamli obyekt identifikatori (DOI.org platformasidan ro‘yxatdan o‘tganligini tasdiqlovchi identifikator raqami).

Annotatsiya (Abstract / Аннотация): Annotatsiya o‘rtacha 200-250 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim. Agar maqola o‘zbek va rus tilida yozilgan bo‘lsa, Annotatsiyadan keyin, albatta, ingliz tilida ABSTRACT beriladi.

Kalit so‘zlar (Key words / Ключевые слова): Kalit so‘zlar o‘rtacha 8-12 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION) Kirish, kirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar [1] (iqtibos)

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS) Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION) Xulosa, xulosa.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. G‘oziyev.E.G. Umumiy psixologiya –T.: Sharq, 2010. – B. 459.

2. Doniyorov H.T. O‘zbekistonda dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta‘minlash – ijtimoiy barorlikning bosh omili sifatida. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali. Toshkent, 2018 yil - № 2 - B. 57- 61.

3. Buranov S.M. China’s geopolitical role and influence in solving the modern Afghan problem // International conference «Scientific research of the SCO countries: synergy and integration», Beijing, 2020. – P.127-132.

4. Rahmatjonova K. Hindiy va o‘zbek tillaridagi kelishik shakllarida izomorfizm hodisasi // Ilm sarchashmalari. - Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali, №1, 2019 yil. - B.38-40.

5. Pulatova M.R. Handwritten copies of «Arba‘in»works // Indonesian Journal of Education Methods Development. Volume 8, November 2019. – P. 194-196. ISSN: 0738-0593 (№23, SJIF – 5.083).

6. Barduhn, S. (2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. Teaching English, British Council, BBC. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developingcross-cultural-awarenessmonolingual-classroom-0> (adabiyotlar shu tartibda yozilishi lozim)

Maqolada keltirilgan ma‘lumotlarning aniqligi va to‘g‘riligiga mualliflar javob beradi.

Bog‘lanish uchun muallifning telefon raqami, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi shart. Muallifning sifatli fotosuratining elektron shakli taqdim etilishi lozim.

Tahririyat maqolalarni tahrir qilish va qisqartirish huquqiga ega. Talab darajasida rasmiylashtirilmagan maqolalar jurnalda e‘lon qilinmaydi. Maqola mualliflariga tahririyat qo‘lyozmalarini qaytarish va yozma javob berish majburiyatini olmaydi. Maqolani tahrir qilish, nashrga tayyorlash va chop qilishga ketadigan xarajatlarni qoplash uchun \_\_\_ ming so‘m miqdorida badal puli to‘lanadi.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnalining mavjud sonlari bilan nashrning rasmiy sayti <https://surxondaryoilmtafakkur.uz> orqali tanishishingiz va yuklab olishingiz, telegram kanalga <https://t.me/surxondaryoilmtafakkur> havolasi orqali kirishingiz mumkin.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnali bosh muharriri Tursunov Saypulla Narzullayevich.

Tel: +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55